

A. QAYUMOV, I. SAFAROV, M. TILLABOYEVA, V. FEDORKO

GEOGRAFIYA

JAHON IQTISODIY-IJTIMOIIY
GEOGRAFIYASI



O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
umumiy o'rta ta'lim maktablarining
9-sinf o'quvchilari uchun darslik sifatida tavsiya etgan

Qayta ishlangan va to'ldirilgan beshinchi nashri

TOSHKENT – «O'ZBEKISTON» – 2019

UO‘K 33.91(100) (075)

KBK 65.04ya721

Q 33

Taqrizchilar:

Geografiya fanlari nomzodi, dotsent **P. G‘ulomov**,
O‘zbekiston Xalq o‘qituvchisi **X. Inog‘omov**,
Andijon davlat universiteti geografiya kafedrasini mudiri, geografiya
fanlari nomzodi, dotsent **R. Qodirov**,
Toshkent shahar Mirobod tumani 213-maktab o‘qituvchisi **S. Berdiyeva**,
Toshkent shahar Olmazor tumani 278-maktab o‘qituvchisi **M. Avezov**,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ixtisoslashtirilgan maktab-
internati geografiya o‘qituvchisi, Xalq ta‘limi a‘lochisi **J. Ismatov**.

Shartli belgilar:



– Tayanch tushuncha va geografik nomlar



– Savol va topshiriqlar

Q 33

A. Qayumov va boshq. «Geografiya» (Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi).
Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9- sinf o‘quvchilari uchun darslik.
(A. Qayumov, **I. Safarov**, M. Tillaboyeva, V. Fedorko) – T.: «O‘zbekiston»,
2019. – 176 b.

1.2 Hammuallif

UO‘K 33.91(100)(075)

KBK 65.04ya 721

ISBN 978-9943-01-563-0

**Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari
hisobidan chop etildi.**

ISBN 978-9943-01-563-0

© A. Qayumov va boshq. 2002, 2005, 2010, 2014, 2019

© «O‘ZBEKISTON» NMIU, 2002, 2005, 2010, 2014, 2019

KIRISH

Siz quyi sinflarda «Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursi», «Materik va okeanlar tabiiy geografiyasi», «O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tabiiy geografiyasi» hamda «O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi» kurslarida geografiya faniga oid turli ma‘lumotlar bilan tanishib chiqdingiz. 9-sinfda o‘qitiladigan «Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi» kursi jahon iqtisodiyoti, siyosati, ekologiyasi, madaniyatiga, xullas, hayotning deyarli barcha jabhalariga ma‘lum darajada aloqadordir. Mazkur fan o‘quvchilarga jahon va uning ayrim qismlariga xos betakror geografik xususiyatlarni ko‘rsatib berishi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayoni va qonuniyatlari haqida batafsil ma‘lumot berishi bilan ahamiyatlidir.

Darslikning asosiy maqsadi – Siz, aziz o‘quvchilarga jahon va uning yirik mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasiga doir zamonaviy bilim berish, mustaqil bilim olishga va uni amaliyotda qo‘llashga o‘rgatishdan iboratdir.

Darslik ikki — «Jahonning umumiy tavsifi» va «Jahonning regional tavsifi» bo‘limlaridan iborat. Umumiy qismning asosiy vazifalari jahonning siyosiy xaritasi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqidagi umumiy ilmiy tasavvurni shakllantirishdan iborat. Darslik hajmining deyarli 2/3 qismini egallagan regional qismida jahonning yirik mintaqalari – Yevropa, Osiyo, Afrika, Amerika va Avstraliyaning siyosiy xaritasi, tabiiy resurslari, aholisi va iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, barcha qit‘alardagi tayanch, ya‘ni har tomonlama e‘tiborga sazovor davlatlarning geografik tavsiflariga bag‘ishlangan mavzular ham ushbu bo‘limdan joy olgan. Eng katta e‘tibor respublikamiz joylashgan Osiyo qit‘asi mamlakatlariga qaratilgan. Ayrim mamlakatlarning iqtisodiy-geografik tavsifi mazkur fanda qabul qilingan va sinalgan uslubiy yondashuvdan foydalangan holda bajarildi. Bunda, geografik o‘rin, tabiiy sharoit va resurslar, aholi xo‘jalikdagi ahamiyati nuqtayi nazaridan baholanadi.

Darslikni yozishda mualliflar Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Banki, xorijiy davlatlar statistik boshqarmalarining rasmiy ma‘lumotlari, Rossiya Federatsiyasi, AQSH, Yevropa mamlakatlarida nashr etilgan ma‘lumotnomalar, statistik to‘plamlar, geografik atlaslar va boshqa ilmiy-uslubiy materiallardan foydalandilar.

I BO‘LIM. JAHONNING UMUMIY TAVSIFI



1-BOB. JAHONNING SIYOSIY XARITASI

1-§. Jahonning siyosiy xaritasi



Siyosiy xarita, davlat, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), eng yirik va «mitti» davlatlar, orol davlatlar, yarimorol davlatlar, ichki kontinental davlatlar, mustaqil davlatlar.

Jahonning siyosiy xaritasida, 2018-yil holatiga ko‘ra, 240 dan ortiq mamlakat bo‘lib, jumladan jahon hamjamiyati tomonidan mustaqilligi rasman tan olingan 194 ta suveren davlat mavjud. Bulardan 193 tasi BMTning faoliyatida a‘zo davlatlar sifatida, 1 tasi (Vatikan) esa kuzatuvchi-davlat bo‘lib ishtirok etmoqda.

Davlatlar bir-biridan turli xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bunday muhim jihatlaridan biri hududning kattaligi hisoblanadi. Jahondagi 29 ta mustaqil davlatning maydoni 1 mln km² dan katta bo‘lib, jumladan 12 tasining hududi 2 mln km² dan, 6 tasining maydoni 5 mln km² dan kattadir. Shu bilan birga dunyodagi davlatlar orasida bir guruh hududiy jihatidan mayda, yoki «mitti» davlatlar ham o‘ziga e‘tibor tortadi (1-jadvalga qarang). Jahonning siyosiy xaritasida maydoni 1 ming km² ga yetmaydigan 24 ta mustaqil davlat bor. Bunday davlatlar turli qit‘alarda, xususan Yevropada (Vatikan, Monako, San-Marino, Lixtenshteyn va boshqalar), Osiyoda (Maldiv Respublikasi, Singapur, Bahrayn), Amerikada (Sent-Kits va Nevis, Grenada, Barbados va boshqalar), Okeaniyada (Nauru, Tuvalu, Marshall orollari va boshqalar) joylashgan.

Davlatlar geografik o‘rni nuqtayi nazaridan, birinchi navbatda, dengizga chiqish imkoniyatiga ega hamda bunday imkoniyati yo‘q davlatlarga bo‘linadi. Dengizga chiqish imkoniyati bor davlatlar orasida esa orol, yarimorol va dengizbo‘yi kontinental davlatlar ajratiladi.

Orol davlatlar qatoriga Indoneziya, Filippin, Yaponiya, Shri-Lanka kabi Osiyo, Buyuk Britaniya, Irlandiya, Islandiya singari Yevropa, Madagaskar,

Kabo-Verde, Komor orollari kabi Afrika, Kuba, Gaiti, Yamayka singari Amerika davlatlari hamda Okeaniyadagi Papua-Yangi Gvineya, Yangi Zelandiya, Fiji va boshqalar kiradi. Saudiya Arabistoni, Ispaniya, Italiya, Norvegiya, Koreya Respublikasi, Vyetnam kabi davlatlarni esa yarimorol davlatlariga misol qilib keltirish mumkin. Dengizbo‘yi kontinental davlatlar esa materiklarning asosiy qismida joylashgan bo‘lib, dengizga chiqish yo‘llariga ega. Bunday davlatlar dunyoda ko‘p (Fransiya, Germaniya, Polsha, Xitoy, Misr, AQSH va h.k.).

1-jadval

Jahonning 10 ta eng yirik va 10 ta eng kichik davlatlari

| № | Davlatlar | Hududi (ming km ²) | № | Davlatlar | Hududi (ming km ²) |
|----|---------------------------|--------------------------------|-----|---------------------|--------------------------------|
| 1 | Rossiya | 17075 | 185 | Malta | 0,32 |
| 2 | Kanada | 9976 | 186 | Maldiv Respublikasi | 0,3 |
| 3 | Xitoy | 9599 | 187 | Sent-Kits va Nevis | 0,26 |
| 4 | Amerika Qo‘shma Shtatlari | 9519,4 | 188 | Marshall orollari | 0,18 |
| 5 | Braziliya | 8515,7 | 189 | Lixtenshteyn | 0,16 |
| 6 | Avstraliya | 7692,0 | 190 | San-Marino | 0,06 |
| 7 | Hindiston | 3287,2 | 191 | Nauru | 0,02 |
| 8 | Argentina | 2780,4 | 192 | Tuvalu | 0,02 |
| 9 | Qozog‘iston | 2724,9 | 193 | Monako | 0,002 |
| 10 | Jazoir | 2381,7 | 194 | Vatikan | 0,0004 |

Dunyo okeani va uning dengizlariga bevosita tutash bo‘lmagan davlatlar ichki kontinental davlatlar guruhini tashkil etadi. Bunday geografik joylashuvga ega davlatlar jahon siyosiy xaritasida 44 ta. O‘zbekiston Respublikasi ham ichki kontinental davlat hisoblanadi.

Jahonning hozirgi siyosiy xaritasi turli tarixiy jarayonlar ta’sirida shakllangan. Ayniqsa, Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari, mustamlaka tizimining yemirilishi, sotsialistik tuzumning barham topishi kabi jarayonlar alohida e’tiborga loyiqdir. Ushbu tarixiy voqealar ta’sirida XX va XXI asrlar mobaynida dunyoda mustaqil davlatlar soni muttasil o‘sib keldi (2-jadval).

Jahon va qit'alarda mustaqil davlatlar sonining o'zgarib borishi

| Hudud | Mustaqil davlatlar soni | | | | |
|------------------------|-------------------------|---------|---------|---------|---------|
| | 1900-y. | 1945-y. | 1990-y. | 2000-y. | 2018-y. |
| Yevropa | 24 | 31 | 33 | 43 | 44 |
| Osiyo | 9 | 18 | 40 | 47 | 48 |
| Afrika | 4 | 3 | 52 | 53 | 54 |
| Amerika | 20 | 22 | 35 | 35 | 35 |
| Avstraliya va Okeaniya | 0 | 2 | 12 | 13 | 13 |
| Jahon | 57 | 76 | 172 | 191 | 194 |

Jahonning siyosiy xaritasida so'nggi davrda eng katta o'zgarishlarni keltirib chiqargan tarixiy voqea 1991-yilda sobiq Sovet Ittifoqining parchalanishi bo'ldi. Buning natijasida 15 ta yangi mustaqil davlat vujudga keldi: Rossiya, Ukraina, Belarus, Moldova, Litva, Latviya, Estoniya, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston.

Yevropada 1991–1992-yillarda Yugoslaviyaning parchalanishi natijasida Sloveniya, Xorvatiya, Bosniya va Gersegovina hamda Makedoniya (2019-yildan boshlab Shimoliy Makedoniya deb nomlanadi) mustaqil bo'ldi. Yugoslaviya tarkibida o'shanda faqat Serbiya bilan Chernogoriya qoldi. 2006-yilda esa Chernogoriya Serbiyadan ajralib, mustaqil davlatga aylandi.

1993-yil 1-yanvardan Chexoslovakiya davlati o'rnida Chexiya va Slovakiya mustaqil respublikalari barpo bo'ldi.

Jahon siyosiy xaritasidagi bu o'zgarishlar xalqaro sotsialistik tuzumining barham topishi bilan bog'liq. Shuningdek, ushbu jarayon bilan bog'liq ravishda 1990-yilda Yevropada ikki nemis davlati (Germaniya Federativ Respublikasi va Germaniya Demokratik Respublikasi) qo'shilishi natijasida yagona Germaniya Federativ Respublikasi, Osiyoda esa Yaman Arab Respublikasi va Yaman Xalq Demokratik Respublikasi birlashishi hisobiga yagona Yaman Respublikasi tashkil etildi.

Boshqa siyosiy jarayonlar ta'sirida ham jahonning siyosiy xaritasida yangi suveren davlatlar paydo bo'lishi davom etdi. Afrikada 1993-yilda ko'p yillik urush natijasida Eritreya Efiopiya tarkibidan ajralib, suve-

ren davlat maqomiga ega bo'ldi. Okeaniyada 1994-yilda Palau davlati AQSHning nazorati ostidagi hududdan mustaqil davlatga aylandi. Janubi-sharqiy Osiyoda 2002-yilda Sharqiy Timor mustaqil davlatlar qatorini to'ldirdi. Afrika qit'asida 2011-yil 9-iyulda referendum natijalariga ko'ra, Sudan tarkibidan Janubiy Sudan davlati ajralib chiqdi.



1. Jahonning siyosiy xaritasidagi XX va XXI asrlar davomida ro'y bergan o'zgarishlar asosan qanday tarixiy voqea va jarayonlar bilan bog'liq bo'ldi?
2. Sovet Ittifoqi parchalanishi natijasida qaysi davlatlar mustaqillikka erishdi?
3. Atlasdagi jahonning siyosiy xaritasi yordamida bitta katta orolda hamda yirik orollar guruhlarida joylashgan davlatlarni aniqlang.

2-§. Jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi bo'yicha tasnifi



Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, yalpi ichki mahsulot (YIM), rivojlangan mamlakatlar, rivojlanayotgan mamlakatlar, «Katta yettilik» guruhi

Jahon mamlakatlarining eng muhim belgilaridan biri – ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidir. Davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligini baholash uchun bir qancha mezonlar qo'llaniladi. Bu mezonlardan asosiylari:

– yalpi ichki mahsulot (YIM)ning umumiy va aholi jon boshiga nisbatan hajmi;

– milliy iqtisodiyotning tarmoqlar tarkibi;

– eksportning tovar tarkibi hamda mamlakatning xalqaro ixtisoslashuvi;

– turli ko'rsatkichlar bilan belgilanadigan aholining turmush darajasi.

Jahon mamlakatlari ushbu mezonlar asosida BMT tomonidan 3 ta yirik blokka bo'linadi: *rivojlangan, rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlar.*

Rivojlangan mamlakatlar qatoriga, odatda Yevropadagi ko'plab davlatlar (Sharqiy Yevropadan tashqari), AQSH, Kanada, Yaponiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Isroil va Janubiy Afrika Respublikasi kabi davlatlar kiritiladi. Shu bilan birga oxirgi yillarda Koreya Respublikasi va Singapur ham rivojlangan mamlakatlar sifatida e'tirof etilmoqda. Rivojlangan

mamlakatlar YIMning aholi jon boshiga hajmi 25 000 AQSH dollaridan ortiqligi, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan qayta ishlash sanoatining yuqori darajada rivojlanganligi, eksport tarkibida tayyor mahsulotlar yetakchilik qilishi, aholining salomatlik va ma'lumotlilik darajasi yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Rivojlangan mamlakatlar orasida ulkan iqtisodiy salohiyati va ishlab chiqarish hajmi bilan «*Katta yettilik*» guruhini tashkil etuvchi davlatlar alohida ajralib turadi. Ushbu guruhga AQSH, Kanada, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya hamda Italiya kiradi. Bu mamlakatlar xalqaro iqtisodiy va siyosiy munosabatlar tizimida muhim o'rin tutadilar.

Yevropadagi Avstriya, Belgiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Norvegiya, Shvetsiya, Finlandiya, Shveysariya va boshqa bir qator «*Katta yettilik*»ka kirmaydigan davlatlar *kichik rivojlangan davlatlar* guruhini tashkil qiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tizimi turli davrlarda Yevropadan ko'chib kelgan aholi tomonidan shakllantirilgan va hozirgi kunda rivojlanishning yuqori ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadigan Avstraliya, Yangi Zelandiya, Isroil, JAR singari davlatlar «*ko'chirilgan*» kapitalizm mamlakatlari guruhi sifatida ajratiladi.

Osiyo, Afrika, Amerika hamda Okeaniyaning aksariyat davlatlari rivojlanayotgan mamlakatlar blokiga kiritiladi. Jahon aholisining eng katta qismi (2018-yil ma'lumotlariga ko'ra, 6 mlrd kishi) yashaydigan bu davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va xususiyatlari bilan bir-biridan ancha farq qiladi. Shuning uchun ham rivojlanayotgan mamlakatlar bir nechta guruhlarga bo'linadi. Jumladan, ulkan tabiiy-resurs, demografik va iqtisodiy salohiyatga ega Xitoy, Hindiston, Braziliya va Meksika *tayanch rivojlanayotgan mamlakatlar* guruhini tashkil qiladi.

Saudiya Arabistoni, BAA, Kuvayt, Qatar, Bahrayn, Ummon, Bruney kabi Osiyo davlatlari *neftni eksport qiluvchi mamlakatlar* guruhi tarkibiga kiritiladi. Bu mamlakatlarda YIMning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan hajmi ancha yuqori (masalan, 2017-yil holatiga ko'ra, Qatar bu ko'rsatkich boyicha jahonda 1-o'rinni egallagan – 124 740 AQSH doll.), lekin ularning iqtisodiyoti xomashyo resurslariga asoslanganligi sababli, bu davlatlar rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiritilmaydi.

Tabiiy resurslarning xilma-xil va katta zaxiralari, ulkan aholi va mehnat resurslari salohiyatiga ega bo'lgan, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarida yuqori natijalarga erishayotgan Turkiya, Eron, Pokiston, Indoneziya, Argentina va boshqa davlatlardan iborat *yirik industrial-agrar mamlakatlar* guruhi shakllanmoqda.

Karib dengizi va Okeaniyadagi ayrim orol mamlakatlar *xalqaro turizmga ixtisoslashgan* bo'lib, aholi turmush darajasining nisbatan yuqori ko'rsatkichlari bilan ajralib turuvchi rivojlanayotgan mamlakatlarning alohida guruhini tashkil etadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar ichida eng og'ir ijtimoiy-iqtisodiy holat *eng sust rivojlangan mamlakatlar* guruhiga xos. Bu guruh tarkibiga BMT tomonidan hozirgi vaqtda 48 ta davlat kiritilgan bo'lib, ularning 34 tasi Afrikada, 9 tasi Osiyoda, 4 tasi Okeaniyada, 1 tasi Amerikada joylashgan.

Sobiq Ittifoq respublikalari, 1990-yillargacha sotsialistik tuzum asosida rivojlangan, keyinchalik esa undan voz kechgan Sharqiy Yevropa davlatlari (Polsha, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Bolgariya va b.) hamda Mongoliya BMT tomonidan alohida *o'tish iqtisodiyotidagi davlatlar* blokiga birlashtiriladi. O'zbekiston ham o'tish iqtisodiyotidagi davlatlardan biri hisoblanadi.



1. Jahon mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi qanday mezonlar asosida baholanadi?
2. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarning qanday guruhlari ajratiladi?
3. «Katta yettilik» davlatlari, «ko'chirilgan» kapitalizm mamlakatlari hamda tayanch rivojlanayotgan mamlakatlar va ularning poytaxtlarini yozuvsiz xaritada belgilang.

3-§. Mamlakatlarning boshqaruv shakli va davlat tuzilishi



Boshqaruv shakli, respublika, prezidentlik respublika, parlamentar respublika, monarxiya, konstitutsion monarxiya, mutlaq monarxiya, davlat tuzilishi, unitar davlat, federativ davlat

Siyosiy boshqaruvning ikki asosiy – *respublika* va *monarxiya* shakli ajratiladi. Ma'lumki, bu ikkita boshqaruv shakli, birinchi navbatda, oliy davlat hokimiyatini shakllantirish va uzatish usullari bilan farqlanadi.

Respublika shakli Qadimgi Rim davridan ma'lum bo'lsa ham, uning keng tarqalishi XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. 2018-yil holatiga ko'ra, jahonning siyosiy xaritasida 150 ta respublika davlatlari mavjud. Respublikalar asosan 3 ta turga bo'linadi: *prezidentlik*, *parlamentar* hamda *aralash*. Prezidentlik respublikalarida hokimiyatning asosiy vakolatlari prezidentga tegishli bo'lib, hukumat (vazirlar mahkamasi) tarkibi davlat rahbari tomonidan shakllantiriladi. Ba'zi davlatlarda prezident bir vaqtning o'zida davlat va hukumat rahbari lavozimlarini egallaydi. Prezidentlik respublikalariga AQSH, Meksika, Braziliya, Argentina, Indoneziya, Afg'oniston, Belarus, Qozog'iston, O'zbekiston kabi mamlakatlar misol bo'la oladi. Prezidentlik respublikasi shakli eng ko'p Afrika va Amerika qit'alarida tarqalgan.

Parlamentar respublikalarda hukumat tarkibi parlament saylovlari natijalari asosida siyosiy partiyalar tomonidan shakllantiriladi, prezidentning funksiyalari esa cheklangan bo'ladi. Germaniya, Avstriya, Italiya, Bolgariya, Latviya, Estoniya, Gretsiya, Isroil, Hindiston, Janubiy Afrika Respublikasi va boshqalar ana shunday davlatlar sirasiga kiradi (ilovaga qarang). Parlamentar respublikalar ko'proq Yevropada joylashgan.

Aralash respublikalarda esa prezident va parlament birgalikda hukumat tarkibini shakllantiradi va uning faoliyatini nazorat qiladi. Bunday respublikalar qatoriga Rossiya, Portugaliya, Ukraina, Xorvatiya, Fransiya, Jazoir, Misr va boshqa mamlakatlar mansub.

Hozirgi vaqtda dunyoda 44 ta monarxiya davlatlari mavjud bo'lib, ular *konstitutsion* va *mutlaq monarxiyalarga* bo'linadi (1-rasm). Konstitutsion monarxiyalarda davlat rahbari (qirol, amir, knyaz va h.k.)ning siyosiy vakolatlari ma'lum darajada cheklangan bo'lib, davlat boshqaruvida parlament va hukumatning o'rni muhim hisoblanadi. Mutlaq monarxiya boshqaruv shakliga ega bo'lgan davlatlarda esa monarxning vakolatlari cheklanmagan bo'ladi.

Hozirgi kunda monarxiya davlatlarining aksariyati (39 tasi) konstitutsion monarxiyalar hisoblanadi. Bunday davlatlardan 11 tasi Yevropada, 9 tasi Osiyoda, 3 tasi Afrikada, 10 tasi Amerikada, 6 tasi Avstraliya va Okeaniyada joylashgan. Konstitutsion monarxiyalardan 15 tasi *Britaniya Hamdo'stligi qirolliklari* bo'lib, ularda rasmiy ravishda davlat rahbari Buyuk Britaniya monarxi (qirol yoki qirolicha) hisoblanib, amalda bu

davlatlarning siyosiy tizimida asosiy rolni bosh vazir o‘ynaydi. Ushbu toifadagi davlatlarga Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Papua-Yangi Gvineya va boshqalar kiradi.



1-rasm. Ayrim davlatlarning monarxlari (chapdan o‘ngga): Daniya qirolchasi Margrete II, Lesoto qirolu Letsiye III, Ummon sultoni Qobus.

Mutlaq monarxiyalarning umumiy soni 5 ta bo‘lib, ulardan 4 tasi Osiyoda (Saudiya Arabistoni, Ummon, Qatar, Bruney), 1 tasi Yevropada (Vatikan) joylashgan. Saudiya Arabistoni hamda Vatikan davlatlari *mutlaq teokratik monarxiyalar* hisoblanadi, chunki bu ikki davlatda monarx diniy rahbar vazifasini ham bajaradi.

Ma’muriy-hududiy tizimi (davlat tuzilishi shakli) jihatidan jahon mamlakatlari ikki turga, ya’ni *unitar va federativ* davlatlarga bo‘linadi. Unitar davlatlarda butun mamlakat hududida yagona qonunchilik tizimi amal qiladi, siyosiy boshqaruv esa markazlashgan holda amalga oshiriladi. Jahon mamlakatlarning aksariyati (166 tasi) unitar davlat hisoblanadi.

Davlat tuzilishining birmuncha murakkab shakli – bu federatsiyadir. Bunday davlatlarda qonunchilik, ijro va sud hokimiyati markaziy (federal) hamda hududiy (shtatlar, provinsiyalar, respublikalar va boshqalar doirasida) darajalardan tashkil topadi. Federativ davlatlarning soni, 2018-yil holatiga ko‘ra, 28 ta bo‘lib, shu jumladan, Yevropada 6 ta, Osiyoda 7 ta, Afrikada 6 ta, Amerikada 7 ta hamda Avstraliya va Okeaniyada 2 ta federatsiyalar joylashgan.

Federativ davlatlarni barpo etishda ularning tarixiy rivojlanganlik xususiyatlari (AQSH, Germaniya, Avstriya, BAA va b.), hududining benihoya kattaligi (Kanada, Avstraliya, Braziliya) yoki sochilib ketganligi (Mikroneziya Federativ shtatlari, Komor orollari va b.), aholisining ko‘p millatlilik

(Hindiston, Nigeriya, Bosniya va Gersegovina kabi), shuningdek boshqa sabablar hisobga olingan.

Hozirgi davrda ham ayrim davlatlarda boshqaruv va davlat tuzilishi shaklini o'zgartirish holatlari uchraydi. Masalan, 2008-yilda Nepalda monarxiyadan voz kechilib, respublika boshqaruv shakliga o'tildi, 2017-yilda Turkiya esa parlamentar respublikadan prezidentlik respublikasiga aylandi. Shuningdek, so'nggi yillarda federativ davlatlar safi Iroq, Nepal, Sudan, Janubiy Sudan hisobiga ko'paydi.



1. Prezidentlik va parlamentar respublikalarning asosiy farqini izohlang. Respublikalarning turli tiplari qaysi qit'alarda ko'proq tarqalgan?
2. Federativ shakldagi davlat tuzilishi qanday omillar ta'sirida shakllanadi?
3. Ilovadagi ma'lumotlardan foydalanib, daftarda Yevropa va Osiyodagi monarxiya davlatlari ro'yxatini tuzing.



2-BOB. JAHON TABIIY RESURSLARI

4-§. Dunyoning tabiiy resurslari



Tabiiy resurslar, tugamaydigan va tugaydigan tabiiy resurslar, tiklanadigan va tiklanmaydigan tabiiy resurslar, tabiiy resurslarning hududiy birikmasi, resurslar bilan ta'minlanganlik

Insoniyat o'z hayoti va ijtimoiy faoliyati davomida turli xil tabiiy boyliklar (resurslar)dan foydalanadi. *Tabiiy resurslar* deb, inson hayoti va faoliyati davomida bevosita foydalaniladigan barcha turdagi tabiat ne'matlariga aytiladi. Sayyoramiz ko'p va xilma-xil tabiiy resurslarga ega. Tabiiy resurslar orasida *mineral, yer, suv, biologik* va *iqlimiy* resurslarning iqtisodiy ahamiyati yuqori.

Tabiiy resurslar *tugaydigan* va *tugamaydigan* guruhlariga bo'linadi. Yer, suv, mineral, biologik resurslar tugaydigan tabiiy resurslar qatoriga kiradi. Ular, o'z navbatida, *tiklanadigan* va *tiklanmaydigan* guruhlariga bo'linadi. Tiklanish xususiyatiga yer, suv hamda biologik resurslar ega. Mineral resurslar, ya'ni foydali qazilmalar, tiklanmaydigan tabiiy boylik hisoblanadi.

Tugamaydigan tabiiy resurslar Quyosh energiyasi (geliorekurslar), shamol, dengiz qalqishlari va oqimlari energiyasi, Yerning ichki energiyasi (geotermal resurslar), agroiqlimiy resurslardan iborat.

Ba'zida har xil tabiiy resurslar bitta hududda uchraydi va bu holat ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun juda qulay hisoblanadi. Nisbatan kichik hudud doirasida turli tabiiy resurslarning mavjudligi *tabiiy resurslarning hududiy birikmasi* deb ataladi. Masalan, temir rudasi va tosh ko'mirning hududiy birikmasi yoki rangli metallarning rudalari va gidroenergiya resurslarining hududiy birikmalari iqtisodiyot uchun ancha yuqori qiymatga ega. Bular tufayli qora hamda rangli metallurgiyaga ixtisoslashgan sanoat rayonlarining shakllanishi uchun qulay imkoniyatlar yaratiladi.

Tabiiy resurslar va ularning hududiy birikmalari yer yuzasi bo'ylab notekis tarqalgan. Buning sabablari yer po'stining geologik tuzilishi va rivojlanish tarixi, iqlimiy va biologik sharoitning xilma-xilligidir.

Shu bois, turli materik, mamlakat, hududlar tabiiy resurslar bilan turlicha ta'minlangan. Bu holatdan kelib chiqib *resurslar bilan ta'minlanganlik* tushunchasi ishlatiladi. Tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik deganda, tabiiy resurslarning umumiy zaxiralari ko'rsatkichi bilan ulardan foydalanish miqdori o'rtasidagi nisbat tushuniladi. U tabiiy resursning necha yillargacha yetishi yoki resurs zaxirasining aholi jon boshiga qanchadan to'g'ri kelishi ko'rsatkichlari bilan ifodalanadi.

Tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasiga ko'ra, jahon mamlakatlari, odatda uch guruhga bo'linadi:

- 1) tabiiy resurslarning ko'p turlari bilan yaxshi ta'minlangan mamlakatlar;
- 2) tabiiy resurslarning ayrim turlari bilan yaxshi ta'minlangan mamlakatlar;
- 3) tabiiy resurslar bilan ta'minlanmagan mamlakatlar.

Birinchi guruhga jahondagi hududiy kattaligi jihatidan eng yirik davlatlar – Rossiya, Xitoy, AQSH, Kanada, Braziliya, Avstraliya, Hindiston, JAR, Qozog'iston kiradi.

Dunyodagi ko'p mamlakatlar ikkinchi guruhga mansub. Masalan, Fors qo'ltig'i davlatlari neft va tabiiy gazga, Janubiy Amerikadagi tog'li mamlakatlar mis va polimetall rudalariga, Finlandiya suv va o'rmon resurslariga ancha boy.

Uchinchi guruhga esa tabiiy boyliklar, ayniqsa, mineral boyliklar bilan yetarli darajada ta'minlanmagan «mitti» davlatlar (Vatikan, Andorra, San-Marino, Singapur, Sent-Lyusiya, Tuvalu va b.) kiradi.

Ko'pchilik tabiiy resurslar, eng avvalo, sanoat ishlab chiqarish tarmoqlari uchun qimmatli xomashyo hisoblanadi. Shu sababli sanoat xomashyosi bilan ta'minlanish muammosi ko'pchilik mamlakatlar oldida dolzarb bo'lib turadi.



1. Tabiiy resurslar qanday guruhlarga bo'linadi va ular qanday xususiyatlari bilan farqlanadi?
2. Qaysi davlatlar turli xil tabiiy resurslar bilan eng yaxshi ta'minlangan?
3. Quyidagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlarini hisoblang.

| № | Tabiiy resurs xili | Resurs zaxirasi, mln. t. | Yillik qazilishi, mln. t. | Aholi soni, mln. kishi | Resurs bilan ta'minlanganlik | |
|---|--------------------|--------------------------|---------------------------|------------------------|------------------------------|-----------------------|
| | | | | | Yillar hisobida | Aholi jon boshiga, t. |
| 1 | Neft | 36 000 | 500 | 120 | | |
| 2 | Ko'mir | 27 000 | 900 | 54 | | |
| 3 | Mis | 800 | 20 | 25 | | |

5-§. Mineral resurslar geografiyasi



Mineral resurslar, yoqilg'i resurslar, rudali resurslar, noruda resurslar, zaxira, kon, havza

Tabiatda minerallar holda uchraydigan tabiiy boyliklar *mineral resurslar (foydali qazilmalar)* deyiladi. Inson juda qadim zamonlardan oq mavjud resurslardan foydalanib kelgan. Davrlar o'tishi bilan esa foydalaniladigan mineral resurslar turi va hajmi tobora ortib borgan. Hozirgi vaqtda mineral resurslarning 200 ga yaqin turlaridan xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanilmoqda. Ular 3 guruhga, ya'ni yoqilg'i-energetika, rudali va noruda mineral resurslariga bo'linadi.

Tugaydigan va tiklanmaydigan tabiiy resurs hisoblanadigan yerosti qazilma boyliklaridan foydalanish hajmi yildan yilga oshib bormoqda. Mineral resurslardan eng katta hajmda iste'mol qilinadiganlar: neft, tabiiy gaz, ko'mir, temir rudalari va qurilish materiallaridir (3-jadval).

Mineral yoqilg'i-energetika resurslariga ko'mir, neft, tabiiy gaz, torf, yonuvchi slanes, uran kiradi. Mineral yoqilg'i zaxiralarning eng katta qismi ko'mirga (70–75 % gacha) to'g'ri keladi. Yoqilg'i mineral resurslarining konlari qadimgi platformalarning chekka botiq qismlarida ko'proq uchraydi.

Hozirgi vaqtda jahonda 3 600 dan ziyod ko'mir havzalari va konlari bor bo'lib, ular jami quruqlikning 15 % ini egallaydi. Yirik ko'mir havzalari ko'proq Shimoliy yarim sharda joylashgan. Ko'mirning eng yirik zaxiralari AQSH, Rossiya, Xitoy, Avstraliya, Hindiston, Germaniya, Ukraina, Qozog'iston, JAR va Indoneziya davlatlariga to'g'ri keladi.

3-jadval

Eng muhim foydali qazilmalarning jahon bo'yicha aniqlangan zaxiralari va qazib olinishi (2016-y.)

| Foydali qazilma turlari | O'lchov birligi | Aniqlangan zaxiralari | Yillik qazib olinishi |
|-------------------------|----------------------|-----------------------|-----------------------|
| Ko'mir | mlrd.t | 861,5 | 7,3 |
| Neft | mlrd.t | 191,3 | 4,3 |
| Tabiiy gaz | trln. m ³ | 180 | 3,6 |
| Temir rudasi | mlrd.t | 160 | 2,1 |

Jahon bo'yicha 600 ga yaqin neft va gaz havzalari aniqlangan. Neft va gaz konlarining ham asosiy qismi sayyoramizning shimoliy yarim sharida joylashgan. Eng yirik neft-gaz zaxiralari Fors qo'ltig'i davlatlari, Venesuela, Shimoliy Amerika (AQSH, Kanada, Meksika), Rossiya (asosan, G'arbiy Sibir), Kasbiybo'yi mamlakatlari, Shimoliy Afrika (ayniqsa, Liviya va Jazoir), Gvineya qo'ltig'i mamlakatlari (ayniqsa, Nigeriya) hamda Xitoyda joylashgan.

Jahon iqtisodiyotida rudali (metall) qazilma resurslarining ahamiyati nihoyatda kattadir. Yer yuzida rudali mineral resurslarga boy mintaqalar, masalan, Alp-Himolay, Tinch okeanbo'yi mintaqalari mavjud. Bunday

mintaqalar sanoat uchun muhim xomashyo bazasi bo'lib xizmat qiladi va ayrim davlatlarning iqtisodiy rivojlanishini belgilaydi. Xitoy, Rossiya, AQSH, Kanada, Avstraliya, Braziliya, JAR, Qozog'iston, Hindiston, Chili, Peru jahonda qora va rangli metall xomashyolariga eng boy mamlakatlar hisoblanadi.

Noruda mineral boyliklardan eng muhimlari osh tuzi, kaliy tuzlari, fosforit, oltingugurt, olmos, qurilish materiallari hisoblanadi. Ularning konlari qadimiy platformalarda, burmali tog'larda, sho'r ko'llarning botiqlarida ko'p uchraydi. Turli mineral tuzlarning zaxiralari bo'yicha dunyoda Rossiya, AQSH, Xitoy, Hindiston, Boliviya, Belarus, Avstraliya singari mamlakatlar yetakchilik qiladi. Olmosning katta zaxiralarga ega bo'lgan davlatlar esa Rossiya, Avstraliya, Botsvana, JAR, Kongo Demokratik Respublikasi, Kanada, Angola va boshqalardir.

Tabiiy mineral resurslarning shu vaqtgacha, asosan, iqtisodiy-texnik jihatdan qulay joylashuv va sharoitga ega konlari o'zlashtirib kelindi. Yangi mineral konlarni izlash ishlari so'nggi davrlarda, asosan, Rossiyaning shimoliy va sharqiy hududlari, AQSHning g'arbiy tog'li qismi va Alyaska, Kanadaning shimoli, Janubiy Amerika, Avstraliya, Afrikaning kam o'zlashtirilgan cho'l, tog'li va o'rmonli o'lkalarida faol olib borilmoqda. Ammo yetib borish qiyin bo'lgan hududlardan qazib olinadigan mineral xomashyoning tannarxi ancha qimmatdir. Shu bois, insoniyatning mineral resurslardan oqilona foydalanish borasidagi eng muhim vazifalaridan biri bu tabiiy ne'matlarni tejab ishlatish yo'llarini topishdan iborat.



1. Qaysi mineral resurslar eng ko'p ishlatiladi?
2. Neft va tabiiy gaz zaxiralarining asosiy qismi qaysi hududlarga to'g'ri keladi?
3. Mineral resurslarning yoqilg'i-energetika, rudali va noruda turlariga boy bo'lgan davlatlarni aniqlang.

6-§. Tugamaydigan va tiklanadigan tabiiy resurslar geografiyasi



Agroiqlimiy resurslar, yer resurslari, suv resurslari, biologik resurslar, geotermal resurslar.

Agroiqlimiy resurslar. Hududlarning turli ekin yetishtirish imkoniyatlari ko'p jihatdan iqlimga bog'liq. Qishloq xo'jaligi tarmoqlari rivojlani-shiga ta'sir ko'rsatuvchi iqlim imkoniyatlari *agroiqlimiy resurslar* deyiladi. Eng muhim agroiqlimiy ko'rsatkichlar samarali haroratlar (+10 °C dan yuqori) yillik yig'indisi hamda namlanish koeffitsiyenti (yog'inlar miq-dorining mumkin bo'lgan bug'lanishga nisbati) hisoblanadi.

Ma'lumki, havo harorati ekvator dan qutbiy kengliklarga tomon pasayib boradi. Ekvator atrofida samarali haroratning yillik yig'indisi 8 000 °C dan yuqori bo'lsa, arktika va subarktika iqlim mintaqalarida u 400 °C ga ham yetmaydi. Shuning uchun ham tropik, subekvatorial va ekvatorial iqlim mintaqalarida turli issiqsevar ekinlarni yetishtirish hamda yil davomida ikki-uch marotaba hosil olish imkoniyati mavjud.

Dehqonchilik uchun tabiiy namlik omili ham katta ahamiyatga ega. Yilning issiq paytida ham yog'inlar yetarli darajada yog'adigan hududlar-da dehqonchilikni sun'iy sug'orishsiz rivojlantirish mumkin va bu holat qishloq xo'jaligida ancha mablag'ning tejali-shiga yordam beradi. Iqlimi issiq, ammo qurg'oqchil bo'lgan ichki kontinental o'lkalar uchun esa ta-biiy namgarchilikning ozligi hisobiga sug'orma dehqonchilik xosdir. Issiq musson iqlimli hududlarda sun'iy sug'orish, asosan, iliq va quruq qishda qo'llaniladi.

Yer resurslari. Yer inson uchun har jihatdan eng ahamiyatli tabiiy resurs hisoblanadi, chunki aholining kundalik hayotiy ehtiyojlari vositalarining deyarli hammasi yerdan undirib olinadi.

Hozirgi vaqtda jahon yer fondining umumiy hajmi 13,4 mlrd. gektarga teng. Insoniyat uchun eng katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlar jahon umumiy yer fondining 34 % ini tashkil qiladi. Jumladan, ishlov beriladigan yerlar ulushi 11 % ga, yaylovlarniki esa 23 % ga teng. Ishlov beriladigan yerlar dunyoda yetishtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarning 88 % ini, yaylovlar esa 10 % ini yetkazib bermoqda. Demak, yer resurslarining eng qimmatli qismi

ishlov beriladigan (ekin ekiladigan) maydonlardir. Yer fondi tarkibiga, shu bilan birga, oʻrmonlar (30 %), aholi punktlari va muhandislik inshootlari bilan band boʻlgan texnogen yerlar (3 %) hamda kam foydalaniladigan yoki unumsiz yerlar (33 %) kiradi.

Dehqonchilikda foydalaniladigan yerlarning eng katta maydonlari AQSH, Hindiston, Rossiya, Xitoy, Kanada, Braziliya, Qozogʻiston va Ukrainaga toʻgʻri keladi. XX asr davomida ishlov beriladigan maydonlar hajmi dunyo boʻyicha ikki baravar kengaytirildi. Qoʻriq yerlarni oʻzlashtirish, botqoqli va zaxkash yerlarni ishga solish, choʻllarga suv chiqarish yoʻli bilan ekin maydonlarini kengaytirish ishlari, ayniqsa, AQSH, Kanada, Avstraliya, Rossiya, Qozogʻiston, Xitoy, Braziliyada keng koʻlamda olib borildi.

Ammo, katta qiyinchiliklar hisobiga oʻzlashtirilgan yerlar asta-sekin ishdan chiqib bormoqda. Eng avvalo, tuproq yuvilishi, yaʼni *eroziya* jarayoni har yili qishloq xoʻjaligida foydalaniladigan 6–7 mln. gektar yerdan mahrum qilmoqda. Yerlarning botqoqlanishi va shoʻrlanishi oqibatida yana 1–1,5 mln. gektar ekin maydonlari ishdan chiqmoqda. Shahar va qishloqlarning kengayishi, sanoat va transport qurilishlarining yildan yilga oʻsib borishi ham ekin maydonlarining qisqarishiga olib kelmoqda.

Suv resurslari. Maʼlumki, Yer sharidagi mavjud suvning asosiy qismi Dunyo okeani va dengizlarida toʻplangan. Chuchuk suv resurslari esa gidrosfera umumiy hajmining atigi 2,5 % ini tashkil qiladi. Lekin uning asosiy qismi Yer sharining chekka, foydalanish qiyin boʻlgan Antarktida, Arktika hamda baland togʻlardagi qor va muzliklarda toʻplangan.

Insoniyatning chuchuk suvga boʻlgan ehtiyojini qondiradigan asosiy



2-rasm. Dunyodagi eng yirik suv omborlaridan biri – Karuna daryosidagi Guri suv ombori (Venesuela).

manba daryolar boʻlib, ulardagi suvning umumiy miqdori atigi 47 ming km³ dir. Ekvatorial va moʻtadil iqlim mintaqalarida daryo va koʻllari koʻp boʻlib, bu hududlar chuchuk suv resurslariga ancha boy. Chuchuk suv bilan eng yaxshi taʼminlangan davlatlar qatoriga Braziliya, Rossiya, Kanada, AQSH, Indoneziya, Venesuela, Peru, Myanma, Tojikiston va boshqalar kiradi. Quruqlikning katta qismini egallagan qurgʻoqchil hududlarda esa suv re-

surslarining hajmi tabiiy holatda kam. Boz ustiga ularda dehqonchilik, asosan, sun'iy sug'orish orqali olib boriladi.

Daryolar suvidan samaraliroq foydalanish uchun suv omborlari qurilgan (2-rasm). Hozir jahonda qurilgan suv omborlarining soni 40 mingdan oshib ketdi. Yirik suv omborlarining soni bo'yicha AQSH, Xitoy, Hindiston, Braziliya va Rossiya alohida ajralib turadi.

Biologik resurslar deb, quruqlik va Dunyo okeanidagi o'simlik va hayvonot boyliklariga aytiladi. Ayniqsa o'rmon resurslarining xo'jalik va ekologik ahamiyati nihoyatda katta. Jahonda o'rmonlar 40 mln. km² (4 mlrd. gektar)ni, yoki butun quruqlikning 30 % ga yaqinini tashkil etadi. Lekin o'rmonlarning yog'och materiallarni tayyorlash maqsadida kesilishi, yangi yerlarni o'zlashtirish, turli sanoat qurilishlarning ko'payishi o'rmonlarning kamayib borishiga olib kelmoqda.



3-rasm. Ignabargli tayga o'rmonlari (chap tomonda) va keng bargli tropik o'rmonlar (o'ngda).

Dunyoda kenglik bo'ylab katta masofaga cho'zilgan ikkita – Shimoliy va Janubiy o'rmon mintaqalari mavjud (3-rasm). Shimoliy o'rmon mintaqasi mo'tadil va qisman subtropik iqlimli hududlar bo'ylab joylashgan. Bu mintaqa o'rmonlarining muhim xususiyati, ularda, asosan, tik o'sadigan sifatli, ignabargli daraxtlarning o'sishidir. Bunday o'rmonlarga Rossiya, Kanada, AQSH, Finlandiya davlatlari boy.

Janubiy o'rmon mintaqasi, asosan, tropik va ekvatorial iqlim mintaqalari bo'ylab joylashgan. Tropik o'rmonlarda, asosan, keng bargli daraxtlar qalin, aralash va ko'p yarusli bo'lib o'sadi. Bu o'rmonlar yog'ochlik xususiyatlari yuqori bo'lgan qimmatli daraxtlarga ancha boy. Janubiy o'rmon mintaqasida Braziliya, Peru, Kolumbiya, Venesuela, Kongo Demokratik



4-rasm. Islandiyadagi geotermal elektr stansiyalaridan biri.

Respublikasi, Hindiston, Myanma, Indoneziya kabi mamlakatlar eng katta oʻrmonli maydonlarga ega.

Geotermal resurslar. Muhim noanʼa-naviy energiya manbai sifatida Yerning ichki energiyasi, yaʼni geotermal resurslar hisoblanadi. Geotermal energiyaga, ayniqsa, issiq tabiiy bugʻ va suv tektonik yoriqlar orqali Yer yuzasiga chiqib turadigan hududlar juda boydir. Odatda, bun-

day hududlar tektonik harakatlar faol davom etayotgan, iqlimi sernam boʻlgan mintaqalar boʻylab joylashgan. Islandiya, Yaponiya, Yangi Zelandiya, Filippin, Papua-Yangi Gvineya, Italiya, Meksika, AQSHning gʻarbiy shtatlari, Rossiyaning sharqiy hududlari geotermal resurslarga boy (4-rasm).



1. Agroiqlimiy resurslar, asosan, qanday koʻrsatkichlar bilan belgilanadi?
2. Suv resurslar bilan taʼminlanganlik qanday omillarga bogʻliq?
3. Yer resurslarining koʻpayishi va kamayishiga olib kelayotgan jarayonlarni izohlang.

7-§. Zamonaviy ekologik muammolar



Tabiatdan foydalanish, global, regional va lokal ekologik muammolar, «issiqxona samarasi», «ozon tuynuklari», choʻllashish, oʻrmonsizlanish, chuchuk suv resurslari, ekologik siyosat.

Jamiyat butun tarixi davomida tabiiy muhit bilan chambarchas bogʻliq ravishda rivojlanib borgan. Tabiiy resurslardan foydalanish, ularni muhofaza qilish va qayta tiklash bilan bogʻliq faoliyat sohasi *tabiatdan foydalanish* deb ataladi. Tabiatdan foydalanish *oqilona* va *nooqilona* tarzda amalga oshirilishi mumkin. Tabiatdan oqilona foydalanilganda, tabiiy boyliklar meʼyorida isteʼmol qilinib, ularni muhofazalash va qayta tiklashga, atrof tabiiy muhitning sogʻlom holatini saqlashga kerakli darajada eʼtibor beriladi. Agar jamiyatning xoʻjalik faoliyati natijasida tabiiy

muhit va uning resurslari holati salbiy tomonga o'zgarib borsa, tabiatdan foydalanish nooqilona hisoblanadi. Tabiatdan nooqilona foydalanilganda, landshaftlardagi muvozanat buziladi hamda turli ko'lam va ko'rinishdagi ekologik muammolar vujudga keladi.


Ekologik muammo tabiatdan nooqilona foydalanish natijasida tabiiy muhit sifatining yomonlashishidir. Ekologik muammolar hududiy ko'lami jihatidan 3 pog'onaga bo'linadi:

- global (sayyoraviy);
- regional (mintaqaviy);
- lokal (mahalliy).

Global ekologik muammolar butun geografik qobiqning holatiga ta'sir ko'rsatadi va ularni yechish borasida jahondagi barcha davlatlarning harakatlarini birlashtirish lozim. *Regional* ekologik muammolarning oqibatlari bitta yoki bir nechta qo'shni davlatlar hududida seziladi. *Lokal* ekologik muammolar esa kichik ko'lamdagi hududlar doirasida ro'y beradi. Quyida hozirgi davrning eng dolzarb global ekologik muammolaridan ba'zilari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

«*Issiqxona samarasi*» muammosi. Atmosfera elektr energetika, metallurgiya, kimyo va boshqa sanoat tarmoqlari, transport vositalari, fazoga kosmik kemalarni uchirish hamda yong'inlar tufayli kuchli ifloslanmoqda. Har yili milliardlab tonna qattiq, gazsimon, aerosol chiqindilar atmosfera chiqarib yuborilmoqda. Atmosfera tarkibida, ayniqsa, is gazi (CO), karbonat angidrid (CO₂) oltingugurt oksidlari (SO₂, SO₃), azot dioksidi (NO) salmog'ining oshib borishi katta ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Atmosferadagi bu gazlar miqdorining ortishi natijasida Quyoshning isitish rejimi buzila boshladi. Yuqorida sanab o'tilgan gazsimon moddalarning atmosferadagi zarrachalari yer sirtiga kelayotgan nurlanishni o'tkaza turib, undan qaytayotgan issiqlik radiatsiyasini atmosferaning pastki qatlamlaridan yuqoriga yaxshi o'tkazmaydi. Bu jarayon atmosfera pastki qatlamining o'rtacha yillik harorati asta-sekin ko'tarilishiga, ya'ni global iqlim sharoitining o'zgarishiga olib kelmoqda. O'z navbatida bu holat, sayyoramiz qutblari va baland tog'laridagi ko'p yillik muzliklar maydonining qisqarishiga olib kelmoqda.

Bu muammoni bartaraf qilish uchun jahondagi barcha davlatlar «is-siqxona» gazlarining atmosfera chiqarilishini kamaytirishlari lozim.



5-rasm. Antarktidaning ustida ozon qatlami yupqalashishining sxematik ko‘rinishi.

Yaponiyaning Kioto shahrida 1997-yilda bir nechta rivojlangan hamda o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlar maxsus shartnoma («Kioto protokoli»)ni imzolab, bu borada aniq majburiyatlarni o‘z zimmalariga olgan.

Ozon qatlamining yemirilishi muammosi.

Atmosferaning ifloslanishi insoniyat oldiga yana bir murakkab muammoni qo‘ymoqda. Keyingi yillarda havoga ftor-xlorli birikmalar (freonlar)ning ko‘p chiqarib yuborilishi natijasida Yerdagi hayotning qalqoni hisoblangan ozon qatlamining tobora yupqalashib borishi kuzatilmoqda. «Ozon tuynugi» deb

nomlangan ana shu holat, dastlab Janubiy Amerikaning Antarktidaga tutash hududlari, so‘nggi yillarda esa Yevrosiyoning shimoliy kengliklari ustida ham kuzatila boshlandi (5-rasm).

Kanadaning Monreal shahrida 1987-yilda bir nechta davlatlar freon gazlarini ishlab chiqarishga va ulardan foydalanishga cheklovlar to‘g‘risidagi xalqaro bitimni imzolagan. Bugungi kunga kelib, bu bitimga jahondagi aksariyat mamlakatlar qo‘shilgan. Mutaxassislarining fikricha, agar Monreal bitimi qat’iy ravishda bajariladigan bo‘lsa, ozon qatlamining me’yordagi qalinligi 2050-yilga kelib qayta tiklanadi.

Cho‘llashish muammosi. Cho‘llashish deb, cho‘llik xususiyatlari xos bo‘lgan hududlar maydonining kengayib borish jarayoniga aytiladi. Uning asosiy sabablari daraxt va butalarning kesilishi, chorva-mollarining tartibsiz boqilishi, suv resurslaridan nooqilona foydalanilishi hisoblanadi. Cho‘llashish o‘nlab davlatlardagi eng unumdor yerlarni o‘z domiga tortmoqda. Cho‘llashish, ayniqsa, Afrika, Janubi-g‘arbiy, Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlariga katta xavf-xatar tug‘dirmoqda. Quruqlik umumiy maydonining 40 % qismida cho‘llashish belgilari kuzatilmoqda. Yer yuzasining tegishli qismida 2 milliard kishidan ortiq aholi istiqomat qiladi.

1994-yilda BMT cho‘llashishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi Xalqaro konvensiyani qabul qildi. 1995-yildan boshlab har yili 17-iyunda Butunjahon cho‘llashish va qurg‘oqchilikka qarshi kurashish kuni nishonlanadi. 2010–2020-yillar oralig‘i BMT tomonidan «Cho‘llar va cho‘llashishga qarshi kurashishga bag‘ishlangan o‘n yillik» deb e‘lon qilingan.

O'rmonsizlanish muammosi. Insoniyat butun tarixi davomida o'rmonlarni kesib borib, ularning maydoni qisqarishiga sababchi bo'lgan. Bu holat ko'p hududlar, shu jumladan, Markaziy Osiyoning tabiiy sharoitini sezilarli tarzda o'zgartirib yubordi. Ammo keskin ravishda o'rmonsizlanish jarayoni oxirgi 100 yil davomida ro'y bermoqda. Ayniqsa ekvatorial mintaqadagi o'rmonlar hamda qurg'oqchil iqlimli tog'li hududlardagi o'rmonlar maydonining qisqarishi geografik qobiqdagi tabiiy muvozanat uchun jiddiy xavf solmoqda. Bu muammoga qarshi kurashishning asosiy yo'llari o'rmonlar kesilishini cheklash hamda ularni sun'iy ravishda ko'paytirish bilan bog'liqdir. Bu borada jahon bo'yicha ijobiy misollar bor. Masalan, Buyuk Britaniyada oxirgi 50–60 yilda o'rmonlarning maydoni 3 barobar ko'paygan. Yaponiyada o'rmonlarning kesilishi qat'iy cheklanganligi tufayli haligacha mamlakat hududining 2/3 qismi o'rmon landshaftlari bilan band. Birlashgan Arab Amirliklarida oxirgi yillarning o'zida bir necha million daraxt ko'chatlari cho'llarga ekib yuborilgan. O'zbekistonda ham yaqin yillarga mo'ljallangan Orol dengizining qurigan tubini o'rmonlashtirish ishlarining keng qamrovli rejaları tuzilgan va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Chuchuk suv tanqisligi muammosi. Insoniyatning chuchuk suvga bo'lgan ehtiyojini qondiradigan asosiy manba daryolar bo'lib, ularning katta qismi aholi ancha siyrak yashaydigan sovuq va ekvatorial iqlimli hududlar bo'ylab oqadi.

Quruqlikning 1/3 qismidan ko'prog'ini egallaydigan qurg'oqchil iqlimli hududlarda suv tanqisligi mavjud. Shimoliy va Janubiy Afrika, Janubiy va Janubi-g'arbiy Osiyo mamlakatlari, shuningdek, O'zbekiston, Turkmaniston, Qozog'iston kabi Markaziy Osiyo davlatlarida bu muammo ancha dolzarb hisoblanadi.

Hozirgi paytda Fors qo'ltig'i, O'rta dengizbo'yi mamlakatlari, Qozog'iston, AQSH, Yaponiya, Karib dengizi orol mamlakatlarida dengiz suvini chuchuklashtirish ishlari kengayib bormoqda.

Ekologik siyosat – ilmiy tavsiyalarni hisobga olgan holda, tabiiy muhitni muhofaza qilish va uni sog'lomlashtirishga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni boyitishga qaratilgan harakatlar majmuasi. Bunday siyosat milliy, regional va global doirada olib boriladi va o'zida tabiatni muhofaza qilishning huquqiy asoslarini yaratish va ularga amal qilishni ko'zda tutadi.

Keyingi yillarda AQSH, Yaponiya, Yevropa va MDH davlatlari, ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar murakkab ekologik holatni sog'lomlashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilib, amaliyotda qo'llay boshladilar.

Ko'p davlatlarda ekologik sharoitni sog'lomlashtirish uchun tizimli ravishda kurashayotgan siyosiy harakat va partiyalar faol ish olib bormoqda.

Muhim tomoni shundaki, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologiyani sog'lomlashtirish muammolarini hal qilishda BMT va uning ko'plab bo'limlari faol ish olib bormoqda. Jumladan, BMTning atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi (YUNEP) mavjud. Bu xalqaro tashkilotning bosh idorasi Keniya poytaxti Nayrobi shahrida joylashgan.



1. Ekologik muammolar nima? Ularni keltirib chiqaruvchi asosiy sabab nimadan iborat?
2. Global ekologik muammolarning regional va lokal pog'onadagi ekologik muammolardan farqini tushuntiring.
3. «Issiqxona samarasi» ekologik muammosi mohiyati va sabablarini izohlang.
4. Ekologik siyosat deganda nima tushuniladi?



3-BOB. JAHON AHOLISI

8-§. Jahon aholisining soni, o'sishi va joylashuvi



Aholi soni, aholi sonining o'sishi, aholi takror barpo bo'lishi, tabiiy o'sish, aholi hududiy joylashuvi, aholi zichligi.


Jahon aholisining soni, 2018-yil ma'lumotlariga binoan, 7 mlrd. 620 mln. kishidan ortiqdir. Sayyoramiz aholisi bu miqdoriy marraga yetganligining o'ziga xos tarixi mavjud.

Ilmiy manbalar ma'lumotlariga ko'ra, insonlarning eng qadimgi ongli vakillari – *Homo sapiens* – bundan taxminan 50 ming yillar avval paydo bo'lgan. Shimoli-sharqiy va Sharqiy Afrika, Janubiy Yevropa hamda Old Osiyo ilk insonlar paydo bo'lgan va ular tomonidan birinchi bo'lib o'zlashtirilgan hududlar hisoblanadi. Keyinchalik qadimiy insonlarning

turli mintaqalarga tomon yurishi – ilk migratsiyalar natijasida u yerlar aholi tomonidan o‘zlashtirila boshlangan. Uzoq davrlar davomida insoniyatning asosiy qismi Yevropa, Osiyo va Afrika qit’alarida istiqomat qilgan edi. Buyuk geografik kashfiyotlar ko‘p sonli aholining yangi topilgan yerlarga ko‘chib o‘tishiga sababchi bo‘ldi va uning natijasida qit’alar o‘rtasida aholi sonining qayta taqsimlanishi yuz berdi.

Moddiy va sanitar-gigiyenik shart-sharoitlarning og‘irligi, tez-tez takrorlanib turgan ocharchilik, kasalliklar epidemiyalari ta’sirida uzoq tarixiy davrlar davomida jahon aholisining o‘lim darajasi yuqori, tabiiy ko‘payish darajasi esa past bo‘lgan.

XIX asrda Yevropa va Amerikada ro‘y bergan sanoat inqilobi, tibbiy xizmatning rivojlanishi natijasida bu qit’alardagi aholining o‘rtacha umr ko‘rishi va tabiiy ko‘payish darajasi ortdi.



6-rasm. Jahon mintaqalari aholi soni dinamikasi.

Jahon aholisi soni XX asr davomida 1,6 mlrd. kishidan 6,1 mlrd. kishigacha yetgan bo‘lib, uning eng yuqori sur‘atlari 1960-yillardan keyingi davrlarga to‘g‘ri keladi. Bu holat Ikkinchi Jahon urushidan keyingi davrlarda Osiyo, Afrika va Okeaniya davlatlarining siyosiy mustaqillikka erishuvi, ularga BMT tomonidan insonparvarlik yordamlarining berilishi natijasida aholi orasida o‘lim darajasining pasayishi hamda aholi sonining tez sur‘atlarda o‘shishi hisobiga yuzaga kelgan. Natijada 1960–1980-yillarda jahonda «**demografik portlash**» (*o‘lim darajasi pasayishi tufayli aholi sonining tez sur‘atlar bilan ko‘payishi*) jarayoni yuz berdi (6-rasm).

So‘nggi yillarda aholishunos olimlar «demografik portlash»ga nisbatan deyarli nihoyasiga yetib borayotgan jarayon sifatida baho berayotgan bo‘lsalar-da, Afrika va Osiyoning bir qator davlatlarida aholining yillik tabiiy ko‘payish darajasi hali ham yuqori darajada kuzatilmoqda. Shu bilan birga jahonning rivojlangan davlatlarida tabiiy ko‘payishning manfiy holati – **demografik inqiroz** yoxud **depolyatsiya** (*tug‘ilishning o‘limga nisbatan pastligi*) yuz bermoqda. Bu holatni hozirgi kunda Yevropaning turli davlatlarida (masalan, Germaniya, Ukraina, Serbiya va b.) kuzatish mumkin.

4-jadval

Tug‘ilish, o‘lim va tabiiy ko‘payish koeffitsiyentlari (1000 kishiga nisbatan, 2018-yilgi ma‘lumotlar)


| Hudud | Tug‘ilish koeff. | O‘lim koeff. | Tabiiy o‘shish koeff. | Go‘daklar o‘limi koeff. (har 1000 go‘dakka nisbatan) | O‘rtacha umr davri | |
|------------------------|------------------|--------------|-----------------------|--|--------------------|---------|
| | | | | | erkaklar | ayollar |
| Jahon | 19 | 7 | 12 | 31 | 70 | 74 |
| Afrika | 35 | 9 | 26 | 50 | 61 | 64 |
| Amerika | 15 | 7 | 8 | 13 | 74 | 80 |
| Osiyo | 17 | 7 | 10 | 26 | 71 | 74 |
| Yevropa | 10 | 11 | -1 | 4 | 75 | 82 |
| Avstraliya va Okeaniya | 17 | 7 | 10 | 21 | 76 | 80 |

Mintaqalar aholisi sonining davriy o‘zgarishi birinchi navbatda unda yuz berayotgan tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari nisbati asosida shakllanuvchi tabiiy ko‘payish darajasi bilan bog‘liq. 4-jadval ma‘lumotlaridan turli qit‘alarda aholi takror barpo bo‘lishining miqdoriy ko‘rsatkichlari turlicha ekanligi ko‘rinib turibdi. Afrikada aholi tabiiy o‘shish koeffitsiyenti jahon o‘rtacha ko‘rsatkichidan yuqori, qolgan qit‘alarda esa bu ko‘rsatkich pastroq darajaga ega.

Davlatlarda aholining tabiiy o‘shishi yuqori darajada saqlanishiga ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillar katta ta‘sir ko‘rsatadi. Shaharlashuv

jarayoni, ayollarning ma'lumotlilik va ijtimoiy mehnatda bandlik darajasining yuqoriligi, turmush darajasining yuksalishi va kishilar moddiy ehtiyojlarining kengayishi jahonning bir qator davlatlarida tug'ilish va aholining tabiiy o'sish koeffitsiyentining past bo'lishiga ta'sir ko'rsatmoqda (7-rasm).

Bir yoshgacha bo'lgan go'daklar o'limi va o'rtacha umr ko'rish darajasi ko'rsatkichlari ham davlatlarning iqtisodiy rivojlanganlik holati, tibbiy xizmatning rivojlanishi, aholi turmush darajasi bilan chambarchas bog'liqdir.



7-rasm. Jahon aholisining tabiiy o'sishi.

Ma'lumki, jahon aholisi hududiy jihatdan notekis tarqalgan. Bunda tabiiy, tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'siri katta. Tekislik, daryo hamda dengizbo'yi hududlarida aholi zichligi darajasining yuqoriligi tabiiy sharoit omili (masalan, Gang daryosi vodiysi, Kanto tekisligi), O'rta dengizbo'yi, Mesopotamiya kabi hududlarda esa bunday holatning shakllanishi ularning o'zlashtirilish davri bilan bog'liq. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar va turli ishlab chiqarish markazlarida aholi sonining o'sishida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasining ahamiyati katta. Aholi soni ko'p bo'lgan mintaqalarda zichlik darajasi ham yuqori bo'ladi.

Jahon aholisining o'rtacha zichligi 1 km² ga 50 kishidan ortiq bo'lmoqda. Osiyo aholi zichligi darajasi eng yuqori bo'lgan qit'a hisob-

lanib, uning sharqiy, janubiy va janubi-sharqiy qismlarida aholi zichligi ayniqsa yuqoridir. Amerika, Avstraliya va Okeaniya qit'alarining yevropaliklar tomonidan dastlab o'zlashtirilgan qismlarida aholi zichligi nisbatan yuqori. Mongoliya, Namibiya, Avstraliya, Kanada, Qozog'iston kabi davlatlar jahonning aholi zichligi ko'rsatkichi eng past bo'lgan davlatlari qatoriga kiradi. Bu holat noqulay tabiiy sharoit bilan bog'liq.



1. Nimaga uzoq tarixiy vaqt davomida Yer yuzida aholi soni deyarli o'zgarmadi?
2. Buyuk geografik kashfiyotlar jahon aholisining mintaqalar bo'ylab taqsimlanishiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
3. Ilovadagi jadval ma'lumotlari asosida Yevropa, Osiyo, Afrika, Amerika, Avstraliya va Okeaniyaning aholi soniga ko'ra beshta peshqadam davlatlarini aniqlang va daftaringizda ularning ro'yxatini tuzing.
4. Jahon aholisining hududiy joylashuviga qanday omillar katta ta'sir ko'rsatadi?


9-§. Jahon aholisining jinsiy, yosh, irqiy tarkibi



Erkaklar, ayollar, bolalar, kattalar, keksalar, irq, yevropeoid, mongoloid, negroid, avstroloid, metis, mulat, sambo.

Aholi tabiiy o'sish sur'atlari aholining *yosh-jins tarkibiga* ta'sir ko'rsatadi. Aholi yosh tarkibiga ko'ra bolalar (0–14 yosh), mehnat yoshidagilar (15–64 yosh) hamda keksalar (65 yosh va undan yuqori) guruhlari ajratiladi. Yosh guruhlari orasidagi nisbat o'tgan tarixiy davrlar davomida o'zgarib kelgan. Uzoq davrlar davomida jahon aholisi yosh tarkibida keksalar salmog'i juda past bo'lib, XX asrga kelib yildan yilga ushbu guruh vakillari ulushi orta boshladi. Bunga, birinchi navbatda, tibbiy xizmatning rivojlanishi, aholi turmush darajasining o'sishi sabab bo'ldi. Hozirgi davrda jahon mintaqalari aholisining yosh tarkibi turlicha (8-rasm).

Tabiiy o'sish yuqori bo'lgan Afrika va Osiyo aholisi yosh tarkibida bolalar salmog'i qariyalarnikiga nisbatan ancha yuqoriligi ko'zga tashlansa, demografik inqiroz kuzatilayotgan Yevropa davlatlarida bu holatning teskarisiga guvoh bo'lish mumkin. Bolalar salmog'ining yuqoriligi bilan Niger (50 %), Mali (48 %), Uganda (48 %) kabi Afrika davlatlari ajralib turadi. Bu boradagi eng past ko'rsatkichlar esa Yaponiya (12 %), Germaniya (13 %), Italiya (13 %), Gretsiya (14 %) davlatlarida qayd qilingan.




8-rasm. Jahon mintaqalari aholisining yosh tarkibi (% , 2018-y.).

Aholining jinsiy tarkibiga e'tibor qaratsak, jahonda ayollar va erkaklar salmog'i deyarli teng, ammo ayollar hamda erkaklar salmog'i yuqori-roq bo'lgan davlatlar mavjud. Jahon aholisining jinsiy tarkibida erkaklar salmog'i 50,5 %, ayollarniki esa 49,5 % ga teng (2018-y.). Afrika, Janubiy Amerika, Avstraliya va Okeaniya qit'alarida jinlar salmog'i deyarli bir-biriga teng bo'lsa, Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarida ayollar salmog'i birmuncha ortiq. Osiyo qit'asi davlatlarining ko'pchiligida, ayniqsa, Sharqiy, Janubiy va Janubi-g'arbiy Osiyoda erkaklar salmog'i ayollarnikiga qaraganda yuqori. Bunga asosan ushbu mintaqalarda ayollar ijtimoiy mavqeyining pastligi sababdir. Fors qo'ltig'i mintaqasidagi arab davlatlarida esa erkaklarning ustunligiga ishchi kuchining tashqi migratsiyasi ham ta'sir ko'rsatadi.

Aholining yoshi va jinsiy tarkibini tahlil qilishda *yosh-jins piramidasidan* foydalaniladi. Unda ma'lum bir hudud aholisi soni yosh guruhleri kesimida hamda jinsiy nisbatda qanday salmoqdaligini ko'rish mumkin. Rivojlangan davlatlarda aholi orasida yildan yilga tabiiy o'sish darajasining pasayishi oqibatida bolalar salmog'i kamayib, o'rta va keksa yoshdagilar salmog'i ortib bormoqda. Rivojlanayotgan davlatlarning aksariya-

tida esa tabiiy o‘shning yuqoriligi yosh-jins piramidasi quyi qismining salmog‘i yuqoriligicha qolmoqda. Bu davlatlarda erkaklar salmog‘ining ortiqqligi ham ko‘zga tashlanadi (9-rasm).



9-rasm. Jahonning turli davlatlarida (I – rivojlangan, II – rivojlanayotgan) yosh-jins piramidasi.

Insoniyatning irqi odam organizmining qadimgi davrlarda tabiiy muhit, ayniqsa iqlim sharoitiga moslashishi tufayli vujudga kelib, tashqi ko‘rinish belgilari bilan farq qiladilar. Jahon aholisining katta qismi to‘rtta asosiy irqqa (yevropeoid, mongoloid, negroid va avstraloid), qolgan qismi esa oraliq va aralash irqqlarga mansub.

Och tusli teri, to‘lqinsimon yoki tekis, yumshoq soch, asosan, mo-viyrang ko‘z, qirra burun, yupqa va o‘rta labga ega bo‘lgan yevropeoid irqi vakillari Yevropa, Amerika, Avstraliya va Okeaniya aholisining aso-siy qismini tashkil qiladi. Shuningdek, Osiyoning janubiy, janubi-g‘arbiy, markaziy, Afrikaning shimoliy qismlarida ham ko‘p sonli yevropeoidlar istiqomat qiladilar. Yuqorida sanab o‘tilgan irqiy belgilar, asosan, shimoliy hududlarda istiqomat qiluvchi yevropeoidlarga xos bo‘lib, janubga borgan sari yashash muhiti bilan bog‘liq tarzda tana, soch va ko‘z ranglarining to‘q ko‘rinishlari namoyon bo‘la boshlaydi. Insoniyatning 40 % dan ortig‘i mazkur irq vakillari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Mongoloid irqi vakillari jigarrang tusli teri, tekis, qattiq to‘q tus-li soch, ko‘zning to‘q tusli ko‘rinishlari, qirra yoki o‘rta yapasqi bu-run, ko‘z usti qovog‘ining ajralib turishi, ensa sohasining kengayganligi

bilan ajralib turadi. Mongoloidlar, asosan, Osiyo qit'asida keng tarqalgan. Amerikaning tub aholisi hisoblanadigan Amerika hindulari va eskimoslar ham shu irqqa mansub (10-rasm).



Yevropeoid irqi



Mongoloid irqi



Negroid irqi

10-rasm. Dunyodagi asosiy irq vakillari.

Negroid irqi vakillari, asosan, Afrika hamda Amerika qit'alari davlatlarida istiqomat qiladilar. Qora tusli teri, tekis, qattiq, jingalak qora tusli soch, ko'zning to'q tusli ko'rinishlari, jag'ining ajralib chiqqanligi, yapaloq burun, do'rdoq lab ularga xos asosiy belgilar hisoblanadi. Afrika bu irq vakillarining asl ona vatani hisoblanib, ularning katta qismi Buyuk geografik kashfiyotlar davrida Amerikaning turli mintaqalariga majburiy tarzda qul qilib olib ketilgan.

Avstraloid irqi uzoq davr davomida negroid irqining bir ko'rinishi sifatida baholanib kelingan. Lekin so'nggi yillardagi tadqiqotlar ularning kelib chiqishi negroidlar bilan bog'liq emasligini ko'rsatmoqda. To'q tusli teri, yapaloq burun, do'rdoq lablarga ega mazkur irq vakillari, asosan, Avstraliya va Okeaniya hududlarida tarqalgan. Avstraliya aborigenlari, papuaslar, melaneziyaliklar ushbu irq vakillari sanaladi.

Asosiy irqlar negizida bir nechta oraliq va aralash irqlar shakllangan. Oraliq irqlariga efiop, ural, pomir-farg'ona (Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O'zbekistonda keng tarqalgan) kabilar misol bo'la oladi. Amerika qit'asi aholisining irqiy tarkibida metis, mulat, sambo aralash irq vakillari yuqori salmoqqa ega.



1. Aholining yosh tarkibiga tabiiy o'sish darajasi qanday ta'sir ko'rsatadi?
2. Nima uchun rivojlangan davlatlarda bolalar salmog'i qariyalarga nisbatan past?
3. Yevropeoid irqi vakillarining jahon bo'ylab keng tarqalganligiga sabab nima?
4. Amerika qit'asida aralash irqar shakllanishi qanday omillarga bog'liq?

10-§. Dunyo aholisining etnik va diniy tarkibi



Etnos, qabila, elat, millat, til oilalari va guruhleri, xalqaro so'zlashuv tillari, din, sodda din, mahalliy din, buddizm, xristianlik, islom dini.

Aholining etnik tarkibi hududlarda yashovchi etnoslar (yunoncha *etnos* – «xalq») salmog'idir. *Etnoslar* insonlarning tarixan shakllangan, yashash hududi, madaniyati, turmush tarzi bilan o'zaro farq qiluvchi ijtimoiy guruhlar hisoblanadi. Ularning qabila, elat hamda millat ko'rinishlari mavjud.

Qabila kishilarning eng qadimiy oddiy ijtimoiy uyushmalari hisoblanadi. Ular hozirgi kunda, asosan, Amazoniya, Okeaniya, Afrikaning markaziy hududlarida saqlanib qolgan. *Elat* esa qabila va millat orasidagi etnik birlik bo'lib, kam sonli etnoslardan iboratdir. Elatlar, asosan, Osiyo va Afrika davlatlarida mavjud.

Yagona tili, hududi, madaniyati, mentaliteti va milliy o'zligini anglash xususiyatlari yuqori darajada shakllangan, ko'pchilik holatlarda o'z siyosiy davlatchilik an'alariga ega bo'lgan yirik etnoslar *millat* deb ataladi. Dunyo millatlari orasida vakillarining soni 100 mln. kishidan ortiq bo'lgan 12 ta (5-jadval), 50–100 mln. kishi bo'lgan 12 ta, 25–50 mln. kishi bo'lgan 17 ta millat mavjud.

Jahon davlatlari milliy tarkib xususiyatiga ko'ra, bir millatli (masalan, Yaponiya, Islandiya, Norvegiya), bir millatning boshqalariga nisbatan katta salmoqqa ega bo'lgan (masalan, AQSH, Fransiya, Turkiya), ikki millatli (masalan, Kanada, Belgiya), kelib chiqishi bir-biriga yaqin millatlardan iborat (masalan, Afg'oniston, Pokiston), ko'p millatli (masalan, Hindiston, Indoneziya) davlatlar guruhlariga ajratiladi.

Etnos madaniyatining o'zagi til hisoblanadi. Jahondagi etnoslar tillarining o'xshashligi va qardoshligidan kelib chiqib, 20 dan ortiq *til oilalariga* birlashtiriladi. Ular orasida hind-yevropa til oilasiga mansub xalqlar soniga ko'ra yetakchilik qiladi. Jahon aholisining deyarli 1/2 qismi ushbu oila

tarkibiga kiruvchi tillarda soʻzlashadi. Oʻzbeklar oltoy tillar oilasining turkiy guruhiga mansub millat hisoblanadi.

5-jadval

Vakillarining soni 100 mln. kishidan ziyod boʻlgan millatlar (2018-y.)

| № | Millatlar | Umumiy soni, kishi |
|----|----------------------|--------------------|
| 1 | Xanlar (xitoyliklar) | 1 mlrd. 310 mln. |
| 2 | Hindlar | 280 mln. |
| 3 | Bengallar | 235 mln. |
| 4 | Amerikaliklar | 200 mln. |
| 5 | Brazillar | 175 mln. |
| 6 | Ruslar | 150 mln. |
| 7 | Yaponlar | 130 mln. |
| 8 | Meksikaliklar | 147 mln. |
| 9 | Nemislar | 140 mln. |
| 10 | Panjobliklar | 110-120 mln. |
| 11 | Bixarlar | 115 mln. |
| 12 | Yavaliklar | 105 mln. |

Dunyoda soʻzlashuvchilar soni 100 mln. kishidan oshgan 11 ta til mavjud boʻlib, xitoy (1 mlrd. 310 mln. kishi), ingliz (420 mln. kishi), hind (350 mln. kishi), ispan (335 mln. kishi), rus (250 mln. kishi) tillari ular orasida yetakchilik qiladi. Xitoy, ingliz, ispan, fransuz, arab va rus tillari BMT faoliyatida qoʻllaniladigan rasmiy tillar hisoblanadi.

Aholining diniy tarkibi. Dinlar sodda (primitiv), mahalliy va dunyoviy dinlarga boʻlinadi. Diniy eʼtiqodning eng sodda koʻrinishi boʻlgan primitiv dinlar hozirda, asosan, qabilalar orasida saqlanib qolgan. Totemizm, animizm, fetishizm kabi koʻrinishlari mavjud.

Mahalliy dinlar (*bir yoki bir necha qardosh millatlar orasida tarqalgan dinlar*), asosan, bir davlat yoki mintaqa doirasida tarqalgan. Mahalliy dinlar orasida induizm dini eʼtiqodchilar soniga koʻra peshqadamlik qiladi. Sikxizm, konfutsiylik, iudaizm (yahudiylik), sintoizm dinlari ham mahalliy dinlar sirasiga kiradi (6-jadval).

Mahalliy dinlarning tarqalish mintaqalari

| № | Mahalliy dinlar | E'tiqod qiluvchilarning asosiy qismi tarqalgan mintaqalar |
|----------|------------------------|--|
| 1 | Induizm | Hindiston, Nepal, Shri-Lanka |
| 2 | Sikxizm | Hindiston (Panjob shtati) |
| 3 | Konfutsiylik | Xitoy |
| 4 | Sintoizm | Yaponiya |
| 5 | Iudaizm (yahudiylik) | Isroil, AQSH |

Jahonning bir qancha davlatlarida tarqalgan, e'tiqod qiluvchilar soni ko'p bo'lgan uchta dunyoviy din mavjud. Bular buddizm, xristianlik, islom dinlaridir. E'tiqodchilar soniga ko'ra (2 mlrd. 400 mln. kishidan ortiq) katoliklik, protestantlik va pravoslavlik mazhablariga ajraladigan xristianlik yetakchilik qiladi. Bu din vakillari jahonning barcha mintaqalarida tarqalgan.

Dunyoviy dinlarning tarqalish mintaqalari

| № | Dunyoviy dinlar | E'tiqod qiluvchilarning asosiy qismi tarqalgan mintaqalar |
|----------|------------------------|--|
| 1 | Buddizm | Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyo |
| 2 | Xristianlik | Yevropa, Shimoliy Osiyo, Amerika, Avstraliya, Tropik Afrika |
| 3 | shundan: katolik | G'arbiy va Janubiy Yevropa, Janubiy Amerika, Tropik Afrika |
| 4 | protestantlik | Shimoliy Yevropa, Shimoliy Amerika, Avstraliya |
| 5 | pravoslav | Sharqiy va Janubiy Yevropa, Shimoliy Osiyo |
| 6 | Islom | Janubi-g'arbiy, Janubiy, Janubi-sharqiy va Markaziy Osiyo, Shimoliy Afrika |
| 7 | shundan: sunniylar | Ko'pchilik musulmon davlatlar |
| 8 | shialar | Eron, Ozarbayjon, Iroq, Bahrayn |

Paydo bo‘lish davriga ko‘ra dunyoviy dinlar orasida eng yoshi hisoblangan islom dini 1 mlrd 600 mln.dan ortiq e‘tiqodchilarga egadir. 50 ta davlat uchun davlat dini hisoblangan islom dini, asosan, Shimoliy Afrika, Janubi-g‘arbiy, Markaziy, Janubiy, Janubi-sharqiy Osiyo hududlarida keng tarqalgan. Uning sunniylik va shialik mazhablari mavjud.

Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyoda (Xitoy, Yaponiya, Mongoliya va boshqalar) asosiy e‘tiqod manbayi bo‘lgan buddizm dini 700 mln.dan ortiq e‘tiqodchilarga ega. Uning maxayana, xinayana, lamaizm kabi mazhablari bor.



1. Umumiy soni 100 mln.dan oshgan millatlarning hududiy tarqalish xususiyatlarini aniqlang.
2. Dinlar geografik tarqalishida hududiy farqlar kelib chiqishiga qanday omillar ta‘sir ko‘rsatgan?
3. Hozirgi kunda sodda dinlar saqlanib qolgan hududlarni xaritadan ko‘rsating.

11-§. Jahon mamlakatlarining urbanizatsiyasi



Shahar, urbanizatsiya jarayoni, millioner shaharlar, aglomeratsiya, megalopolis.

Qishloq va shaharlar aholi punktlarining ikki asosiy ko‘rinishi hisoblanadi. Ma‘lumki, shahar deb aholisining asosiy qismi qishloq xo‘jaligidan boshqa tarmoqlarda band bo‘lgan aholi punktlariga aytiladi. Hozirgi davrda shaharlar har bir davlatning asosiy ishlab chiqarish, boshqaruv, transport markazlariga aylanib qolganligi hech kimga sir emas. Aynan shaharlar aholining madaniy hordiq chiqarishini ta‘minlab beruvchi manzilgohlar hisoblanadi.


Ishlab chiqarish sohasining rivojlanishi, ayniqsa, sanoat inqilobining yuz berishi, olis, chekka hududlargacha yetib borish imkonini beruvchi transport yo‘llarining barpo etilishi jahonda shaharlar sonining keskin o‘tishiga olib keldi. Shaharga xos hayot tarzi esa ko‘plab insonlarni o‘ziga jalb qilib, ularni shaharga ko‘chib kelishga undamoqda. Natijada jahonda *urbanizatsiya* jarayoni tez sur‘atlarda rivojlanmoqda.

Urbanizatsiya – (lotincha «urb» – «shahar») – shaharlar, shahar aholisining soni va salmog‘ining o‘sishi, shahar turmush tarzining tarqalish jarayoni.

Urbanizatsiya darajasi, odatda, jami aholi tarkibida shahar aholisining salmog‘i bilan o‘lchanadi. Agar 1800-yilda Yer yuzi aholisining 3 % i shaharlarda istiqomat qilgan bo‘lsa, oradan yuz yil o‘tib, mazkur ko‘rsatkich 14 % ga yetdi. 2000-yilga kelib jahonda urbanizatsiya darajasi 47 % ni tashkil qildi. 2018-yil holatiga ko‘ra, dunyo bo‘yicha urbanizatsiyaning o‘rtacha ko‘rsatkichi 55 % ga teng bo‘ldi.

Urbanizatsiya darajasi ko‘rsatkichlari bo‘yicha jahon davlatlarini uch toifaga ajratish mumkin:

1. Shahar aholisining ulushi 75 % dan yuqori bo‘lgan yuqori darajada urbanizatsiyalashgan davlatlar (masalan, AQSH, Yaponiya, Belgiya va b.);
2. Shahar aholisining ulushi 50 % dan 75 % gacha bo‘lgan o‘rtacha darajada urbanizatsiyalashgan davlatlar (masalan, JAR, Peru, Xitoy va b.);
3. Shahar aholisining ulushi 50 % dan kam bo‘lgan past darajada urbanizatsiyalashgan davlatlar (masalan, Misr, Bangladesh, Moldova va b.)



11-rasm. Jahon mintaqalarida urbanizatsiya darajasining o‘zgarishi (% hisobida).

Mintaqalar orasida eng yuqori urbanizatsiya darajasi Shimoliy Amerikaga tegishli (82 %). Bu ko‘rsatkich Lotin Amerikasida 81 %, Yevropada 74 %, Avstraliya va Okeaniyada 68 %, Osiyoda 50 %, Afrikada 43 % ni tashkil etadi (11-rasm). Jahonning barcha mintaqalarida urba-

nizatsiya darajasi davriy ravishda o'sib bormoqda. Yevropa, Shimoliy Amerika, Avstraliya va Okeaniya hududlarida mazkur ko'rsatkichning o'zgarishi nisbatan sekin yuz bermoqda. Osiyo va Afrikada esa aholining tabiiy o'sishi yuqoriligi, qishloqlardan shaharlarga faol aholi migratsiyasi ta'sirida urbanizatsiya darajasi tez ortib bormoqda.

Lekin rivojlanayotgan davlatlarda shahar aholisi soni ortishi *soxta urbanizatsiya* ko'rinishida ham kechadi. Soxta urbanizatsiya natijasida yirik shaharlar atrofida zaruriy infratuzilma elementlariga ega bo'lmagan, qishloqlardan ko'chib kelgan aholi tomonidan tartibsiz ravishda bunyod etilgan manzilgohlar shakllanadi (12-rasm). Bunday manzilgohlar maydoni ayniqsa Braziliya va Hindistondagi yirik shaharlarda ancha katta.



12-rasm. Soxta urbanizatsiya ko'rinishlari.

Urbanizatsiya jarayoni natijasida nafaqat shaharlar va shahar aholisi soni ortadi, balki shahar manzilgohlari maydoni ham kengayishi yuz beradi. Natijada shahar aglomeratsiyalari va megalopolislar vujudga keladi.

Shahar aglomeratsiyasi – turli kattalikdagi shaharlarning ma'muriy, ishlab chiqarish, ijtimoiy aloqalar natijasida birlashuvi hisoblanadi. Mavjud aglomeratsiyalar bir markazli va ko'p markazli bo'lishi mumkin.

Megalopolis (*yunoncha megalu* – «katta», *polis* – «shahar») deb yirik shaharlar va shahar aglomeratsiyalarining bir-biriga qo'shib ketishiga aytiladi. Megalopolislarni bir qancha shahar aglomeratsiyalarining yig'indisi deb ham atash mumkin. Hozirgi vaqtda jahonda 6 ta to'liq shakllangan megalopolis mavjud (8-jadval).

Jahonda to'liq shakllangan megalopolislar haqida ma'lumot

| № | Megalopolis | Joylashgan davlati | Aglome-ratsiyalar soni | Eng yirik aglome-ratsiyasi | Umumiy uzunligi, km |
|---|---------------------------|--|------------------------|----------------------------|---------------------|
| 1 | Shimoli-sharqiy (Bosvash) | AQSH | 40 | Nyu-York | 800 |
| 2 | Ko'lbo'yi (Chipits) | AQSH | 35 | Chikago | 900 |
| 3 | Tinch okeanbo'yi (Sansan) | AQSH | 15 | Los-Anjeles | 800 |
| 4 | Ingliz | Buyuk Britaniya | 30 | London | 400 |
| 5 | Reyn | Niderlandiya, Germaniya, Belgiya, Fransiya | 30 | Reyn-Rur | 500 |
| 6 | Yapon (Tokaydo) | Yaponiya | 20 | Tokio-Iokagama | 700 |



1. Urbanizatsiya darajasining XX asrga kelib tez sur'atlar bilan o'sishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatgan?

2. Urbanizatsiya darajasi ko'rsatkichlariga qarab quyidagi davlatlarni guruhlashtiring:

Marokash (62 %), Keniya (32 %), Kanada (81 %), Braziliya (86 %), Kuba (77 %), Shvetsiya (87 %), Fransiya (80 %), Bolgariya (73 %), O'zbekiston (51 %), Turkiya (75 %), Indoneziya (54 %), Avstraliya Ittifoqi (86 %), Fiji (56 %), Tuvalu (62 %).

3. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar urbanizatsiya jarayoni bir-biridan qanday jihatlari bilan farq qiladi?

12-§. Amaliy mashg'ulot

1. Quyidagi davlatlar aholi zichligini aniqlang:

- a) Italiya – maydoni – 301,3 ming km², aholisining umumiy soni – 60,6 mln. kishi;
- b) Nikaragua – maydoni – 129,5 ming km², aholisining umumiy soni – 6,3 mln. kishi;
- c) Mongoliya – maydoni – 1566,6 ming km², aholisining umumiy soni – 3,2 mln. kishi;
- d) Kamerun – maydoni – 475,4 ming km², aholisining umumiy soni – 25,6 mln. kishi.

2. Quyidagi jadvalni to'ldiring:

| Davlatlar | Jami aholisi, mln. kishi | Shahar aholisi, mln. kishi | Qishloq aholisi, mln. kishi | Urbanizatsiya darajasi, % |
|-----------|--------------------------|----------------------------|-----------------------------|---------------------------|
| Turkiya | 81,3 | 61 | ... | ... |
| Uganda | ... | 10,6 | ... | 24 |
| Shvetsiya | ... | 8,8 | 1,4 | ... |
| Panama | ... | ... | 1,3 | 69 |

3. Quyidagi ibodat maskanlari ramzlari qaysi dinga tegishli ekanligini aniqlang.



I



II



III



4-BOB. JAHON XO‘JALIGI

13-§. Jahon xo‘jaligi va xalqaro mehnat taqsimoti



Jahon xo‘jaligi, xalqaro mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv, jahon iqtisodiyoti tarmoqlari, moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari, nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari.

Jahon xo‘jaligi (iqtisodiyoti) turli ko‘rinishdagi savdo-iqtisodiy aloqalar bilan o‘zaro bog‘langan barcha mamlakatlarning milliy iqtisodiyotlari majmuyi hisoblanadi.

Milliy xo‘jaliklar umumlashgan holda jahon xo‘jaligi sifatida faoliyat ko‘rsata boshlagan davr XV–XVI asrlar, ya‘ni Buyuk geografik kashfiyotlar davri bilan bog‘liq. Aynan ushbu davrda qimmatbaho metall va toshlar, ziravorlar, qullar bilan xalqaro savdo tez rivojlanib bordi.


Jahon xo‘jaligining rivojlanishi ishlab chiqarish tarmoqlarining taraqqiyoti bilan bog‘liq. Ma‘lumki, jahon iqtisodiyoti uchun XVIII asrgacha bo‘lgan davrda qishloq xo‘jaligi yetakchi tarmoq bo‘lgan. Shu bilan birga hunarmandchilik sohasi ham ma‘lum darajada rivojlangan edi.

Yevropada yuz bergan sanoat inqilobi sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi uchun zamin yaratdi. XVIII asr oxirida J.Uatt tomonidan bug‘ mashinasining ixtiro qilinishi turli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yirik sanoat korxonalarining ishga tushirilishiga yordam berdi.

1960-yillarga kelib ishlab chiqarish tarmoqlarida avtomatlashtirish jarayoni boshlandi. Bu holat, o‘z navbatida, nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishiga sababchi bo‘ldi. Natijada jahon iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish tarmoqlari katta ahamiyatga ega bo‘la boshladi.

Jahon xo‘jaligining rivojlanishida uning asosiy sohalari katta ahamiyatga ega. Ular odatda uchta sektorga ajratiladi. Qishloq va o‘rmon xo‘jaligi, baliqchilik, ovchilik, shu bilan birga tog‘-kon sanoati *birlamchi sektor* tarkibiga kiradi. Bu sektor tarmoqlari, asosan, sanoat tarmoqlari uchun zaruriy xomashyoni tayyorlab berishga ixtisoslashgan. *Ikkilamchi sektor*

tarmoqlari tayyor mahsulot yaratishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, aholiga xizmat ko‘rsatish *uchlamchi sektorning* asosiy vazifasi hisoblanadi (13-rasm).



13-rasm. Jahon iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi.

Qishloq xo‘jaligi, sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining iqtisodiyotda tutgan o‘rniga ko‘ra davlatlarni turli guruhlariga ajratish mumkin. Hozirda jahon davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatiga ko‘ra agrar (iqtisodiyotning tarmoq tarkibida qishloq xo‘jaligi salmog‘i yuqori), industrial (iqtisodiyotning tarmoq tarkibida sanoat va qurilish sohalari salmog‘i yuqori) va postindustrial (iqtisodiyotning tarmoq tarkibida xizmat ko‘rsatish, ayniqsa, intellektual soha tarmoqlari salmog‘i yuqori) tiplarga ajratiladi. Shu bilan birga iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi va sanoat salmog‘iga ko‘ra agrar-industrial yoki industrial-agrar davlatlar ham ajratiladi. Senegal agrar, Braziliya industrial, GFR postindustrial, O‘zbekiston industrial-agrar, Kambodja agrar-industrial davlatlarga misol bo‘la oladi.

Jahon xo‘jaligining yagona tizim sifatida rivojlanishi xalqaro mehnat taqsimotiga tayanadi. **Xalqaro mehnat taqsimoti** deb, ayrim davlatlar xo‘jaligining ma‘lum mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishi va bu mahsulotlarni boshqa davlatlar bilan ayirboshlashiga aytiladi. Davlatlarning xalqaro mehnat taqsimotidagi o‘rniga ularning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, iqtisodiy geografik o‘rni xususiyatlari (ayniqsa, dengiz yo‘llariga nisbatan joylashishi), tabiiy resurslari kabi omillar ta‘sir ko‘rsatadi.

Har bir davlatda xalqaro ixtisoslashuv tarmoqlari, ya'ni eksportga mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlar shakllanadi. Masalan, Yaponiya jahondagi radioelektronika, robottexnikasi mahsulotlari, avtomobil va dengiz kemalari eksporti bo'yicha peshqadam bo'lsa, Saudiya Arabistoni, BAA, Kuvayt kabi davlatlar yoqilg'i xomashyosining asosiy eksportyorlari hisoblanadi. Peru, Zambiya va Kongo Demokratik Respublikasi mis rudasi va tozalangan misni, Burundi va Uganda esa kofe xomashyosini jahon bozoriga ko'p miqdorda olib kiradi. Aynan xalqaro ixtisoslashuv davlatlarning jahon iqtisodiyotidagi o'rnini belgilaydi.



1. Jahon xo'jaligi deganda nima tushuniladi?
2. Xalqaro mehnat taqsimoti nima?
3. Jahon xo'jaligi qanday sektorlarga bo'linadi?
4. Xalqaro ixtisoslashuv tarmog'i deganda nima tushuniladi?

14-§. Jahon iqtisodiyoti markazlari va xalqaro integratsiya jarayonlari




Jahon iqtisodiyoti markazlari, ko'p markazlilik, globallashuv, xalqaro iqtisodiy integratsiya, transmilliy kompaniyalar.

Jahon xo'jaligi rivojlanishi undagi muhim iqtisodiy markazlarning faoliyati bilan bog'liq. Ishlab chiqarish, fan-texnika va moliyaviy resurslari katta bo'lgan, jahon xo'jaligi va siyosatida alohida o'rin egallagan davlatlar *jahon iqtisodiyotining asosiy markazlari* sifatida tilga olinadi. Shunday markazlar jahon xo'jaligi shakllanishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

XXI asrdagi jahon iqtisodiyoti o'z miqyosiga ko'ra globaldir, u to'liq ravishda bozor iqtisodiyoti tamoyillari, ishlab chiqarishning baynalminallashuviga asoslanadi. Bu holat esa jahon iqtisodiyotida *polisentrik – ko'p markazlilik* holatining shakllanishiga olib keldi. Hozirgi kunda G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika bilan bir qatorda MDH davlatlari, Xitoy, Yaponiya, Osiyoning yangi sanoatlashgan davlatlari, Fors ko'rfazi davlatlari, Hindiston, Braziliya, Meksika kabi iqtisodiy markazlar ham jahon iqtisodiyotida o'ziga xos o'ringa ega. 2017-yil holatiga ko'ra, Xalqa-

ro valyuta fondi ma'lumotlari jahon yalpi milliy mahsulot (YMM)ning 28 %i Shimoliy Amerika (25,8 %i AQSHga tegishli), deyarli 15 %i G'arbiy Yevropa, 16 %i Xitoy hissasiga to'g'ri kelganini ko'rsatdi (14-rasm).



14-rasm. Jahon yalpi milliy mahsulot (YMM) tarkibidagi yirik iqtisodiy markazlarning salmog'i (2017-y.,%).

Jahon davlatlari iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar orqali o'zaro yaqinlashishi, yagona axborot muhitida rivojlanishini anglatadigan *global-lashuv* jarayoni barcha mintaqalar hamda davlatlar xo'jaligi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Globallashuv jarayoni iqtisodiy integratsiyaning yuzaga kelishiga olib kelgan. **Xalqaro iqtisodiy integratsiya** davlatlarning o'zaro mustahkam aloqalarga hamda milliy xo'jaliklararo mehnat taqsimotiga asoslangan iqtisodiy birlashuv jarayonidir.

Integratsion uyushmalarning mintaqaviy (masalan, Yevropa Ittifoqi), tarmoq (masalan, neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti – OPEK) va xalqaro monopoliyalar ko'rinishidagi turlari mavjud. Har bir integratsion uyushma jahon xo'jaligi rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Ular orasida xalqaro monopoliyalarning asosiy ko'rinishi bo'lgan transmilliy kompaniyalar iqtisodiy imkoniyatlari yuqoriligi bilan ajralib turadi. Ikki va undan ortiq davlatda faoliyat ko'rsatadigan korxonalar hamda katta miqdorda xorijiy aktivlarga ega xalqaro kompaniya *transmilliy kompaniya* hisoblanadi. Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida ko'plab TMKlar ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat olib boradilar.

Korporatsiyalarning bozor qiymati, yillik daromadi kabi ko'rsatkichlari ularning jahon reytingidagi o'rnini aniqlab beradi. Unga ko'ra, AQSHning ko'p tarmoqli «Wal-Mart Stores» kompaniyasi, Niderlandiya va Buyuk Britaniyaning «Royal Dutch Shell», Xitoyning «China Petroleum & Chemical Corp. (Sinopec)» va «China National Petroleum (PetroChina)» kompaniyalari jahonning eng mashhur TMKlari deb tan olinadi. Jahonning yetakchi 500 ta TMKlarining katta qismi AQSH (128 ta), Xitoy (106 ta) va Yaponiya (53 ta) hududida ro'yxatdan o'tkazilgan.



1. Jahon xo'jaligi shakllanishi va rivojlanishida iqtisodiy markazlar qanday ahamiyatga ega bo'lgan?
2. XX asrning ikkinchi yarmida jahon xo'jaligining rivojlanishi nima hisobiga amalga oshdi?
3. Zamonaviy jahon iqtisodiyotining o'ziga xos jihatlari nimada?

15-§. Fan-texnika inqilobi va ishlab chiqarishning rivojlanishiga innovatsion texnologiyalarning ta'siri



Fan-texnika inqilobi, fan, texnika va texnologiya, ishlab chiqarish, boshqaruv, biotexnologiya, koinotni o'zlashtirish, nanotexnologiyalar.

Jahon xo'jaligi tarmoqlarining tez sur'atlarda rivojlanishi, ularning tarkibiy takomillashuviga fan-texnika inqilobi katta ta'sir ko'rsatgan. **Fan-texnika inqilobi (FTI)** deb jamiyatda fanning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchga aylanishi natijasida ishlab chiqarishda tub sifatiy o'zgarishlarga erishish jarayoniga aytiladi. 1950–1960-yillarda jahonning yetakchi davlatlarida fanga bo'lgan e'tiborning ortishi hamda ilmiy kashfiyotlarning tez fursatda amaliyotga tatbiq etilishi natijasida ishlab chiqarishda tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi, yangi sohalar paydo bo'ldi.

Inson tomonidan koinotni o'zlashtirishga bo'lgan harakatlar, yadro energiyasini tinch maqsadlarda o'zlashtirish (AESlar qurilishi), elektron hisoblash mashinalari – EHMlarning paydo bo'lishi insoniyat taraqqiyotidagi muhim yangiliklar bo'lib, ular fanning ishlab chiqarish bilan chambarchas aloqaga kirishganligini ko'rsatib berdi. O'z xususiyatiga ko'ra FTI ko'p qirrali bo'lib, o'zining tarkibiy qismlari hisoblangan fan, texnika, texnologiya, ishlab chiqarish hamda boshqaruvda katta o'zgarishlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

FTI ta'sirida fanda davlat tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari uchun sarflanadigan mablag'lar ko'paytirildi, ta'lim tizimida sifatiiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Fan sohalari tarkibida yangi yo'nalishlar rivojlandi (masalan, biotexnologiya, nanotexnologiya). Ishlab chiqarish bilan fan o'rtasidagi aloqalarning kuchayishi rivojlangan davlatlar tomonidan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga katta mablag'larning yo'naltirilishiga sababchi bo'ldi. Butun jahonda bajariladigan ilmiy tadqiqot ishlarining 4/5 qismi Yaponiya, AQSH, GFR va boshqa 10 ta rivojlangan davlatga to'g'ri keladi. Bu davlatlarda YMMning 2–3 % i fanga sarflanadi. Barcha rivojlanayotgan davlatlarga esa jahon bo'yicha fan rivojiga yo'naltiriladigan mablag'larning atigi 4–5 % i to'g'ri keladi.

Texnika va texnologiyalar sohasida yangi texnologik jarayonlarning joriy etilishi, EHM, robotlardan ishlab chiqarishda keng foydalanilishi, kvant texnikasining rivojlanishi (lazerlar) kabi o'zgarishlar natijasida ishlab chiqarish samarasi, mehnat unumdorligi oshdi. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va robotlashtirish jarayonlari inson mehnatini yengillashtirdi. Hozirgi davrda texnika va texnologiyalar sohasida yuz bergan yangiliklar ta'sirida mehnat bilan birga boshqa resurslarni ham tejashga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga ekologik holatni yaxshilash uchun bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan, Buyuk Britaniya va Italiyada po'latning 2/3 qismi temir-tersakdan, Buyuk Britaniya va Yaponiyada qog'ozning 1/2 qismi qog'oz chiqindilaridan olinadi.

Ilmiy yangiliklar ishlab chiqarish tarmoqlari tarkibida yangi sohalarining paydo bo'lishiga olib keldi (masalan, kimyo sanoatining polimerlar yo'nalishi). Bundan tashqari, FTI sanoat tarmoqlari orasida butunlay yangi va zamonaviy sanoat tarmoqlarining shakllanishiga zamin yaratdi (masalan, mikrobiologiya sanoati). Tannarxi qimmat bo'lgan tabiiy xomashyo o'rnini bosuvchi arzon sun'iy mahsulotlar (masalan, sun'iy kauчук) egallay boshladi.

Iqtisodiyotning samarali rivojlanishi boshqaruv jarayonini qay tarzda shakllantirish va tashkil qilish bilan bog'liq. FTI hozirgi kunda ish jarayonini tashkil etish zaruriy bilimlarga ega bo'lgan ish boshqaruvchilar (menejerlar) tomonidan amalga oshirilishini ta'minlab berdi.

Fan-texnika inqilobining davlatlar iqtisodiyoti rivojlanishiga ta'sirini baholashda fantalab sohalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi e'tiborga olinadi. Elektrotexnika mashinasozligi, mikroelek-

tronika, aviakosmik sanoat kabilar shu turkumdagi mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Fantalab sanoat tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Koreya Respublikasi kabi davlatlar yetakchilik qiladi.

Fan-texnika inqilobi hayotning barcha jabhalariga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Uning ta'sirida moddiy ishlab chiqarish bilan bir qatorda aholiga xizmat ko'rsatuvchi nomoddiy soha ham jahon xo'jaligida o'z o'rniga ega bo'la boshladi. Bu holat, o'z navbatida, postindustrial davrning boshlanishiga turtki bo'ldi.



1. Fan-texnika inqilobi mohiyatini tushuntirib bering.
2. Fan-texnika inqilobi jahon xo'jaligi rivojiga qanday ta'sir ko'rsatgan?
3. Jahon iqtisodiyotining fantalab tarmoqlarini aytib bering.
4. Yadro energiyasini tinch maqsadlarda o'zlashtirish deganda nima tushuniladi?

16-§. Jahon energetikasi geografiyasi




Yoqilg'i-energetika balansi, ko'mir sanoati, gaz sanoati, neft sanoati, elektr energetika, issiqlik energetikasi, gidroenergetika, atom energetikasi, noan'anaviy energiya resurslari.

Sanoat tarmoqlari orasida energetika alohida o'rin egallaydi. U turli yoqilg'i resurslarni (ko'mir, neft, tabiiy gaz, torf, yonuvchi slanes) qazib oladigan va qayta ishlaydigan, elektr energiyasini ishlab chiqaradigan tarmoqlar majmuyi hisoblanadi. Energetika sanoatning muhim tarmog'i bo'lib, boshqa sohalarning rivoji uchun asos yaratib beradi.

Neft, ko'mir, gaz va elektr energetika sanoatlari yoqilg'i-energetika majmuasining asosiy tarmoqlari bo'lib hisoblanadi.

Neft sanoati. 2016-yil ma'lumotlariga ko'ra, jahonda 4,3 mlrd. t neft qazib olingan bo'lib, uning asosiy qismi Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti (OPEK)ga a'zo davlatlar ulushiga tegishli. OPEK davlatlari (Birlashgan Arab Amirliklari, Eron, Iroq, Kuvayt, Saudiya Arabistoni, Angola, Gabon, Jazoir, Ekvatorial Gvineya, Kongo, Liviya, Nigeriya, Venesuela, Ekvador) hududida jahon neft zaxiralarining 2/3 qismi to'plangan bo'lib, yillik neft qazishning 1/3 qismi mazkur davlatlar hissasiga to'g'ri keladi (15-rasm).



15-rasm. OPEK tashkilotiga a'zo davlatlar (2018-y.).

Davlatlar orasida, 2016-yil yakunlariga ko'ra, neft qazib olish bo'yicha Saudiya Arabistoni (583 mln. t), Rossiya (548 mln. t), AQSH (537 mln. t), Kanada (220 mln. t) hamda Eron (200 mln. t) yetakchilik qiladi. Mazkur davlatlar hissasiga umumiy qazib olingan neftning 48,3 % i to'g'ri keladi. Saudiya Arabistoni, Rossiya, BAA, Kuvayt, Iroq kabi davlatlar yirik neft eksportyorlari hisoblansa, AQSH, Xitoy, Yaponiya, Yevropa davlatlari esa asosiy neft sotib oluvchi davlatlardir.

Gaz sanoati tabiiy gaz qazib chiqarish, qattiq va suyuq yoqilg'ilar-dan sun'iy gaz olish, gazdan kimyoviy mahsulotlar ajratishni o'z ichiga oladi. Tabiiy gaz yoqilg'i sifatida boshqa yoqilg'i turlaridan bir qancha afzalliklarga egadir. Boshqa yoqilg'i turlariga nisbatan tabiiy gazni qazib olish osonligi va arzonligi, issiqlik berish quvvatining yuqoriligi, transportabelligi, neft va ko'mirga nisbatan ekologik jihatdan tozaligi kabi holatlar gaz konlarini izlash va ishga tushirish ishlariga katta ahamiyat qaratilishiga sababchi bo'ldi.

Ma'lumotlarga ko'ra, gazning umumiy geologik zaxirasi, taxminan, 180 trillion m^3 ni tashkil etadi. Yillik qazib olish hajmi 3,6 trln. m^3 ga teng (2016-y.). Gaz qazib olish bo'yicha Osiyo, Shimoliy Amerika, Yevropa mintaqalari yetakchi bo'lsa, davlatlar orasida esa AQSH (749 mlrd. m^3) Rossiya (641 mlrd. m^3), Eron (190 mlrd. m^3), Qatar (182,8 mlrd. m^3), Kanada (174 mlrd. m^3) kabilar peshqadamlik qiladi.



16-rasm. Suyultirilgan tabiiy gazni saqlovchi rezervuarlar.

Soʻnggi yillarda gaz eksportida suyultirilgan gaz bilan savdo qilish katta ahamiyat kasb etmoqda (16-rasm). Tabiiy gaz suyuq holatga oʻtkazilishi jarayonida oʻrtacha hisobda 600 marotabagacha siqiladi. Bu esa juda katta miqdordagi gazni tashish imkonini beradi. Natijada maxsus gaz tashuvchi tankerlar yordamida uni qitʼalararo eksport qilish imkoniyati paydo boʻldi. Jahonning 30ga yaqin davlatlarida suyultirilgan gaz ishlab chiqariladi. Qatar, Avstraliya, Malayziya kabi davlatlar ular orasida yetakchilik qiladi. Yaponiya, Koreya Respublikasi, Xitoy kabi davlatlar suyultirilgan gazning

asosiy isteʼmolchilaridir.

Koʻmir sanoati yoqilgʻi-energetika tarmoqlari orasida eng birinchi shakllangan tarmoq hisoblanadi. Bu tarmoq koʻp mablagʻ va ishchi kuchi talab etuvchi soha hisoblanib, uning mahsulotlaridan elektr energetika, qora metallurgiya va kimyo sanoatlarida foydalaniladi. Hozirgi vaqtda qazib chiqarilayotgan koʻmirning asosiy isteʼmolchisi issiqlik elektr stansiyalaridir. Qazib chiqarilayotgan koʻmir, asosan, oʻsha davlatlarning oʻzida isteʼmol qilinadi. Qazib chiqarilayotgan koʻmirning atigi 10 % i eksportga chiqarilmoqda.


Jahon boʻyicha deyarli 7,3 mlrd. t. koʻmir qazib olinadi (2016-y). Qazib olingan koʻmirning 75 % dan ortigʻi Xitoy (3242 mln. t), Hindiston (708 mln. t), AQSH (672 mln. t), Avstraliya (503 mln. t), Indoneziya (460 mln. t) hissasiga toʻgʻri keladi.

Elektr energetika sanoati elektr energiyasini ishlab chiqarish va isteʼmolchilarga yetkazib berishni oʻz ichiga oladi.

Hozirgi vaqtda jahonda, taxminan, 25 trln. kW·h elektr energiyasi ishlab chiqarilmoqda (2016-y.). Xitoy (6,17 trln. kW·h), AQSH (4,4 trln. kW·h), Hindiston (1,4 trln. kW·h), Rossiya (1,1 trln. kW·h), Yaponiya (1,0 trln. kW·h) elektr energiyasini eng koʻp ishlab chiqaruvchi davlatlar hisoblanadi.

Maʼlumki, elektr energiyasi ishlab chiqarishda anʼanaviy (issiqlik, gidro va atom elektr energetika tarmoqlari) va noanʼanaviy (quyosh, shamol,

suv qalqishi, geyzerlardan olinadigan energiya va b.) energiya manbalaridan foydalaniladi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan uch turdagi an’anaviy elektr energetika tarmoqlari, taxminan, 99 % elektr energiyasini ishlab beradi. Muqobil energiya manbalarining salmog‘i esa hozircha ancha past (17-rasm).



17-rasm. Jahon elektr energetika sanoatining tarmoqlar tarkibi (2017-y.).

Issiqlik elektr energetikasi elektr energetikaning yetakchi tarmog‘i hisoblanib, yoqilg‘ini yoqish hisobiga issiq bug‘ va elektr energiyasini ishlab chiqaradi. Niderlandiya, JAR, Polsha, Ruminiya, Meksika va boshqa davlatlarda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining asosiy qismi aynan IESlarga to‘g‘ri keladi. Tuoketuo (Xitoy), Surgut GRES-2 (Rossiya) jahondagi eng yirik IESlari hisoblanadi.

Gidroelektr energetika – suv oqimining energiyasi asosida elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi sanoat tarmog‘i. GESlar, asosan, ko‘p suvli va tez oqadigan tog‘ daryo vodiylarida quriladi. Norvegiya, Braziliya, Albaniya, Kolumbiya kabi davlatlarda elektr energiyasining asosiy qismi GESlarda ishlab chiqariladi. Ayniqsa tog‘li davlatlarning elektr energetikasida GESlarning ahamiyati katta. Xitoyning Yanszi daryosida barpo etilgan «Uch dara» GESi jahonning eng yirik GESi hisoblanadi.

Atom elektr energetikasi sanoati elektr energetikaning fan-texnika inqilobi davrida vujudga kelgan, murakkab texnologik jarayonlarni o‘zida mujassamlashtirgan tarmog‘idir. Dunyodagi birinchi AES Rossiya Federatsiyasining Obninsk shahrida ishga tushirilgan edi. Hozirgi kunda jahonning 30 dan ortiq davlatida AESlar faoliyat olib bormoqda.

Eng yirik AESlar Yaponiya, AQSH, Fransiya, GFR, Rossiya hududida joylashgan. Fransiya, Belgiya, Koreya Respublikasi kabi davlatlar AESlar asosida olinuvchi energiya miqdori yuqori bo'lgan davlatlar orasida peshqadamlik qiladi.

So'nggi yillarda jahon mamlakatlarida ekologik jihatdan zararsiz energiya oluvchi muqobil manbalarga talab kuchaya bormoqda. Quyosh, shamol, suv qalqishi, geotermal energiya kabilar shular jumlasidandir. Geotermal energiyadan foydalanish AQSH, Rossiya, Filippin, Italiya, Islandiya kabi davlatlarda yo'lga qo'yilgan bo'lsa, Fransiya, Kanada, Rossiya, Xitoy dengiz qalqishidan, Xitoy, Daniya, Niderlandiya, Germaniya, AQSH shamoldan elektr energiyasini ishlab chiqarish bo'yicha yetakchilik qilmoqda.



1. Quyida ko'rsatib o'tilgan davlatlar orasidan OPEKga a'zo bo'lmagan uch davlatni aniqlang:
a) Xitoy; b) Nigeriya; c) Indoneziya; d) Kuvayt; e) BAA; f) Bahrayn.
2. Matnda ko'rsatilgan tabiiy gaz qazib oluvchi asosiy davlatlarning jahon umumiy gaz qazib olish miqdoridagi salmog'ini aniqlang.
3. Kelajakda jahon yoqilg'i-energetika balansida qanday o'zgarishlar yuz berishi mumkin?

17-§. Jahon metallurgiya va kimyo sanoati geografiyasi



Metallurgiya, qora metallurgiya, rangli metallurgiya, cho'yan, po'lat, kimyo sanoati.

Metallurgiya majmuasi sanoatning tayanch tarmoqlaridan biri bo'lib, rudalarni qazib oluvchi, ularni boyituvchi, metall va metall qotishmalarga ishlov beruvchi soha hisoblanadi. Mazkur majmua foydalanadigan xomashyo va ishlab chiqaradigan mahsulotlar xususiyatlariga ko'ra ikki mustaqil tarmoqqa – qora va rangli metallurgiyaga ajratiladi.

1. **Qora metallurgiya**ning asosiy mahsulotlari bo'lgan cho'yan va po'latdan turli sanoat tarmoqlari hamda qurilish sohasida ko'p foydalaniladi.

Ushbu sanoat tarmog'ida juda katta hajmdagi temir rudasi va kokslanadigan ko'mirdan foydalaniladi. Shu sababli dastlabki paytlarda tarmoq korxonalari, asosan, yirik temir rudasi va ko'mir konlariga yaqin joylashtirilgan. FTI davrida tarmoqda yangi ishlab chiqarish texnologiyasiga

o'tish tufayli temir rudasi va ko'mirni uzoq masofadan keltirish imkoniyatlari kengaydi. Natijada G'arbiy Yevropada, Yaponiya, AQSHning qora metallurgiya korxonalarida dengiz portlari atroflarida joylashtirila boshlandi.

Jahon qora metallurgiya sanoatida hozirgi vaqtda xomashyo resurslarini yetkazib beruvchi, tayyor metall mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va ularni iste'mol qiluvchi mamlakatlar guruhlarini shakllangan. Jahonda qazib olinadigan temir rudasining asosiy qismi Xitoy, Avstraliya, Braziliya, Hindiston va Rossiya hissasiga to'g'ri keladi (80 % dan ortiq). Osiyo qit'asi davlatlari qazib olinadigan temir rudasining deyarli 50 % ini yetkazib beradilar. Temir rudasini katta miqdorda import qiluvchi davlatlar – AQSH, Xitoy, Buyuk Britaniya, Yaponiya, GFR, Koreya Respublikasi kabilar hisoblanadi.

Tayyor metall mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida Osiyo davlatlarining yaqqol ustunligi sezilib turadi. Ayniqsa, Sharqiy Osiyo mintaqasi davlatlari bu sohada peshqadam. Bu davlatlar hissasiga ishlab chiqarilgan cho'yanning 71 % i va po'latning 60,3 % i to'g'ri keladi.

9-jadval

**Qora metallurgiya sanoatining yetakchi davlatlari
(2016-yil ma'lumotlari)**

| № | Cho'yan ishlab chiqaruvchi yetakchi davlatlar | Miqdori, mln. t | Po'lat quyish bo'yicha yetakchi davlatlar | Miqdori, mln. t |
|---|---|-----------------|---|-----------------|
| 1 | Xitoy | 701 | Xitoy | 808 |
| 2 | Yaponiya | 80,2 | Yaponiya | 105 |
| 3 | Hindiston | 63,7 | Hindiston | 95,5 |
| 4 | Rossiya | 51,9 | AQSH | 78,5 |
| 5 | Koreya Respublikasi | 46,3 | Rossiya | 69,8 |
| | Jahon bo'yicha | 1165 | Jahon bo'yicha | 1628 |

2. **Rangli metallurgiya** tarmoq sifatida murakkab ichki tuzilishga ega. U o'z tarkibiga rangli metall rudalarini qazib olish va boyitish, toza metall va turli qotishmalar olish, ikkilamchi xomashyoni qayta ishlash kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Mazkur tarmoq 70 turga yaqin rangli metallarni qayta ishlasa-da, ular orasida alyuminiy, mis, qo'rg'oshin, rux

ishlab chiqarish tarmoqlari ahamiyatlidir. Rangli metallurgiya tarmog‘i ishlab chiqarilgan mahsulotlari turli sohalarda qo‘llaniladi. Masalan, alyuminiy mashinasozlik (aviasozlik, elektrotexnika), qurilish, transport hamda keng iste‘mol uchun mo‘ljallangan maishiy buyumlar ishlab chiqarishda qo‘llanilsa, misdan elektr energetika, mashinasozlik kabi sanoat tarmoqlarida foydalaniladi.

Jahon rangli metallurgiyasi rivojlanishining birinchi bosqichida xomashyo omili, yengil metallar ishlab chiqarishga talabning ortishi bilan (ikkinchi bosqich) energiya omili hal qiluvchi ta‘sirga ega bo‘la boshladi. Shu bilan birga transport va iste‘molchi omillari ham tarmoqning rivojlanishida o‘z o‘rniga ega.

Rivojlanayotgan mamlakatlar rangli metallurgiyada xomashyo resurslarini yetkazib berishga, rivojlangan mamlakatlar esa iste‘molga tayyor rangli metallar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Masalan, rangli metallurgiyaning muhim tarmog‘i hisoblangan alyuminiy sanoatida Avstraliya, Xitoy, Braziliya, Indoneziya, Hindiston kabi davlatlar asosiy xomashyo – boksit yetkazib beruvchi davlatlardir. Xitoy, Rossiya, Kanada, AQSH, BAA esa tozalangan alyuminiy ishlab chiqarish bo‘yicha peshqadamlik qiladi.

Kimyo sanoati jahon iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri. Kimyo sanoati mahsulotlaridan iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida va aholi kundalik hayotida keng foydalaniladi.

Kimyo sanoati tarmoqlari hududiy joylashuvida xomashyo (kimyo sanoatining barcha tarmoqlari), suv (kimyo sanoatining barcha tarmoqlari), energiya (neft-gaz kimyosi) omillarining ahamiyati katta.

Jahon kimyo sanoatida to‘rt asosiy mintaqa ajralib turadi: *Sharqiy Osiyo, AQSH, G‘arbiy Yevropa, MDH davlatlari*. Kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha ko‘p holatlarda mazkur hudud davlatlari yetakchilik qiladi. Masalan, sulfat kislotasining asosiy ishlab chiqaruvchilari AQSH, Xitoy, Rossiya kabilar hisoblansa, mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarishda Xitoy, AQSH, Hindiston kabilar alohida o‘rinlarga ega. Farmasevtika sanoatining rivojlanishi bo‘yicha AQSH, Germaniya, Fransiya, Polsha, Xitoy va Hindiston davlatlari ajralib turadi.



1. Metallurgiya sanoati korxonalarining hududiy joylashuviga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
2. Quyida ko'rsatilgan davlatlarning qay birlari uchun qora metallurgiya xalqaro ixtisoslashuv sohasi hisoblanadi?
1) Xitoy; 2) Hindiston; 3) Rossiya; 4) Zambiya; 5) Argentina; 6) Germaniya.
3. Qaysi mintaqalar jahon kimyo sanoatining asosiy markazlari hisoblanadi?

18-§. Jahon mashinasozlik va yengil sanoati geografiyasi



Mashinasozlik sanoati, kemasozlik, avtomobilsozlik, yengil sanoat, to'qimachilik.

Mashinasozlik sanoatining asosiy vazifasi iqtisodiyotning hamma sohalarini mashina va asbob-uskunalar bilan ta'minlashdan iborat.

Mashinasozlik majmuasi korxonalarining hududiy joylashuvida bir qator omillarning ta'siri mavjud. Ko'pgina tarmoqlarda bo'lgani kabi mehnat resursi omili korxonalar joylashuvida ahamiyatli hisoblanadi. Bundan tashqari, fan-texnika taraqqiyoti omili ham kuchli ta'sirga ega bo'lib, uning natijasida tarmoq ichida mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarining tezlashuvi, samaradorlikning ortishi va ilmiy markazlar bilan integratsiyaning kuchayishiga olib keladi.

FTI davrida jahon mashinasozligi fantalab tarmoqlardan biriga aylandi. Natijada, tarmoqning zamonaviy sohaları tez rivojlana boshladi. Shu bilan birga transport (infratuzilmaning rivojlanganligi), iste'mol (talab va iste'mol bozori xususiyatlari), xomashyo (og'ir mashinasozlik korxonalarining qora metallurgiya markazlariga yaqinligi) omillari ta'siri ham mashinasozlik korxonalarining hududiy joylashuvida e'tiborga olinadi.

Mazkur sanoat tarmog'i metallga ishlov berish sohasi bilan birga o'z tarkibiga 200 dan ortiq ishlab chiqarish tarmoqlarni jamlaydi. Ular orasida kemasozlik, avtomobilsozlik, aviakosmik, elektronika va elektrotexnika sanoat tarmoqlari alohida ahamiyatga ega. Kemasozlik tarmog'i mahsulotlari dengiz transportida xalqaro yuklarni tashishda katta ahamiyatga ega bo'lib, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Xitoy ushbu sohaning yetakchilari hisoblanadi.

Avtomobilsozlik mashinasozlik sanoatining eng muhim tarmog‘i hisoblanadi. Jahonning 30 ga yaqin davlatlarida avtomobillar ishlab chiqarilib, ular orasida Xitoy, Yaponiya, Germaniya, AQSH, Koreya Respublikasi kabi davlatlar yetakchilik qiladi. Rossiya, AQSH, Fransiya, XXR, Yaponiya aviakosmik sanoati rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin oladi.

Rivojlangan davlatlarda moliyaviy, fan-texnika imkoniyatlarining yuqoriligi sababli mashinasozlik sanoatining yirik ishlab chiqarish korxonalari aynan shu davlatlar hududida joylashgan. Shu bilan birga ushbu hududlarda jahonning 4 ta yirik mashinasozlik markazlari ham shakllangan. Ular orasida **Shimoliy Amerika** mintaqasi barcha mashinasozlik tarmoqlari rivojlanganligi bilan ajralib turadi. **G‘arbiy Yevropa** davlatlari ommaviy mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo‘lsa, **Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari** an’anaviy mashinasozlik mahsulotlari bilan birga yuqori texnologiyaga asoslangan fantalab mahsulotlarni ishlab chiqaradi (radio-telemexanika, maishiy xizmat texnikasi). **MDH davlatlari** mashinasozligida og‘ir va o‘rta mashinasozlik katta o‘rin tutadi.

Yengil sanoat aholini keng iste‘mol mahsulotlari (mato, kiyim, poyabzal va boshqalar) bilan ta‘minlovchi sanoat tarmog‘i hisoblanadi. Ushbu tarmoq xomashyo sifatida, asosan, qishloq xo‘jalik mahsulotlaridan foydalanadi. Xomashyo, iste‘mol, mehnat resurslari omillari tarmoq rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Yengil sanoatda eng yetakchi tarmoqlar to‘qimachilik, tikuvchilik va charm-poyabzal tarmoqlari hisoblanadi.

To‘qimachilik sanoati ko‘p mehnat talab qiluvchi tarmoq bo‘lganligi sababli, ayni vaqtda arzon ishchi kuchiga boy rivojlanayotgan mamlakatlarda tez sur‘atlar bilan rivojlanmoqda. To‘qimachilikda, asosan, paxta, jun, ipak, zig‘ir va kimyoviy (sun‘iy) tolalardan mato tayyorlanadi. So‘nggi yillarda mazkur sanoat mahsulotlari tarkibida sintetik tolali matolar ishlab chiqarish hajmi oshib bormoqda.

Jahon to‘qimachiligida beshta mintaqa shakllangan: *Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo, MDH davlatlari, Yevropa va AQSH*. Agar Osiyo mintaqalarida paxta va ipak tolali matolar katta salmoqqa ega bo‘lsa, Yevropa va AQSHda asosiy o‘rinni sintetik tolali va trikotaj matolar egallaydi.

Tikuvchilik sanoati hozirgi kunda yengil sanoatning eng qimmat turdagi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Unda o‘ziga

xos «moda markazlari» shakllangan bo‘lib, ular Parij, London, Berlin va Nyu-York shaharlaridir. Arzon ishchi kuchidan foydalanish imkoniyati mavjudligi sababli tikuvchilik sohasi korxonalari sekin-asta rivojlanayotgan mamlakatlarga ko‘chib o‘tmoqda.

Charm-poyabzal tarmog‘i teriga ishlov berish va undan turli mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Xitoy, Italiya, Hindiston, Ispaniya, AQSH, Fransiya kabi davlatlar mazkur tarmoqning yetakchi davlatlari hisoblanadi.



1. Mashinasozlik sanoatining qanday tarmoqlari fan-texnika inqilobi davrida rivojlandi?
2. Qaysi davlatlar avtomobil ishlab chiqarishda yetakchilik qiladi?
3. Yengil sanoatning rivojlanishida xomashyo omili qanday ahamiyatga ega?
4. Rivojlangan davlatlar va rivojlanayotgan davlatlar yengil sanoati bir-biridan qay jihatlariga ko‘ra farq qiladi?

19-§. Jahon dehqonchiligi geografiyasi



Qishloq xo‘jaligi, tovar va iste‘mol qishloq xo‘jaligi, donli ekinlar, moyli ekinlar, ildizmevali ekinlar, texnik ekinlar.

Qishloq xo‘jaligi insoniyat tarixida o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ishlab chiqarish tarmog‘i hisoblanadi. Hozirgi kunda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda qishloq xo‘jaligining ahamiyati ancha pasaygan bo‘lishiga qaramay, jahonning ko‘p sonli rivojlanayotgan davlatlari uchun u asosiy xalqaro ixtisoslashuv sohasi bo‘lib qolmoqda. Jahon bo‘yicha hozirgi paytda, taxminan, 1,4 mlrd. kishi qishloq xo‘jaligi sohasida band.

Qishloq xo‘jaligining asosiy xususiyatlaridan biri, uning tabiiy iqlim sharoiti bilan chambarchas bog‘liq ekanligidir. Aynan tabiiy iqlimiy sharoiti ko‘p jihatdan jahon davlatlari qishloq xo‘jalik tarmoqlariga ixtisoslashuvini belgilaydi. Shu sababli, qishloq xo‘jalik tarkibi va tarmoqlarining hududiy joylashish holati turlicha bo‘ladi. Ushbu tarmoq rivojlanishiga tabiiy iqlim sharoitidan tashqari, iqtisodiy-ijtimoiy sharoit (qishloq xo‘jaligiga kapital qo‘yilmalar jalb etish, texnik vositalar bilan ta‘minlanganlik holati) hamda aholining milliy-diniy tarkibi ham katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Jahon davlatlari YIMda qishloq xo'jaligining salmog'i (2017-y., %)

| YIMda qishloq xo'jaligi salmog'i yuqori bo'lgan davlatlar | Qishloq xo'jaligining YIMdagi salmog'i, % | YIMda qishloq xo'jaligi salmog'i past bo'lgan davlatlar | Qishloq xo'jaligining YIMdagi salmog'i, % |
|---|---|---|---|
| Liberiya | 77 | Monako | 0 |
| Somali | 65 | Qatar | 0,1 |
| Gvineya-Bisau | 62 | San-Marino | 0,1 |
| Kongo DR | 55 | Kuvayt | 0,3 |
| MAR | 55 | Lyuksemburg | 0,4 |

Ishlab chiqaradigan mahsulotlar xususiyatlariga ko'ra, qishloq xo'jalik tarmoqlari ikki guruhga: *dehqonchilik (ziroatchilik)* va *chorvachilik* bo'linadi. Shuningdek, qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish xususiyatiga ko'ra, ikki tur ajratiladi. **Birinchisi, rivojlangan tovar qishloq xo'jaligi** bo'lib, unda ishlab chiqariladigan mahsulotlar bozor, birinchi navbatda, tashqi bozor uchun mo'ljallangan bo'ladi. Bunday xo'jaliklar ishi **intensiv** tashkil qilingan zamonaviy dehqonchilik va chorvachilik sohalarini bo'lishi mumkin. Tovar qishloq xo'jaligi, asosan, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda keng rivojlangan. Odatda, ularda FTI yutuqlaridan ustun darajada foydalanishga erishilmoqda.

Ikkinchisi, ichki iste'moli uchungina mahsulot ishlab chiqaradigan, odatda, kam samarali qishloq xo'jaligidir. Bunday xo'jaliklar qadimdan keng tarqalgan bo'lganligi sababli **an'anaviy qishloq xo'jaligi** ham deyiladi. Ularda ish, odatda, **ekstensiv** yo'l bilan tashkil qilingan bo'ladi. Hozirgi vaqtda bunday qoloq dehqonchilik xo'jaliklari jahonning ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarida keng tarqalgan. Markaziy va Sharqiy Afrika, Janubiy va Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarida hali ham omoch kabi oddiy ish qurollaridan foydalaniladi (18-rasm).

Donli ekinlar yetishtirish dehqonchilikning eng yirik tarmog'idir. Donli ekinlar turlari ancha ko'p bo'lib, ular jahon ekin maydonlarining yarmi (0,7 mlrd. ga) da ekiladi. Donchilik tarkibida bug'doy, sholi va makka-jo'xori yetishtirish sohalarining salmog'i katta. Jahon yalpi don mahsu-

lotlari hosilining 80 % i mazkur ekin turlariga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari, arpa, suli, javdar kabi turdagi don mahsulotlari mavjud.



Intensiv qishloq xo‘jaligi



Ekstensiv qishloq xo‘jaligi

18-rasm. Jahon davlatlarida qishloq xo‘jaligining rivojlanish tafovutlari.

Bug‘doy donli ekinlar orasida eng ko‘p ekiladigan ekin turi hisoblanadi. 2016-yil ma‘lumotlariga ko‘ra, jahonda 800 mln. t bug‘doy yetishtirilgan. Bug‘doy yetishtirishda Xitoy (131,7 mln.t), Hindiston (86,9 mln. t), Rossiya (73,3 mln. t), AQSH (62,9 mln. t), Kanada (30,5 mln. t) yetakchilik qiladi. Jahon bug‘doy hosilining deyarli yarmi mazkur davlatlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Jahonning asosiy bug‘doy ekiladigan hududlari Shimoliy yarim sharning o‘rta kengliklari (AQSH, Kanada, Rossiya, Ukraina, Qozog‘iston, Xitoy) va Janubiy yarim sharning o‘rta kengliklari (Avstraliya, Argentina, Braziliya) hisoblanadi.

Jahon donli ekinlari orasida yalpi hosili va ahamiyatiga ko‘ra ikkinchi o‘rinni sholi egallaydi. Agar bug‘doy aksariyat hollarda dasht mintaqalari ekinini hisoblansa, sholi, asosan, musson iqlimli hududlarda yetishtiriladi. Qo‘l mehnatiga asoslangan sholichilikning rivojlanishi nafaqat agro-iqlimiy sharoitga, balki ko‘p sonli ishchi kuchiga ham bog‘liq. Ushbu omillar jamlangan Sharqiy, Janubi-sharqiy va Janubiy Osiyo jahonning asosiy sholichilik mintaqalari hisoblanadi. Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Bangladesh, Vyetnam kabi davlatlar sholi yalpi hosili bo‘yicha jahonda peshqadamlik qiladi.

Makkajo‘xori jahon don hosilining 1/4 qismini beruvchi ekin turi hisoblanadi. Uning tarqalish mintaqalari deyarli bug‘doy ekiladigan may-

donlar bilan bir xil hududlarga to‘g‘ri keladi. AQSH, Braziliya, Meksika, Argentina, Xitoy jahonning eng ko‘p makkajo‘xori yetishtiruvchi davlatlari hisoblanadi. AQSH bu ekinning jahon bo‘yicha umumiy hosilining 25 % dan ortig‘ini ta‘minlaydi.

Aholi tomonidan iste‘mol qilinadigan moyning asosiy qismi soya, kungaboqar, yeryong‘oq, chigit, zaytun kabi ekinlardan olinadi. Soya yetishtirishda – AQSH (jahon soyasining yarmi), Braziliya, Xitoy; yeryong‘oq yetishtirishda – Hindiston, G‘arbiy Afrika davlatlari; kungaboqar yetishtirishda – Ukraina, Rossiya, Argentina; zaytun yetishtirishda Italiya, Ispaniya kabi O‘rta dengizbo‘yi davlatlari alohida o‘rin egallaydi.

Ildizmevalilardan kartoshka yetishtirishda Xitoy, Hindiston, Rossiya, Ukraina, AQSH yetakchi davlatlar hisoblanadi. Qandli ekinlardan qandlavlagi yetishtirishda Rossiya, Fransiya, AQSH; shakarqamish yetishtirishda Braziliya, Hindiston, Xitoy yetakchilik qiladi.

Choy, qahva, kakao quvvat beruvchi ekin turlari hisoblanadi. Choy yalpi hosili bo‘yicha Xitoy, Hindiston, Keniya, qahva hosilini yetishtirish bo‘yicha Braziliya, Indoneziya, Vyetnam, kakao dukkaklari yig‘ish bo‘yicha Kot-d’Ivuar, Gana, Indoneziya peshqadamlik qiladi. Texnik ekinlar orasida paxta katta salmoqqa ega bo‘lib, Xitoy, AQSH, Hindiston, Pokiston, Braziliya, O‘zbekiston eng ko‘p paxta yetishtiradigan davlatlar hisoblanadi. Tabiiy kauchuk (geveya) yetishtirishda Tailand, Indoneziya, Malayziya, Hindiston, Xitoy davlatlari katta salmoqqa ega.



1. Aytingchi, qishloq xo‘jaligi sohasi rivojlanishida milliy-diniy omil qanday ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin?
2. Ekvatorial iqlim mintaqasiga xos dehqonchilik tarmoqlarini sanab bering.
3. Mavzu matnidan foydalanib quyidagi jadvalni to‘ldiring:

| № | Ekin turi | Ekin turini yetishtiruvchi peshqadam davlatlar |
|---|--------------|--|
| 1 | Sholi | |
| 2 | Kungaboqar | |
| 3 | Choy | |
| 4 | Paxta | |
| 5 | Shakarqamish | |

20-§. Jahon chorvachiligi va baliqchiligi geografiyasi



Chorvachilik, qoramolchilik, cho‘chqachilik, qo‘ychilik, baliqchilik, parrandachilik, darrandachilik, tuyachilik.

Chorvachilik jahon qishloq xo‘jaligining chorva mollarini ko‘paytirish bilan shug‘ullanadigan tarmog‘i sanaladi. Chorvachilik qoramolchilik, qo‘ychilik, echkichilik, cho‘chqachilik, yilqichilik, tuyachilik, parrandachilik, darrandachilik, asalarichilik, pillachilik kabi tarmoqlarga bo‘linadi. Qoramolchilik, qo‘ychilik, cho‘chqachilik va parrandachilik chorvachilikning eng katta ahamiyatiga ega tarmoqlari hisoblanadi.

Aholi iste‘molidagi jami go‘shtning, taxminan, 30 % ini, sutning asosiy qismini qoramolchilik yetkazib beradi. Mo‘tadil mintaqaning o‘rmon va dasht zonalarida intensiv, qurg‘oqchil hududlarda esa ko‘chmanchi ekstensiv qoramolchilik rivojlangan. Jahonda qoramollarning umumiy soni 1,3 mlrd. boshdan ortiq bo‘lib, ularning soniga ko‘ra Hindiston (298 mln. bosh), Braziliya (220 mln. bosh), Xitoy (108 mln. bosh), AQSH (92 mln. bosh) va Pokiston (79,4 mln. bosh) mamlakatlari ajralib turadi (2016-y.).

Qo‘ychilik, asosan, jahonning quruq tog‘ yaylovlari, dasht va chalacho‘l mintaqalarida rivojlangan chorvachilik tarmog‘i hisoblanadi. Mayin va yarimmayin junli qo‘ychilik iqlimi yumshoq, namroq dasht, chalacho‘l mintaqalarida; teri va go‘sht beruvchi qo‘ychilik, jumladan, qorako‘l qo‘ychiligi esa qurg‘oqchil chalacho‘l va cho‘l mintaqalarida rivojlangan. Ma‘lumotlarga ko‘ra, jahon bo‘yicha 1,1 mlrd. boshdan ortiq qo‘y mavjud bo‘lib, Xitoy (162 mln. bosh), Avstraliya (67,5 mln. bosh), Hindiston (63 mln. bosh), Eron (42,5 mln. bosh), Nigeriya (42 mln. bosh) kabi davlatlar qo‘ylarning umumiy soni bo‘yicha yetakchilik qiladi (2016-y.). Avstraliya va Yangi Zelandiya intensiv qo‘ychilik yuqori darajada rivojlangan davlatlar hisoblanib, ular jahon bozoriga katta miqdorda jun va teri yetkazib bermoqda.

Cho‘chqachilik jahon go‘sht mahsulotlarining 40 % dan ortig‘ini tayyorlab beruvchi tarmoq hisoblanadi. Mazkur tarmoq donchilik va kartoshkachilik rivojlangan rayonlarda hamda yirik shaharlar va oziq-ovqat sanoati markazlari yaqinida rivojlantiriladi. Bu tarmoq rivojlanishida

milliy-diniy omilning ta'siri katta bo'lib, islom davlatlari chorvachiligida ushbu tarmoq mavjud emas. Cho'chqalarning umumiy soni 1 mlrd. boshga yaqin bo'lib, ularning deyarli yarmi Xitoy hissasiga to'g'ri keladi (457 mln. bosh). AQSH (71,5 mln. bosh), Braziliya (40 mln. bosh), Ispaniya (29,2 mln. bosh), Germaniya (27,4 mln. bosh) kabi davlatlar ham cho'chqachilik tarmog'ining peshqadamlari hisoblanadi.

Parrandachilik aholi iste'moli uchun parhez go'sht (jami iste'moldagi go'shtning 20 % ga yaqini), tuxum va yumshoq pat tayyorlab beruvchi tarmoq hisoblanib, asosan, donchilik rayonlarida rivojlangan. Xitoy (6,2 mlrd. bosh), AQSH (2,2 mlrd. bosh), Indoneziya (2,1 mlrd. bosh), Braziliya (1,4 mlrd. bosh), Eron (1 mlrd. bosh) kabi davlatlar parranda soniga ko'ra jahonda yetakchi o'rinlarni egallaydi.

Shuningdek, chorvachilikning, asosan, mo'tadil mintaqa davlatlariga xos bo'lgan pillachilik (Xitoy, Yaponiya, O'zbekiston, Ispaniya, Italiya va h.k.), cho'l sharoitli davlatlar uchun an'anaviy hisoblangan tuyachilik (Somali, Sudan, Mavritaniya va b.), jahonning ko'plab mintaqalarida rivojlangan yilqichilik (Xitoy, Braziliya, Meksika), shimoliy mintaqalardagi bug'uchilik (Rossiya, Kanada, AQSH), shimoliy kengliklar hamda daryo qayirlarida shakllangan darrandachilik (Rossiya, Kanada, Skandinaviya davlatlari) kabi sohalari ham jahon iqtisodiyotida o'z o'rniga ega.

Baliqchilik xo'jalikning eng qadimiy tarmoqlaridan biri. Ushbu tarmoq hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Chunki aynan mazkur tarmoq jahon aholisini inson salomatligi uchun zarur bo'lgan oqsil va boshqa biologik faol birikmalar bilan ta'minlab beradi. Baliq ovlash bilan amalda suv havzalariga ega bo'lgan jahonning deyarli barcha davlatlarida shug'ullaniladi. Baliqlarning asosiy qismi sho'r (dengiz va okeanlar), qolgan qismi esa chuchuk suv havzalaridan ovlanadi. Baliqchilik bo'yicha okeanlar orasida Tinch (okeanlarda ovlanadigan baliqning 66 %) okean, dengizlar orasida esa Norvegiya, Bering, Oxota, Yapon dengizlari peshqadamlik qiladi. Davlatlar orasida esa Xitoy (jahon baliq ovlash hajmining 1/3 qismi to'g'ri keladi), Indoneziya, Hindiston kabi davlatlar yetakchi hisoblanadi.



1. Chorvachilik sohasi rivojlanishiga qanday omillar ta'sir etadi?
2. Berilgan bilimlar asosida jahon mintaqalari chorvachiligining ixtisoslashgan tarmoqlarini aniqlang hamda quyidagi jadvalni to'ldiring:

| № | Mintaqalar | Chorvachilikning ixtisoslashgan tarmoqlari |
|---|------------------------|--|
| 1 | Yevropa | |
| 2 | Osiyo | |
| 3 | Afrika | |
| 4 | Shimoliy Amerika | |
| 5 | Janubiy Amerika | |
| 6 | Avstraliya va Okeaniya | |

3. Quyidagi davlatlar orasidan qo‘ychilik rivojlangan davlatlarni ajratib ko‘rsating:
 a) Hindiston; b) AQSH; c) Avstraliya; d) Xitoy; e) Braziliya; f) Rossiya.

21-§. Jahon transporti geografiyasi



Transport, quruqlik transporti, avtomobil transporti, quvur transporti, temiryo‘l transporti, havo transporti, dengiz transporti, daryo transporti.

Ma’lumki, transport iqtisodiyotning muhim tarmog‘i bo‘lib, ishlab chiqarish va aholining yuklarga ehtiyojlarini o‘z vaqtida muttasil ta’minlab turadi. Shu bilan birga u davlatlararo mahsulot va xizmatlar almashinuvini ta’minlab, xalqaro iqtisodiy aloqalarning amalga oshirilishida asos bo‘lib xizmat qiladi. Transport tizimini haqli ravishda jahon iqtisodiyotining «qon tomiri» deb ham nomlashadi. FTI transportning yanada rivojlanishiga, uning yangi turlari paydo bo‘lishiga sababchi bo‘ldi. Transport tarmoqlari rivojlanishi davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, maydoni, hududining o‘zlashtirilganligi kabi omillar bilan bog‘liq.

Tez rivojlanib borayotgan jahon transporti murakkab va o‘ziga xos tarmoqlar tizimini tashkil etadi. Ular quruqlik (temiryo‘l, avtomobil va quvur), suv (dengiz va daryo) hamda havo transporti tarmoqlariga bo‘linadi. Avtomobil transporti keng tarqalgan transport turi hisoblanib, u XX asrda keng rivojlandi. Mazkur transport turida «eshikdan-eshikkacha» olib borib qo‘yish imkoniyatining mavjudligi uning eng ommabop transport turiga aylanishiga sababchi bo‘ldi. Avtomobil yo‘llarning jahon bo‘yicha umumiy uzunligi 28 mln. km dan ortiq bo‘lib, mazkur ko‘rsatkichga ko‘ra AQSH, Hindiston, Xitoy, Braziliya, Rossiya kabi davlatlar yetakchilik qiladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, jahon davlatlaridagi avtomobillarning

umumiy soni 1 mlrd.dan ortiq bo‘lib, ularning katta qismi rivojlangan davlatlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Temir yo‘l transporti sanoat inqilobi davrida paydo bo‘lgan, FTI yutuqlari natijasida zamonaviy ko‘rinishga ega bo‘lgan quruqlik transport tarmog‘iga aylandi. Katta miqdordagi sanoat va qishloq xo‘jaligi yuklarini uzoq masofalarga yetkazib berish xususiyatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Temir yo‘llar umumiy uzunligi jahonda, taxminan, 1,2 mln. km bo‘lib, AQSH, Xitoy, Rossiya, Hindiston, Kanada davlatlari bu borada peshqadam hisoblanadi.



Rivojlanayotgan davlat (Hindiston)



Rivojlangan davlat (Yaponiya)

19-rasm. Jahon davlatlari temir yo‘l transportidagi tafovutlar.

Quvur transporti suyuq, gazsimon ko‘rinishdagi yuklarni uzoq masofaga yetkazib berishga mo‘ljallangan transport tarmog‘i hisoblanadi. Unda, asosan, tabiiy gaz, neft va neft mahsulotlarini tashish jarayoni amalga oshiriladi. U tannarxning pastligi, yuklarni bir maromda kerakli manzilga yetkazib bera olish imkonining borligi hamda atrof-muhitga salbiy ta‘sirning pastligi bilan ajralib turadi. Gaz va neft quvurlarining umumiy uzunligi 2 mln. km ga yaqin bo‘lib, ularning asosiy qismi neft-gaz qazib oluvchi davlatlar hududiga to‘g‘ri keladi. Neft quvurlari uzunligi bo‘yicha AQSH, Rossiya, Kanada, Xitoy, Saudiya Arabistoni, gaz quvurlari uzunligi bo‘yicha esa AQSH, Rossiya, Kanada, Germaniya, Fransiya kabi davlatlar yetakchilik qiladi.

Suv transporti – transportning tabiiy (daryolar, ko‘llar, dengizlar, okeanlar) va sun‘iy suv yo‘llari (kanallar, suv omborlari) orqali yuklar va

yo'lovchilar tashiydigan turi hisoblanadi. U dengiz va daryo transporti turlarini o'z tarkibiga birlashtiradi.

Dengiz transporti xalqaro savdoning deyarli 80 % ini amalga oshiradi. Dengiz yo'llari orqali, asosan, katta miqdordagi suyuq, quruq, sochma ko'rinishdagi yuklar tashiladi. Dengiz transportida yuk tashuv ishlari dengiz savdo floti tomonidan amalga oshiriladi. Yuk tashish hajmiga ko'ra Panama, Liberiya, Marshall orollari, Gretsiya kabi davlatlarning flotlari yetakchilik qiladi.

Asosiy dengiz yo'llari turli mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi va ularni iste'mol qiluvchi davlatlar o'rtasida tashkil qilingan. Odatda, Afrika, Lotin Amerikasi, Osiyo, Avstraliyadan turli sanoat va qishloq xo'jalik xomashyolari Yevropa, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Shimoliy Amerika mamlakatlariga, ulardan esa aholi va xo'jalik uchun turli iste'mol mahsulotlari dunyoning barcha hududlariga yetkazib beriladi. Dengiz transportida umumiy yuk tashish hajmining 60 % i Atlantika okeani hissasiga to'g'ri keladi. Dengiz transport vositalariga xizmat ko'rsatuvchi 2 mingdan ortiq portlar mavjud bo'lib, Shanxay, Singapur, Rotterdam portlari ular orasida yuk qabul qilish hajmiga ko'ra yetakchilik qiladi.

Dengiz transporti rivojiga xalqaro kanallar va dengiz bo'g'izlari katta ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro kanallar orasida Suvaysh va Panama kanallarining ahamiyati juda katta. Ular qit'alar orasidagi masofalarning qisqarishiga imkoniyat beradi. Dengiz bo'g'izlari orasida eng ko'p kemalarni o'tkazadiganlari La-Mansh, Eresunn (Zond), Gibraltar, Xormuz, Malakka, Bosfor bo'g'izlaridir.

Ichki suv transporti daryo, ko'llar hamda kanallar yordamida davlatlarning ichki hududlariga yuk va yo'lovchi tashishni amalga oshiradi. Daryo va ko'l transporti yo'llarining uzunligiga ko'ra jahonda Rossiya, Xitoy, AQSH, Braziliya, Kanada yetakchilik qiladi. Ichki suv transportidan foydalanishda yirik daryo, ko'l hamda kanallarning ahamiyati katta. Bunday daryolar qatoriga Amazonka, Missisipi, Dunay, Volga, Yanszi, Kongo va boshqalar kiradi. Ular bilan bir qatorda kemalar qatnovidida Qirg'oqbo'yi (AQSH), Buyuk (Xitoy), Volga-Bolتيق (Rossiya), Reyn-Mayn-Dunay (Germaniya) kanallaridan foydalaniladi.

Havo transporti yo'lovchilar, pochta va boshqa turli yuklarni tezlik bilan tashiydigan jahondagi eng tez va qimmat transport tarmog'i

hisoblanadi. Jahon bo'yicha havo transportida yo'lovchi tashish miqdori yildan yilga ortib bormoqda. Hozirgi kunda jahon yo'lovchi tashish miqdorining 20% ga yaqini ushbu transport tarmog'iga to'g'ri kelmoqda. Xalqaro aloqalar so'nggi davrlarda, ayniqsa, Yevropa bilan Shimoliy Amerika davlatlari o'rtasida faol kechmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, Atlantika okeani ustida bir vaqtning o'zida yuzdan ortiq havo laynerlari har ikki tomonga qarab harakatda bo'ladi. Mazkur transport tarmog'ining rivojlanishida aeroportlarning o'rni juda katta. Yo'lovchilarni qabul qilish miqdoriga ko'ra Atlanta (AQSH), Pekin (Xitoy), Dubay (BAA) aeroportlari peshqadam hisoblanadi.



1. Qaysi transport tarmog'i jahon xo'jaligining shakllanishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi?
2. Fan-texnika inqilobi transport rivojlanishida qanday ahamiyatga ega?
3. Dengiz transportining tez sur'atlarda rivojlanishiga nimalar sabab bo'ldi?

22-§. Xalqaro iqtisodiy aloqalar geografiyasi



Xalqaro iqtisodiy aloqalar, eksport, import, savdo balansi, valyuta, xalqaro savdo, xalqaro turizm.

Xalqaro iqtisodiy aloqalar deb, davlatlar o'rtasidagi, xalqaro tashkilot va korporatsiyalar ishtirokidagi xo'jalik aloqalariga aytiladi. Unga ilmiy-texnik taraqqiyot, davlatlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovut, jahon mintaqalaridagi siyosiy vaziyat, xalqaro iqtisodiy integratsiya kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning xalqaro savdo, kredit-moliya munosabatlari, xalqaro turizm, mehnat resurslarining xalqaro migratsiyasi, xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik kabi ko'rinishlari mavjud. Ular orasida xalqaro savdo eng katta ahamiyatga ega. U davlatlar o'rtasida xomashyo, mahsulot va xizmatlarni o'zaro ayirboshlashga asoslangan xalqaro savdo munosabatlari tizimidir. Davlatlarning tashqi savdo hajmi tashqi savdo aylanmasi orqali aniqlanadi. AQSH, Xitoy, Germaniya, Yaponiya, Fransiya tashqi savdo aylanmasi hajmiga ko'ra jahonda yetakchilik qiladi.

Xalqaro savdoning 3/4 qismini mahsulotlar savdosi tashkil qiladi. Mashina va jihozlar, transport vositalari, kimyoviy mahsulotlar kabilar xalqaro savdoda talab yuqori bo'lgan tayyor mahsulotlar hisoblanadi. Jahonning rivojlangan davlatlari xalqaro savdoning 60 % dan ortig'ini ta'minlaydi.

Tashqi savdoda globalashuv jarayoni tez sur'atlarda o'sib borishiga qaramay, davlatlar va mintaqalar orasida katta hududiy tafovutlar saqlanib qolmoqda. Tashqi savdoning deyarli 90 % i G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo-Tinch okean mintaqasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu mintaqalar, asosan, tayyor mahsulotlar va yuqori sifatli xizmat bilan savdo aloqalarini o'rnatib, Afrika, Lotin Amerikasi hamda Osiyoning rivojlanayotgan davlatlari jahon bozoriga, asosan, mineral resurslar, o'rmon va qishloq xo'jalik mahsulotlarini olib chiqadi.

So'nggi yillarda xorijda o'z ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish maqsadida kapital qo'yilma kiritish hamda foyda olish jarayoni – kapital eksporti kuchayib bormoqda. Katta miqdordagi kapital rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotiga yo'naltirilmoqda. AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy kabilar jahonning eng yirik kapital eksportyorlari hisoblanadi.

Xalqaro turizm ham tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Turizm jahon YMMning deyarli 10% ini, xizmatlar eksportining esa 1/3 qismini beradi. Ispaniya, Gretsiya, Italiya, Kipr kabi davlatlar mazkur sohani o'z milliy iqtisodiyotlarining ixtisoslashgan tarmog'iga aylantirishgan. Jahon mintaqalari orasida Yevropa turistik oqimining eng katta qismini o'ziga yo'naltirganligi bilan ajralib turadi. Ushbu qit'a davlatlari orasida Fransiya, Ispaniya, Italiya, Germaniya, Buyuk Britaniya yillik tashrif buyuruvchi sayyohlar soniga ko'ra jahonning birinchi o'ntalik davlatlari orasidan o'rin olgan. So'nggi yillarda Osiyoning xalqaro turizmdagi ahamiyati ortmoqda. Ayniqsa, Sharqiy Osiyo, Janubi-sharqiy Osiyo va Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari ko'p sonli sayyohlarni o'ziga jalb qilmoqda.

Afrika qit'asi davlatlari orasida turizm sohasida Shimoliy Afrika davlatlari alohida ajralib turadi. Qirg'oqbo'yida dam oluvchilarni, asosan, Marokash, Tunis yoki Misr, tarixiy turizm ixlosmandlarini esa Misr

ehromlari, qadimiy Karfagen ko‘rinishlari o‘ziga jalb qiladi. Amerika qit’asi turizmida AQSH, Meksika, Karib havzasi davlatlari katta salmoqqa ega. Avstraliya va Okeaniya mintaqasi turizmida qirg‘oqbo‘yi hududlaridagi dam olish maskanlarining ahamiyati katta.

Hozirgi kunda turizmning an’anaviy ko‘rinishlari (tabiiy, diniy, tarixiy) bilan bir qatorda ekoturizm, agroturizm, ishbilarmonlik, sport, shopping, ekstremal turizm kabi ko‘rinishlari ham rivojlanmoqda.



1. Xalqaro iqtisodiy aloqalarning qanday yo‘nalishlari mavjud?
2. Nimaga tashqi savdo tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy ko‘rinishi hisoblanadi?
3. Xalqaro turizmda Yevropa qit’asi salmog‘ining yuqoriligiga sabab nima?

II BO‘LIM. JAHONNING REGIONAL TAVSIFI



5-BOB. YEVROPA MAMLAKATLARI

23-§. Yevropaning geografik o‘rni, chegaralari va siyosiy xaritasi



Yevropa, qit‘a, yangi mustaqil davlatlar, orol davlatlar, yarimorol davlatlar, respublika, monarxiya, federativ davlatlar.

Ma‘lumki, Yevrosiyo materigi ikki qit‘a – Yevropa va Osiyoga bo‘linadi. Yevropa qit‘asi Yevrosiyo materigining g‘arbiy qismini egalaydi. «Yevropa» so‘zi qadimiy assuriyaliklar tilidan kelib chiqqan bo‘lib, «Quyosh botishi», ya‘ni «g‘arb» ma‘nosini anglatadi.

Yevropaning maydoni 10 mln. km² ga teng bo‘lib, shundan 4,1 mln. km² hudud Rossiyaning Yevropadagi qismiga to‘g‘ri keladi. Qit‘a aholisi, 2018-yil ma‘lumotlariga ko‘ra, 746 mln. kishiga, ya‘ni jahon aholisining salkam 10 % iga teng.

Yevropa qit‘asining qirg‘oqlari shimolda Shimoliy Muz okeani, g‘arbda Atlantika okeani, janubda Atlantika okeani havzasiga tegishli bo‘lgan O‘rta va Qora dengizlar suvlari bilan yuviladi. O‘rta dengiz va Gibraltar bo‘g‘izi Yevropani Afrikadan ajratib turadi (20-rasm). Sharqda Yevropa, asosan, quruqlik orqali Osiyo qit‘asi bilan chegaradosh. Yevropa va Osiyoning chegarasi ko‘plab geografik adabiyotlarda Ural tog‘lari, Qozog‘istondagi Emba daryosi, Kaspiy dengizining shimoli-g‘arbiy qirg‘oqlari, Rossiya janubidagi Kuma-Manich botig‘i, Azov va Qora dengizlari, Bosfor bo‘g‘izi (21-rasm), Marmar dengizi, Dardanell bo‘g‘izi va Egey dengizi orqali o‘tkaziladi. Ayrim manbalarda ikki qit‘a chegarasining Kaspiy va Qora



20-rasm. Yevropaning geografik o‘rni.



21-rasm. Bosfor bo'g'izi.

dengizlari orasidagi qismi Katta Kavkaz tizmasi orqali o'tkaziladi.

Yevropaning hozirgi siyosiy xaritasida, bir qismi Osiyoda joylashgan Rossiya Federatsiyasini qo'shganda, 44 ta mustaqil davlat mavjud.

Yevropaning siyosiy xaritasi qit'aning ko'p asrlik tarixi davomida bir necha marotaba keskin ravishda o'zgargan. Uning zamonaviy siyosiy xaritasi XX asr davomida,

asosan, uch tarixiy jarayon – Birinchi Jahon urushi (1914–1918), Ikkinchi Jahon urushi (1939–1945) hamda xalqaro sotsialistik tuzumning parchalanishi (1990-yillar boshi) natijasida shakllangan.

Yevropa kichik davlatlar qit'asidir. Yevropada Andorra, San-Marino, Malta, Monako, Vatikan, Lixtenshteyn singari «mitti» davlatlar joylashgan. Mazkur davlatlardan tashqari, Yevropadagi 11 ta davlatning maydoni 50 ming km² dan kichikroqdir. Qit'adagi 10 ta mamlakat hududi 50 mingdan 100 ming km² gacha boradi. 12 ta davlatining maydoni, o'z navbatida, 100 mingdan 500 ming km² gacha kattalikka ega. Faqat Fransiya, Ukraina va Ispaniyaning hududi 500 ming km² dan oshadi. Rossiya Federatsiyasi esa maydonining kattaligiga binoan nafaqat Yevropa, balki butun jahondagi eng yirik davlatdir.

Yevropa orol va ayniqsa, yarimorol davlatlarning ko'pligi bilan ajralib turadi. To'liq orollarda joylashgan mamlakatlarga Buyuk Britaniya, Irlandiya, Islandiya va Malta kiradi. Yarimorol mamlakatlarga Norvegiya, Shvetsiya, Daniya, Ispaniya, Portugaliya, Italiya, Gretsiya, Albaniya, Bolgariya va boshqalarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Yevropadagi 15 ta davlatda dengizga chiqish imkoniyati mavjud emas. Ularning qatorida Belarus, Vengriya, Avstriya, Chexiya kabi birmuncha katta davlatlar bilan birgalikda Andorra, Lixtenshteyn, Lyuksemburg, San-Marino, Vatikan singari mitti davlatlar ham joy olgan.

Yevropadagi 44 davlatdan 32 tasi respublika, 12 tasi monarxiya hisoblanadi. Andorra, Belgiya, Buyuk Britaniya, Daniya, Ispaniya, Lixtenshteyn, Lyuksemburg, Monako, Niderlandiya, Norvegiya, Shvetsiya davlatlari konstitutsion monarxiya, Vatikan davlati esa mutlaq teokratik

monarxiya boshqaruv shakliga ega. Yevropadagi respublikalarning katta qismi parlamentar respublikalar hisoblanadi.

Ma'muriy-hududiy jihatdan Yevropadagi 6 ta davlat federativ tuzilishga ega – Avstriya, Belgiya, Bosniya va Gersegovina, Germaniya, Rossiya, Shveysariya.

Yevropa qit'asi 4 ta subregionga bo'linadi: Shimoliy Yevropa, G'arbiy (O'rta) Yevropa, Janubiy Yevropa va Sharqiy Yevropa.



1. Yevropa va Osiyoning chegarasi qanday geografik obyektlar orqali o'tkaziladi?
2. Yevropaning hozirgi siyosiy xaritasi shakllanishida XX asrdagi qaysi tarixiy jarayonlar katta ta'sir ko'rsatgan?
3. Yevropa davlatlari hududiy kattaligi jihatidan qanday xususiyatga ega?
4. Atlasdagi jahonning siyosiy xaritasi yordamida Yevropadagi yosh mustaqil davlatlardan quruqlik ichkarisida joylashganlarini aniqlang.

24-§. Yevropaning tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi



Yoqilg'i-energetika, agroiqlimiy, o'rmon resurslari, tug'ilish, aholining tabiiy kamayishi, aholi qarishi, migratsiya, aholi zichligi, megalopolis, katoliklar, protestantlar, pravoslavlar.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Yevropa mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga tabiiy sharoitining ma'lum xususiyatlari ta'sir ko'rsatgan. Bunday tabiiy geografik omillar qatoriga nisbatan iliq va nam iqlim, transport sharoiti murakkab bo'lgan baland tog' tizmalarining kamligi, suv va o'rmon resurslarining yetarliligi, dengiz portlarini qurish uchun qulay qirg'oqbo'yi hududlarning ko'pligini kiritish mumkin.

Yevropada yoqilg'i-energetika resurslaridan toshko'mir, qo'ng'ir ko'mir, neft, tabiiy gaz, yonuvchi slaneslar yirik konlari mavjud. Toshko'mirning yirik konlari Germaniya, Rossiya va Ukrainada ochilgan. Qo'ng'ir ko'mirning yirik konlari Germaniya, Chexiya va Polshada joylashgan. Yonuvchi slaneslarning katta zaxiralari Estoniyada mavjud. Yevropada neft va tabiiy gazning asosiy zaxiralari Rossiyaning turli hududlari hamda Shimoliy va Norvegiya dengizlari sayozliklarida ochilgan. Bu yerdagi neft va gaz konlarining asosiy qismi Buyuk Britaniya, Norvegiya va Niderlandiyaga tegishli.

Temir rudalarining yirik konlari Rossiya, Ukraina, Shvetsiya, Fransiya va Germaniyada joylashgan. Polsha, Bolgariya, Ruminiyada mis-molibden konlari, Fransiya va Gretsiyada boksit, Italiya, Ispaniya, Ukrainada simob rudalarining yirik zaxiralari mavjud.

Yevropada yer va suv resurslaridan intensiv tarzda foydalanilmoqda. Qit'a tabiiy sharoiti qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun, umuman olganda, qulay hisoblanadi. Bu jihatdan G'arbiy va Janubiy Yevropa Shimoliy Yevropadan keskin ajralib turishini aytib o'tish lozim. Janubiy Yevropa mamlakatlarida iqlim sharoitining birmuncha qurg'oqchilligi tufayli sun'iy sug'orish ancha keng tarqalgan.

Yevropa o'rmon resurslari bilan yaxshi ta'minlangan. Bu borada, ayniqsa, Rossiya, Finlandiya, Shvetsiya, Norvegiya, Buyuk Britaniya alohida ajralib turadi.

Aholisi. Yevropada, 2018-yil ma'lumotlariga ko'ra, 746 mln. kishi istiqomat qiladi (Rossiyaning Osiyodagi qismi bilan birga). Bu dunyo aholisining 9,8 % ini tashkil etadi. Yevropaning jahon aholisidagi ulushi aholi tabiiy ko'payishining o'ta pastligi tufayli borgan sari kamayib bormoqda. Umumiy hisobda Yevropa mamlakatlarida tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari deyarli bir xil, tabiiy ko'payish esa yo'q. Tug'ilish darajasi o'limdan ko'ra past bo'lib, aholining tabiiy kamayishi ro'y berayotgan Yevropa davlatlari soni yildan yilga ko'paymoqda. Germaniya, Gretsiya, Portugaliya, Bolgariya, Serbiya, Latviya, Litva, Estoniya, Ukraina, Rumi-niya, Moldova, Vengriya va boshqa mamlakatlarda bunday vaziyat uzoq vaqtdan buyon kuzatilmoqda.

Tug'ilishning pastligi tufayli Yevropa mamlakatlarida aholi qarishi jarayoni ro'y bermoqda. 2018-yil holatiga ko'ra, qit'a aholisining 16 % ini 14 yoshgacha bolalar tashkil etgan holda, 65 yoshdan katta bo'lgan aholi qatlamining ulushi 18 % ga teng.

Yevropa xalqaro migratsiyaning yirik markazi hisoblanadi. Ayniqsa, G'arbiy Yevropaning eng rivojlangan mamlakatlari dunyodagi yirik immigratsiya markazlari hisoblanadi. G'arbiy Yevropaga Osiyo va Afrikadan aholi ko'chib kelishining sabablari, asosan, iqtisodiy mohiyatga ega, ya'ni G'arbiy Yevropa davlatlarining mehnat bozorida ish o'rinlarining ko'pligi hamda turmush darajasining yuqoriligi bilan izohlanadi. G'arbiy Yevropaga qit'aning iqtisodiy jihatdan birmuncha

sustroq rivojlangan janubiy va sharqiy qismidagi mamlakatlar aholisi ham faol ravishda ko‘chib bormoqda.

Yevropa davlatlarida, dunyoning boshqa mintaqalariga nisbatan, urbanizatsiya jarayoni ertaroq boshlangan edi. Hozirgi vaqtda Yevropa qit‘asining urbanizatsiya darajasi 75 % ga yaqin. Shaharlashuv darajasi, ayniqsa G‘arbiy va Shimoliy Yevropadagi rivojlangan davlatlarda yuqori bo‘lib, ba‘zi hollarda 90 % dan ortib ketgan. Janubiy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida shahar aholisining ulushi biroz pastroq, lekin deyarli barcha davlatlarda 50 % dan oshadi. Qit‘ada urbanizatsiya ko‘rsatkichi faqatgina Moldova hamda Bosniya va Gersegovinada 50 % dan pastroq.

Yevropa mamlakatlari o‘rtasida aholi zichligi bo‘yicha katta tafovutlar mavjud. Bunga tabiiy sharoit, ayniqsa iqlim va relyef katta ta‘sir ko‘rsatgan. G‘arbiy va Janubiy Yevropaning daryo vodiylari va dengizbo‘yi tekisliklarida aholi zichligi eng yuqori. Shimoliy Yevropa mamlakatlarida aholi zichligi ancha past. Bu mamlakatlarda aholining katta qismi ularning janubidagi dengizlarga tutash hududlarida mujassamlashgan.

Yevropada eng keng tarqalgan din xristianlik hisoblanadi. Shimoliy Yevropada protestantlar, Janubiy Yevropa davlatlarida (Gretsiyadan tashqari) esa katoliklar yetakchilik qiladi. G‘arbiy Yevropa davlatlarida xristianlikning bu ikki mazhabi aralash holda tarqalgan. Sharqiy Yevropa davlatlarida katolik va pravoslav xristianlik asosiy dinlar hisoblanadi. Pravoslavlar soni jihatidan Rossiya, Ukraina, Ruminiya, Bolgariya, Belarus, Serbiya kabi davlatlar alohida ajralib turadi. Shuningdek, qit‘adagi 2 ta davlatda mahalliy aholisi tarkibida musulmonlarning ulushi 50 % dan yuqori – bular Bolqon yarimorolida joylashgan Albaniya hamda Bosniya va Gersegovinadir.



1. Yevropa tabiatining qanday xususiyatlari mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi?
2. Yevropaning qaysi mamlakatlari yoqilg‘i-energetika resurslariga boy?
3. Yevropa mamlakatlari aholisining tabiiy ko‘payishi va yosh tarkibini tavsiflang.

25-§. Yevropa mamlakatlarining iqtisodiyoti



Rivojlangan davlatlar, o'tish iqtisodiyotidagi davlatlar, Yevropa Ittifoqi, xalqaro mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv, sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm.

Yevropa jahonda iqtisodiy va texnologik salohiyatining ulkanligi va serqirraligi, sanoatning yuqori darajada rivojlanganligi bilan alohida ajralib turadi. Shimoliy, G'arbiy va Janubiy Yevropa davlatlari rivojlangan davlatlar blokiga mansub bo'lsa, 1990-yillarning boshida sotsialistik tuzum va rejali iqtisodiyotdan voz kechib, bozor iqtisodiyotini shakllantirishga kirishgan davlatlari, xususan, Yevropada joylashgan sobiq Ittifoq respublikalari, o'tish iqtisodiyotidagi davlatlar sirasiga kiradi.

Yevropa iqtisodiyoti uchun yuqori darajada rivojlangan integratsion jarayonlar katta ahamiyatga ega. Bu holat, ayniqsa yagona savdo-bojxona makoniga ega bo'lgan jahondagi eng yirik integratsion uyushma hisoblangan Yevropa Ittifoqi (YI)ning faoliyatida namoyon bo'lmoqda. Yevropa Ittifoqiga 2018-yil holatiga ko'ra, 28 ta davlat, shu jumladan, Osiyoda joylashgan Kipr hamda YI tarkibidan bosqichma-bosqich chiqib ketayotgan Buyuk Britaniya a'zodir. Dastlab, 1950-yillarda 6 ta davlat (GFR, Fransiya, Italiya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg)ni birlashtirgan holda shakllanishi boshlangan Yevropa Ittifoqi bir nechta kengayish to'liqlarini boshidan kechirdi. YI tarkibi, ayniqsa, XXI asrning birinchi o'n yilligi mobaynida bir qator sobiq sotsialistik davlatlar (Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Latviya, Litva, Estoniya va boshqalar) qo'shilishi hisobiga ancha kengaydi.

Yevropa jahon xo'jaligida sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, mahsulot va xizmatlar eksporti, xalqaro turizm rivojlanganligi bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallaydi. Mintaqaning iqtisodiy salohiyatini, birinchi navbatda, «Katta yettilik»ka kiruvchi to'rtta davlat – Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Italiya belgilab beradi.

Yevropa sanoatining yetakchi tarmog'i mashinasozlik hisoblanadi. Mazkur tarmoq butun sanoat mahsulotining 1/2, eksportning 2/3 qismini tashkil qiladi. Ayniqsa, avtomobilsozlik yuksak darajada rivojlangan. «Reno» (Fransiya), «Folksvagen», «Mercedes-Benz» (GFR), «Fiat» (Italiya), «Volvo» (Shvetsiya), «Tatra» (Chexiya) kabi avtomobil konsernlari mashhurdir.

Yevropada sanoat tarmoqlari ichida mashinasozlikdan keyingi ikkinchi o'rinda kimyo va neft-kimyo sanoati turadi. Ikkinchi jahon urushiga qadar kimyo sanoati, asosan, kon-kimyo xomashyosiga asoslangan holda rivojlangan edi. Kaliy va osh tuzlari, oltingugurt va boshqa shu kabi xomashyodan foydalanilardi. Qit'ada neft va tabiiy gaz konlarining ochilishi neft-kimyo tarmog'ining rivojlanishiga asos bo'ldi. Temza, Sena, Reyn, Elba, Rona kabi daryolarning quyilish qismlarida joylashgan port shaharlarida yirik neftni qayta ishlovchi markazlar barpo etildi. Eng yirik bunday neft-kimyo majmuasi Niderlandiyaning Rotterdam shahrida shakllangan.

Aksariyat Yevropa davlatlarining yoqilg'i-energetika balansida neft va tabiiy gaz muhim o'rin egallaydi. Rossiyani hisobga olmaganda, Yevropaning eng yirik neft-gaz sanoati rayoni Shimoliy dengiz hisoblanadi. Ko'pchilik Yevropa mamlakatlari neft va tabiiy gazni Rossiya, Shimoliy Afrika va Fors ko'rfazidagi davlatlardan import qiladi. Germaniya, Rossiya, Ukraina, Polsha va Chexiya davlatlarida toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir qazib olinadi. Germaniya 2018-yildan ko'mirning asosiy qismini Avstraliyadan import qilmoqda. Yirik IESlarining asosiy qismi dengiz portlari va katta shaharlarda barpo etilgan. Dunay va uning irmoqlari, Rona, Reyn, Dnepr, Volga va boshqa daryolarda yirik GESlar barpo qilingan.

Qora metallurgiya, avvalambor, temir rudasi va toshko'mir zaxiralari mavjud bo'lgan Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya, Belgiya, Lyuksemburg, Polsha, Chexiyada rivojlangan. Rangli metallurgiyaning asosiy tarmoqlari alyuminiy va mis sanoatidir. Alyuminiy sanoati xomashyo va elektr energiyasi bilan yaxshi ta'minlangan Norvegiya, Islandiya, Fransiya, Vengriya, Ruminiya mamlakatlarida rivojlangan. So'nggi paytlarda alyuminiy korxonalari, asosan, rivojlanayotgan mamlakatlardan olib kelinadigan xomashyoga tayanmoqda. Mis sanoati Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Belgiya, Polsha hamda Bosniya va Gersogovinnada rivojlangan.

Yevropada yengil sanoat o'zining oldingi ahamiyatini birmuncha yo'qotdi. Eski to'qimachilik rayonlari hisoblanmish Buyuk Britaniyadagi Lankashir va Yorkshir, Polshadagi Lodz hozirgi vaqtda ham faoliyat ko'rsatmoqda. Lekin so'nggi yillarda yengil sanoat Janubiy Yevropaga ko'chayotganligini ta'kidlab o'tish lozimdir.

Ko'p tarmoqli chorvachilik Yevropaning qator mamlakatlarida, ayniqsa Shimoliy va G'arbiy Yevropa davlatlarida yuqori darajada rivojlangan bo'lib, xalqaro ixtisoslashuv tarmog'iga aylandi. Janubiy Yevropada dehqonchilik chorvachilikdan ustun ahamiyatga ega. Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya moyli (zaytun, kungaboqar) ekinlar va subtropik mevalarni yetishtirish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarni egallaydi.

Yevropa turizm yuqori darajada rivojlangan mintaqa hisoblanadi. Fransiya yiliga 70 mln. dan ortiq, Italiya va Ispaniyaga 50 – 60 mln. kishi turistik sayohat qiladi. Shveysariya, Portugaliya, Germaniya, Avstriya, Buyuk Britaniya, Gretsiya va boshqa mamlakatlar jahonning yirik turistik markazlari hisoblanadi.




1. Yevropadagi qaysi davlatlar «Katta yettilik» guruhiga kiradi?
2. Yevropa Ittifoqiga nechta davlat a'zo?
3. Yevropa davlatlarida yoqilg'i-energetika majmuasining rivojlanishi haqida ma'lumot bering.
4. Yevropadagi qaysi davlatlar xalqaro turizmning yirik markazlari hisoblanadi?

26-§. Germaniya Federativ Respublikasi



Shimoliy dengiz, Boltiq dengizi, Kil kanali, parlamentar respublika, federal kansler, federal yerlar, tashqi migratsiya, lyuteran cherkovi.



Maydoni – 357,4 ming km².
Aholisi (2018-y.) – 82,8 mln.
Poytaxti – Berlin.

Yevropaning iqtisodiy jihatdan eng qudratli davlati Germaniya Federativ Respublikasi qit'aning markazida joylashgan. Germaniya maydoni bo'yicha qit'a mamlakatlari orasida 6-o'rinda turadi. Qirg'oqlari shimoli-g'arbda Shimoliy dengiz, shimoli-sharqda esa Boltiq dengizi suvlari bilan chegaralangan. Germaniya hududidan eng muhim xalqaro kanallardan biri – Shimoliy va Boltiq dengizlarini tutashtiradigan Kil kanali o'tadi. Quruqlikda 9 ta davlat bilan chegaradosh. Iqtisodiy geografik o'rnining qulayligi Yevropaning turli qismlaridagi davlatlarni tutashtiruvchi yirik avtomobil, temir va suv (daryo va kanallar) yo'llarining o'tganligi bilan belgilanadi.

Boshqaruv shakli – parlamentar respublika. Davlat rahbari – prezident, ammo ijro hokimiyatining rahbari va eng katta siyosiy vakolatlar egasi hukumat raisi, ya’ni federal kansler hisoblanadi. Siyosiy-hududiy tuzilishi jihatidan Germaniya federativ davlat bo‘lib, 16 ta federal yerga bo‘linadi. Mamlakat poytaxti – Berlin – GFRning sharqiy qismida joylashgan.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Germaniya hududining relyefi shimoldan janubga tomon ko‘tarilib boradi (22-rasm). Mamlakatning shimoliy qismini Shimoliy Germaniya pasttekisligi egallagan, markaziy hududlari past va o‘rta tog‘lardan iborat, janubida esa balandligi deyarli 3 000 metrga boradigan Alp tog‘lari joylashgan. GFRda tosh va qo‘ng‘ir ko‘mir, temir rudasi, osh va kaliy tuzlarining konlari mavjud.



22-rasm. Germaniyaning relyefi.

Mamlakat hududi mo‘tadil iqlim mintaqasida joylashgan. Ob-havo tez-tez o‘zgaradi, yog‘inlar ko‘p yog‘adi. Qish odatda yumshoq, qattiq sovuqlar kam sodir bo‘ladi. Dengizbo‘yi hududlarida kuchli shamollar doimo kuzatiladi va bu energetika sohasida qo‘l keladi.

Germaniyada daryolar to‘ri ancha zich. Eng yirik daryolar Reyn, Dunay, Elba, Vezer va Oder hisoblanadi. GFRdagi barcha yirik daryolar kanallar bilan o‘zaro bog‘langanligi tufayli uning ichki suv transport yo‘llari Dunay orqali Shimoliy va Boltiq dengizlari portlarini Qora dengiz portlari bilan bog‘laydi.

Aholisi. Germaniya deyarli 83 mln. kishilik aholisi (2018-yil ma’lumotlari bo‘yicha) bilan Yevropada Rossiyadan keyingi 2-o‘rinni egallaydi. Tug‘ilishning pastligi sababli Germaniyada aholining tabiiy ko‘payishi 1972-yildan buyon manfiy qoldiqqa ega. Germaniyada aholi ko‘payishining manbayi tashqi migratsiya hisoblanadi.

Germaniya xorijiy migrantlar soni (12 millionga yaqin kishi) bo‘yicha jahonda AQSHdan so‘ng 2-o‘rindagi davlat. Xorijiy migrantlar tarkibida Turkiya, Italiya, Gretsiya, sobiq Yugoslaviya davlatlari, Polsha hamda ayrim arab mamlakatlaridan ko‘chib kelganlar son jihatdan ajralib turadi.

Xorijiy migrantlar ko‘proq g‘arbiy va shimoliy federal yerlaridagi yirik shaharlarda mujassamlashgan.

Germaniyaliklarning 75 % dan ko‘prog‘i shaharlarda istiqomat qilishadi. GFRning eng yirik shaharlari – Berlin, Gamburg, Myunxen, Kyoln, Frankfurt-Mayn, Bremen.


Mamlakat aholisining milliy tarkibida 90% dan ko‘proq qismi nemis millatiga to‘g‘ri keladi. GFRning shimoliy, markaziy va sharqiy hududlarida yashovchi nemislar orasida protestantlar (lyuteranlar) ko‘pchilikni tashkil etsa, mamlakatning janubida ko‘proq katoliklar istiqomat qilishadi.

Germaniya aholisi yirik daryolarning vodiylarida juda zich holda joylashgan. Bu borada, ayniqsa Reyn vodiysi alohida ajralib turadi. Aholi eng yuqori darajada mujassamlashgan hudud – Rur sanoat rayoni – aynan shu daryo havzasida joylashgan. Tog‘li hududlarida hamda mamlakatning shimoli-sharqida esa aholi nisbatan siyrak joylashgan.

Iqtisodiyoti. Germaniya iqtisodiy salohiyati va aholining turmush darajasi jihatidan jahondagi yetakchi davlatlardan biri, «Katta yettilik» guruhiga a‘zo davlat. Yevropada Germaniya YIM va sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo‘yicha 1-o‘rinda turadi.

GFR turli sanoat mahsulotlarining yuqori sifati bilan butun dunyoga mashhur. Germaniya sanoatining yetakchi tarmoqlari qatoriga mashinasozlik, kimyo, farmasevtika, ko‘mir, qora metallurgiya, oziq-ovqat sanoati kiradi. Mashinasozlik tarmoqlaridan esa stanoksozlik, avtomobilsozlik, elektrotexnika, mikroelektronika, kemasozlik, aviakosmik mashinasozlik kabi tarmoqlari juda yuqori darajada rivojlangan.

Germaniya qishloq xo‘jaligining tayanch tarmoqlari sut-g‘osht qoramolchiligi va cho‘chqachilik hisoblanadi. Mamlakatning shimoliy va markaziy qismlarida asosiy qishloq xo‘jalik ekinlari bug‘doy, arpa, makkajo‘xori, kartoshka, qandlavlagi hisoblanadi. Janubdagi tog‘ yonbag‘irlari va tog‘ oralig‘idagi vodiylarida uzum, tamaki hamda pivo ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan xmelni yetishtirish yaxshi rivojlangan.



23-rasm. Frankfurt-Mayn shahri.

Germaniya iqtisodiyotida transport, bank-moliya sektori, turizm va boshqa

xizmat ko'rsatish sohalari ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Yevropadagi eng yirik aeroportga ega Frankfurt-Mayn shahri qit'adagi asosiy bank-moliya markazlaridan biri hisoblanadi (23-rasm).

Germaniyaning sharqiy yerlari (sobiq GDR) mamlakatning qolgan hududlariga nisbatan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning pastroq ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi.



1. Germaniya iqtisodiy geografik o'rnining qulayligini izohlang.
2. Germaniya aholisining tabiiy va migratsion harakatiga qanday xususiyatlar xos?
3. Mamlakatning qishloq xo'jaligi qaysi tarmoqlarga ixtisoslashgan?
4. Frankfurt-Mayn shahrining iqtisodiy geografik salohiyati qanday omillar bilan belgilanadi?

27-§. Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi



Birlashgan Qirollik, Angliya, Shotlandiya, Uels, Shimoliy Irlandiya, konstitutsion monarxiya, La-Mansh bo'g'izi, mo'tadil dengiz iqlimi.



Maydoni – 244,5 ming km².
Aholisi (2018-y.) – 66,4 mln.
Poytaxti – London.

Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi Yevropaning shimoli-g'arbidagi Britaniya orollarida joylashgan. Birlashgan Qirollik hududining asosiy qismini Buyuk Britaniya oroli va Irlandiya orolining shimoli-sharqi tashkil qiladi. Shuningdek, mamlakat tarkibiga bir nechta maydaroq orollar ham kiradi. Bir-

lashgan Qirollik qirg'oqlari Shimoliy dengiz, Irlandiya dengizi hamda Atlantika okeani suvlari bilan yuviladi. La-Mansh bo'g'izi Buyuk Britaniyani Fransiyaning shimoli-g'arbiy qirg'og'idan ajratib turadi. Quruqlikda mamlakat faqat Irlandiya Respublikasi bilan chegaradosh.

Hozirgi vaqtda Buyuk Britaniyaning 15 taga yaqin dengizorti hududlari, ya'ni mustamlakalari bor. Ularning katta qismi Karib dengizidagi orollar-da joylashgan. Yevropa qit'asidagi yagona mustamlaka hudud – Gibraltar ham Birlashgan Qirollikning dengizorti hududi hisoblanadi. Ammo rasman hech qaysi dengizorti hududi Birlashgan Qirollik tarkibiga kirmaydi.



24-rasm. Birlashgan Qirollikning tarkibiy qismlari.

Boshqaruv shakli – konstitutsion monarxiya. Buyuk Britaniya hukmdori ayni paytda rasmiy ravishda Britaniya Hamdo'stligi Qirolliklari hisoblangan 15 ta mustaqil davlat, shu jumladan, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiyaning rahbari ham hisoblanadi.

Siyosiy-hududiy jihatdan Birlashgan Qirollik unitar davlat hisoblanib, 4 ta qism (mamlakat) – Angliya, Shotlandiya, Uels va Shimoliy Irlandiyadan iborat (24-rasm). Angliyadan boshqa 3 ta mamlakat qisman muxtoriyatga ega.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Buyuk Britaniya janubi-sharqiy qismini ko'proq tekisliklar, shimoli-g'arbiy hududlarini esa, asosan, o'rta tog'lar egallaydi. Ayniqsa, Shotlandiya va Uelsda qadimgi parchalangan tog'lar keng tarqalgan (25-rasm). Mamlakatning eng baland nuqtasi – Ben-Nevis tog'i (1343 m) Shotlandiyada joylashgan.

Birlashgan Qirollikda foydali qazilmalardan, asosan, neft, tabiiy gaz va ko'mir qazib olinadi. Neft va gazning yirik konlari Shimoliy dengiz sayozligida joylashgan. Ammo oxirgi yillarda Buyuk Britaniya mineral yoqilg'ining barcha turlari importyoriga aylangan, chunki qazib olinadigan resurslar milliy iqtisodiyotning energiya manbalariga bo'lgan talabni qondira olmayapti.

Atlantika okeanidan yil bo'yi esadigan nam shamollar hamda Golfstrim oqimi ta'sirida Buyuk Britaniyada mo'tadil dengiz iqlimi shakllangan. Yil davomida tez-tez yomg'irlar yog'adi, ayniqsa, mamlakatning g'arbida. Qish ancha iliq, yanvarning o'rtacha havo harorati 0 °C atrofida.

Aholisi. Birlashgan Qirollik Yevropa mamlakatlari ichida aholi soni bo'yicha 3-o'rinda turadi (2018-yil holatiga ko'ra, 66 mln. kishidan ziyod). Aholining tabiiy ko'payishi yillik hisobda 0,3 % ga



24-rasm. Shotlandiyadagi tog' manzarasi.

teng. Aholi soni ko‘proq tashqi migratsiya hisobiga o‘smoqda. Ayniqsa, Janubiy Osiyo, Afrika, Karib dengizidagi orollardan ko‘chib kelganlar ko‘p.

Buyuk Britaniyada urbanizatsiya darajasi 80 % dan yuqori. Mamlakatning eng yirik shaharlari qatoriga, Londondan tashqari, Birmingem, Manchester, Liverpool, Glazgo, Edinburg kiradi.


Mamlakat aholisining etnik tarkibida eng yirik millat inglizlar hisoblanadi. Shotlandiyaliklar, uelsliklar va irlandiyaliklar ham tub millatlar hisoblanadi. Eng keng tarqalgan din protestant xristianligi hisoblanadi.

Aholi zichligi Markaziy va Janubiy Angliya, Janubiy Uels hamda O‘rta Shotlandiya pasttekisligida eng yuqori darajada bo‘lsa, Shotlandiyaning shimoli-g‘arbiy tog‘li hududlarida esa bu ko‘rsatkich ancha pastdir (26-rasm). Birlashgan Qirollik aholisining deyarli 85 % i Angliyada yashaydi.

Iqtisodiyoti. Buyuk Britaniya Yevropa va jahon miqyosida iqtisodiy jihatdan eng qudratli davlatlardan biri, «Katta yettilik» guruhi a‘zosi. YIM hajmi bo‘yicha Birlashgan Qirollik Yevropada Germaniyadan keyingi 2-o‘rinda turadi.

Buyuk Britaniya sanoat inqilobining beshigi bo‘lib, XIX–XX asr boshida dunyoning yetakchi sanoatlashgan mamlakati hisoblangan edi. U davrda Birlashgan Qirollik sanoati, ayniqsa to‘qimachilik, ko‘mir, qora metallurgiya, kemasozlik tarmoqlarining rivojlanganligi bilan alohida ajralib turgan. Hozirgi vaqtda esa Buyuk Britaniya sanoatining yetakchi tarmoqlari qatoriga avtomobilsozlik, aviasozlik, qishloq xo‘jalik mashinasozligi, kimyo va farmasevtika sanoatlari kiradi. Elektr energiyasi, asosan, IESlarda ishlab chiqariladi.

Qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlari sut-g‘osht qoramolchiligi, qo‘ychilik va cho‘chqachilik hisoblanadi. Asosiy qishloq xo‘jalik ekinlari: bug‘doy, arpa, kartoshka, qandlavlagi.



26-rasm. Buyuk Britaniyaning aholi zichligi (km²/kishi).

Buyuk Britaniya iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohalari ham katta ahamiyatga ega. Ulardan bank-moliya sohasi, turizm, axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari, tibbiyot va oliy ta'lim o'zining xalqaro iqtisodiy ahamiyati bilan alohida ajralib turadi. London shahri Nyu-York va Tokio bilan birgalikda jahonning eng yirik moliyaviy markazi hisoblanadi. Buyuk Britaniyaga dunyoga mashhur ko'plab tarixiy-madaniy yodgorliklarni ko'rish uchun har yili bir necha o'n million sayyohlar tashrif buyuradilar. Birlashgan Qirollik eng ko'p sayyohlarni qabul qiladigan jahonning yetakchi 10 ta davlatlaridan biri.



1. Birlashgan Qirollik siyosiy-hududiy tuzilishini tavsiflang. Nima uchun u qisman federativ hisoblanishi mumkin?
2. Buyuk Britaniya iqlimining muhim xususiyatlari va ularni keltirib chiqargan omillarni izohlang.
3. Birlashgan Qirollik aholisining joylashuviga qaysi tabiiy omil katta ta'sir ko'rsatgan? Aholi zichligi eng yuqori darajada bo'lgan hududlari qaysi?
4. Buyuk Britaniya zamonaviy sanoatining qaysi tarmoqlari yetakchi ahamiyatga ega? Mamlakat sanoatining tarmoqlar tarkibi qanday o'zgaragan?

28-§. Fransiya Respublikasi



La-Mansh bo'g'izi, Atlantika okeani, Korsika oroli, dengizorti hududlar, Parij aglomeratsiyasi, tashqi migratsiya, mintaqaviy tillar, turizm.



Maydoni – 551,6 ming km².
Aholisi (2018-y.) – 65,1 mln.
Poytaxti – Parij.

Yevropadagi eng yirik davlatlardan biri – Fransiya Respublikasi – qit'aning g'arbida joylashgan. Uning qirg'oqlari g'arb va shimoli-g'arbdan Atlantika okeani, janubi-sharqdan esa O'rta dengiz suvlari bilan yuviladi. Quruqlikda 8 ta davlat bilan chegaradosh bo'lib, eng uzun chegaralari Germaniya, Italiya, Ispaniya davlatlari bilan o'tgan. Fransiyaga O'rta dengizdagi Korsika oroli tegishli. Shuningdek, Fransiyaning 10 tadan ziyod dengizorti hududlari, ya'ni mustamlakalari ham mavjud. Ular, asosan, Tinch okean va Karib dengizida joylashgan.

Boshqaruv shakli – prezidentlik respublikasi. Siyosiy-hududiy jihatdan Fransiya unitar davlat bo‘lib, 18 ta hudud (region) ga bo‘linadi. Ulardan 12 tasi Fransiyaning asosiy kontinental qismida, 1 tasi O‘rta dengizdagi Korsika orolida joylashgan, qolgan 5 tasi dengizorti hududlaridan iboratdir.



27-rasm. Luara daryosi.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Fransiya hududining 2/3 qismini tekisliklar egallagan. Shu bilan birga mamlakatning sharqiy, markaziy va janubiy hududlarida Alp, Pireney, Ardena, Vogeza, Markaziy massiv, Yura singari turli balandlikdagi tog‘lar mavjud.

Fransiyada foydali qazilmalardan, asosan, temir, uran va boksit rudalari konlari muhim sanoat ahamiyatiga ega.

Fransiyaning Atlantika okeaniga yaqin qismida mo‘tadil dengiz iqlimi, sharqiy hududlarida mo‘tadil kontinental, janubida esa Orta dengiz tipidagi subtropik iqlim shakllangan. Yozi issiq, qishi esa iliq va yomg‘irli. Yog‘inlar eng ko‘p yog‘adigan payt yanvardan aprelgacha kuzatiladi.

Fransiyada daryolar to‘ri ancha zich. Eng uzun daryosi – Luara (27-rasm), eng sersuvi esa Rona. Shuningdek, Sena va Garonna ham katta daryolar sirasiga kiradi.

Aholisi. Fransiya Yevropa mamlakatlari ichida aholi soni bo‘yicha 4-o‘rinda turadi. 2018-yil holatiga ko‘ra, Fransiya aholisi 65 mln. kishidan ortiqdir. Aholining tabiiy ko‘payishi juda past, yillik hisobda 0,2 % ga teng. Aholi soni o‘shishining muhim manbayi tashqi migratsiya hisoblanadi. Migrantlar ichida o‘tmishda Fransiyaning mustamlakasi bo‘lgan Afrika-niing turli davlatlaridan ko‘chib kelganlar ancha ko‘p.

Fransiyada hozirgi paytda shaharlashuv darajasi 80 % ga yetgan. Parijning atrofida qit‘adagi eng yirik shahar aglomeratsiyalaridan biri shakllangan. Uning aholisi 10 mln. kishidan ziyod. Yirik mintaqaviy markazlar qatoriga Lion, Marsel, Lill, Tuluza, Bordo shaharlari kiradi.

Mamlakatning tub millatlari qatoriga, fransuzlardan tashqari, basklar, bretonlar, elzasliklar, lotaringlar, katalonlar, oksitanlar va korsikaliklar kiradi. Fransiya Konstitutsiyasiga binoan, bu 7 ta millatning tillari min-



28-rasm. Fransiya uzumzorlari.

taqaviy tillar maqomiga ega. Fransiya aholisining diniy tarkibida katoliklar yetakchilik qiladi.

Aholi Parij aglomeratsiyasi, Belgiya va Germaniyaga chegaradosh hududlar hamda O'rta dengiz sohilida zich darajada joylashgan. Tog'li hududlarida esa aholi zichligi birmuncha pastroq.

Iqtisodiyoti. Fransiya Respublikasi Yevropa va butun jahon bo'yicha eng yi-

rik iqtisodiy salohiyatga ega bo'lgan davlatlardan biri hisoblanadi. Fransiya «Katta yettilik» guruhiga mansub.

Fransiya sanoati tarkibida mashinasozlik, kimyo va neft-kimyo, qora va rangli metallurgiya hamda oziq-ovqat sanoatlari yetakchi ahamiyatga ega. Mamlakat avtomobil, kema, samolyot, dastgohlar, mineral o'g'itlar, soda, polimerlar, parfyumeriya va kosmetika, vino, pishloq va boshqa ko'plab mahsulotlarni ishlab chiqarish va jahon bozoriga yetkazishda alohida ajralib turadi.

Fransiya elektr energetikasida AESlar birinchi darajali ahamiyatga ega. Atom elektr stansiyalariga mamlakatda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining salkam 80 % i to'g'ri keladi. Bu jihatdan Fransiya dunyoda birinchi o'rinda turadi.

Qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i go'sht-sut chorvachiligi hisoblanadi. Asosiy qishloq xo'jalik ekinlari: bug'doy, qandlavlagi, kartoshka, makkajo'xori, uzum, zig'ir. Ayniqsa uzumchilik hamda vinochilik sohalarida Fransiya ishlab chiqarish hajmi va mahsulotlarning an'anaviy sifati bilan butun dunyoga mashhur (28-rasm). Dengiz sayozliklarida marikultura,

ya'ni turli dengiz organizmlarini sun'iy ravishda ko'paytirish yaxshi rivojlangan.

Fransiya jahon mamlakatlari ichida turistlar eng ko'p tashrif buyuradigan davlat hisoblanadi. Ayrim yillarda xorijiy sayyohlarning soni 75 million kishidan oshadi. Turizmning bunday darajada rivojlanishiga tabiiy iqlim sharoiti,



29-rasm. Parijdagi Luvr muzeyi.

butun dunyoga mashhur dengizbo‘yi kurortlar (Nitsa, Sen-Trope, Kann va boshqalar), Fransiya shaharlari, ayniqsa Parijda mashhur madaniy obyektlarning ko‘pligi bilan bog‘liq. Masalan, Parijdagi Luvr muzeyi dunyo bo‘yicha tashrif buyuruvchilar soni jihatidan yetakchi o‘rin egallaydi (29-rasm).




1. Xarita yordamida Fransiya iqtisodiy geografik o‘rniga baho bering.
2. Fransiya aholisi tarkibida qaysi millatlar tub millatlar sifatida ajratiladi?
3. Mamlakat qishloq xo‘jaligi qaysi tarmoqlarga ixtisoslashgan?
4. Fransiyada turizmning rivojlanishi va unga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni izohlang.

29-§. Italiya Respublikasi



Apennin yarimoroli, O‘rta dengiz, Sitsiliya, Sardiniya, Alp, anklav, vulqonlar, O‘rta dengiz tipidagi iqlim, madaniy meros, ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar.



Maydoni – 301,3 ming km².
Aholisi (2018-y.) – 60,6 mln.
Poytaxti – Rim.

Italiya Respublikasi – Yevropaning janubida, O‘rta dengiz bo‘ylarida joylashgan, Yevropa madaniyatining beshiklaridan biri hisoblangan davlat. Mamlakat hududining katta qismini Apennin yarimoroli egallaydi. Italiyaga O‘rta dengizdagi ikkita eng yirik orol – Sitsiliya va Sardiniya tegishli. Italiya shimolda Fransiya, Avstriya, Shveysariya va Sloveniya bilan chegaradosh. Italiyaning qo‘shnilari orasida San-Marino hamda Vatikan «mitti» davlatlari alohida o‘ringa ega, chunki bu mamlakatlar har tomondan Italiya hududi bilan o‘ralgan va boshqa davlatlar yoki dengiz suvlari bilan chegaraga ega emas. Bunday geografik joylashuvga ega davlatlar **anklav** davlatlar deb ataladi.

Boshqaruv shakli – parlamentar respublika. Siyosiy-hududiy jihatdan Italiya 20 ta hudud (provinsiya)dan iborat unitar davlat hisoblanadi. 20 ta provinsiyadan 5 tasi, shu jumladan, Sardiniya va Sitsiliya alohida maqomga ega.



30-rasm. Stromboli vulqoni.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Italiya-ning relyefi, asosan, tog'lardan iborat. Mamlakatning shimolida Alp tog'lari joylashgan. Apennin yarimorolini shimoldan janubga tomon o'rtacha balandlikdagi Apennin tog'lari kesib o'tgan (eng baland nuqtasi – Korno-Grande cho'qqisi, 2 914 m). Alp va Apennin tog'lari o'rtasida Padan tekisligi joylashgan. Bu tekislikda

g'arbdan sharqqa tomon Italiyadagi eng yirik daryo – Po daryosi oqib o'tadi.

Italiya seysmik va vulkanik jihatdan faol hududlardan biri. XXI asrning o'zida 4 ta kuchli zilzila ro'y bergan. Mamlakatda bir nechta harakatdagi vulqon, jumladan, Etna (Yevropadagi eng baland harakatdagi vulqon), Vezuviy va Stromboli (30-rasm) mavjud.

Italiya hududida turli foydali qazilmalar (neft, tabiiy gaz, ko'mir, marganes, kaliy va osh tuzi) konlari bor, ammo aksariyat mineral resurslarining qazib olish hajmi mamlakat iqtisodiyotining ehtiyojlarini qondira olmayapti.

Italiyada, asosan, O'rta dengiz tipidagi subtropik iqlim hukmronlik qiladi. Yozi issiq, qishi esa iliq, yog'ingarchilik ko'proq qish oylariga to'g'ri keladi. Alp tog'lari Italiya hududini sovuq havo massalarining kirib kelishidan saqlaydi hamda dengizdan esadigan shamollarning yo'lini to'sib, yog'inlarning tushishini kuchaytiradi.

Aholisi. Italiya Yevropadagi aholisi eng ko'p beshta davlatlardan biri. 2018-yil ma'lumotlariga ko'ra, Italiyada 60,6 mln. kishi istiqomat qiladi. Aholining tabiiy ko'payishi manfiy bo'lib, yillik hisobda -0,2 % ga teng. Lekin tashqi migratsiya hisobiga Italiya aholisi o'sib bormoqda. Migrantlar orasida ruminlar, albanlar hamda Shimoliy Afrika davlatlaridan ko'chib kelgan arablar son jihatidan yetakchi.

Italiyada shahar aholisining ulushi 70 % atrofida. Mamlakatdagi eng yirik shahar aglomeratsiyalari Milan, Rim, Turin va Neapol shaharlari atrofida vujudga kelgan.

Davlat tili – italyan tili. Aholining diniy tarkibida katoliklar yetakchilik qiladi. Italiya katoliklar soni bo'yicha Yevropada birinchi o'rinda turadi.

Aholi Italiyada ancha notekis joylashgan. Aholi eng zich joylashgan hudud Po daryosi oqib o'tadigan Padan tekisligi hisoblanadi. Shuningdek,

mamlakat janubidagi dengizbo‘yi hududlarida ham aholi ancha zich yashaydi. Tog‘li rayonlar va Sardiniyada aholi birmuncha siyrak joylashgan.

Iqtisodiyoti. Italiya Yevropadagi «Katta yettilik» guruhiga kiradigan 4 ta davlatlardan biridir. Biroq Italiyaning turli qismlarining iqtisodiy rivojlanganligida katta farqlar kuzatiladi. Mamlakatning eng yirik va rivojlangan iqtisodiy markazlari uning shimolida joylashgan (Milan va Turin aglomeratsiyalari). Janubiy hududlari esa qoloq agrar iqtisodiyoti bilan ajralib turadi. Bunday keskin hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar Italiyaning iqtisodiy geografik xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Italiya sanoatining yetakchi tarmoqlari sifatida mashinasozlik (ayniqsa avtomobilsozlik va maishiy texnika ishlab chiqarish), kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoatlari ajralib turadilar. Mamlakat yengil avtomobil, motosikl, muzlatgich, velosiped, jun gazlamalari, kiyim-kechak, poyabzal, zaytun moyi, pishloq, vino, meva va tomat konservalari kabi mahsulotlarning jahondagi eng ko‘zga ko‘ringan eksportyorlaridan biridir.

Qishloq xo‘jaligi ko‘proq subtropik dehqonchilikka ixtisoslashgan. Italiya Yevropa va jahon miqyosida sitrus mevalari, uzum, pomidor va zaytun yetishtirish bo‘yicha alohida ajralib turadi (31-rasm).

Milliy iqtisodiyotning eng daromadli tarmoqlaridan biri turizm hisoblanadi, chunki yiliga Italiyaga o‘rta hisobda 50 million xorijiy sayyohlar tashrif buyuradilar. Turizmning bunday keng miqyosda rivojlanishiga Italiyaning tabiiy iqlim sharoiti, tabiatining go‘zalligi va albatta, madaniy merosining boyligi xizmat qiladi. Italiyaning Rim, Milan, Neapol, Venetsiya, Florensiya, Genuya, Parma, Piza, Verona va boshqa shaharlari, chin ma‘noda, «osmon ostidagi muzeylar» sifatida butun dunyoda mashhur. YUNESKO tomonidan tuzilgan Butunjahon madaniy meros obyektlari ro‘yxatiga aynan Italiyadagi tabiiy va tarixiy-madaniy yodgorliklar eng ko‘p kiritilgan.



31-rasm. Italiyadagi zaytun plantatsiyalari.



32-rasm. Rimdagi Kolizey.



1. Italiyaga chegaradosh davlatlar orasida Vatikan va San-Marino qanday geografik xususiyatlari bilan ajralib turadi?
2. Italiya aholisi zichligiga ta'sir ko'rsatgan hududiy tafovutlar sabablarni izohlang.
3. Italiyaning shimoliy va janubiy hududlari iqtisodiy rivojlanish jihatidan qanday farqlanadi?

30-§. Rossiya Federatsiyasi



Sharqiy Yevropa, Shimoliy Osiyo, Ural tog'lari, Kuma-Manich botig'i, agroiklimiy resurslar, tabiat zonalari, Baykal ko'li, ko'p konfessiyali mamlakat.



Maydoni – 17075 ming km².
Aholisi (2018-y.) – 147,3 mln.
Poytaxti – Moskva.

Rossiya Federatsiyasi maydoni jihatidan jahonning eng yirik davlati hisoblanadi. U Sharqiy Yevropa va Shimoliy Osiyoda joylashgan. Rossiyaning Yevropa va Osiyodagi qismlarini Ural tog'lari hamda Kaspiy va Azov dengizlari o'rtasidagi Kuma-Manich botig'i ajratib turadi.

Rossiya qirg'oqlari Shimoliy Muz, Tinch va Atlantika okeanlarining havzalariga tegishli bo'lgan 12 ta dengiz suvlari bilan yuviladi.

Ta'kidlash kerakki, jahonda faqat 3 ta davlat birdaniga uchta okeanga chiqish imkoniyatiga ega – Rossiya, AQSH va Kanada.

Rossiya Federatsiyasi jami 16 ta davlat bilan chegaradosh. Jumladan, Yaponiya va AQSH bilan chegara faqat suv orqali o'tadi. Chegaradosh davlatlarning umumiy soni bo'yicha Rossiya jahon mamlakatlari ichida 1-o'rinda turadi. Eng uzun chegara chiziqlari Qozog'iston, Mongoliya va Xitoy bilan o'tgan.

Rossiya aralash tipidagi respublika hisoblanadi, chunki hukumat prezident va parlament tomonidan birgalikda shakllantiriladi. Konstitutsiyasiga binoan, Rossiya 85 ta turli maqomdagi hududlar federatsiyasi hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasining regionlari orasida respublika, oblast, o'lka, avtonom okrug, avtonom oblast va federal ahamiyatdagi

shaharlar mavjud. Boltiq dengizi bo‘yidagi Kaliningrad oblasti Rossiyaning asosiy hududidan ajralgan holda joylashgan bo‘lib, *eksklav* geografik o‘ringa ega.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Rossiya Federatsiyasining hududi shimoldan janubga 4 000 km dan ortiq, g‘arbdan sharqqa esa salkam 10 000 km masofaga cho‘zilganligi uchun mamlakatning tabiiy sharoiti xilma-xildir. Rossiya hududining 70 % i tekisliklardan iborat. Eng katta maydonlarni Sharqiy Yevropa va G‘arbiy Sibir tekisliklari egallaydi. Baland tog‘lar (Kavkaz, Oltoy, Sayan, Sixote-Alin va boshq.) Rossiyaning sharqiy va chekka janubiy qismlarida joylashgan.

Rossiya mineral resurslarga eng boy davlatlardan biri hisoblanadi. Rossiyada neft, tabiiy gaz, ko‘mir, uran, temir rudasi, oltin, olmos va boshqa foydali qazilmalarning yirik zaxiralari mavjud. Rossiyaning iqtisodiyoti uchun, ayniqsa, neft va tabiiy gazning resurslari katta ahamiyatga ega. Neft va gazning yirik konlari, asosan, G‘arbiy Sibir tekisligida joylashgan.

Rossiya, asosan, mo‘tadil, subarktika va arktika iqlim mintaqalarida joylashgan. Faqatgina Qora dengiz bo‘yidagi hudud subtropik iqlimga ega. Hududining 70 % dan ortiq qismi agroiqlimiy resurslar bilan yetarli darajada ta‘minlanmagan va bu holat qishloq xo‘jaligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Asosiy tabiat zonalari – tundra, tayga, aralash va keng bargli o‘rmonlar, dasht va o‘rmon-dasht. Rossiya o‘rmon va yer resurslari bilan eng yaxshi ta‘minlangan davlatlardan biri.

Rossiya, ayniqsa uning Osiyodagi qismi, suv va gidroenergetika resurslariga juda boy. Ros-



Moskvadagi Xristos Xaloskor cherkovi



Grozniydagi «Checheniston yuragi» masjidi



Elistadagi budda ibodatxonasi

33-rasm. Rossiya – ko‘p konfessiyali mamlakat.

siyaning eng yirik daryolari – Yenisey, Lena, Ob, Amur, Volga. Sibirda joylashgan Baykal ko‘li Yer yuzidagi eng chuqur va eng ko‘p chuchuk suv yig‘ilgan ko‘l hisoblanadi.

Aholisi. Rossiya Federatsiyasi aholi soni bo‘yicha jahonda 9-o‘rinda turadi. Rossiyada 1992–2012-yillarda aholining tabiiy kamayishi kuzatilgan bo‘lsa, 2013-yildan boshlab mamlakatda minimal darajadagi tabiiy ko‘payish qayd etilmoqda. Lekin demografik vaziyat Rossiyada barqaror emas. Aholi ko‘payishiga tashqi migratsiya sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Rossiyada shahar aholisining ulushi 75 % ga yaqin. Eng yirik shaharlari – Moskva (12 mln. kishidan ortiq) va Sankt-Peterburg (5 mln. kishidan ortiq). Hozirda jami 15 ta «millioner» shahar mavjud.

Rossiya Federatsiyasi ko‘p millatli davlat hisoblanadi. Uning hududida 100 tadan ortiq tub millat va elat vakillari yashaydi. Aholining milliy tarkibida 80 % qismi ruslarga to‘g‘ri keladi. Boshqa millatlar orasida tatarlar, ukrainlar, boshqirdlar, chuvashlar, chechenlarning soni 1 mln. kishidan oshadi.

Rossiya ko‘p konfessiyali davlatdir (33-rasm). Mamlakatdagi eng ko‘p sonli din pravoslav xristianlik hisoblanadi. Ruslardan tashqari unga ukrainlar, chuvashlar, mordvalar, osetinlar va boshqa bir necha millat vakillari e‘tiqod qiladilar. Tatarlar, boshqirdlar, Shimoliy Kavkazdagi ko‘plab xalqlar islom diniga mansub. Buryatlar, qalmiqlar hamda tuvaliklar esa buddizm diniga sig‘inishadi.

Rossiyada aholi zichligining o‘rtacha ko‘rsatkichi ancha past (1 km² ga 8 kishi), aholining hududiy joylashuvi esa juda notekis. Bunga, asosan, iqlim sharoiti katta ta‘sir ko‘rsatgan. Aholi ko‘proq Rossiyaning g‘arbiy va janubiy qismida – shartli ravishda ajratiladigan «Sankt-Peterburg – Sochi – Irkutsk» uchburchagida mujassamlashgan.



1. Rossiya Federatsiyasi geografik o‘rnining ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlang.
2. Rossiyada qanday tabiat zonalari keng tarqalgan?
3. Rossiyadagi qaysi millatlar vakillarining soni 1 mln. kishidan ortiq?
4. Rossiyadagi qaysi millatlar pravoslavlik, islom va buddizm dinlariga e‘tiqod qiladilar?

31-§. Rossiya Federatsiyasi xo'jaligi



Yalpi ichki mahsulot (YIM), sanoat, yoqilg'i-energetika sanoati, metallurgiya, mashinasozlik, donchilik, temiryo'l transporti, iqtisodiy rayonlar.

Rossiya Federatsiyasi YIM hajmi bo'yicha jahonda 6-o'rinda turadi (2017-y.). Sobiq Ittifoq mamlakatlari orasida esa Rossiya eng yirik YIM hajmiga ega. Rossiyaning iqtisodiyoti industrial xarakterga ega.

Sanoati. Rossiyada sanoatning ko'plab tarmoqlari yaxshi rivojlangan bo'lib, iqtisodiyotining tayanchi yoqilg'i-energetika sanoati hisoblanadi. Rossiya neft zaxiralari bo'yicha jahonda 3-o'rin, ko'mir zaxiralari bo'yicha 2-o'rin, tabiiy gaz zaxiralari bo'yicha esa 1-o'rinda turadi. Bir necha yildan buyon Rossiya neft va tabiiy gaz qazib olish hajmi bo'yicha jahondagi yetakchi 3 ta davlat qatoridan joy oladi. Yoqilg'ining umumiy eksporti bo'yicha esa Rossiya jahondagi yetakchi davlat hisoblanadi. Rossiya yoqilg'i sanoatining eng asosiy rayoni G'arbiy Sibir hisoblanadi.

Elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha Rossiya jahonda Xitoy, AQSH va Hindistondan keyin to'rtinchi o'rinda turadi. Elektr energiyasining eng katta qismi issiqlik stansiyalarida ishlab chiqariladi (65 % dan ortiq), GESlar ulushi 16 % ga, AESlar hissasi esa 18 % ga teng.

Qora metallurgiya ham Rossiya sanoatining tayanch tarmoqlaridan biri. Rossiya jahonda temir rudasini qazib olish bo'yicha 4-o'rin, po'lat eritish bo'yicha 5-o'rin, po'lat eksporti bo'yicha 4-o'rinda turadi (2016-y.). Yiliga 70 mln. tonnadan ortiq po'lat eritilib, 30 mln. tonnaga yaqin qismi eksport qilinadi. Rossiyada qora metall ishlab chiqarish, asosan, uchta yirik temir rudasi havzalari – Kuznetsk, Magnitogorsk va Kursk magnit anomaliasiga tayanadi.

Rossiya yuqori darajada rivojlangan rangli metallurgiya sanoatiga ham ega. Uning asosiy mahsulotlari – alyuminiy, nikel, mis, oltin, kumush, rux va qo'rg'oshin. Jumladan, alyuminiy va nikelni qazib olish bo'yicha jahonda 2-o'rin, ularning eksporti bo'yicha esa 1-o'rinda turadi (2016-y.). Oltin qazishda mamlakat jahonda 3-o'rinda turadi. Rangli metallurgiyaning eng yirik korxonalari Sharqiy Sibirda faoliyat ko'rsatmoqda (34-rasm). Bunda Yenisey va Angara daryolarida qurilgan yirik GESlarning ahamiyati katta.



34-rasm. «Norilsk nikel» korxonasi.

Mashinasozlik sanoati Rossiyada ko‘p tarmoqli tarkib va keng geografiyasi bilan ajralib turadi. Rossiyaning mashinasozligi aviakosmik texnika, energetika qurilmalari, vagon, yengil va yuk avtomobillari, qishloq xo‘jaligi mashinalari, turli dastgohlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Mamlakatning eng katta avtomobil zavodi – Tolyatti shahridagi «AvtoVAZ» korxonasi.

Kimyo sanoatining eng muhim mahsuloti mineral o‘g‘itlar hisoblanadi. Barcha turdagi mineral o‘g‘itlarni ishlab chiqarish bo‘yicha Rossiya jahonda Xitoydan keyingi 2-o‘rinni egallaydi (2016-y.).

Qishloq xo‘jaligi. Rossiya jahon mamlakatlari orasida eng katta yer fondiga ega, biroq qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan unumli yerlar uning 10 % dan ziyodroq qismini tashkil etadi, xolos.

Rossiyaning turli hududlari qishloq xo‘jaligining ixtisoslashuvi bilan o‘zaro farqlanadi. Tegishli tafovutlar ko‘proq iqlim sharoitiga bog‘liq.


Dehqonchilikning eng muhim tarmog‘i donchilikdir. U, asosan, mamlakat janubi va janubi-g‘arbini egallagan dasht va o‘rmon-dasht zonalarida yaxshi rivojlangan. Don ekinlarining yalpi hosili bo‘yicha Rossiya jahonning yetakchi 5 ta davlatlari qatoriga kiradi va don, xususan, bug‘doy eksporti bo‘yicha jahon miqyosida ajralib turadi (35-rasm). Don ekinlaridan tashqari Rossiyada qandlavlagi, kartoshka, kungaboqar, zig‘ir ham muhim qishloq xo‘jalik ekinlari hisoblanadi.

Chorvachilikning asosiy tarmoqlari qoramolchilik, cho‘chqachilik, parandachilik hisoblanadi. Shimoliy hududlarida bug‘uchilik rivojlangan. Baliq ovlash Bering, Oxota, Yapon, Barens, Boltiq va Kaspiy dengizlarida rivojlangan.

Transporti. Transport yo‘llarining zichligi mamlakatning turli qismlarida keskin farq qiladi. Bu holat tabiiy-iqlim sharoiti va aholi zichligi bilan bog‘liq. Temir yo‘llar uzunligi bo‘yicha Rossiya AQSHdan keyingi 2-o‘rinni, elektrlashtirilgan temir yo‘llarining uzunligi bo‘yicha esa jahonda 1-o‘rinni egallaydi. Jahondagi eng uzun temir yo‘l Moskvani Vladivostok bilan bog‘laydigan Transsibir magistrali hisoblanadi.

Mamlakatning ayrim hududlarida, ayniqsa, shimoliy o'lkalarida daryo transportining ahamiyati yuqori. Rossiyaning Yevropa qismida Volga dar-yosi daryo transporti tarmoqlarining o'zagi bo'lib xizmat qiladi. U turli irmoq va kanallar orqali Boltiq, Oq va Azov dengizlari bilan bog'langan.

Rossiyaning 7 ta shahrida (Moskva, Sankt-Peterburg, Nijniy Novgorod, Samara, Yekaterinburg, Novosibirsk va Qozon) metropoliten mavjud.



35-rasm. Rossiya don eksporti dinamikasi (1992–2017-yy., mln. tonna).

Iqtisodiy rayonlari. Rossiya Federatsiyasi rasman 11 ta iqtisodiy ra-yonga bo'linadi. Ulardan eng yiriklari Markaziy, Shimoli-g'arbiy, Ural, Volgabo'yi, G'arbiy Sibir, Sharqiy Sibir, Uzoq Sharqdir. Mamlakat iq-tisodiy rayonlari orasidagi tafovutlar, asosan, tabiiy sharoit va resurslar hamda tarixiy rivojlanish xususiyatlari bilan bog'liq.



1. Rossiya sanoati va butun iqtisodiyotining negizini qaysi tarmoq tashkil qiladi?
2. Rossiyadagi asosiy qishloq xo'jalik ekinlari qatoriga nimalar kiradi?
3. Yozuvsiz xaritada metropoliten mavjud bo'lgan Rossiya shaharlarini belgilang.
4. Rossiya iqtisodiy rayonlari orasidagi tafovutlar qanday omillar bilan belgilanadi?



6-BOB. OSIYO MAMLAKATLARI

32-§. Osiyo qit'asining geografik o'rni, chegaralari va siyosiy xaritasi



Osiyo, qit'a, yangi mustaqil davlatlar, orol davlatlar, ichki kontinental davlatlar, respublika, monarxiya, federativ davlatlar.



36-rasm. Osiyoning geografik o'rni.

Jahonning eng yirik qit'asi Osiyo deb atalishi uning geografik o'rni bilan bog'liq. Qadimiy assuriyaliklar tilida u «Quyosh chiqishi», ya'ni «sharq» ma'nosini anglatadi.

Osiyoning orollar bilan birgalikdagi umumiy maydoni 43,4 mln. km² (Rossiyaning Osiyodagi qismi bilan). Aholisi 4,5 mlrd. kishidan ziyod, ya'ni Osiyoda insoniyatning deyarli 60 % i yashaydi (2018-y.).

Osiyo ekvatorga nisbatan, asosan, Shimoliy, bosh meridianga nisbatan esa, asosan, Sharqiy yarim sharda joylashgan (36-rasm).

Osiyo qirg'oqlari to'rtta okean suvlari bilan yuviladigan yagona qit'adir. Uni shimolda (Rossiyaning hududi) Shimoliy Muz, janubda Hind, sharqda Tinch okean, g'arbda Atlantika okeani havzasiga tegishli O'rta va Qora dengizlari o'rab turadi.

Osiyoning siyosiy xaritasida, Rossiyaning hisobga olmaganda, 47 ta mustaqil davlat mavjud. Bu davlatlarning ko'pi Ikkinchi Jahon urushidan keyingi davrda siyosiy mustaqillikka erishgan. Qit'aning eng yosh davlatlari qatoriga 1991-yilda mustaqillikni qo'lga kiritgan O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Gruziya, Armaniston hamda 2002-yilda mustaqil davlatga aylangan Sharqiy Timor kiradi.

Osiyo davlatlari hududining maydoniga ko'ra bir-biridan ancha farq qiladi. Rossiya, Xitoy, Hindiston va Qozog'iston jahonning 10 ta eng yirik

davlatlari qatoriga kiradi. Yana 4 ta davlat – Saudiya Arabistoni, Indoneziya, Eron va Mongoliyaning maydoni 1 mln. km² dan katta. Shuningdek, hududi 500 ming km² dan ziyod bo‘lgan Pokiston, Turkiya, Afg‘oniston, Myanma, Yaman va Tailand ham katta mamlakatlar hisoblanadi. Shu bilan birga, Osiyoda maydoni 1 ming km² dan kichik bo‘lgan 3 ta davlat mavjud – Bahrayn, Singapur va Maldiv Respublikasi. Umuman olganda esa, Osiyoda Yevropaga nisbatan hududi katta bo‘lgan davlatlar ko‘p.

Osiyo davlatlarining aksariyatida dengizga bevosita chiqish imkoniyati mavjud. Ularning ayrimlari (masalan, Turkiya, Malayziya, Singapur, Koreya Respublikasi) serqatnov dengiz yo‘llari va bo‘g‘izlar bo‘yida joylashgan. Qit‘a davlatlaridan 9 tasi orollarda joylashgan – Indoneziya, Filippin, Sharqiy Timor, Singapur, Yaponiya, Shri-Lanka, Maldiv Respublikasi, Kipr va Bahrayn.

Shu bilan birga Osiyoda 13 ta davlat quruqlik ichkarisida joylashgan. Ulardan yettitasi sobiq Ittifoq tarkibidan ajralib chiqqan yosh mustaqil davlatlar. Jahonning ichki kontinental davlatlaridan eng yirik ikkitasi (Qozog‘iston va Mongoliya) aynan Osiyoda joylashgan.

Qit‘adagi 47 ta davlatdan 34 tasi respublika, 13 tasi monarxiya boshqaruv shakliga ega. Osiyoda dunyoning 5 ta mutlaq monarxiyalaridan 4 tasi (Saudiya Arabistoni, Ummon, Qatar, Bruney) joylashgan.

Ma‘muriy-hududiy jihatidan Osiyodagi 7 ta davlat federativ tuzilishga ega – Hindiston, Pokiston, Myanma, Iroq, Malayziya, Nepal va Birlashgan Arab Amirliklari.

Osiyo davlatlari 5 ta subregionga bo‘linadi. Bular: Markaziy, Janubig‘arbiy, Janubiy, Janubi-sharqiy va Sharqiy Osiyodir. O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va Tojikiston Respublikalari Markaziy Osiyo subregionini tashkil qiladi.



1. Osiyo siyosiy xaritasidagi eng yosh davlatlar qaysi?
2. Xaritadan Osiyodagi qaysi orol davlatlari katta, qaysilari kichikligini aniqlang.
3. Atlasdagi jahonning siyosiy xaritasi yordamida quruqlik ichkarisida joylashgan Osiyo davlatlarini aniqlang.

33-§. Osiyo mamlakatlari tabiiy resurslari va aholisi



Mineral, suv, agroiqlimiy, o‘rmon resurslari, sug‘orma dehqonchilik, ishlov beriladigan yerlar, aholi joylashuvi, tabiiy ko‘payish, urbanizatsiya, janubiy yevropeoidlar, mongoloidlar, din.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Osiyo davlatlarining ko‘pchiligi mineral boyliklar bilan yaxshi ta‘minlangan. Jahon neft zaxiralarining 70 %i, gazning 80 % dan ortig‘i, ko‘mirning 50 % dan ko‘pi Osiyoning hissasiga to‘g‘ri keladi. Neft va tabiiy gazga Fors qo‘ltig‘i va uning qirg‘oqlari, Kaspiy dengizi, Turon tekisligi, Janubi-sharqiy Osiyoning dengiz sayozliklari boy. Xitoy, Hindiston, Qozog‘istondagi qadimiy platformalar hududida yirik toshko‘mir, temir, marganes, xrom va turli rangli metall konlari joylashgan. Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarida jahonning eng yirik qalayi konlari «qalayi belbog‘i»ni hosil qiladi.

Osiyoda boshqa turdagi tabiiy resurslar (suv, yer, agroiqlimiy) hududiy tarqalishida katta farqlar bor. Suv resurslari bilan yaxshi ta‘minlangan hududlar (misol uchun, Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari) bilan birga, bepoyon qurg‘oqchil cho‘llar ham bor.

Katta tafovutlar tabiiy namlik, ishlov beriladigan (haydaladigan) yerlar kabi resurslarning taqsimlanishida ham ko‘zga tashlanadi. Osiyodagi ko‘plab davlatlarda yer resurslari (avvalo, ekin maydonlari) yetishmaydi, yirik tog‘ massivlari, qurg‘oqchil cho‘llar keng tarqalganligi, aholi zichligi yuqori bo‘lganligi uchun ishlov beriladigan maydonlar ancha cheklangan. Osiyo hududining katta qismida quyosh tafti, uning issiqlik imkoniyatlari o‘simliklarning vegetatsiya mavsumining uzoq, hatto yil bo‘yi davom etishiga imkon beradi. Ammo tabiiy namlik qit‘ada notekis taqsimlangan.

Bu holat qadimdan Osiyo mamlakatlarida har tomchi suvdan unumli foydalanishga undagan va bu qit‘ani sun‘iy sug‘orish dehqonchiligining beshigiga aylantirgan. Tarixiy ma‘lumotlar Markaziy Osiyo, Janubiy va Janubi-g‘arbiy Osiyoda sug‘orma dehqonchilik madaniyati 4–5 ming yillar oldin shakllanganini tasdiqlaydi. Yer yuzasidagi barcha sug‘oriladigan yerlarning 3/4 qismi Osiyo mamlakatlarining hissasiga to‘g‘ri keladi. Sug‘oriladigan yerlarning kattaligiga ko‘ra jahonda Xitoy birinchi, Hindiston esa ikkinchi o‘rinda turadi.

Aholisi. Osiyo aholisi eng ko‘p bo‘lgan qit‘a hisoblanadi. Mintaqada 4,5 mlrd. kishidan ortiq, ya‘ni jahon aholisining deyarli 60 % i yashaydi (2018-y.).

Osiyoda, qolaversa jahon davlatlari orasida aholi soni jihatidan alohida ajralib turadigan davlatlar Xitoy va Hindiston hisoblanadi. Ularning aholisi, 2018-yil ma‘lumotlariga ko‘ra, mos ravishda, 1 mlrd. 394 mln. va 1 mlrd. 371 mln. kishiga teng bo‘lgan. Demak, Xitoy va Hindistonda Osiyo aholisining 61%, yoxud butun insoniyatning 36 % i istiqomat qiladi.

Aholi soni jihatidan, 2018-yil holatiga ko‘ra, Xitoy va Hindistondan keyingi yetakchi o‘rinlarni Indoneziya (265 mln. kishi), Pokiston (201 mln. kishi), Bangladesh (166 mln. kishi), Yaponiya (126 mln. kishi), Filippin (107 mln. kishi), Vyetnam (95 mln. kishi), Eron (82 mln. kishi) va Turkiya (81 mln. kishi) kabi davlatlar egallaydi.

Osiyo aholisi hozirgi bosqichda, umumiy olganda, yiliga 1–1,1 % ga o‘smoqda. Ammo aholi ko‘payish sur‘atlari davlatlarda turlicha. Yaponiya, Shimoliy va Janubiy Koreya, Xitoy, Singapur, Tailand, Gruziya, Armaniston, Kiprda aholining tabiiy ko‘payishi ancha past (yillik hisobda 0,5 % dan oshmaydi). Shu bilan birga, Iroq, Yaman, Tojikiston, Afg‘oniston, Sharqiy Timor davlatlarida tabiiy ko‘payish sur‘atlari juda yuqori (yiliga 2,5–3 %).

Osiyoning umumiy urbanizatsiya ko‘rsatkichi XXI asrning dastlabki yillarigacha Afrikaga nisbatan ham past bo‘lib, 30 % ga yetmas edi. Ammo 2018-yilga kelib, bu ko‘rsatkich mintaqa bo‘yicha 50 % ga yetdi. Bunday keskin o‘zgarish, ko‘p jihatdan Xitoyda shaharlashuv jarayonining oxirgi yillardagi jadallashuvi bilan bog‘liq. So‘nggi 15–20 yilda bu davlatning urbanizatsiya darajasi 2 barobarga ortib, jahon bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan oshdi. Urbanizatsiya darajasi, ayniqsa, Singapur, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Isroil kabi sanoatlashgan davlatlar hamda Janubi-g‘arbiy Osiyoning neftni qazib oluvchi mamlakatlarida juda yuqori (85–100 %). Afg‘oniston, Tojikiston, Shri-Lanka, Nepal, Kambojja, Myanma, Sharqiy Timorda esa urbanizatsiya ko‘rsatkichi 20–30 % oralig‘ida.

Osiyo aholisi hududiy jihatdan notekis joylashgan. Bunga tabiiy sharoit, ayniqsa, iqlim va suv resurslari omillari katta ta‘sir ko‘rsatgan. Osiyoning aholi eng zich joylashgan qismlari Buyuk Xitoy tekisligi, Hind-Gang

pasttekisligi, Hindiston yarimoroli, Yapon va Filippin orollari, Koreya yarimorolining janubi, Yava oroli hisoblanadi. Ayni paytda, Arabiston yarimoroli, Gobi va Taklamakon cho'llari, baland tog'li o'lkalarda aholi zichligi o'ta pastdir.

Osiyo barcha yirik dinlar – buddizm, xristianlik, islom, induizm, konfutsiylik, yahudiylik, sintoizمنىning beshigi hisoblanadi va bu qit'ada tarixan dinlarning o'ziga xos geografiyasi shakllangan. Janubi-g'arbiy va Markaziy Osiyoda, Pokiston, Bangladesh, Maldiv Respublikasi singari Janubiy Osiyo hamda Indoneziya, Malayziya, Bruney kabi Janubi-sharqiy Osiyo davlatlarida islom dini asosiy ahamiyatga ega. Hindixitoy yarimorolidagi davlatlar, Mongoliya, Shri-Lanka va Butanda buddistlar ko'pchilikni tashkil etadi. Armaniston, Gruzziya, Kipr, Filippin, Sharqiy Timorda xristianlikning turli mazhablari yetakchilik qiladi. Mahalliy dinlardan Hindiston va Nepalda induizm, Xitoyda konfutsiylik va daosizm, Yaponiyada sintoizm, Isroilda esa iudaizm keng tarqalgan.



1. Aksariyat Osiyo mamlakatlarida yer resurslari taqchilligining sabablarini tushuntiring.
2. Nima uchun Osiyoda dehqonchilik, asosan, sug'orish asosida rivojlanadi?
3. Aholining tabiiy ko'payishi juda yuqori va ancha past darajada bo'lgan Osiyo mamlakatlariga misollar keltiring. Bunday geografik tafovutlar qaysi omillarga bog'liq?
4. Osiyoning turli mintaqa va davlatlarida qaysi dinlar tarqalgan? Nima uchun Osiyo qit'asi dunyo dinlari tarixida alohida o'rin tutadi?

34-§. Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanganligi



Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, yalpi ichki mahsulot (YIM), «Katta yettilik» guruhi, «ko'chirilgan kapitalizm davlatlari», yangi industrial davlatlar, industrial-agrar davlatlar, agrar-industrial davlatlar, agrar davlatlar.

Osiyo mamlakatlari nafaqat tabiiy sharoiti va resurslari, aholining ko'payishi va tarkibi jihatidan, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi nuqtayi nazaridan ham bir-biridan ancha farq qiladi. Ular iqtisodiy rivojlanganligi va xo'jaligining ixtisoslashuviga ko'ra bir necha guruhga bo'linadi.

1. Yaponiya – «Katta yettilik» guruhiga kiradigan yagona Osiyo mamlakati. Yaponiya YIM hajmi bo'yicha jahonning to'rtinchi davlati hisoblanadi (2017-y.). Iqtisodiyoti innovatsion texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish tarmoqlariga ixtisoslashgan. Aholi turmush darajasi borasida Yaponiya jahonning peshqadam davlatlaridan biri.

2. Isroil – «ko'chirilgan kapitalizm» tipidagi rivojlangan davlat. Aholi jon boshiga YIM hajmi bo'yicha Osiyodagi peshqadam davlatlaridan biri. Isroil iqtisodiyoti, birinchi navbatda, yuqori texnologiyalarga tayanadigan mashinasozlikning turli tarmoqlariga ixtisoslashgan.

3. Xitoy va Hindiston – tabiiy resurslar, aholi soni va YIM hajmi bo'yicha ulkan salohiyatga ega tayanch rivojlanayotgan mamlakatlar. Ular so'nggi 15–20 yilda iqtisodiyoti tez rivojlanayotgan davlatlarga aylandi. Hozirgi vaqtda Xitoy YIM hajmiga ko'ra dunyoda birinchi, Hindiston esa uchinchi o'rinni egallaydi. Ammo aholi jon boshiga hisoblanganda iqtisodiy ko'rsatkichlari, ayniqsa, Hindistonda, hali rivojlangan davlatlar darajasidan birmuncha past. Ijtimoiy taraqqiyot borasida ham bu ikkala davlatda dolzarb muammolar mavjud.

4. Osiyoning yangi industrial davlatlari – Koreya Respublikasi, Singapur, Malayziya, Tailand. 1980-yillardan buyon amalga oshirilgan chuqur iqtisodiy islohotlar tufayli bu davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida keskin yuksalishlarga erishdi. Koreya Respublikasi va Singapur oxirgi vaqtda ko'plab xalqaro tashkilotlar tomonidan rivojlangan davlatlar qatoriga kiritilmoqda. Yangi industrial davlatlarning iqtisodiyoti mikroelektronika, elektrotexnika, avtomobilsozlik, kemasozlik kabi mashinasozlikning tarmoqlariga ixtisoslashgan. Yangi ishlab chiqarish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yaratish va eksport qilishda ham bu guruhdagi davlatlar katta yutuqlarga erishgan.

5. Yirik industrial-agrar davlatlar – Indoneziya, Pokiston, Filippin, Turkiya, Eron. Bu davlatlar maydoni va aholi soni bo'yicha yirik hisoblanib, katta tabiiy va mehnat resurs salohiyatiga ega. Bu davlatlarning iqtisodiyoti yengil, oziq-ovqat, tog'-kon sanoati, mashinasozlikning ayrim tarmoqlari hamda ko'p tarmoqli qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan. YIMning hajmi bo'yicha ular jahonning yetakchi 30 ta davlati qatoriga kiradi, ammo aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlari birmuncha pastroq (ayniqsa, Pokiston, Filippin va Indoneziyada).

6. Neftni eksport qiluvchi mamlakatlar – Fors qo‘ltig‘i arab davlatlari va Bruney. Bu mamlakatlar hozirgi vaqtda aholi jon boshiga YIMning darajasiga ko‘ra, nafaqat Osiyo, balki butun jahon miqyosida yetakchi o‘rinlarda turadi. Buning asosiy sababi neftni eksport qilish hisobiga tushadigan katta daromad va aholi sonining nisbatan kamligi (Saudiya Arabistonini hisobga olmaganda). Oxirgi yillarda Fors qo‘ltig‘i arab davlatlarida kimyo, metallurgiya kabi sanoat tarmoqlari, turizm, tranzit savdo, bank-moliya sektori ham yaxshi rivojlanib bormoqda.

7. O‘tish iqtisodiyotidagi davlatlar – Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlari, Mongoliya. Bu davlatlarning iqtisodiyoti industrial-agrar xarakterga ega bo‘lib, asosan, xomashyoni yetkazuvchi tarmoqlarga (neft-gaz sanoati, tog‘-kon sanoati, ko‘p tarmoqli qishloq xo‘jaligi) ixtisoslashgan. Neft va gazni katta hajmda eksport qiluvchi Qozog‘iston, Turkmaniston va Ozarbayjonning iqtisodiy ko‘rsatkichlari guruhdagi boshqa davlatlarga nisbatan yuqoriroq.

8. Turizm va xizmatlar sohasiga ixtisoslashgan davlatlar – Kipr, Livan, Maldiv Respublikasi. Bu hududiy jihatdan kichik, boy rekreatsion resurslarga ega davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hozirgi sharoitda turizm hamda xizmatlar sohasi, ayniqsa, bank-moliya sektori bilan bog‘liq.

9. Sust rivojlanayotgan agrar-industrial davlatlar. Bular: Vyetnam, Kambodja, Bangladesh, Shri-Lanka, Iroq, KXDR va boshqa mamlakatlar bo‘lib, asosan, qishloq xo‘jaligi, tog‘-kon, yengil yoki oziq-ovqat sanotiga ixtisoslashgan.

10. Iqtisodiyoti eng qoloq agrar davlatlar – Afg‘oniston, Nepal, Yaman, Myanma, Sharqiy Timor, Laos, Butan. Ularda sanoat juda sust rivojlangan, shuningdek, qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligi ancha pastdir.



1. Yaponiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish nuqtayi nazaridan qanday o‘ziga xos jihatlari mavjud?

2. Osiyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi jihatidan tasniflashda Xitoy va Hindiston alohida guruh sifatida ajratilishining sababini izohlang.


3. O‘zbekiston Osiyo davlatlarining qanday iqtisodiy guruhiga mansub? Ushbu davlatlar guruhining tarkibi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining xususiyatlarini tavsiflang.

4. Osiyoning qaysi davlatlari eng qoloq agrar tipdagi iqtisodiyotga ega?

35-§. Qozog‘iston Respublikasi



Iqtisodiy geografik o‘rin, keskin kontinental qurg‘oqchil iqlim, mineral resurslar, milliy tarkib, ko‘p tarmoqli sanoat, lalmi va sug‘orma dehqonchilik, donchilik.



Maydoni – 2724,9 ming km².
Aholisi (2018-y.) – 18,4 mln.
Poytaxti – Nur-Sulton.

Qozog‘iston Markaziy Osiyoda hududiy jihatdan eng yirik davlat bo‘lib, jahon mamlakatlari ichida maydoni bo‘yicha 9-o‘rinni egallaydi. U beshta davlat – Rossiya, Xitoy, O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Turkmaniston bilan chegaradosh. Qozog‘istonning Rossiya bilan davlat chegarasi (7 548 km) uzunligi bo‘yicha dunyoda AQSH va Kanada o‘rtasidagi chegaradan keyingi 2-o‘rinda

turadi. Mamlakat janubi-g‘arbda Kaspiy dengizi bilan chegaradosh.

Qozog‘iston iqtisodiy geografik o‘rnining asosiy xususiyatlari Osiyo va Yevropa davlatlarini bog‘lovchi temiryo‘l va avtomobil magistrallarining o‘tganligi, Kaspiy dengiziga tutashligi, Rossiya va Xitoydek yirik davlatlarga chegaradoshligi bilan belgilanadi.

Boshqaruv shakli – prezidentlik respublikasi. Ma‘muriy-hududiy jihatdan unitar davlat bo‘lib, 14 ta viloyat va 3 ta respublika ahamiyatidagi shahar (Nur-Sulton, Almati, Shimkent)dan iborat.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Qozog‘iston relyefida tekisliklar hukmronlik qiladi, tog‘ tizmalari faqat respublikaning janubi-sharqiy qismida joylashgan. Markaziy hududlari relyefi esa kuchli parchalangan yassi tog‘likdan iborat. Qozog‘iston foydali qazilmalarga jahondagi eng boy davlatlardan biri. Mamlakat yoqilg‘i, rudali va noruda resurslarining ulkan zaxiralariga ega. Neft va tabiiy gazning yirik konlari Kaspiy dengiziga yaqin hududlarda, toshko‘mirning asosiy zaxiralari (Qarag‘anda, Ekibastuz havzalari) esa markaziy qismida joylashgan. Qozog‘istonning markaziy va sharqiy hududlari temir, marganes, xrom, uran, mis, volfram, rux, qo‘rg‘oshin va boshqa metallarning katta zaxiralariga ega. Noruda mineral boyliklardan fosforit va oltingugurt alohida e‘tiborga loyiq.

Qozog‘iston iqlimi mo‘tadil keskin kontinental va qurg‘oqchil, qishda shimoliy hududlarida havo harorati -50 °C dan ham past bo‘ladi.



37-rasm. Qozog‘iston Respublikasi poytaxti – Nur-Sulton shahri.

Qurg‘oqchil iqlim tufayli Qozog‘istonning bepoyon tekisliklarida dasht, chalacho‘l va cho‘l tabiat zonalari shakllangan.

Yog‘inlarning ozligi, hududining aksariyat qismini cho‘llar ishg‘ol qilganligi mamlakatning katta qismida suv resurslarining tanqisligini keltirib chiqargan. Asosiy daryolari hisoblangan Irtish, Ili, Sirdaryo, Ural respublikaning

chekka qismlaridan oqib o‘tadi, to‘yinish manbalari esa qo‘shni mamlakatlar hududida joylashgan.

Aholisi. Qozog‘iston aholisi 18,4 mln. kishiga teng (2018-y.). Aholining tabiiy ko‘payishi Markaziy Osiyodagi boshqa davlatlarga nisbatan pastroq bo‘lib, yiliga o‘rtacha 1,5 % dan ortiqroq.

Urbanizatsiya darajasi 57 % ga teng (2018-y.). Hozirgi paytda 3 ta «millioner» shahar mavjud: Almati (mamlakatning eng yirik shahri), Nur-Sulton (37-rasm) va Shimkent.

Aholi zichligining o‘rtacha ko‘rsatkichi Qozog‘istonda juda past bo‘lib, 7 km² /kishi atrofida. Aholi respublika janubidagi sug‘orma dehqonchilik rivojlangan daryo vodiylari va tog‘oldi tekisliklarida hamda mamlakat shimolidagi sanoatlashgan hududlarida birmuncha zichroq joylashgan.

Aholisining milliy tarkibi ancha murakkab. Aholining 67,5 % ini tashkil etadigan qozoqlardan tashqari, mamlakatda ruslar (20 %), o‘zbeklar (3 %), ukrainlar (1,5 %), uyg‘urlar (1,5 %) va boshqa millatlar vakillari mavjud (2018-y.). Rus va ukrainlar shimoliy va sharqiy hududlarda keng tarqalgan bo‘lsa, o‘zbeklar, asosan, respublikaning janubidagi Turkiston viloyatida istiqomat qilishadi.

Iqtisodiyoti. Qozog‘iston Markaziy Osiyodagi 5 ta davlat ichida iqtisodiy salohiyati jihatidan yetakchi hisoblanadi, ayniqsa sanoat sohasidagi ko‘rsatkichlari ancha yuqori. Sanoatning asosiy tarmoqlari qatoriga neft-gaz, ko‘mir, qora va rangli metallurgiya, kimyo va mashinasozlik kiradi (38-rasm). Qozog‘iston neft qazish hajmi bo‘yicha jahonning yetakchi 20 ta davlatlari qatoriga, ko‘mir, mis, ruxni qazib olish bo‘yicha esa birinchi o‘ntalikka kiradi. Qozog‘iston 2009-yildan buyon uran qazib olish bo‘yicha jahonda birinchi o‘rinni egallab kelmoqda va u dunyo

bo'yicha jami qazib olinayotgan uranning 40 % ga yaqin qismini beradi. Elektr energiyasining 90 % idan ortig'i IESlarda ishlab chiqariladi.

Dehqonchilikning bosh tarmog'i donchilik. U, ayniqsa shimoliy viloyatlaridagi lalmi yerlarda yaxshi rivojlangan. Janubiy viloyatlarda dehqonchilik sug'orish yordamida rivojlantirilib, bu yerda uning asosiy tarmoqlari sabzavotchilik, sholichilik, polizchilik hisoblanadi. Chorvachilikning yetakchi tarmoqlari: qo'ychilik, qoramolchilik, yilqichilik, tuyachilik.



38-rasm. Balxash shahridagi tog'-metallurgiya kombinati.



1. Qozog'iston iqtisodiy geografik o'rnining qulay jihatlari nimalardan iborat?
2. Qozog'iston sanoati va qishloq xo'jaligining ixtisoslashuviga mamlakatning tabiiy sharoiti va resurslari qanday ta'sir ko'rsatadi?
3. Respublika aholisi milliy tarkibining xususiyatlarini tavsiflab bering.
4. Nima sababdan Qozog'istonning markaziy hududlarida aholi zichligi juda past?

36-§. Qirg'iziston Respublikasi



Tyanshan tog'lari, tog' oralig'idagi vodiylar, tog'-kon sanoati, Kumtor koni, gidroenergetika, tog'-yaylov chorvachiligi, turizm, Issiqko'l.



Maydoni – 199,9 ming km².
Aholisi (2018-y.) – 6,2 mln.
Poytaxti – Bishkek.

Qirg'iziston Yevrosiyo materigining o'rta qismida, asosan, Tyanshan tog'li o'lkasi hududida joylashgan bo'lib, Dunyo okeaniga chiqish imkoniyatiga ega emas. U shimolda Qozog'iston, g'arbda O'zbekiston, janubda Tojikiston, sharqda Xitoy bilan chegaradosh.

Mamlakatning iqtisodiy geografik o'rni ancha noqulay hisoblanadi, chunki xalqaro ahamiyatga ega transport magistrallari uning hududidan deyarli o'tmaydi. Bu holat Qirg'izistonning murakkab relyef sharoiti bilan bog'liqdir.

Qirg'iziston – parlamentar respublika. Ma'muriy-hududiy tuzilishi 7 ta viloyat va 2 ta respublika ahamiyatidagi shahar (Bishkek va O'sh)dan iborat. Poytaxti – Bishkek shahri, mamlakatning shimolida, Chuy daryosi vodiysida joylashgan.



39-rasm. Qirg'iziston Respublikasi hududining kosmik fotosurati.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Qirg'iziston tabiatining asosiy xususiyati uning tog'ligi hisoblanadi. Mamlakat hududining deyarli 90 % i tog' tizmalari bilan band (39-rasm). Qirg'izistonning Xitoy bilan chegarasida Tyanshan tog'larining eng baland nuqtasi – G'alaba cho'qqisi (7439 m) joylashgan (40-rasm).

Qirg'izistonning asosiy yer osti boyliklari oltin, surma, simob, volfram, uran, qalayidan iborat. Yoqilg'i resurslari, asosan, mamlakatning janubidagi ko'mir konlari bilan cheklangan. Umuman olganda, Qirg'iziston yoqilg'i zaxiralari bilan past darajada ta'minlangan hamda tegishli ehtiyojlarini import hisobiga qondiradi.

Tyanshan tog'larida yirik muzliklarning mavjudligi hisobiga Qirg'iziston daryo va ko'llarga boy bo'lib, suv-energetika resurslari bilan yaxshi ta'minlangan. Bu holat respublika uchun katta iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Eng katta daryolari Norin, Chuy va Talas, eng katta ko'li esa Issiqko'ldir (41-rasm).

Aholisi. Qirg'iziston aholisi tog'li relyef sharoitida juda notekis joylashgan bo'lib, aksariyat qismi tog' oralig'idagi vodiylarda istiqomat qiladi. Farg'ona va Chuy vodiylarida aholi zich yashaydi. Bu holat o'sha hududlarning dehqonchilik uchun qulay tabiiy sharoiti bilan bog'liq.



40-rasm. G'alaba cho'qqisi (7439 m.).

Aholining 30 % dan ko'proq qismi shaharlarda istiqomat qiladi, qolgan qismi esa qishloq aholisiga to'g'ri keladi. Mamlakatning eng yirik shahri – Bishkekning aholisi 2017-yilda 1 mln. kishidan oshib ketdi. Yirikligi jihatidan mamlakatning ikkinchi shahri hisoblanadigan O'shda 260 ming kishidan ko'proq aholi yashaydi (2018-y.).



41-rasm. Issiqko'l.

Aholisining milliy tarkibida qirg'izlarning ulushi 75 % atrofida bo'lsa, 15 % ga yaqin qismini o'zbeklar tashkil etadi. O'zbeklar, asosan, Qirg'izistonning respublikamizga qo'shni janubiy hududlarida istiqomat qiladi. Shuningdek, ruslar, dunganlar, uyg'urlar va tojiklar ham aholining etnik tarkibida muhim o'ringa ega.

Iqtisodiyoti. Qirg'iziston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi sanoatga nisbatan ko'proq ahamiyatga ega bo'lganligi uchun, respublika agrar-industrial davlat hisoblanadi.

Sanoati hozirgi vaqtda, asosan, tog'-kon tarmog'iga ixtisoslashgan. Eng muhim sanoat mahsuloti oltin hisoblanadi va u mamlakat eksportining eng katta qismini tashkil etadi. Qirg'iziston sobiq Ittifoq davlatlari orasida oltin qazib olish hajmi bo'yicha Rossiya va O'zbekistondan keyingi 3-o'rinda turadi. Oltin, asosan, Markaziy Tyanshanning baland tog'larida joylashgan Kumtor konidan qazib olinadi. U dunyodagi 10 ta eng yirik oltin konlaridan biri hisoblanadi.

Sanoatning boshqa tarmoqlaridan yengil, oziq-ovqat, mashinasozlik va ko'mir sanoatlari katta ahamiyatga ega. Elektr energetika Qirg'izistonda, asosan, GESlarga tayanadi. Eng yirik GESlar Norin daryosida qurilgan.

Asosiy qishloq xo'jalik ekinlari qatoriga bug'doy, paxta, kartoshka, sabzavot, kungaboqar, tamaki kiradi. Dehqonchilik vodiylarda rivojlangan. Qirg'iziston tog'lari serhosil yaylovlarga boy bo'lganligi tufayli (42-rasm) respublikada chorvachilikning qo'ychilik, echkichilik, qoramolchilik, yilqichilik singari tarmoqlari yaxshi rivojlangan.

Mamlakat iqtisodiyotida turizm ham muhim ahamiyatga ega. Yiliga respublikaga 3 milliondan ortiq xorijiy sayyohlar tashrif buyuradi. Ularning asosiy qismi Issiqko'l atrofida dam olish uchun keladi.



42-rasm. Qirg'izistonning tog' yaylovlari.



1. Qirg'izistonning iqtisodiy geografik o'rniga baho bering.
2. Qirg'iziston va Qozog'istonning tabiiy sharoiti va resurslarini solishtirib, tabiiy

geografik tafovutlari iqtisodiyotning rivojlanishi va ixtisoslashuviga qanday ta'sir ko'rsatishini izohlang.

3. Qirg'izistonning qaysi hududlarida o'zbeklar keng tarqalgan?
4. Qirg'istondagi eng muhim sanoat va turistik obyektlarini ayting.

37-§. Turkmaniston Respublikasi



Kaspiy dengizi, Qoraqum cho'li, Kopetdog', yoqilg'i resurslari, Qoraqum kanali, axalteki otlari, «Avaza» turistik zonasi.



Maydoni – 491,2 ming km².
Aholisi (2018-y.) – 5,9 mln.
Poytaxti – Ashxobod.

Turkmaniston Markaziy Osiyoning janubi-g'arbiy qismida joylashgan. Shimolda Qozog'iston, shimoli-sharqda O'zbekiston, janubi-sharqda Afg'oniston, janubda Eron bilan chegaradosh. Turkmaniston g'arbda Kaspiy dengiziga tutash.

Turkmanistonning iqtisodiy geografik o'rni qulay, chunki uning hududidan Markaziy va Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlarini bog'lovchi temiryo'l va avtomobil magistrallari o'tgan. Mamlakat

Kaspiy dengizi orqali Rossiya va Kavkaz davlatlari bilan bog'langan.

Turkmaniston – prezidentlik respublikasi. Ma'muriy-hududiy jihatdan 5 ta viloyat va 1 ta respublika ahamiyatidagi shahardan iborat. Poytaxti – Ashxobod shahri Kopetdog' tog' tizmasi etagida joylashgan (43-rasm).

Tabiiy sharoiti va resurslari. Turkmaniston hududini, asosan, keng tekisliklar ishg'ol etadi va uning 80 % idan ortig'i Qoraqum cho'liga tog'ri keladi. Tog'lar faqat janubiy va sharqiy chegarabo'yi hududlarida joylashgan. Eng baland nuqtasi – O'zbekiston bilan chegarada Ko'hitangtog' tizmasida joylashgan Buyuk Turkmanboshi (O'zbekistonda Ayribobo deb nomlanadi) cho'qqisi (3 137 m.). Janubiy tog' va tog'oldi hududlari seysmik faolligi bilan ajralib turadi. Ashxobodda 1948-yil 9-oktabr kuni sodir bo'lgan zilzila mintaqada XX asrdagi eng falokatli zilzilalardan biri hisoblanadi.

Turkmanistonning eng muhim mineral boyliklari tabiiy gaz, neft va turli kimyoviy tuzlardan iborat. Ayniqsa tabiiy gaz zaxiralari Turkmaniston uchun juda katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Respublika gaz zaxiralari bo'yicha jahon mamlakatlari orasida 4-o'rinda turadi. Kaspiy dengizi bo'yida neft va gaz konlaridan tashqari yirik tuz konlari mavjud.

Turkmanistonda cho‘lli tekisliklar katta maydonni egallaganligi uchun mamlakat suv resurslariga boy emas. Respublikaning eng yirik suv manbai Amudaryo hisoblanadi. Amudaryodan to‘yinadigan Qoraqum kanali (Qoraqumdaryo) dunyodagi eng uzun sug‘orish kanalidir.

Aholisi. Turkmaniston Markaziy Osiyoda aholi soni jihatidan oxirgi o‘rinni egallaydi. Aholi soni va uning hududiy joylashuvi mamlakatning tabiiy geografik xususiyatlari bilan belgilanadi. Aholi, asosan, Amudaryo, Murg‘ob va Tajan daryolarining vodiylarida, Kopetdog‘ etagidagi tekislikda va Kaspiy dengizi sohilida joylashgan.

Turkmaniston aholisining yarmi shahar joylarida istiqomat qiladi. Ashxobod shahrining aholisi 900 ming kishidan ortiq. Poytaxtdan tashqari, Turkmanobod, Dashoguz, Mari, Turkmanboshi shaharlari respublikaning eng katta shaharlari hisoblanadi.

Aholisining milliy tarkibida turkmanlarning ulushi 85 % dan yuqori bo‘lib, aholining 10 % ga yaqin qismini o‘zbeklar tashkil qiladi. O‘zbeklar, asosan, Dashoguz va Lebap viloyatlarida yashaydi.

Iqtisodiyoti. Turkmaniston Respublikasi iqtisodiyotining asosini ko‘p-tarmoqli yoqilg‘i-energetika va kimyo sanoati tashkil etadi. Turkmaniston tabiiy gazni qazish va eksport qilish bo‘yicha jahonning yetakchi 10 ta mamlakatlari qatoriga kiradi. Neft va neftni qayta ishlash sanoati ham Turkmanistonda yaxshi rivojlangan. Respublikada elektr energiyasi faqat IESlarda ishlab chiqariladi.

Turkmaniston kimyo sanoati mineral o‘g‘itlar, mirabilit, oltingugurt, yod va boshqa mahsulotlarni katta hajmda ishlab chiqaradi. Shuningdek, Turkmanistonda to‘qimachilik, tikuvchilik, gilamdo‘zlik sanoati ham ancha yaxshi rivojlangan bo‘lib, mamlakatning xalqaro ixtisoslashuvida katta ahamiyatga ega.

Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari donchilik, paxtachilik (asosan, sifatli ingichka tolali navlar yetishtiriladi), uzumchilik, qorako‘lchilik, yilqichilik hisoblanadi. Axalteki zotli otlari butun dunyoga mashhur bo‘lib, turkmanlarning faxri hisoblanadi (44-rasm). Hattoki davlat gerbida ham axalteki oti tasvirlangan. Kaspiy dengizida baliqchilik yaxshi rivojlangan.



43-rasm. Ashxobod shahri.



44-rasm. Axalteki oti.



45-rasm. Kaspiy bo'yidagi «Avaza» turistik zonasi.

Turkmanistonda turizmni rivojlantirishga ham katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, so'nggi yillarda Kaspiy dengizi sohilida «Avaza» yirik turistik zonasi barpo etildi (45-rasm).



1. Turkmanistonning iqtisodiy geografik o'rni va xo'jaligiga Kaspiy dengizi qanday ta'sir ko'rsatadi?
2. Nima sababdan Turkmaniston Markaziy Osiyodagi davlatlar orasida maydoni jihatidan ikkinchi o'rin egallab turib, aholi soni bo'yicha mintaqada so'nggi o'rinda turadi? Aholisining asosiy qismi qaysi hududlarda mujassamlashgan?
3. Turkmaniston sanoatining ixtisoslashuvini qaysi tarmoqlar belgilaydi?
4. Turkmaniston va Qirg'izistonning geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslarini taqqoslang.

38-§. Tojikiston Respublikasi



Pomir tog'lari, suv va gidroenergetika resurslari, Sarez ko'li, tog' oralig'idagi vodiylar, yer resurslari, rangli metallurgiya.



Maydoni – 142 ming km².
Aholisi (2018-y.) – 9,1 mln.
Poytaxti – Dushanbe.

Tojikiston Respublikasi Markaziy Osiyoning janubi-sharqida, Hisor-Oloy va Pomir tog'lari hududida joylashgan. Shimolda Qirg'iziston, shimoli-g'arb va g'arbda O'zbekiston, janubda Afg'oniston, sharqda Xitoy bilan chegaradosh.

Iqtisodiy-geografik o'rni Dunyo okeaniga chiqish imkoniyatining yo'qligi, baland tog'lar sha-

roitida quruqlik transportini rivojlantirishning murakkabligi hisobiga ancha noqulay hisoblanadi.

Boshqaruv shakli jihatidan Tojikiston prezidentlik respublikasi hisoblanadi. Ma'muriy-hududiy tuzilishi birmuncha murakkab bo'lib, 2 ta viloyat, 1 ta muxtor viloyat (Tog'li Badaxshon), respublikaga bo'ysunadigan 1 ta shahar (Dushanbe) va 13 ta tumandan iborat. Poytaxti – Dushanbe shahri mamlakatning janubig'arbidagi Hisor vodiysida joylashgan.



46-rasm. Tojikistondagi Pomir tog'lari.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Tojikiston qo'shni Qirg'iziston singari tog'li mamlakatdir. Hududining 90 % dan katta qismini baland tog' tizmalari egallaydi. Tojikistonning sharqiy qismini o'rtacha balandligi 4 000 metrdan yuqori bo'lgan Pomir tog'lari egallaydi (46-rasm). Respublikaning eng baland nuqtasi Ismoil Somoniy cho'qqisi (7 495 m.). Tojikiston seysmik jihatdan faol mintaqada joylashganligi tufayli respublikada kuchli zilzilalar sodir bo'lib turadi.

Tojikiston zamini turli ma'danlar zaxiralariga boy. Xususan, uning hududida uran, oltin, kumush, polimetall rudalarining yirik konlari bor. Ammo Tojikiston yoqilg'i-energetika resurslariga boy emas.

Tojikiston jahonning suv va gidroenergetika resurslari bilan eng yaxshi ta'minlangan davlatlaridan biri hisoblanadi. Mamlakat hududidan Panj, Vaxsh, Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon kabi Markaziy Osiyoning eng ser-suv daryolari oqib o'tadi. Qorako'l, Sarez, Iskandarko'l respublikaning eng katta ko'llaridir. Bu ko'llardan, ayniqsa, Pomir tog'ida joylashgan 1911-yilgi kuchli zilzila natijasida Murg'ob daryosi o'zanida vujudga kelgan yirik to'g'onli ko'li – Sarez ko'li mashhur (48-rasm).

Aholisi. Tojikiston aholisining soni 9,1 mln. kishiga teng (2018-y.). Tojikiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida aholi tabiiy o'sishining yuqori sur'atlari bilan ajralib turadi. Shuningdek, Tojikiston mintaqadagi shahar aholisining ulushi eng past bo'lgan davlat hisoblanadi (27 %, 2018-y.). Poytaxt aholisi 800 ming kishidan ortiq. Katta shaharlar toifasiga Xo'jand, Boxtar (sobiq Qo'rg'ontepa) va Ko'lob shaharlari mansub.

Tog‘li relyef sharoitidagi dehqonchilik uchun qulay yerlarning yetishmovchiligi aholi asosiy qismining tog‘ oralig‘idagi botiqlarda joylashuviga olib keldi. Aholisining yuqori zichligi bilan mamlakat shimolidagi Farg‘ona vodiysi, janubi-g‘arbida joylashgan Hisor hamda Vaxsh vodiylari alohida ajralib turadi. Pomir tog‘larida esa aholi daryo vodiylari va tog‘ yonbag‘irlaridagi mayda qishloqlarda tarqoq holda joylashgan.

Aholisining 85 % ga yaqin qismini tojiklar tashkil qiladi. Aholining milliy tarkibida ikkinchi o‘rinda umumiy soni 1 mln. kishidan ortadigan o‘zbeklar turadi. Ular, asosan, O‘zbekiston bilan chegaradosh rayonlarda istiqomat qiladi. Tog‘li Badaxshon muxtor viloyatida tojiklar bilan birga ularga qardosh bo‘lgan bir guruh mahalliy elatlar (vaxanlar, rushanlar, ishkashimlar, yozg‘ulamalar va boshqalar) vakillari hamda qirg‘izlar yashaydi.

Iqtisodiyoti. Tojikistonga Markaziy Osiyo davlatlari orasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning nisbatan pastroq ko‘rsatkichlari xos bo‘lib, iqtisodiyoti agrar-industrial yo‘nalishga ega.

Tojikiston sanoatining yetakchi tarmoqlari rangli metallurgiya, tog‘kon, kimyo, qurilish materiallari va yengil sanoatdir. Tojikistonning eng katta sanoat korxonasi Tursunzoda shahridagi Tojikiston alyuminiy zavodi (47-rasm). Bu korxonada Rossiyadan keltiriladigan xomashyo asosida yirik GESlar ishlab chiqaradigan elektr energiyasidan foydalangan holda faoliyat ko‘rsatadi. Alyuminiy Tojikiston eksportining tarkibida yetakchi o‘ringa ega. Elektr energetikasi GESlarga tayanadi. GESlar orasida Vaxsh daryosidagi Norak GESi alohida iqtisodiy ahamiyatga ega (47-rasm). Yengil sanoat tarmoqlari orasida to‘qimachilik sanoati alohida ahamiyat kasb etadi.



47-rasm. Tojikistonning muhim iqtisodiy obyektlari – Vaxsh daryosidagi Norak GESi (chapda) va Tursunzoda shahridagi Tojikiston alyuminiy zavodi (o‘ngda).

Tojikistonda dehqonchilikning asosiy tarmoqlari donchilik, paxtachilik, bog‘-dorchilik va uzumchilik hisoblanadi. Paxta va turli mevalar respublikaning muhim eksportbop mahsulotlari hisoblanadi. Sug‘orma dehqonchiligi tog‘ oralig‘idagi vodiylarida yaxshi rivojlangan, ammo hududining aksariyat qismini tog‘lar egallangani hamda aholi zichligining yuqoriligi haydaladigan maydonlarning taqchilligini keltirib chiqarmoqda. Tog‘- yaylov chorvachiligi qoramolchilik va qo‘ychilikka ixtisoslashgan. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlari qatorida pilla-chilik ham katta ahamiyatga ega.



48-rasm. Sarez ko‘li.



1. Tojikiston iqtisodiy geografik o‘rnining xususiyatlari bilan Markaziy Osiyodagi qaysi davlatga o‘xshaydi? Buning sabablarini izohlang.
2. Tojikistonning energetikasi qaysi tabiiy resurslarga tayanadi?
3. Tojikistonda aholining hududiy joylashuviga qanday omillar katta ta’sir ko‘rsatgan? Mamlakatda yer resurslari taqchilligi muammosi sabablari nimalardan iborat?
4. Alyuminiy rudalari qazib olinmaydigan Tojikistonda yirik alyuminiy zavodi qurilganligining asosiy iqtisodiy geografik omilini tushuntiring.

39-§. Amaliy mashg‘ulot (Markaziy Osiyo davlatlariga qiyosiy geografik tavsif)

1. Darslik va atlasdagi Markaziy Osiyo davlatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanib, daftaringizda quyidagi jadvalni to‘ldiring:

Markaziy Osiyo davlatlariga qiyosiy geografik tavsif

| Davlatlarning asosiy xususiyatlari | Qozog‘iston | Qirg‘iziston | Turkmaniston | Tojikiston |
|---------------------------------------|-------------|--------------|--------------|------------|
| Geografik o‘rni: qulay va noqulayligi | | | | |
| Maydoni (ming km ²) | | | | |
| Aholisi (mln. kishi) | | | | |

| | | | | |
|---|--|--|--|--|
| Aholi zichligi (km ² /kishi) | | | | |
| Aholisi joylashuvining xususiyatlari | | | | |
| Relyef | | | | |
| Asosiy foydali qazilmalari | | | | |
| Suv resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi va asosiy manbalari | | | | |
| Elektr stansiyalarining asosiy turi | | | | |
| Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari | | | | |
| Sanoatning asosiy tarmoqlari | | | | |

2. Qirg'iziston va Tojikiston geografik sharoitining umumiy xususiyatlarini aniqlang va ularni tushuntiring.

3. Qozog'iston va Turkmanistonning o'xshash jihatlarini aniqlang va izohlang.

4. Markaziy Osiyo mamlakatlarini tabiiy va xo'jalik sharoiti jihatidan bir-biridan ancha farq qiluvchi qanday 2 guruhga ajratish mumkin? Fikringizni asoslang.

5. Markaziy Osiyo davlatlari geografik sharoitining o'zaro to'ldiruvchi jihatlarini ajrating.

40-§. Turkiya Respublikasi



Kichik Osiyo, Sharqiy Frakiya, tog'li relyef, subtropik iqlim, industrial-agrar iqtisodiyot, xalqaro turizm.

Turkiya Respublikasining eng katta o'ziga xos jihatlaridan biri uning geografik o'rni bilan bog'liq. Turkiya hududining 97 % i Janubi-g'arbiy Osiyoda, 3 % qismi esa Sharqiy Yevropada joylashgan. Osiyodagi hududi, asosan, Kichik Osiyo yarimoroliga to'g'ri keladi, Yevropa qismi



Maydoni – 780,6 ming km².
Aholisi (2018-y.) – 81,3 mln.
Poytaxti – Anqara.

esa Bolqon yarimorolida joylashgan bo‘lib, Sharqiy Frakiya deb ataladi. Turkiya Respublikasining ikki qit‘ada joylashgan qismlarini Qora va O‘rta dengizlarini o‘zaro bog‘laydigan Marmar dengizi, Bosfor va Dardanell bo‘g‘izlari ajratib turadi. Turkiya qirg‘oqlari shimoldan Qora dengiz, g‘arbdan Egey dengizi, janubdan O‘rta dengiz suvlari bilan yuviladi.

Mamlakat iqtisodiy geografik o‘rning qulayligi uning bir nechta dengizga tutashligi, hududidan Yevropa va Osiyoni, O‘rta va Qora dengiz havzalarini bog‘laydigan xalqaro ahamiyatga ega suv va quruqlik transport yo‘llarining o‘tganligi bilan belgilanadi.

Turkiya – unitar davlat. 2017-yilda Turkiyada respublikaning parlamentar shaklidan prezidentlik shakliga o‘tildi.

Poytaxti – Anqara shahri. Eng katta shahri esa – Bosfor bo‘g‘izi qirg‘oqlarida joylashgan Istanbul. Uning aholisi 13 mln. kishidan ortiq bo‘lib, Yevrosiyo shaharlari orasida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Turkiya hududining relyefi, asosan, tog‘li bo‘lib, katta qismini Kichik Osiyo va Armaniston tog‘liklari, Tavr hamda Pontiy tog‘lari egallaydi. Tekisliklar, asosan, dengizlar bo‘yida uchraydi. Turkiya hududi yuqori darajada seysmikligi bilan tavsiflanadi, bu yerda kuchli zilzilalar sodir bo‘lib turadi. Turkiya mineral resurslarga, ayniqsa turli metallar rudalariga boy. Jahon miqyosida xrom, simob, volfram rudalarining zaxiralari bilan alohida ajralib turadi.


Iqlimi subtropik bo‘lib, dengizga tutash hududlarida sernam va iliq, mamlakatning markaziy va sharqiy hududlarida esa ancha quruq va keskin, ya‘ni yozi issiq, qishi ancha sovuq. Relyefi tog‘li bo‘lganligi tufayli Turkiya gidroenergetika resurslariga boy. Eng yirik daryolari Frot, Dajla, Qizilirmoq, eng katta ko‘llari esa Van hamda Tuz ko‘llaridir.

Aholisi. Aholi soni jihatidan Turkiya jahonning birinchi yigirmataligiga kiradi. 2018-yil holatiga ko‘ra, aholisi 81 mln. kishidan ortiq. Aholining yillik ko‘payishi 1,5 % atrofida, lekin tug‘ilish jahon va Osiyo bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlardan pastroq.

Urbanizatsiya darajasi 75 % ga teng (2018-y.). Yirik shaharlari qatoriga Istanbul va Anqaradan tashqari, Izmir, Bursa, Adana, Antaliya va boshqalar kiradi. Yirik shaharlarning ko‘pi g‘arbiy va janubiy dengizbo‘yi hududlarida joylashgan.

Aholi Turkiya hududi bo‘ylab ancha notekis joylashgan (49-rasm). Mamlakatning Marmar dengiziga tutash shimoli-g‘arbiy qismida juda zich

joylashgan. Jumladan, mamlakat aholisining 1/5 qismi Sharqiy Frakiyada istiqomat qiladi. Markaziy va sharqiy tog‘li hududlarida aholi ancha siyrak.



49-rasm. Turkiya aholisining zichligi (km²/kishi).

Aholisining etnik tarkibida turklar ko‘pchilikni tashkil etadi (75 % dan ortiq). Mamlakat janubi-sharqida jami aholining 15 % idan ko‘proq qismini tashkil etadigan kurdlar istiqomat qiladi. Asosiy din islom dini hisoblanadi.

Iqtisodiyoti. Turkiya YIM hajmi bo‘yicha jahonning yetakchi 20 ta davlatlari qatoriga kirib, yirik sanoat va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishiga ega. Sanoatning xalqaro ixtisoslashuvini to‘qimachilik, tikuvchilik, charm-poyabzal, avtomobilsozlik, elektrotexnika, kon-metallurgiya, qurilish materiallari, oziq-ovqat, farmasevtika kabi tarmoqlar belgilaydi. Bunday ixtisoslashuv mehnat resurslari, xomashyo, tashqi savdo aloqalari va transport omillarining ta’sirida shakllangan. Sanoat, asosan, mamlakatning g‘arbida yaxshi rivojlangan, ichki hududlar esa agrar iqtisodiyotga ega.

Agroiqlimiy va suv resurslariga boy Turkiya turli qishloq xo‘jalik mahsulotlarini (meva, yong‘oq, uzum, sabzavot, choy, shakarqamish, zaytun, tamaki, paxta) yetishtirish bo‘yicha jahon miqosida alohida ajralib turadi. Turkiya jahonda agrar mahsulotlarining eng yirik eksportyorlaridan biridir.

Turkiya hududi tabiiy va tarixiy-madaniy rekreatsion resurslariga, noyob yodgorliklarga boy (50-rasm), shuning uchun ham uning iqtisodiyotida turizm juda katta ahamiyatga ega. Turkiya eng ko‘p xorijiy sayyohlarni qabul qiladigan jahonning yetakchi 10 ta davlatlaridan biri hisoblanadi.



50-rasm. Turkiyaning mashhur tarixiy yodgorliklari: Istanbuldagi Ayo-Sofiya majmuasi (chapda) va Izmir yaqinidagi qadimgi Efes shahrining vayronalari (o'ngda).



1. Turkiyaning iqtisodiy geografik o'рни qanday xususiyatlarga ega va uning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri qanday?
2. Turkiya sanoatining yetakchi tarmoqlari qaysi?
3. Turkiyada turizm rivojlanishi uchun qanday sharoit va resurslar mavjud?
4. Mamlakat aholisi joylashuvidagi hududiy tafovutlarni izohlang.

41-§. Eron, Afg'oniston, Pokiston Islom Respublikalari



Teokratik davlat, siyosiy-geografik holat, hududiy tortishuv, murakkab relyef, seysmik faollik, ko'pmillatli aholi, Kaspiy dengizi, Fors qo'ltig'i, Hind vodiysi.

ERON



Maydoni – 1648 ming km².
Aholisi (2018-y.) – 81,6 mln.
Poytaxti – Tehron.

Eron Islom Respublikasi Janubi-g'arbiy Osiyoning hududi, aholisi va iqtisodiy salohiyati jihatidan eng yirik davlatlaridan biri. Qirg'oqlari janubda Arabiston dengizi va Fors qo'ltig'i, shimoli-g'arbda Kaspiy dengizi suvlari bilan o'ralgan. Iqtisodiy geografik o'рни Janubi-g'arbiy, Janubiy va Markaziy Osiyo davlatlarini bog'laydigan transport yo'llari o'tganligi hisobiga qulay.

Boshqaruv shakli teokratik (diniy) respublikadir. Davlat rahbari – Oliy rahbar, shia musulmonlarining oliy martabali ruhoniysi (Oyatullo).



51-rasm. Tehron shahri.

Prezident esa Eronda davlatdagi ikkinchi shaxs hisoblanadi. Poytaxti – Tehron shahri mamlakatning shimoli-gʻarbiy qismida, Elburs togʻ tizmasining etagida joylashgan (51-rasm).

Tabiiy sharoiti va resurslari. Eron hududining relyefi bir nechta togʻ tizmalari va ular orasidagi botiqlardan iborat. Iqlim shimoli-gʻarbiy hududlarida nam subtropik, markaziy va sharqiy hududlarda quruq subtropik, Fors qoʻltigʻi boʻyida esa issiq va quruq tropik tipiga mansub. Togʻ oraligʻidagi botiqlarda iqlim keskin kontinental va oʻta quruq boʻlganligi tufayli oʻsimlik va hayvonot olamiga juda kambagʻal boʻlgan toshloq va shoʻrxok choʻllar shakllangan. Kaspiy dengiziga yaqin hududlarida nam iqlim sharoiti tufayli oʻrmonlar keng tarqalgan.

Eng katta iqtisodiy ahamiyatga ega mineral boyliklari yirik neft va gaz zaxiralari. Neft va gaz konlari, asosan, Fors qoʻltigʻi va Kaspiy dengiziga yaqin hududlarda joylashgan. Eronda mis, temir, marganes, polimetall rudalari konlari ham mavjud.

Aholisi. Eron aholi soni boʻyicha dunyodagi yetakchi 20 ta davlat qatoriga kiradi. Oxirgi yillarda tugʻilishning pasayishi tufayli aholining tabiiy oʻsish surʼatlari sekinlashib bormoqda. Urbanizatsiya darajasi 70 % dan yuqori. Aholisi 9 million kishiga yaqin Tehrondan tashqari, Mashhad, Karaj, Isfaxon, Tabriz va boshqa «millioner» shaharlar mavjud. Aholi ancha notekis joylashgan boʻlib, asosan, gʻarbiy qismida zich yashaydi, choʻlli hududlarida esa doimiy aholi yoʻq.


Eron – koʻpmillatli davlat. Aholining 60 % idan koʻprogʻini tashkil etadigan forslar bilan birgalikda ozarbayjonlar, kurdlar, arablar, turkmanlar, armanlar va boshqa millatlar yashaydi. Aholining diniy tarkibida shia musulmonlari yetakchilik qiladi.

Iqtisodiyoti. Eron Janubi-gʻarbiy Osiyo davlatlari orasida oʻz iqtisodiy salohiyati bilan Turkiya va Saudiya Arabistoni singari alohida ajralib turadi. Sanoatning yetakchi tarmoqlari: neft va neftni qayta ishlash, gaz, metallurgiya, mashinasozlik, toʻqimachilik va oziq-ovqat.

Qishloq xoʻjaligining asosiy tarmoqlari: donchilik, bogʻdorchilik, qoʻychilik, echkichilik va qoramolchilik. Kaspiy dengizida baliqchilik

yaxshi rivojlangan. Baliqchilikning qimmatbaho mahsulotlaridan biri hisoblangan qora ikra eksporti boyicha Eron jahon bo'yicha yetakchi o'rinda turadi. Shuningdek, Eron gilam to'qish bilan ham dunyoga mashhur.

AFG'ONISTON



Afg'oniston Islom Respublikasi Janubi-g'arbiy, Markaziy va Janubiy Osiyo tutashgan hududda joylashgan. Dunyo okeaniga chiqish imkoniyati yo'q. Iqtisodiy geografik o'rni Osiyo qit'asining turli qismlarini bog'lovchi transport magistrallari qurilsa, ancha yaxshilanadi.

Boshqaruv shakli prezidentlik respublikasi.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Afg'oniston hududining katta qismi, ayniqsa, markazi va sharqi baland tog'lar bilan band, shimoliy va janubi-g'arbiy hududlarini tog'oldi tekisliklari egallaydi. Afg'onistonda kuchli zilzilalar tez-tez ro'y berib turadi. Afg'oniston turli mineral resurslarga (ko'mir, neft, temir, mis, marganes va b.) boy, ammo ular juda kam qazib olinadi. Afg'onistonga subtropik quruq kontinental iqlim xos. Baland tog'lardagi muzliklardan ko'plab daryolar boshlanib, ayrimlari to'laligicha sug'orishga sarflanadi.

Aholisi. Afg'oniston aholisi tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan davlatlar toifasiga kiradi (yillik tabiiy ko'payish darajasi 2,5 % dan yuqori). Aholi, asosan, tog'oldi tekisliklarida va tog' oralig'idagi vodiylarda yashaydi. Shahar joylarida aholining 1/4 qismi yashaydi, xolos. Eng katta shahri – mamlakat poytaxti Kobulning aholisi 3 mln. atrofida. Hirot hamda Mozori-Sharif nisbatan yirik shaharlar hisoblanadi (52-rasm).

Aholining etnik tarkibi ancha murakkab bo'lib, pushtunlar, tojiklar, o'zbeklar, xazorliklar, balujlar, turkmanlardan iborat. O'zbekistonga chegaradosh shimoliy hududlarida 2 mln. o'zbeklar istiqomat qiladi.

Iqtisodiyoti. Afg'oniston iqtisodiy jihatdan sust rivojlangan agrar davlat. Iqtisodiy rivojlanishida xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy yordam katta ahamiyatga ega.


Qishloq xo'jaligining asosini sug'orma dehqonchilik tashkil etadi. Umuman olganda, dehqonchilikda boshqoli ekinlar, paxta, meva va uzum



52-rasm. Mozori-Sharif shahridagi Ko'k masjid.

yetishtirish muhim rol o'ynaydi. Chorvachilik tarmoqlaridan qo'ychilik (jumladan, qorako'lchilik) va echkichilik yetakchi ahamiyatga ega. Qorako'l teri tayyorlashda Afg'oniston jahon bo'yicha 1-o'rinda turadi. Sanoat ishlab chiqarishi sust darajada rivojlangan. Sanoat korxonalari jahon hamjamiyati tomonidan moliyaviy yordam asosida qurilmoqda.

POKISTON



Pokiston Islom Respublikasi Janubiy Osiyoda joylashgan. Hududi janubda Arabiston dengizi bilan yuviladi. Geografik o'rnining ijobiy xususiyatlari – xalqaro ahamiyatga ega dengiz va quruqlik transport yo'llari o'tganligi, salbiy jihatlari – siyosiy vaziyati beqaror mintaqada joylashganligidan iborat. Siyosiy geografik holati Hindiston bilan Kashmir borasidagi ko'p yillik hududiy kelishmovchilik hamda Afg'oniston bilan chegaradosh hududlarining qo'shni davlatdan o'tgan «Tolibon» guruhlarini nazorati ostida bo'layotganligi bilan tavsiflanadi.

Pokiston boshqaruv shakli jihatidan parlamentar respublika, ma'muriy-siyosiy tuzilishi nuqtayi nazaridan esa federativ davlatdir. Pokiston federatsiyasi 4 ta provinsiya va 2 ta federal hududni o'z ichiga oladi.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Pokistonning shimoliy va g'arbiy qismlari baland tog'lar bilan band bo'lsa, sharqiy va janubiy hududlari esa tekislik relyefiga ega. Mamlakatning katta qismini qo'shni Hindistondan boshlanadigan va Arabiston dengiziga quyiladigan Hind daryosining vodiysi egallaydi. Tekislik hududlari neft, tabiiy gaz, ko'mir, tuz zaxiralariga ega, tog'li qismi esa turli metallarning konlariga boy. Pokistonning asosiy hududida issiq tropik iqlim hukmronlik qiladi, shuning uchun tekislik qismida cho'l va chalacho'l landshaftlari katta maydonlarda tarqalgan.

Aholisi. Pokiston aholi soni bo'yicha jahon davlatlarining birinchi o'ntaligiga kiradi. Yillik hisobidagi tabiiy ko'payish sur'atlari 2 % dan baland, ya'ni yiliga 4–4,5 mln. kishiga teng. Urbanizatsiya darajasi 40% atrofida. Mamlakatdagi eng yirik shahar – Arabiston dengizi sohilida joylashgan Karachining aholisi 15 mln. kishidan ortiq (53-rasm). Boshqa yirik shaharlari – Laxor, Feysalabad, Ravalpindi.



53-rasm. Karachi – Pokistondagi eng yirik shahar.

Aholining 45 % ga yaqin qismi panjobliklarga tog'ri keladi. Aholining milliy tarkibida pushtunlar, sindlar, balujlarning ulushlari ham sezilarli.

Iqtisodiyoti. Pokiston iqtisodiyoti tez o'sayotgan industrial-agrar davlatdir. Sanoatining yetakchi tarmog'i – yengil sanoat. Ayniqsa to'qimachilik sanoati eksportbop mahsulotni katta hajmda ishlab chiqaradi. Undan tashqari, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, oziq-ovqat, charm sanoati ham rivojlanib bormoqda.

Qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i dehqonchilik bo'lib, bug'doy, sholi, shakarqamish, paxta yetishtirishga ixtisoslashgan. Mamlakat eksporti tarkibida gazlamalar, sholi, paxta, charm mahsulotlari, gilamlar yetakchi o'rinlarga ega.



1. Eron, Afg'oniston va Pokistonning iqtisodiy geografik o'rinlarini taqqoslang. Qaysi davlatning iqtisodiy geografik o'rni nisbatan noqulay hisoblanadi?
2. Uchta davlatning tabiiy sharoiti va resurslarida qanday o'xshash jihatlari mavjud?
3. Uchta davlat aholisining joylashuviga tabiiy sharoit qanday ta'sir ko'rsatgan?
4. Afg'oniston iqtisodiyotini rivojlantirishda qanday omillarga tayanishi mumkin va ulardan unumli foydalanilishi uchun qanday sharoitlar yaratilishi lozim?

42-§. Xitoy Xalq Respublikasi



Sharqiy Osiyo, Tinch okean, sotsialistik davlat, Buyuk Xitoy tekisligi, Tibet tog‘ligi, gidroenergetika resurslari, ko‘pmillatli davlat, urbanizatsiya.



Maydoni – 9599 ming km².
Aholisi (2018-y.) – 1394 mln.
Poytaxti – Pekin.

Xitoy Xalq Respublikasi Sharqiy Osiyoda joylashgan. Qirg‘oqlari sharqdan Tinch okean dengizlari bilan yuviladi. Xitoy quruqlikda 15 ta davlat bilan chegaradosh. XXR jahon mamlakatlari orasida hududining kattaligi bo‘yicha 3-, aholi soni va ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha esa 1-o‘rinni egallaydi.

Xitoy iqtisodiy geografik o‘rnining qulayligi Tinch okeani dengizlariga bevosita chiqish imkoniyatiga ega ekanligi bilan belgilanadi.

XXR hozirgi jahonning siyosiy xaritasidagi sanoqli sotsialistik davlatlardan biri. Uning boshqaruv tuzumi va siyosiy hayotida Xitoy Kommunistik partiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, partiyaning yetakchisi ayni paytda davlat rahbari – Xitoy Xalq Respublikasi raisi ham hisoblanadi. Ma‘muriy-hududiy jihatdan Xitoy tarkibida 23 ta provinsiya, 5 ta muxtor (avtonom) rayon, 4 ta markazga bo‘ysunuvchi shahar va 2 ta maxsus ma‘muriy rayon (Gonkong va Makao) ajratiladi. Buyuk Britaniyaning sobiq mustamlakasi Gonkong (Syangan) 1997-yilda, Portugaliyaning mustamlakasi maqomiga ega bo‘lgan Makao (Aomin) 1999-yilda Xitoy tarkibiga kirdi.


Tabiiy sharoiti va resurslari. Xitoy katta hududni egallaganligi hisobiga tabiiy sharoiti, xususan, relyef va iqlimning xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Sharqiy qismida tekislik va yassi tog‘liklar keng tarqalgan bo‘lsa, g‘arbiy hududlarini baland tog‘lar va cho‘llik xususiyatiga ega bo‘lgan tog‘ oralig‘idagi botiqlar egallaydi (54-55-rasmlar). Mamlakat hududi shimoldan janubga 4 ming km, g‘arbdan sharqqa 4,5 ming kmga cho‘zilganligi uchun iqlimida ham sezilarli hududiy tafovutlar mavjud.

Xitoy turli tabiiy resurslarga boy davlat. Yoqilg‘i-energetika resurslaridan u ko‘mir, neft, gaz va yonuvchi slanesga boy. Ayniqsa toshko‘mirning zaxiralari katta. Turli qora va rangli metall rudalari bilan ham Xitoy yaxshi ta‘minlangan. Ko‘p metallarni qazib olish va eritish bo‘yicha Xitoy

jahon bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallaydi. Xitoyda Yanszi, Xuanxe, Amur singari Yevrosiyoning eng yirik daryolari oqadi. Hidroenergetika resurslari hajmiga ko'ra, u dunyoda birinchi o'rinda turadi.



54-rasm. Buyuk Xitoy tekisligi.



55-rasm. G'arbiy Xitoydagi cho'l landshafti.

Aholisi. 2018-yil holatiga ko'ra, Xitoy aholi soni (1 mlrd. 394 mln. kishi) bo'yicha jahondagi yetakchi davlatdir. Hozirgi vaqtda Xitoyda jahon aholisining 18 % dan ortig'i yashamoqda.

Xitoyda bir necha o'n yillar davomida (2016-yilgacha) aholi ko'payishini kamaytirishga qaratilgan «bir oilaga bir bola» tamoyiliga asoslangan davlat siyosati amalga oshirilgan edi. Buning ta'sirida tabiiy ko'payish, 2018-yilga kelib, 0,5 % gacha tushgan, lekin shunda ham Xitoy aholisi yiliga 7–8 mln. kishiga ko'paymoqda.

Aholining etnik tarkibiga ko'ra, Xitoy ko'pmillatli davlat hisoblanadi. Aholisining 90% dan ko'prog'ini xitoyliklar – xanlar tashkil qiladi. Ammo rasmiy ma'lumotlarga binoan, mamlakatda xanlardan tashqari, 55 ta mahalliy millat va elatlar yashaydi. Bulardan eng yiriklari uyg'urlar, mo'g'ullar, tibetliklar, dunganlar, manjurlar va boshqalardir (56-rasm).



Xitoyliklar (xanlar)



Uyg'urlar



Tibetliklar

56-rasm. Xitoy – ko'pmillatli davlat.

Dinlardan keng tarqalgani konfutsiylikdir. Shu bilan birga, Xitoyda daosizm, buddizm, islom, xristianlik dinlariga e'tiqod qiluvchilar soni ham ancha. Musulmonlar, asosan, Shinjon-Uyg'ur muxtor rayonida yashaydi.

Mamlakat aholisi hududiy jihatdan notekis taqsimlangan. Aholining o'rtacha zichligi har 1 km² maydonga 145 kishini tashkil qilgan holda, bu ko'rsatkich Xuanxe va Yanszi daryolari oralig'idagi tekislikda 800–1000 km²/kishini, Tibet tog'ligida esa 1–2 km²/kishini tashkil etadi. Aholining 90 % i mamlakat hududining 1/3 qismida istiqomat qiladi.

Xitoyda 2011-yilda shahar aholisining ulushi 50 % dan ortdi va hozirgi kunda urbanizatsiya darajasi 60 % atrofida bo'lmoqda. Bu ko'rsatkich tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Mamlakatdagi eng yirik shaharlar qatoriga Shanxay, Pekin, Gonkong, Chendu, Guanchjou, Tyanszin, Uxan va boshqalar kiradi.



1. Xitoy davlat tuzumining xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Xitoyning sharqiy va g'arbiy qismlari tabiiy sharoitidagi tafovutlarni izohlang.
3. Xitoyda aholining tabiiy ko'payishini tartibga solish borasida qanday davlat siyosati ancha vaqt davomida olib borilgan edi?
4. Xitoy aholisining joylashuviga tabiiy sharoit qanday ta'sir ko'rsatgan?

43-§. Xitoy iqtisodiyoti va iqtisodiy rayonlari



Yalpi ichki mahsulot (YIM), sanoat, yoqilg'i-energetika majmuasi, metallurgiya, mashinasozlik, «Uch dara» GESi, dehqonchilik, iqtisodiy zonalar.

Xitoy yalpi ichki mahsulot hajmi bo'yicha jahon mamlakatlari orasida birinchi o'rinni egallaydi. Ammo YIMning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichi rivojlanayotgan davlatlar darajasida bo'lmoqda. Ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda Xitoy iqtisodiyoti ancha tez o'smoqda.

Sanoati. Xitoyda sanoatning barcha tarmoqlari yuqori darajada rivojlangan bo'lib, sanoat mahsulotlarining ko'plab turlarini ishlab chiqarish bo'yicha jahonda birinchi yoki ikkinchi o'rinlarda turadi. Jumladan, ko'mirni qazib olish, elektr energiyasini ishlab chiqarish, po'lat, cho'yan, aliyuminiy, rux, kobalt, oltin hamda boshqa qora va rangli metallarni eri-

tish, yog‘och tayyorlash, avtomobil, kema, turli elektronika mahsulotlari, mineral o‘g‘itlar, sement, qog‘oz, gazlamalar, kiyim-kechak, poyabzal mahsulotlarini ishlab chiqarishda XXR jahonda birinchi o‘rinni egallaydi.

Sanoat geografiyasida katta o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Agar Xitoyda XX asrning 70–80-yillarida sanoat korxonalarining 2/3 qismidan ko‘prog‘i dengizbo‘yi hududlarida joylashgan bo‘lsa, hozirga kelib mamlakatning kam o‘zlashtirilgan ichki hududlarida ham sanoatlashuv qizg‘in sur‘atlar bilan kechmoqda.

Sanoatning tayanch tarmog‘i yoqilg‘i-energetika majmuasidir. Xitoyda yiliga 3,5 mlrd. tonnadan ortiq ko‘mir qazib chiqarilmoqda. Uning asosiy konlari mamlakatning shimoli-sharqiy va sharqiy hududlarida joylashgan. Xitoy 2012-yildan buyon elektr energiyasini ishlab chiqarish hajmiga ko‘ra jahonda birinchi o‘ringa chiqdi va hozirgi vaqtda mamlakatda yiliga 6 trln. kW·h yaqin elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Tarmoqda IESlar salmog‘i 85 % dan yuqori bo‘lib, ularda ishlatiladigan yoqilg‘ining deyarli 2/3 qismi ko‘mirdan iborat. Energetikaning jadal sur‘atlar bilan o‘sishi Xitoyning yirik shaharlaridagi ekologik vaziyatni keskinlashtirdi (57-rasm). So‘nggi yillarda GES, AES va qayta tiklanadigan resurslarga asoslangan elektr stansiyalarini ko‘paytirishga katta e‘tibor berilmoqda. Jumladan, Yanszi daryosida dunyodagi eng yirik – «Uch dara» (Sansya) GESi qurilgan (58-rasm).

Mashinasozlik sanoati Xitoyda, ayniqsa, tez rivojlanmoqda. Mamlakatda televizor, maishiy xizmat texnikasidan tortib avtomobil, kompyuter, turli o‘lchov va elektrotexnika mahsulotlarigacha ishlab chiqarilmoqda.

Yengil va oziq-ovqat sanoati Xitoyda yetakchi sanoat tarmoqlari hisoblanadi. Ayniqsa, to‘qimachilik va charm-poyabzal sanoati juda katta hajmdagi mahsulotni ishlab chiqaradi.



57-rasm. Pekin shahrida havoning ifloslanishi.



58-rasm. Yanszi daryosidagi «Uch dara» (Sansya) GESi.



59-rasm. Xitoydagi sholi maydonlari.

Qishloq xo‘jaligi. Xitoy qishloq xo‘jaligining asosi dehqonchilikdir. Jami ekin maydonlarining asosiy qismi donli ekinlar, ayniqsa, sholi bilan band (59-rasm). Xitoy jahon mamlakatlari orasida bug‘doy, sholi, kartoshka, sabzavot, meva, poliz mahsulotlari, uzum, choy, tamakining yalpi hosili, qo‘y, echki, cho‘chqa, parranda soni, go‘sht, jun, tuxum, asal tayyorlash, baliq ovlash hajmi bo‘yicha birinchi o‘rinni egallaydi.

Xitoy asosiy oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini o‘z kuchi hisobiga qondiradi. Jahondagi jami ekin maydonlarining 9 % iga ega bo‘la turib, insoniyatning 18 % idan ko‘proq qismini tashkil etadigan aholisini Xitoy o‘z resurslari hisobiga oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlamoqda. Bu holat qishloq xo‘jaligidagi mehnat unumdorligining yuqoriligini ko‘rsatadi.

Xitoy Xalq Respublikasi, 2018-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekistonning eng yirik tashqi savdo hamkori hisoblanadi, chunki u O‘zbekistonning ham eksport, ham import bo‘yicha hamkorlari orasida savdo aylanmasiga ko‘ra yetakchi o‘ringa ega.

Iqtisodiy rayonlari. Xitoy Sharqiy, Markaziy va G‘arbiy iqtisodiy rayon (zona)larga bo‘linadi. Shulardan Sharqiy iqtisodiy rayon o‘zining tabiiy, ijtimoiy, demografik va iqtisodiy salohiyatiga ko‘ra har tomonlama peshqadamlik qiladi. Bu o‘rinda, ayniqsa, dengizbo‘yi hududlari, Shanxay, Pekin, Tyanszin, Guanchjou shaharlari alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan mintaqaviy siyosat tabiiy resurslarga boy Markaziy va G‘arbiy iqtisodiy zonalarni rivojlantirish, bu hududlarning milliy iqtisodiyotidagi ulushini ko‘tarishga yo‘naltirilgan.



1. Xitoyning jahon xo‘jaligidagi o‘rnini tavsiflang.
2. Xitoyda sanoatning qaysi tarmoqlari ayniqsa yaxshi rivojlangan?
3. Nima uchun dehqonchilik asosan Sharqiy Xitoyda intensiv rivojlangan?
4. Xitoyning Sharqiy, Markaziy va G‘arbiy iqtisodiy zonalari orasidagi tafovutlarga qanday geografik omillar ta‘sir ko‘rsatadi?

44-§. Koreya Respublikasi



Yarimorol mamlakati, qadimgi platforma, tog‘li relyef, yer resurslarining taqchilligi, aholi zichligi, bir millatli davlat, yangi industrial mamlakat, iqtisodiy o‘shish.



Maydoni – 99,4 ming km².
Aholisi (2018) – 51,8 mln.
Poytaxti – Seul.

Koreya Respublikasi Sharqiy Osiyoda, Koreya yarimorolining janubiy qismida joylashgan. Qirg‘oqlari sharqdan Yapon dengizi (Koreyada Sharqiy dengiz deb ataladi), g‘arbda Sariq dengiz (Koreyada G‘arbiy dengiz deb nomlanadi), janubda Koreya bo‘g‘izi va Sharqiy Xitoy dengizi (Koreyada Janubiy dengiz deb ataladi) suvlari bilan yuviladi. Koreya Respublikasi shimolda Koreya Xalq Demokratik Respublikasi (KXDR)

bilan chegaradosh. Koreya Respublikasiga 3 000 taga yaqin orollar tegishli bo‘lib, ulardan eng yirigi – Chedjudo oroli hisoblanadi.

Boshqaruv shakli – prezidentlik respublikasi. Ma‘muriy-hududiy jihatdan 9 ta provinsiya, provinsiyaga tenglashtirilgan 6 ta shahar va alohida maqomga ega 1 ta shaharga bo‘lingan unitar davlat hisoblanadi. Poytaxti – Seul – mamlakatning shimoli-g‘arbida joylashgan (60-rasm).


Tabiiy sharoiti va resurslari. Koreya Respublikasi qadimgi platformada joylashgan bo‘lib, relyefi, asosan, kuchli parchalangan o‘rtacha balandlikdagi tog‘lardan iborat (61-rasm). Relyefining tog‘liligi hisobiga Koreya Respublikasida dehqonchilikka yaroqli yerlar ko‘p emas va bu holat koreyaliklarni yerdan unumli foydalanishga undaydi.

Foydali qazilmalardan mamlakatda ko‘mir, volfram, temir, rux, qo‘rg‘oshin, oltin konlari bor, lekin zaxiralari nisbatan kam bo‘lganligi tufayli Koreya Respublikasi turli xomashyolarga bo‘lgan ehtiyojini ko‘proq import hisobiga qondiradi.

Koreya iqlimi, asosan, mo‘tadil bo‘lib, musson shamollari ta‘sirida shakllanadi. Yoz issiq va nam bo‘lib, uzoq davom etadi,



60-rasm. Seul shahri.



61-rasm. Koreya Respublikasidagi tog'lar.

qish esa uncha sovuq emas, lekin quruq. Daryolar sersuv, energetik imkoniyatlarga boy. Eng yirik daryolar – Naktongan va Xangan. Hududining katta qismini aralash ignabargli va keng bargli o'rmonlar egallagan.


Aholisi. Koreya Respublikasida 51 mln. kishidan ziyod aholi yashaydi (2018-y.). Koreya Respublikasi aksariyat Osiyo mamlakatlaridan aholi tabiiy

ko'payishining past darajasi bilan ajralib turadi (yiliga 0,1–0,2 %). Mamlakat aholisining dinamikasiga ijobiy balansga ega bo'lgan tashqi migratsiya ham ta'sir ko'rsatmoqda.

Koreya Respublikasi yuqori urbanizatsiyalashgan davlat, aholisining 80 % dan ziyodi shaharlarda istiqomat qiladi. Eng yirik shaharlari qatoriga, Seuldan tashqari, Pusan, Tegu, Inchxon, Kvanchju va Tedjon kiradi.

Koreya Respublikasi aholisining etnik tarkibi jihatidan bir millatli davlat hisoblanadi. Jami aholining deyarli 99 % ini koreyaliklar tashkil qiladi. Keng tarqalgan dinlar buddizm va xristianlik hisoblanadi.

Koreya Respublikasida aholi zichligining o'rtacha ko'rsatkichi ancha yuqori bo'lib, 1 km² maydonga 500 kishidan ko'proq aholi to'g'ri keladi. Mamlakatning relyefi nisbatan tekis bo'lgan g'arbiy va janubiy dengizbo'yi hududlarida aholi zichligi juda yuqori darajada.



62-rasm. Koreya Respublikasi kemasozlik va atom energetikasi sohalarida dunyodagi yetakchi davlatlardan biri.

Iqtisodiyoti. Koreya Respublikasi 1980-yillardan boshlab ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda ulkan yutuqlarga erishdi. Bu o'sish, ayniqsa sanoat sohasida ko'zga tashlanadi, shuning uchun ham Koreya Respublikasi yangi industrial (sanoatlashgan) mamlakatlar guruhiga kiritiladi. Hozirgi kunda Koreya Respublikasi YIM hajmi bo'yicha jahon mamlakatlarining birinchi o'n beshtaligiga kiradi.

Sanoatning eng muhim tarmoqlari avtomobilsozlik, kemasozlik, elektro texnika, elektronika, atom energetikasi, metallurgiya, kimyo va neft-kimyo, yengil sanoati hisoblanadi (62-rasm). Xususan, kemalarni ishlab chiqarish bo'yicha mamlakat jahonda birinchi o'rinda turadi. Shuningdek, po'lat, cho'yan, rux, qo'rg'oshinni eritish, avtomobillar va ularning ehtiyot qismlari, polimer mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha Koreya Respublikasi jahonning birinchi beshtaligiga kiradi. Koreya Respublikasi «Samsung-Electronics», «Posko» va boshqa dunyoga mashhur transmilliy korporatsiyalarning mavjudligi bilan ajralib turadi.

Dehqonchilikda sholichilik, sabzavotchilik, mevachilik va uzumchilik muhim ahamiyatga ega. Chorvachilik tarmoqlaridan sut-go'sht chorvachiligi, qoramolchilik va cho'chqachilik rivojlangan.

Koreya Respublikasi eksport hajmi bo'yicha jahonning yetakchi 10 ta mamlakatlari qatoriga kiradi. Koreya Respublikasi O'zbekiston uchun ham muhim savdo hamkori hisoblanadi. 2018-yil ma'lumotlariga ko'ra, tashqi savdo aylanmasi bo'yicha O'zbekistonning savdo hamkorlari orasida Xitoy, Rossiya, Qozog'iston va Turkiyadan keyin 5-o'rinni egalagan, import hajmi bo'yicha esa Xitoy va Rossiyadan keyin 3-o'rinda turadi.




1. Koreya Respublikasining geografik o'rni tabiiy-iqlim sharoitiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
2. Mamlakat aholisining tabiiy harakatiga qanday xususiyat xos?
3. Koreya Respublikasining jahon sanoatida tutgan o'rnini tavsiflab bering.
4. Koreya Respublikasi va O'zbekiston o'rtasidagi tashqi iqtisodiy aloqalarni izohlang.

45-§. Yaponiya



Orol mamlakati, imperator, Tinch okean seysmik mintaqasi, Fudziyama vulqoni, Kanto tekisligi, bir millatli davlat, sintoizm, buddizm, Tokaydo megalopolisi.



Maydoni – 377,9 ming km².
Aholisi (2018-y.) – 126,5 mln.
Poytaxti – Tokio.

Yaponiya Sharqiy Osiyoda joylashgan orol mamlakati. Yaponiyada jami orollar soni 6 852 ta bo'lsa ham, hududining 97 % ini 4 ta yirik orol – Xonsyu, Xokkaydo, Kyusyu va Sikoku orollari egallaydi. Qirg'oqlari shimolda Oxota, g'arbda Yapon, janubi-g'arbda Sharqiy Xitoy dengizi, sharq va janubda Tinch okean suvlari bilan yuviladi. Yaponiyaning hududi shimoldan janubga 2 800 km masofaga cho'zilgan.

Yaponiya – konstitutsion monarxiya, davlat rahbari imperator maqomiga ega bo'lgan hozirgi jahonning siyosiy xaritasidagi yagona mamlakat. Yaponiyaning konstitutsiyasiga binoan, imperator «davlat va millat birligining ramzi» hisoblanadi. Amaldagi siyosiy boshqaruv tuzumida yetakchi rol bosh vazirga tegishli. Yaponiya 47 ta prefekturaga bo'linadigan unitar davlat. Poytaxti – Tokio – mamlakatning eng yirik oroli Xonsyuning sharqida, Kanto tekisligida joylashgan.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Yaponiyada, u Tinch okean seysmik mintaqasida joylashganligi tufayli, zilzila va sunami tez-tez sodir bo'ladi. Bu tabiiy xususiyat Yaponiya aholisining turmushiga katta ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun ham yaponlarga bolalik davridanoq favqulodda vaziyatlarda o'zini to'g'ri tutish qoidalari o'rgatiladi.



63-rasm. Fudziyama vulqoni.

Mamlakat hududining 3/4 qismi tog' va qirlar bilan band. Yaponiyaning eng baland tog' cho'qqisi – Fudziyama vulqoni – yapon xalqi uchun muqaddas qadamjo hisoblanadi (63-rasm). Tog'liligi qishoq xo'jalik yerlarining yetishmovchiligiga olib kelgan.

Yaponiya foydali qazilmalarga boy emas. Mamlakatda, asosan, yod (zaxirala-

ri bo'yicha dunyoda 1-o'rin), oltingugurt, shuningdek, oz miqdorda neft, tabiiy gaz, oltin, kumush va boshqa mineral resurslar qazib olinadi. Yerosti boyliklarining ozligi Yaponiyani yoqilg'i va metallarni eng ko'p import qiluvchi davlatlardan biriga aylantirgan.



64-rasm. Tokiodagi chorrahalaridan biri.

Yaponiya, asosan, mo'tadil va subtropik iqlim mintaqalarida joylashgan. Iqlimi, umuman olganda, musson shamollari ta'sirida shakllangan, unga yuqori darajadagi namlik xos. Yillik yog'in miqdori 1700–4000 mm ga teng. Shuningdek, Yaponiya iqlimiga tayfunlarning tez-tez takrorlanishi xos.

Nam iqlimi tufayli Yaponiya hududi sersuv daryolarga boy bolib, ulardan sug'orma dehqonchilik va gidroenergetikada keng foydalaniladi.

Aholisi. Yaponiya aholisi 126,5 mln. kishiga teng (2018-y.). Yaponiyada tug'ilishning o'ta pastligi sababli aholining tabiiy kamayishi kuzatilmoqda. Meksika aholi soni bo'yicha Yaponiyadan ilgarilab ketganidan keyin, Yaponiya jahon mamlakatlarining birinchi o'ntaligidan chiqdi.

Yaponiyada shahar aholisining ulushi 90% dan yuqori. Tokio dunyoning eng katta shaharlaridan biri hisoblanadi, uning aglomeratsiyasida 30 mln. kishidan ortiq aholi istiqomat qiladi (64-rasm). Poytaxtdan, tashqari Iokagama, Osaka, Nagoya, Sapporo, Kobe, Kioto mamlakatning eng yirik shaharlari hisoblanadi. Xokkaydo orolida joylashgan Sapporodan boshqa barcha yirik shaharlar Xonsyu orolining janubi-sharqida joylashgan. Mamlakatning bu qismida bir nechta yirik shahar aglomeratsiyalarining tutashib ketganligi hisobiga jahondagi eng yirik megalopolislardan biri – Tokaydo shakllandi.

Yaponiya aholisining 98% dan ko'pini yaponlar tashkil qiladi. Ularning asosiy dinlari – sintoizm va buddizm. Qiziqarli jihati shundaki, yaponlarning aksariyati ham sintoizm, ham buddizm an'analariga rioya qiladilar.

Aholining joylashuviga mamlakat relyefi katta ta'sir korsatgan. Yaponiya aholisining asosiy qismi hududining 10 % ida yashaydi. Aholi eng zich darajada Kanto tekisligida joylashgan.

Iqtisodiyoti. Yaponiya iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan mamlakat. YIM ning umumiy hajmiga ko‘ra dunyoda AQSH, Xitoy va Hindistondan keyingi to‘rtinchi o‘rinni egallaydi.

Yaponiya sanoati eng zamonaviy texnologiyalarga asoslangan tarmoqlar – elektronika, elektrotexnika, dastgohsozlik, kemasozlik, avtomobilsozlik, asbobsozlik, kimyo va neft-kimyo sanoatiga ixtisoslashgan. Yaponiyaning eng mashhur transmilliy kompaniyalar toifasiga «Toyota», «Honda», «Sony», «Mitsubishi» va boshqalar kiradi.

Yaponiya dehqonchiligining yetakchi tarmog‘i sholikorlik. Sholi jami ekin maydonlarining yarmiga ekiladi. Shuningdek, bug‘doy, soya, turli sabzavot va mevalar ham yetishtiriladi.

Yaponiyada transportning barcha turlari yuqori darajada rivojlangan. Ayniqsa, mamlakatning yirik shaharlarini bog‘lovchi «Sinkansen» tezyurar poyezdlari alohida e‘tiborga sazovor (65-rasm). Yaponiyada ayrim orollar orasida suvosti tunnellar ham o‘tkazilgan. Ulardan eng uzuni Xonsyu va Xokkaydo orollarini bog‘laydigan Seykan tunnelidir (54 km).

Yaponiyada turizm ham yaxshi rivojlangan. Har yili Yaponiyaga 30 mln. atrofida xorijiy sayyohlar tashrif buyuradi. Yaponiyaning eng muhim turistik resursi uning boy va betakror tarixiy-madaniy merosi hisoblanadi (66-rasm).



65-rasm. «Sinkansen» tezyurar poyezdi.



66-rasm. Kioto shahridagi mashhur budda ibodatxonasi.

Xonsyu orolining sharqida 600 km masofada shakllangan Tinch okean sanoat mintaqasi iqtisodiy jihatdan Yaponiyaning eng rivojlangan rayoni hisoblanadi. Kyusyu orolining janubi, Sikoku va ayniqsa, Xokkaydo oroli iqtisodiy jihatdan nisbatan sust rivojlangan.



1. Yaponiyaning iqtisodiy geografik o'rniga baho bering.
2. Yaponiya tabiiy sharoitining ijobiy va salbiy jihatlarini taqqoslang.
3. Yaponiya va Koreya Respublikasi o'rtasida aholining tabiiy harakati, tarkibi va joylashuvida qanday o'xshashlik va tafovutlar mavjud?
4. Yaponiyaning iqtisodiy qudratiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

46-§. Hindiston Respublikasi



Janubiy Osiyo, Himolay tog'lari, Ganga daryosi, agroiklimiy resurslar, etnik rang-baranglik, induizm, rivojlanayotgan mamlakat.

Hindiston Respublikasi Janubiy Osiyodagi eng yirik davlat, jahon mamlakatlari orasida maydoni bo'yicha 7-, aholi soni bo'yicha esa 2-o'rinda turadi (2018-y.). Hududi, asosan, Hindiston yarimorolida joylashgan bo'lib, shimoldan janubga 3,2 ming km, g'arbdan sharqqa 2,9 ming km masofaga cho'zilgan. Hindistonga Lakkadiv, Andaman va Nikobar orollari ham qarashlidir. Hindiston Yevropa va Osiyo mamlakatlarini bog'laydigan serqatnov dengiz yo'llari bo'yida joylashganligi iqtisodiy geografik o'rnining qulayligini belgilaydi.



Hindiston boshqaruv shakli jihatidan parlamentar respublikadir. Siyosiy-hududiy tuzilishiga ko'ra, Hindiston federativ davlat hisoblanadi. Uning tarkibida 29 ta shtat va 7 ta ittifoqdosh hududlari mavjud. Federatsiya birliklari, asosan, etnik tamoyil bo'yicha ajratilgan.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Hindiston tabiiy sharoiti xilma-xil, tabiiy resurslariga ancha boy. Uning hududida sayyoramizdagi eng baland tog'lar, qalin o'rmonlar, savannalar bilan qoplangan parchalangan yassi tog'liklar, bepoyon qumli cho'llarni uchratish mumkin (67-rasm).

Uning yerosti qazilma boyliklari ham xilma-xil. Temir, marganes, xrom, titan, uran, toriy rudalari, ko'mir, olmos, turli qimmatbaho toshlar zaxiralari ancha kattadir. Hindistonning turli hududlari hamda dengiz sayozliklaridan neft topilgan.



Himolay tog‘lari



Dekan yassitog‘ligidagi savanna



Tar cho‘li

67-rasm. Hindiston tabiatining xilma-xilligi.

Mamlakatning shimol tomondan baland Himolay tog‘lari bilan o‘ralganligi iqlimiy sharoitiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Hindiston hududida qish fasli deyarli kuzatilmaydi (Himolay tog‘laridan tashqari). Shu sababdan Hindiston dehqonlari yiliga 2–3 marta hosil yig‘ishlari mumkin. Yog‘ingarchilik mavsumiy xarakterga ega bo‘lib, asosan, iyun–oktabr oylarida ko‘p yog‘adi.

Hindiston hududida sersuv daryolar ko‘p. Ulardan eng yiriklari Himolay tog‘laridan boshlanib, Bengaliya qo‘ltig‘iga quyiladigan Gang va Braxmaputra daryolari. Shu bilan birga Godavari, Maxanadi, Kaveri, Krishna, Narmada va Tapti ham yirik daryolar hisoblanadi.

Aholisi. Hindiston aholi soni jihatidan jahonda Xitoydan keyingi ikkinchi o‘rinni egallaydi (2018-y.). Lekin Hindiston aholisining tabiiy o‘sinh sur‘atlari Xitoyga nisbatan ancha yuqoriligi hisobiga ikki mamlakat orasida aholi sonidagi farq borgan sari qisqarib bormoqda. Shuning uchun, mutaxassislarining fikricha, yaqin yillarda Hindiston jahonning aholisi eng ko‘p bo‘lgan davlatiga aylanadi.


Hindiston jahondagi eng ko‘pmillatli davlatdir. Aholisining etnik tarkibi juda murakkab. Unda yashayotgan millat, elat va qabilalar turli til oilalariga mansub. Hindlar, bengallar, telugular, panjobliklar, tamillar eng ko‘psonli millatlar hisoblanadi. Hindlarning jami aholidagi ulushi 40% dan biroz balandroq.

Aholining diniy tarkibi ham ancha murakkab. Aholining 80% i induizm diniga e‘tiqod qiladi. Ikkinchi o‘rinda musulmonlar turadi. Ular

mamlakat aholisining 13 % ini tashkil qiladi. Shuningdek, Hindistonda xristianlar, sikxlar, buddistlar va boshqa din vakillari ham yashaydi.

Mamlakatning urbanizatsiya darajasi u qadar yuqori emas. Hozir mamlakat aholisining 1/3 qismi shaharlarda yashaydi. Shaharlari orasida Mumbay (Bombey), Kolkata (Kalkutta), Dehli, Bangalor, Chennai (Madras), Haydarobod, Ahmadobod eng yiriklari hisoblanadi.

Hindiston aholisi ancha notekis joylashgan. Aholi zichligi Gang vodiysi va dengizbo‘yi tekisliklarida juda yuqori darajada bo‘lsa, Himolay tog‘lari yonbag‘irlari, mamlakatning shimoli-g‘arbiy va markaziy qurg‘oqchil hududlarida esa ancha siyrak joylashgan (68-rasm).



68-rasm. Hindiston aholisining zichligi (km^2/kishi).

Iqtisodiyoti. Hindiston jahonda yalpi ichki mahsulot hajmiga ko‘ra AQSH va Xitoydan keyingi 3-o‘rinda turadi (2017-y.) va tayanch rivojlanayotgan mamlakatlardan biri sanaladi.

Hindistonni ko‘pincha «tafovutlar mamlakati» deyishadi, chunki unda boylik bilan kambag‘allik, eng zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari bilan natural ishlab chiqarishga asoslangan oddiy xo‘jaliklar uyg‘unlashib ketgan.

Hindiston yengil va oziq-ovqat sanoatiga ixtisoslashgan mamlakatdan tobora zamonaviy og‘ir sanoat tarmoqlari rivojlangan mamlakatga aylanib bormoqda. Hindiston iqtisodiyotining asosini metallurgiya, mashinasozlik va kimyo sanoati tashkil etadi. Hindiston ko‘mir va temir rudalari, osh tuzini qazishda, po‘lat, cho‘yan, mis, alyumimiy, sement, ip-gazlama, poyabzal ishlab chiqarishda jahon mamlakatlarining birinchi beshtaligiga kiradi. Bangalor shahri butun dunyoga mashhur zamonaviy axborot texnologiyalarning markazi hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligida jami band aholining 40% iga yaqin qismi ishlaydi. Tabiiy sharoitining qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun ancha qulayligi sababli hududining yarmidan ko‘pi ekin maydonlariga aylantirilgan. Ekin

maydonlarining kattaligiga ko‘ra, u jahonda AQSHdan keyingi 2-o‘rinda turadi. Sug‘oriladigan maydonlarining hajmiga ko‘ra esa, Hindiston faqat Xitoydan keyin turadi. Hindiston sholi, bug‘doy, kartoshka, shakarqamish, yeryong‘oq, sabzavot, meva, paxta, choy, murch, turli dorivor ekinlar yetishtirish bo‘yicha jahon mamlakatlarining yetakchi uchtaligiga kiradi.



1. Hindiston iqtisodiy geografik o‘rnining qulayligi nima bilan belgilanadi?
2. Hindiston va Xitoyning aholi tabiiy harakati, milliy va diniy tarkibini taqqoslang.
3. Sanoatning qaysi tarmoqlari Hindistonda jahon miqyosida yaxshi rivojlangan?
4. Hindistonning qishloq xo‘jaligi sohasidagi salohiyatini baholang.


47-§. Fors qo‘ltig‘i arab davlatlari



Fors qo‘ltig‘i, Arabiston yarimoroli, monarxiya, tropik cho‘llar, dengiz suvini chuchuklashtirish, neft sanoati, ziyorat turizmi.

Ma‘lumki, jahon energetika xo‘jaligida Fors qo‘ltig‘i mintaqasi alohida o‘ringa ega. Fors qo‘ltig‘i atrofida 8 ta davlat joylashgan bo‘lib, ulardan 6 tasi – Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA), Ummon, Qatar, Kuvayt, Bahrayn – tabiiy geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, demografik va milliy-madaniy jihatdan bir-biriga ancha o‘xshaydi. Bu mamlakatlar guruhi Fors qo‘ltig‘i arab davlatlari deb ataladi.

Fors qo‘ltig‘idagi kichik orollarda joylashgan Bahrayndan tashqari, shu guruhdagi barcha davlatlar Arabiston yarimorolida joylashgan. Mintaqa iqtisodiy geografik o‘rnining qulayligi uchta qit‘a – Osiyo, Afrika va Yevropa tutashgan hududda, xalqaro ahamiyatdagi dengiz yo‘llari bo‘yida joylashganligi bilan belgilanadi.



69-rasm. Arabiston yarimorolidagi cho‘l landshafti.

Fors qo‘ltig‘i arab davlatlari maydoni va aholisi soni jihatdan bir-biridan farq qiladi (11-jadval). Mintaqadagi hududiy va demografik salohiyati bo‘yicha eng yirik

davlat – Saudiya Arabistoni. Qatar, Kuvayt va Bahrayn esa kichik mam-
lakatlar hisoblanadi.

11-jadval

Fors qo‘ltig‘i arab davlatlari haqida umumiy ma’lumotlar

| Davlat | Poytaxt | Maydoni (ming km ²) | Aholisi (mln. kishi, 2018-y.) |
|----------------------------|-----------|------------------------------------|----------------------------------|
| Bahrayn | Manama | 0,7 | 1,5 |
| Birlashgan Arab Amirlklari | Abu-Dabi | 83,6 | 9,5 |
| Kuvayt | Al-Kuvayt | 17,8 | 4,2 |
| Qatar | Doxa | 11,4 | 2,7 |
| Saudiya Arabistoni | Ar-Riyod | 2150 | 33,4 |
| Ummon | Maskat | 309,5 | 4,7 |

Fors qo‘ltig‘i arab davlatlarining barchasi monarxiya boshqaruv shakli-
ga ega. Saudiya Arabistoni, Qatar, Ummon – mutlaq monarxiyalar, Kuvayt
va Bahrayn – konstitutsion monarxiyalar, BAA esa har biri mutlaq monar-
xiya hisoblanadigan yettita amirlik federatsiyasi bo‘lib, davlat tuzumida
mutlaq va konstitutsion monarxiya elementlari uyg‘unlashgan.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Arabiston yarimoroli relyefida tekislik
va yassi tog‘liklar asosiy o‘rin egallaydi. Iqlimi tropik, yil bo‘yi issiq
va quruq. Yozda kunduzi havo harorati odatda +50°C dan yuqori bo‘ladi,
kechasi esa 0°C gacha tushishi mumkin. Yillik yog‘in miqdori 100 mm ga
yetmaydi. Fors qo‘ltig‘i mintaqasida asosiy tabiat zonasi tropik cho‘llardir
(69-rasm).

Fors qo‘ltig‘i davlatlarining asosiy tabiiy boyligi ulkan neft va gaz
zaxiralari hisoblanadi. Neft zaxiralari bi-
lan, ayniqsa, Saudiya Arabistoni, Kuvayt
va BAA, tabiiy gaz zaxiralari bilan esa
Qatar, Saudiya Arabistoni va BAA ajralib
turadi.

Iqlimning qurg‘oqchilligi tufayli suv
resurslari taqchilligi mavjud. Arabiston
yarimorolida doimiy oqar suvlar yo‘qligi
sababli qadimdan yerosti suvlari asosiy suv
manbayi sifatida xizmat qilgan. Hozirgi
sharoitda suv bilan ta‘minlanishda dengiz



70-rasm. Dengiz suvini
chuchuklashtiradigan korxonalar.



71-rasm. Makka shahridagi muqaddas Ka'ba qadamjosi.

suvini chuchuklashtirish katta ahamiyat kasb etadi (70-rasm). Daryolar faqatgina yomg'irlar yog'anda suvga to'ladigan o'zanlar – vodiylar ko'rinishiga ega.

Aholisi. Fors qo'ltigi arab davlatlari aholisining muhim xususiyati xorijiy migrantlarning katta ulushidir. Ummonda xorijiy ishchilar aholining 25 % ini, Saudiya Arabistonida 30 % ini tashkil etsa, boshqa davlatlarda bu ko'rsatkich 50 % dan yuqori, BAAda esa 90 % ga yaqin.

Xorijiy migrantlar asosiy qismini Janubiy Osiyo va Shimoliy Afrika davlatlarining fuqarolari tashkil etadi.

Aholining tabiiy o'sishi Saudiya Arabistoni va Ummonda yiliga 1,6–1,8 %, qolgan davlatlarda esa 0,8-1,3 % ga tengdir.

Mintaqa davlatlariga shahar aholisining juda yuqori ulushi xos. Ummonda urbanizatsiya darajasi 75 %, Saudiya Arabistoni va BAAda 80 % dan yuqori, Kuvayt, Qatar va Bahraynda esa deyarli 100 % ga teng.

Saudiya Arabistoni, BAA, Qatar, Kuvaytda sunna, Bahraynda shia, Ummonda ibodiy musulmonlari ko'pchilikni tashkil etadi. Saudiya Arabistonidagi Makka va Madina butun dunyo musulmonlari uchun muqaddas shaharlar hisoblanib, har yili u yerga 2 mln. kishi haj safarini amalga oshiradi (71-rasm).

Iqtisodiyoti. Fors qo'ltig'i arab davlatlari iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasi bilan ajralib turadi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YIM hajmi bo'yicha mintaqa mamlakatlari jahondagi yetakchi o'rinlarda turadi.

Iqtisodiyotining tayanch tarmog'i – neft va gaz sanoati. Neft va gaz eksporti mintaqa davlatlari uchun eng muhim daromad manbayi hisoblanadi. Energiya manbalari bilan yaxshi ta'minlanganligi hisobiga mintaqa davlatlarida kimyo va neft-kimyo, qora va rangli metallurgiya sanoati rivojlanmoqda.

Dehqonchilikning rivojlanishi suv resusrlarining yetishmovchiligi bilan cheklangan. So'nggi vaqtlarda tomchilatib sug'orish texnologiyalarini keng qo'llashga e'tibor qaratilmoqda. An'anaviy ravishda asosiy qishloq xo'jalik ekini xurmo palmasi hisoblanadi.

Chorvachilikning asosiy tarmoqlari qo‘ychilik, echkichilik va tuyachilik hisoblanadi.

Mintaqa davlatlarida, shuningdek, bank-moliya sektori, tranzit savdo va turizm ham rivojlanib bormoqda.



1. Fors qo‘ltig‘i arab davlatlarining siyosiy tuzumida qanday umumiy jihat bor?
2. Arabiston yarimoroli tabiiy sharoiti va resurslarining kuchli va kuchsiz tomonlarini taqqoslang.
3. Fors qo‘ltig‘i arab davlatlarida urbanizatsiyaning yuqori darajasiga qanday omillar ta‘sir ko‘rsatgan?
4. Mintaqa davlatlarida neft-gaz sanoatidan tashqari iqtisodiyotning qanday tarmoqlari rivojlanib bormoqda?

48-§. Indoneziya, Malayziya, Singapur davlatlari



Janubi-sharqiy Osiyo, orol mamlakat, qulay iqtisodiy geografik o‘rin, seysmik faollik, ekvatorial iqlim, yangi industrial mamlakatlar.

INDONEZIYA

Indoneziya Janubi-sharqiy Osiyoda, Tinch va Hind okeanlari orasida joylashgan bir necha ming orollardan iborat davlat. Jahondagi orol mamlakatlaridan eng yirigi hisoblanadi. Indoneziyadagi eng katta orollar – Yangi Gvineya (g‘arbiy qismi), Kalimantan (markaziy va janubiy qismi), Sumatra, Yava hamda Sulavesi. Aholisining 60 % ga yaqini Yava orolida yashaydi. Bu orol sayyoramizdagi aholi eng zich joylashgan hududlardan biri hisoblanadi. Indoneziya poytaxti Jakarta shahri ham Yavada joylashgan.



Iqtisodiy geografik o‘rnining qulayligi ikki okean (Tinch va Hind) va ikki qit‘a (Osiyo hamda Avstraliya va Okeaniya) orasida joylashganligi bilan belgilanadi.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Indoneziya hududi «Tinch okean olovli halqasi»ning bir qismi bo‘lib, unga tog‘li relyef va yuqori seysmiklik



72-rasm. Yavaliklar.

xos. Indoneziyada 150 taga yaqin harakatdagi vulqonlar bor, ulardan eng yiriklari Bromo, Krakatau, Selak, Tamboro hisoblanadi. Indoneziya neft, gaz, ko‘mir, qalayi, temir, marganes, nikel va boshqa foydali qazilmalarga boy.

Iqlimi, asosan, ekvatorial, yil bo‘yi issiq va nam, yil fasllari orasidagi tafovutlar deyarli sezilmaydi. Sernam iqlim va tog‘li relyef tufayli Indoneziya suv va gidroenergetika resurslari bilan yaxshi ta‘minlangan. Shuningdek, Indoneziya jahonning o‘rmon resurslariga eng boy davlatlaridan biri hisoblanadi.

Aholisi. Indoneziya aholi soni bo‘yicha dunyoda Xitoy, Hindiston va AQSHdan keyingi 4-o‘rinni egallaydi. Indoneziya aholisining yarmidan ko‘prog‘i shaharlarda istiqomat qiladi. Mamlakatda 10 tadan ziyod «millioner» shahar mavjud, eng yirigi – Jakartada 10 mln. kishi istiqomat qiladi.

Indoneziyada 300 taga yaqin millat va elatlar yashaydi. Mamlakat aholisining 40 % idan ko‘prog‘ini yavaliklar tashkil etadi (72-rasm). Asosiy dini – islom dini bo‘lib, Indoneziya musulmonlar soni bo‘yicha jahon mamlakatlari orasida birinchi o‘rinda turadi.

Iqtisodiyoti. Indoneziya YIM hajmi bo‘yicha jahonning 10 ta peshqadam davlat qatoriga kiradi. Sanoatning yetakchi tarmoqlari – yoqilg‘i (ko‘mirni qazib olish bo‘yicha jahonda 5-o‘rin, tabiiy gazni qazib olish bo‘yicha 10-o‘rin), kimyo, oziq-ovqat, yengil, avtomobilsozlik, o‘rmon, metallurgiya (qalayini qazib olish bo‘yicha jahonda 1-o‘rin).

Asosiy qishloq xo‘jalik ekinlari qatoriga sholi, makkajo‘xori, kokos palmasi, tabiiy kauchuk, choy, kofe, shakarqamish, kakao, tamaki, turli ziravorlar kiradi. Indoneziya ko‘p ekinlarning yalpi hosili bo‘yicha jahonda yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Baliq ovlash bo‘yicha jahonda 3-o‘rinda turadi.

MALAYZIYA

Malayziya hududi Janubiy Xitoy dengizi bilan bir-biridan ajralib turgan ikkita qismdan iborat. Bitta qismi Malakka yarimorolining janubini



Maydoni – 329,7 ming km².
Aholisi (2018-y.) – 32,5 mln.
Poytaxti – Kuala-Lumpur.

egallasa, ikkinchisi Kalimantan orolining shimoliy qismida joylashgan. Malayziyaning yarimorol qismi yonidan Hind va Tinch okeanlarini tutash-tiruvchi dengiz yo‘llari o‘tadi.

Boshqaruv shakli – konstitutsion monarxiya. Malayziya 13 ta shtat va 3 ta federal hududni birlashtiruvchi federativ davlat. 9 ta shtati mahalliy monarxlar tomonidan boshqariladi hamda har 5 yilda ular o‘z oralaridan bir hukmdorni davlat

rahbari – qirol lavozimiga saylaydi.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Malayziya relyefining xususiyatlariga ko‘ra tog‘li mamlakat. Asosiy foydali qazilmalari neft, qalayi, volfram, boksit, oltin, mis hisoblanadi. Neft, asosan, mamlakatning orol qismidagi dengiz sayozligidan qazib olinadi.

Iqlimi ekvatorial, yil davomida issiq va seryog‘in. Bunday iqlim tufayli Malayziyada sersuv daryolar ko‘p. Suv toshqinlari mamlakat aholisiga katta zarar yetkazadi. Mamlakat hududining salkam 60 % ini o‘simlik va hayvonot olami juda boy bo‘lgan ekvatorial o‘rmonlar qoplaydi (73-rasm).

Aholisi. Malayziya aholisi tabiiy va migratsion ko‘payish hisobiga tez o‘smoqda. Urbanizatsiya darajasi 75 %, eng yirik shahar – mamlakat poytaxti Kuala-Lumpur.

Mamlakat aholisi hududiy jihatdan juda notekis joylashgan. Hududining 40 % ini egallagan yarimorol qismida mamlakat aholisining 80 % i istiqomat qiladi. Ayniqsa dengizbo‘yi hududlarida aholi zich darajada joylashgan. Mamlakat ichki qismidagi tog‘li hududlarda aholi ancha siyrak joylashgan.

Malayziyadagi eng yirik millat mamlakat aholisidagi ulushi 50 % dan ziyod bo‘lgan malaylardir. Shuningdek, Malayziyada xitoyliklar, hindlar, Kalimantan orolining tub elatlari vakillari ham ancha ko‘p.

Keng tarqalgan din – islom, mamlakat konstitutsiyasiga binoan, davlat dini maqomiga ega. Ammo Malayziyada buddizm, induizm, xristianlik dinlari ham ma‘lum darajada uchraydi.



73-rasm. Malayziya o‘rmonlari.

Iqtisodiyoti. Malayziya iqtisodiyoti yuqori sur'atlar bilan o'sayotgan yangi industrial mamlakatlardan biri. Malayziya sanoati, asosan, ko'ptarmoqli mashinasozlikka ixtisoslashgan (elektronika, maishiy texnika, avtomobil ishlab chiqarish). Shu bilan birga, neft, neft-kimyo va metallurgiya sanoatlari ham yaxshi rivojlangan. Qishloq xo'jaligi sholi, tabiiy kauchuk, moyli palma, kokos palmasi, banan, tamaki, murch va boshqa ekinlarni yetishtirishga ixtisoslashgan.

Malayziyaning tabiati va boy tarixiy-madaniy merosi mamlakatda turizmni rivojlantirishga katta imkoniyat yaratadi. So'nggi yillarda Malayziya xorijiy sayyohlar sonining ko'pligi bo'yicha jahonning yetakchi 10 ta mamlakatlari qatoriga kirmoqda.

SINGAPUR



Singapur Janubi-sharqiy Osiyoda, Malakka yarimorolining janubiy chekkasidan tor bo'g'iz bilan ajralib turgan kichik orollarda joylashgan. Singapur Osiyo va butun jahondagi eng kichik davlatlardan biri bo'lib, to'liq ravishda bitta shahardan iborat. Singapur serqatnov dengiz yo'llari bo'yida joylashganligi uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun juda katta ahamiyatga ega.

Boshqaruv shakli jihatidan parlamentar respublikadir. Davlatning siyosiy boshqaruv tizimida asosiy rolni bosh vazir o'ynaydi.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Singapurning relyefi pasttekislik ko'rinishiga ega bo'lib, mamlakatning eng baland nuqtasi dengiz sathidan bor-yo'g'i 166 metrda joylashgan. Singapur hech qanday foydali qazilmalariga ega emas. Singapur ekvator chizig'iga juda yaqin joylashgan va uning iqlimi tipik ekvatorial xarakterga ega. Iyul va yanvar oylarining o'rtacha haroratlari 2° C ga farq qiladi, xolos.

Hududi kichikligi hisobiga Singapur ichimlik suvi bilan yetarli darajada ta'minlanmagan va uni, asosan, Malayziyadan import qilishga majbur.

Aholisi. Singapur aholi zichligi bo'yicha dunyoda Monakodan keyingi 2-o'rinda turadi. Singapur butunligicha bitta shahardan iborat bo'lganligi

uchun urbanizatsiya darajasi 100 % teng. Singapur Osiyoning aholi tabiiy ko'payishi eng past bo'lgan davlatlardan biridir va aholisi, asosan, tashqi migratsiya hisobiga o'smoqda.

Singapur aholisining 75 % dan ortig'ini xitoyliklar tashkil qiladi. Malaylarning ulushi 15 % atrofida, hindlarga esa aholining 8 % i to'g'ri keladi. Rasmiy tillari – ingliz, xitoy, malay, tamil. Eng ko'p tarqalgan dinlar bud-dizm va konfutsiylik.



74-rasm. Singapur porti.

Iqtisodiyoti. Nisbatan qisqa tarixiy davr ichida Singapur jahondagi texnologik va iqtisodiy jihatdan peshqadam davlatlardan biriga aylandi. Hozirgi bosqichda Singapur aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YIM miqdori bo'yicha jahon mamlakatlari ichida eng yuqori ko'rsatkichlardan biriga ega. Sanoatning elektronika, elektrotexnika, kemasozlik, neftni qayta ishlash, kimyo, farmasevtika tarmoqlari yaxshi rivojlangan va eksportga yo'naltirilgan. Sanoat uchun xomashyo resurslari qo'shni davlatlardan import qilinadi. Axborot texnologiyalari va biotexnologiya sohalarida ham Singapur katta yutuqlarga erishgan. Xalqaro transport va bank-moliya xizmatlarini ko'rsatish, turizm sohaları ham Singapur uchun katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Singapur shahri dunyodagi eng yirik port shaharlardan biri hisoblanadi (74-rasm).



1. Indoneziya, Malayziya va Singapurning iqtisodiy geografik o'rinlari qanday jihatlari bilan o'zaro o'xshash?
2. Indoneziya, Malayziya va Singapurning iqlimiga qanday xususiyatlar xos?
3. Uchta davlat aholisining etnik va diniy tarkibini taqqoslang.
4. Uchta davlatning har birini iqtisodiy rivojlanishi uchun qanday omillar muhimligini aniqlang.



7-BOB. AFRIKA, AVSTRALIYA VA OKEANIYA, AMERIKA MAMLAKATLARI

49-§. Afrikaning geografik o‘rni va siyosiy xaritasi



Qit’a, materik, Gibraltar bo‘g‘izi, Suvaysh kanali, mustamlaka, «Afrika yili», Sahroyi Kabir, cho‘llashish, Saxel.



75-rasm. Afrika qit’asi.

Afrika qit’asi shu nomdagi materik va unga tutash orollardan iborat. Qadimgi finikiyaliklar «afarik» so‘zi bilan Karfagen-dan g‘arbda yashovchi qabilalarni ataganlar («afar» so‘zi finikiyaliklar tilida «chang» ma’nosini anglatgan). Rimliklar Karfagen va uning atroflarini bosib olganlaridan so‘ng bu hududga Afrika nomini berdilar. Keyinchalik esa bu nom butun materik va qit’aga nisbatan qo‘llana boshlagan.

Afrikaning orollar bilan birgalikdagi maydoni 30,3 mln. km² ni tashkil etadi.

Afrikaning o‘rtasidan ekvator chizig‘i, g‘arbidan esa bosh meridian o‘tgan. Shu tufayli Afrika ham Shimoliy, ham Janubiy, ham Sharqiy, ham G‘arbiy yarim sharlarda joylashgan (75-rasm).

Afrika qirg‘oqlari shimolda O‘rta dengiz, shimoli-sharqda Qizil dengiz, sharqda Hind okeani, g‘arbda Atlantika okeani suvlari bilan yuviladi. Qizil dengiz, Suvaysh kanali va Bob-al-Mandob bo‘g‘izi Afrikani Osiyodan, O‘rta dengiz va Gibraltar bo‘g‘izi esa Yevropa qit’asidan ajratadi (76-rasm).

Afrika qit’asi orol va yarimorollar ozligi bilan ajralib turadi. Uning tarkibiga Hind okeanidagi Madagaskar (sayyoramizdagi orollar orasida maydoni jihatidan 4-o‘rinda turadi), Maskaren, Komor, Seyshel orollari, Atlantika okeanidagi Yashil burun, Kanar, San-Tome va Prinsipi, Avliyo Yelena va boshqa orollar kiradi. Yagona yirik yarimoroli Somali hisoblanadi.

Afrikaning hozirgi siyosiy xartasida 54 ta mustaqil davlat mavjud. Qit'a siyosiy xartasining shakllanish tarixi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Buyuk geografik kashfiyotlar davridan boshlab Afrikaning aksariyat hududlari Yevropa davlatlarining mustamlakalariga aylandi. XX asrning boshiga kelib Afrikada faqatgina 2 ta mustaqil davlat qolgan edi: bir necha ming yillik davlatchilik tarixiga ega Efiopiya hamda 1847-yil AQSHning yordamida barpo etilgan G'arbiy Afrikadagi Liberiya davlati. Qit'aning qolgan hududi esa Buyuk Britaniya, Fransiya, Portugaliya, Belgiya, Germaniya, Italiya va Ispaniya tomonidan o'zaro bo'lib olingan edi.



76-rasm. Gibraltar bo'g'izining Yevropadagi qirg'og'idan Afrika qirg'og'ining ko'rinishi.

Afrika davlatlari 1950-yillarda mustaqillikka erishisha boshladi. 1960-yil BMT tomonidan «Afrika yili» deb e'lon qilinib, shu yil qit'adagi 17 ta mamlakat mustaqillikka erishdi va jahon hamjamiyati tomonidan tan olindi. Ko'plab mamlakatlari 1960–1980-yillar mobaynida davlat mustaqilligini qo'lga kiritdi. Qit'adagi eng yosh davlatlar – 1990-yilda mustaqillikka erishgan Namibiya, 1993-yilda Efiopiyadan ajralib chiqqan Eritreya va 2011-yilda mustaqilligini e'lon qilgan Janubiy Sudan hisoblanadi.

Afrikadagi ko'plab davlatlarning chegaralari mustamlakachilik davrida shakllangan bo'lib, aksariyat hollarda tabiiy va etnik chegaralarga mos kelmaydigan sun'iy ko'rinishga ega. Buning ta'sirida haligacha qit'ada turli harbiy mojarolar va davlat to'ntarishlari tez-tez sodir bo'lib turadi.

Afrika siyosiy xartasining o'ziga xos jihatlaridan biri yirik maydonli davlatlarning ko'pligidir. Jahondagi hududi 1 mln. km² dan katta bo'lgan 29 ta davlatdan 12 tasi Afrikada joylashgan (Jazoir, KDR, Sudan, Liviya, Chad, Niger, Angola, Mali, JAR, Efiopiya, Mavritaniya, Misr). Jahon bo'yicha mavjud bo'lgan maydoni 1 ming km² dan oshmaydigan 24 ta davlatdan atigi 1 ta – Seyshel orollari – Afrikaga tegishli.

Afikada jami 6 ta orol mamlakatlari joylashgan. Ular Madagaskar, Kabo-Verde, Komor orollari, Mavrikiy, San-Tome va Prinsipi hamda Seyshel orollaridir. Dengizlarga chiqish imkoniyati yo'q davlatlar soni bo'yicha Afrika qit'alar orasida yetakchilik qiladi. Afrikada qu-



77-rasm. Cho'llashish kuchli rivojlanayotgan Saxel o'lkasining hududi.

ruqlik ichkarisida joylashgan jami 16 ta davlat mavjud. Ularning qatorida Chad, Niger, Mali, Efiopiya, Zambiya, Botsvana, Janubiy Sudan kabi yirik davlatlar bor. Efiopiya jahonning quruqlik ichkarisida joylashgan 44 ta davlatlar orasida aholi soni bo'yicha yetakchisi hisoblanadi.

Afrika davlatlaridan 51 tasi respublika, 3 tasi (Marokash, Svazilend (Esvatini), Lesoto) monarxiya boshqaruv shakliga ega. Ma'muriy-hududiy jihatdan Afrikadagi 6 ta davlat – Nigeriya, Efiopiya, Sudan, Janubiy Sudan, Somali, Komor orollari – federativ tuzilishga ega.

Afrika davlatlari boy va xilma-xil tabiiy resurslari, ayniqsa, mineral boyliklari bilan ajralib turadi. Neft va tabiiy gaz zaxiralariga Nigeriya, Jazoir, Liviya, Angola, Gabon, Kongo davlatlari boy. Qit'ada eng katta ko'mir zaxiralari bilan JAR ajralib turadi. JAR, Namibiya, Botsvana, Zambiya, KDR, Niger va boshqa ko'plab Afrika davlatlari rangli, qimmatbaho va radioaktiv metallar, olmosning yirik konlari bilan mashhur.

Afrikada keng tarqalgan tabiat zonalari savanna, chalacho'l, cho'l hamda nam ekvatorial o'rmonlar hisoblanadi. Shimoliy Afrikada sayyoramizdagi eng yirik cho'l – Sahroyi Kabir joylashgan. Uning janubiy chegarasi bo'ylab cho'zilgan Saxel deb ataluvchi chalacho'l xususiyatli tabiiy geografik o'lka jahon bo'yicha aholisi va qishloq xo'jaligi cho'llashish jarayonidan eng jiddiy zarar ko'rayotgan hudud hisoblanadi. Saxel Sudan, Chad, Niger, Mali, Mavritaniya kabi davlatlar hududini qamrab oladi (77-rasm).



1. Afrikaning geografik o'rni uning tabiiy sharoitiga qanday ta'sir ko'rsatgan?
2. Afrika siyosiy xaritasining tarixiy shakllanishi va zamonaviy holatining xususiyatlarini izohlang.
3. Afrika mamlakatlarining mustamlakachilik o'tmishi ularning hozirgi kundagi rivojlanishiga qanday tarzda ta'sir ko'rsatmoqda?
4. Saxel tabiiy geografik o'lkasi qayerda joylashgan va qanday xususiyatlari bilan ajralib turadi?

50-§. Afrika mamlakatlarining aholisi va xo‘jaligi



Aholi zichligi, tabiiy ko‘payish, urbanizatsiya, janubiy yevropeoidlar, negroidlar, aholining etnik va diniy tarkibi, xomashyoni yetkazib beruvchi xo‘jalik tarmoqlari, yakkahokim ekin.


Afrika aholi soni bo‘yicha Osiyodan keyingi qit‘a hisoblanib, 2018-yil holatiga ko‘ra, u yerda 1,3 milliardga yaqin kishi yashaydi. Bu jahon aholisining 17 foizini tashkil etadi.

Afrika davlatlari orasida aholi soni jihatidan Nigeriya alohida ajralib turadi. Uning aholisi, 2018-yil holatiga ko‘ra, salkam 196 mln. kishiga teng bo‘lib, bu jahon mamlakatlari orasidagi 7-o‘rin hisoblanadi. E‘tiborlisi, Nigeriya Afrika davlatlari qatorida maydoni bo‘yicha 14-o‘rinda turadi, xolos.

Aholi soni jihatidan Nigeriyadan keyingi yetakchi o‘rinlarni Efiopiya (107,5 mln. kishi), Misr (97 mln. kishi), Kongo Demokratik Respublikasi (84,3 mln. kishi), Tanzaniya (59,1 mln. kishi) va Janubiy Afrika Respublikasi (57,7 mln. kishi) kabi davlatlar egallaydi (2018-y.).

Afrika aholisi qit‘a bo‘yicha notekis joylashgan (78-rasm). Bunga tabiiy omillar, ayniqsa, iqlim va suv resurslari katta ta‘sir ko‘rsatgan. Nil vodiysi va deltasi, O‘rta dengiz va Gvineya qo‘ltiqbo‘yi hududlari, Sharqiy Afrikaning tog‘ oralig‘idagi botiqlari va JARning sanoatlashgan rayonlarida aholi zichligi eng yuqori darajaga ega. Ayni paytda, Sahroi Kabir, Kalaxari, Namib kabi tropik cho‘llarda aholi zichligi o‘ta past.

Afrika aholisi eng yuqori sur‘atlar bilan o‘sayotgan qit‘a hisoblanadi. Jahon aholisi hozirgi vaqtda o‘rtacha yillik hisobda 1,2 % ga ko‘payib borayotgan bo‘lsa, Afrika-da bu ko‘rsatkich 2,6 % ni tashkil etadi. Afrikaning aksariyat davlatlariga tug‘ilish va tabiiy ko‘payishning yuqori sur‘atlari, o‘rtacha umr ko‘rishning nisbatan past ko‘rsatkichlari xos (12-jadval). Bu bora-dagi holat faqat Tunis, Marokash, Liviya,



78-rasm. Afrikada aholi zichligi (km^2/kishi).

Botsvana, JAR, Mavrikiy va Seyshel orollari kabi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi birmuncha yuqori bo‘lgan davlatlarda qit’adagi umumiy vaziyatdan farq qiladi.

12-jadval

Afrikadagi ayrim davlatlar hamda Germaniya va Yaponiyaning demografik ko‘rsatkichlari (2018-yil holatiga ko‘ra)

| Ko‘rsatkichlar | Afrikaning ayrim davlatlari | | Jahonning rivojlangan davlatlari | |
|--|-----------------------------|--------------------|----------------------------------|--------------------|
| | Niger | Chad | Germaniya | Yaponiya |
| 1 ta ayolga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha farzand soni | 7,2 | 6,4 | 1,6 | 1,4 |
| Aholining yillik tabiiy ko‘payishi, % | 3,8 | 3,1 | -0,2 | -0,3 |
| Erkak va ayollarning o‘rtacha umr ko‘rishi, yosh | E. – 59 A. – 61 | E. – 52 A. – 54 | E. – 78 A. – 83 | E. – 81 A. – 87 |
| Aholining yosh tarkibida 15 yoshgacha bolalar ulushi, % | 50 | 47 | 13 | 12 |
| Aholining yosh tarkibida 65 yoshdan katta bo‘lganlarning ulushi, % | 3 | 2 | 21 | 28 |
| Go‘daklar o‘limi, 1000 ta tug‘ilgan go‘dakka nisbatan | 60 | 72 | 3 | 2 |

Afrika qit’alar orasida urbanizatsiya darajasi (43%, 2018-y.) jihatidan oxirgi o‘rinda turadi. Shahar aholisi salmog‘i, asosan, O‘rta dengizbo‘yi davlatlari, JAR, kichik orol mamlakatlari va neft sanoati rivojlangan davlatlarida yuqori. Niger, Ruanda, Burundi, Malavi singari davlatlarda esa urbanizatsiya darajasi 20 % ga ham yetmaydi.

Aholining irqiy, etnik va diniy tarkibi jihatidan Afrika qit’asi ikkita katta qismga bo‘linadi. Birinchisi, Misr, Liviya, Sudan, Jazoir, Tunis, Marokash, Mavritaniya kabi davlatlardan iborat bo‘lgan Shimoliy Afrika mintaqasi. Bu davlatlarda, asosan, janubiy yevropeoid irqiga mansub bo‘lgan arab va barbarlar istiqomat qiladi, asosiy din islom dini hisoblanadi, aholining etnik va diniy tarkibi yaxlitligi bilan ajralib turadi. Qit’adagi boshqa davlatlar esa Tropik Afrika mintaqasini tashkil qiladi. Bu mintaqqa aholisining etnik tarkibi juda rang-barang bo‘lib, asosan, negroid irqiga mansub yuzlab millat, elat va qabilalardan iborat. Dinlardan esa islom, xristianlik va turli xil mahalliy dinlar keng tarqalgan bo‘lib, har xil davlatlarda ularning nisbati turlicha.

Afrika davlatlarining jahon xo‘jaligidagi o‘rni, asosan, tog‘-kon sanoati va tropik dehqonchiligi bilan belgilanadi. Ya‘ni qit‘adagi davlatlar iqtisodiyotida ko‘proq xomashyoni yetkazadigan tarmoqlar ustunlik qiladi. Buning asosiy sabablari ixtisoslashuvning mustamlakachilik davrida shakllanganligi, ishlab chiqarishning texnik va texnologik qoloqligi bilan bog‘liq.

Nigeriya, Jazoir, Angola, Liviya, Gabon, Kongo, Ekvatorial Gvineya neft va tabiiy gaz, Niger va Malavi uran, Gvineya boksit, Zambiya va KDR mis, Marokash fosforit, Gana va Tanzaniya oltin, Botsvana, KDR, Angola, Zimbabve, Namibiya olmos, JAR esa toshko‘mir, temir, marganes, oltin, platina, olmos kabi mineral resurslarni qazib olish va eksport qilish hajmi bilan ajralib turadi.

Aksariyat Afrika davlatlarining qishloq xo‘jaligi uchun ma‘lum bir ekin turining yakkahokimligi xosdir. Masalan, Sudan, Mali, Chad va Burkina-Fasoda asosiy ekin paxta, Kot-d‘Ivuar, Gana, Kamerunda kakao, Senegal va Gambiyada yeryong‘oq, Efiopiya va Ugandada kofe, Keniyada esa choy hisoblanadi. Ko‘ptarmoqli qishloq xo‘jaligi JAR hamda O‘rta dengizbo‘yi davlatlarida shakllangan.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi nuqtayi nazaridan Afrika 3 ta qismga bo‘linadi. JAR qit‘adagi davlatlar orasida iqtisodiy jihatdan eng qudratli bo‘lganligi uchun alohida ajratiladi. Misr, Liviya, Jazoir, Tunis va Marokash kabi birmuncha yuqori darajada rivojlanayotgan davlatlar Shimoliy (O‘rta dengizbo‘yi) Afrika iqtisodiy geografik mintaqasini hosil qiladi. Qit‘aning qolgan davlatlari Tropik Afrika mintaqasi tarkibiga kiradi. Tropik Afrikadagi 34 ta davlat BMT tomonidan jahonning eng sust rivojlangan davlatlar guruhiga kiritilgan.



1. Afrika davlatlarining aholi ko‘payishi va yosh tarkibining o‘ziga xos xususiyatlarini izohlang.
2. Aholining irqiy va diniy tarkibi jihatidan Afrika qaysi ikki mintaqaga bo‘linadi? Bu ikki hudud aholisiga qisqacha tavsif bering.
3. Afrika mamlakatlarining jahon xo‘jaligidagi o‘rnini qaysi tarmoqlar belgilab bermoqda?
4. Afrika mamlakatlarining qishloq xo‘jaligi uchun qanday jihat xos? Bu xususiyatni ayrim davlatlar misolida ko‘rsating.

51-§. Janubiy Afrika Respublikasi



Drakon va Kap togʻlari, Veld platosi, tropik choʻllar, subtropik iqlim, afrikanerlar, afrikaans tili, togʻ-kon sanoati.



Maydoni – 1219,9 ming km².
Aholisi (2018-y.) – 57,7 mln.
Poytaxti – Pretoriya.

Janubiy Afrika Respublikasi (JAR) Afrika qitʻasining chekka janubiy qismida joylashgan, qirgʻoqlari janubi-gʻarbda Atlantika, janubi-sharqda Hind okeani suvlari bilan yuviladi. JAR muhim va serqatnov xalqaro dengiz yoʻllari boʻyida joylashgan. JARdagi Keyptaun shahri Janubiy yarim shardagi eng yirik port-shaharlardan biri (79-rasm).

Boshqaruv shakli – parlamentar respublika. Poytaxti – Pretoriya shahri. U yerda faqat prezident va hukumatning qarorgohlari joylashgan, parlament Keyptaunda, Oliy sud esa Blumfonteyn shahrida faoliyat koʻrsatadi.

Tabiiy sharoiti va resurslari. JAR hududining relyefi xilma-xil. Sharqiy qismida Drakon togʻlari, janubida esa Kap togʻlari joylashgan. Mamlakatning shimoliy va markaziy qismlari Veld platosi bilan band, gʻarbiy hududlari esa tekislik relyefi bilan ajralib turadi. JAR yirik mineral boyliklarga ega davlat. Mamlakatda koʻmir, marganes, xrom, uran, oltin, olmos, platina, vanadiy va turli nodir metallarning katta zaxiralari mavjud.

JARning markaziy va gʻarbiy hududlarida issiq va qurgʻoqchil tropik iqlim shakllangan. Mamlakat janubi va sharqidagi dengizboʻyi hududlarda esa nam subtropik iqlim kuzatiladi. Mamlakatning qurgʻoqchil iqlimli qismida suv resurslari taqchilligi mavjud.

Aholisi. JAR qitʻa davlatlari orasida aholi soni boʻyicha 6-oʻrinda turadi. Aholi tabiiy koʻpayishi surʼatlari aksariyat Afrika davlatlariga nisbatan pastroq boʻlib, yillik hisobda 1–1,2 % ga teng. JAR aholisi qoʻshni davlatlardan koʻchib kelayotganlar hisobiga ham koʻpaymoqda.

JARda urbanizatsiya darajasi 65 % ga teng va bu koʻrsatkich Afrikadagi koʻp



79-rasm. Keyptaun shahri.

davlatlarga nisbatan ancha yuqori. Mamlakatning eng yirik shahri va iqtisodiy poytaxti Yoxannesburg hisoblanadi.

Janubiy Afrika Respublikasi aholisining salkam 80 % ini turli mahalliy millat va elatlar tashkil qiladi. JAR Tropik Afrika davlatlaridan yevropaliklarning nisbatan yuqori ulushi (10 % ga yaqin) bilan ajralib turadi. Yevropaliklarning katta qismini afrikanerlar – XVII–XIX asrlarda ko‘chib kelgan gollandlarning avlodlari tashkil etadi. Ular niderland tili asosida shakllangan afrikaans tilida so‘zlashadi.

Mamlakatning shimoli-sharqidagi sanoat rayonlari, janubi-sharqiy va janubiy dengizbo‘yi hududlarida aholi zichligi yuqori bo‘lsa, g‘arbiy va shimoli-g‘arbiy cho‘l hududlarida aholi juda siyrak joylashgan.

Iqtisodiyoti. Janubiy Afrika Respublikasi qit‘adagi iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan davlat hisoblanadi. Iqtisodiyoti tog‘-kon sanoati, mashinasozlik, ko‘ptarmoqli qishloq xo‘jaligi va turizmga ixtisoslashgan.

Turli foydali qazilmalarning boy zaxiralari hisobiga JARda tog‘-kon sanoati yuqori darajada rivojlangan. JAR ko‘mir, temir rudasi, marganes, oltin, platina, palladiy, olmos va boshqa mineral resurslarni qazib olish bo‘yicha jahon mamlakatlari ichida yetakchi o‘rinlarni egallaydi. JAR jahondagi eng yirik ko‘mir eksportyorlaridan biridir.

Qishloq xo‘jaligi mamlakat hududining 15 % qismida intensiv rivojlangan, xolos. Buning asosiy sababi suv resurslarning taqchilligi bilan bog‘liq. Ammo, shunga qaramasdan, JARda dehqonchilik va chorvachilikning turli tarmoqlari yuqori darajada rivojlangan. Dehqonchilikning eng muhim tarmoqlari bog‘dorchilik va uzumchilik hisoblanadi. Chorvachilikning asosiy tarmoqlari – qoramolchilik, qo‘ychilik, echkichilik. JARda chorvachilikning noodatiy tarmog‘i – tuyaqushlarni boqish ham rivojlangan (80-rasm).

JARning janubiy dengizbo‘yi qismida hamda mamlakat ichkarisidagi yirik shaharlarda turizm yaxshi rivojlangan.



80-rasm. Tuyaqush fermasi.




1. Janubiy Afrika Respublikasi iqtisodiy geografik o‘rnining qulayligini baholang.

2. Mamlakat tabiiy sharoiti va resurslarining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlang.
3. JAR Tropik Afrika mamlakatlaridan aholisining ko‘payishi va tarkibi jihatidan qanday farqlanadi?
4. JAR iqtisodiyoti qanday tarmoqlarga ixtisoslashgan?

52-§. Nigeriya Federativ Respublikasi



G‘arbiy Afrika, Tropik Afrika, Gvineya qo‘ltig‘i, Niger deltasi, Lagos, xausa, yoruba, igbo, neft va neftni qayta ishlash sanoati.



Nigeriya Federativ Respublikasi G‘arbiy Afrikada joylashgan. Qirg‘oqlari janubdan Atlantika okeanining Gvineya qo‘ltig‘i suvlari bilan yuviladi.

Boshqaruv shakli – prezidentlik respublikasi. Nigeriya federativ davlat bo‘lib, 36 ta shtat va federal poytaxt hududidan iborat. Nigeriyaning shtatlari, asosan, etnik tamoyil asosida ajratib qo‘yilgan. Poytaxti – Abuja shahri – mamlakatning markazida joylashgan (81-rasm).

Tabiiy sharoiti va resurslari. Nigeriyaning hududi Niger va Benue daryolari bilan relyefi jihatdan farq qiladigan ikki qismga bo‘linadi. Shimolda relyef, asosan, yassi tog‘liklardan iborat, mamlakatning janubiy qismi esa pasttekisliklar bilan band.

Nigeriyaning eng katta tabiiy boyligi – uning neft zaxiralari. Neft konlari ko‘proq mamlakatning janubiy qismida joylashgan.

Mamlakat, asosan, subekvatorial va ekvatorial iqlim mintaqalarida joylashgan. Yil bo‘yi issiq harorat saqlanadi. Yog‘in miqdori janubiy dengizbo‘yi hududlaridan shimolga tomon kamayib boradi. Ekvatorial iqlimli qismida yillik yog‘in miqdori 3 000 mm atrofida. Doimiy va fasliy nam o‘rmonlar hamda savannalar Nigeriyaning asosiy tabiat zonalaridir.



81-rasm. Abuja shahri.

Nigeriyadagi daryolardan eng yirigi Niger daryosi hisoblanadi. U Gvineya qo‘ltig‘iga quyilishida katta deltani hosil qiladi. Niger deltasi mamlakatning muhim iqtisodiy rayoni hisoblanadi.

Aholisi. Nigeriya aholi soni bo‘yicha jahonda 7-o‘rinda turadi va u dunyoning 10 ta peshqadam davlati orasida tabiiy ko‘payishning eng yuqori sur‘atlari bilan ajralib turadi. Nigeriya aholisi yiliga 4–4,5 million kishiga ko‘paymoqda.

Nigeriya aholisining deyarli yarmi shaharlarda yashaydi. Nigeriyada 6 ta «millioner» shahar mavjud. Gvineya qo‘ltig‘i sohilida joylashgan Lagos shahri nafaqat Nigeriya, balki butun Afrikadagi eng yirik shahar hisoblanadi (82-rasm). Lagos 1991-yilgacha mamlakat poytaxti bo‘lgan, lekin uning aholisi juda ko‘pligi sababli poytaxt Abuja shahriga ko‘chirildi.

Nigeriya Tropik Afrikadagi aksariyat mamlakatlar singari ko‘pmillatli davlat bo‘lib, aholisining etnik tarkibi 250 tadan ziyod mahalliy millat va elatlardan iborat. Eng yirik millatlari – xausa, yoruba va igbo (har biri jami aholining taxminan 20 % ini tashkil qiladi). Davlat tili – ingliz. Nigeriyaning shimoliy va g‘arbiy shtatlarida islom dini, sharqiy va janubiy shtatlarida esa xristian dini ko‘proq tarqalgan.

Aholi zichligi mamlakatda o‘rtacha hisobda 1 km² ga 200 kishidan ziyodroq bo‘lsa, qirg‘oqbo‘yi hududlarida bundan 3–4 barobar yuqoridir.

Iqtisodiyoti. Nigeriya YIMning umumiy hajmi bo‘yicha Afrikada 1-o‘rinda turadi, YIMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan miqdori esa uncha yuqori emas – 6 000 AQSH dollari atrofida. Ammo bu Tropik Afrikadagi ko‘p davlatlarga nisbatan birmuncha balandroq ko‘rsatkichdir (mintaqa bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 3 600 AQSH dollariga teng).

Mamlakat iqtisodiyotining asosi va davlat byudjeti daromadining bosh manbai – neft eksporti. Neftni qazish va uni qayta ishlash sanoati Nigeriya sanoatining eng rivojlangan tarmog‘idir. Mamlakatda o‘rmon, to‘qimachilik, oziq-ovqat va tog‘-kon sanoati ham birmuncha rivojlangan.



82-rasm. Lagos – Nigeriya va butun Afrikaning eng yirik shahri.

Qishloq xo'jaligi – aholi bandligining asosiy sohasi. Nigeriyada yeryong'oq, makkajo'xori, sholi, sorgo, tabiiy kauchuk, paxta, sholi, turli sabzavot va meva ekinlari yetishtiriladi. Qoramolchilik, qo'ychilik, echkichilik, cho'chqachilik Nigeriya chorvachiligining asosiy tarmoqlari hisoblanadi.



1. Nigeriya ma'muriy-hududiy tuzilishining federativ shakli qanday omil bilan bog'liq?
2. Nigeriya poytaxtini Lagosdan Abuja'ga ko'chirishning sababini tushuntiring.
3. Mamlakat janubida aholi zichligi shimoliy hududlariga nisbatan bir necha barobar kattaligining sabablarini izohlang.
4. Nigeriya iqtisodiy rivojlanishining Tropik Afrikadagi ko'p davlatlarga nisbatan birmuncha yuqoriligi ishlab chiqarishning qanday tarmog'i bilan bog'liq?

53-§. Misr Arab Respublikasi



Suvaysh kanali, Sinoy yarimoroli, Nil daryosi, Asvon suv ombori, tropik va subtropik iqlim, aholi zichligi, sug'orma dehqonchilik, tarixiy-madaniy meros.



Maydoni – 1001,4 ming km².
Aholisi (2018-y.) – 97 mln.
Poytaxti – Qohira.

Misr Arab Respublikasi Afrikaning shimoli-sharqida hamda kichik qismi Osiyo qit'asidagi Sinoy yarimorolida joylashgan. Qirg'oqlari shimolda O'rta, sharqda Qizil dengiz suvlari bilan yuviladi. Suvaysh kanali bu ikki dengizni tutashtiradi hamda ayni paytda, Afrika va Osiyoning chegarasi hisoblanadi. Suvaysh kanalining o'tganligi, Osiyo va Afrika tutashgan hududda joylashganligi Misr iqtisodiy geografik o'rnining qulayligini belgilaydi.

Boshqaruv shakli – prezidentlik respublikasi. Misr poytaxti – Qohira shahri Nil deltasida joylashgan (83-rasm).

Tabiiy sharoiti va resurslari. Misrning hududi, asosan, tekisliklardan iborat. Faqat Qizil dengizga yaqin qismi hamda Sinoy yarimorolida tog'lar mavjud. Foydali qazilmalardan Misrda, asosan, neft, tabiiy gaz, temir rudasi, fosforit konlari mavjud. Misr hududining katta qismi tropik, O'rta dengiz sohili esa subtropik iqlim mintaqasida joylashgan. Yozi juda

issiq, qishi iliq. Yogʻin juda kam yogʻadi, yillik miqdori, odatda, 200 mm dan oshmaydi. Shuning uchun mamlakat hududi, asosan, tropik choʻllar bilan band.

Issiq va quruq iqlim sharoitida Misr uchun suv resurslarining yetishmovchiligi xos. Mamlakatning yagona daryosi – uning hududini janubdan shimolga kesib oʻtib, Oʻrta dengizga quyiladigan Nil – choʻllar orasidan oqib oʻtadigan tranzit daryodir (84-rasm). Nil daryosida jahondagi eng yirik suv omborlaridan biri – Asvon suv ombori barpo etilgan.

Aholisi. Misr Afrika davlatlari orasida aholi soni boʻyicha Nigeriya va Efiopiyadan keyingi uchinchi oʻrinda turadi. Aholining tabiiy oʻsishi nisbatan yuqori darajada saqlanib kelmoqda. Misr aholisi yiliga deyarli 2,5 % ga, yaʼni 2 milliondan ziyod kishiga koʻpayadi.

Misrda shahar aholisining ulushi 45 % atrofida va bu koʻrsatkich Shimoliy Afrikaning boshqa davlatlariga nisbatan pastroq darajada. Eng yirik shaharlari qatoriga Qohira, Iskandariya va Giza kiradi.

Misr bir millatli davlat hisoblanadi, chunki aholisining 99 % i arablardan iborat. Keng tarqalgan din – islom. Lekin misrliklarning 10 % ga yaqin qismi xristian diniga mansub.

Misrda aholi juda notekis joylashgan. Misrliklarning 90 % idan ziyod qismi aholi zichligi bilan jahon miqyosida ajralib turadigan Nil vodiysi va deltasida yashaydi. Shuningdek, Suvaysh kanali boʻyida, Oʻrta va Qizil dengizlar sohillarida ham aholi zichligi birmuncha yuqori.

Iqtisodiyoti. Misr Afrika qitʼasidagi davlatlar orasida eng katta iqtisodiy salohiyatga ega davlatlardan biri. Mamlakat iqtisodiyoti agrar-industrial xarakterga ega. Sanoati, asosan, neft-gaz, toʻqimachilik, oziq-ovqat va kimyo tarmoqlariga ixtisoslashgan. Shuningdek, metallurgiya, mashinasozlik sanoati ham rivojlanib bormoqda.



83-rasm. Qohira shahri.



84-rasm. Nil daryosi.



85-rasm. Misr ehromlaridan biri va Katta Sfinks haykali.

Qishloq xo'jaligi sug'orma dehqonchilikka tayanadi. Asosiy ekinlar – paxta, sholi, makkajo'xori, sabzavot, meva va poliz ekinlari. Chorvachilikning asosiy tarmog'i qoramolchilik hisoblanadi.

Misr Arab Respublikasining davlat byudjeti uchun Suvaysh kanali orqali kemalar tranzitidan tushadigan bojlar muhim daromad manbayidir.

Misr iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri turizm hisoblanadi. Turizmning rivojlanishiga Misr dengizbo'yi hududlarining tabiiy sharoiti hamda mamlakatning juda boy tarixiy-madaniy merosi katta ta'sir ko'rsatadi (85-rasm).




1. Misr Arab Respublikasi iqtisodiy geografik o'rningining o'ziga xos xususiyatlari nimalar bilan bog'liq?
2. Misr va Turkiyaning geografik joylashuvida umumiy xususiyatlarni aniqlang.
3. Misr aholisining joylashuviga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
4. Misrda xalqaro turizmni rivojlantirish uchun qanday resurs va sharoit mavjud?

54-§. Avstraliya Ittifoqi



Materik, Britaniya Hamdo'stligi qirolligi, avstraliyalik inglizlar, avstraliyalik aboriginlar, Sidney, Melburn, tog'-kon sanoati.



Maydoni – 7692,0 ming km².
Aholisi (2018-y.) – 24,5 mln.
Poytaxti – Kanberra.

Avstraliya Ittifoqi bir butun materikni to'liq egallagan jahondagi yagona davlat. Tarkibiga Avstraliya materigidan tashqari Tasmaniya va boshqa orollar kiradi. Qirg'oqlari shimol, g'arb va janubdan Hind okeani, uning dengiz va qo'ltiqlari, sharqiy tomondan esa Tinch okean dengizlari suvlari bilan yuviladi. Maydoni jihatidan jahonda 6-o'rinda turadi.

Iqtisodiy-geografik o'rni Janubiy yarim sharda, boshqa mintaqalardan ancha olisda joylashganligi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, zamonaviy dengiz va havo transporti mamlakatni

jahonning barcha mintaqalari bilan doimiy aloqada bo'lishini ta'minlaydi.

Avstraliya Ittifoqi Britaniya Hamdo'stligi qirolligi hisoblanib, uning rasmiy davlat rahbari Buyuk Britaniya hukmdori hisoblanadi. Amalda siyosiy boshqaruv tizimida yetakchi rol bosh vazirga tegishli. Avstraliya 6 ta shtat va 2 ta hududdan tashkil topgan federativ davlat.



86-rasm. Avstraliya cho'llari.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Avstraliyaning relyefi, asosan, tekislik va kuchli parchalangan platolardan iborat. Faqat sharqda o'rtacha balandlikdagi Katta Suvayirg'ich tizmasi mavjud. Unda Avstraliyaning eng baland nuqtasi Kossyushko cho'qqisi (2 228 m) joylashgan.

Avstraliya xilma-xil foydali qazilmalarga boy. Mamlakat temir, mis, nikel, uran, boksit rudalari, ko'mir, oltin, olmos zaxiralari bilan jahon miqyosida alohida ajralib turadi.

Avstraliya hududi, asosan, subekvatorial, tropik va subtropik iqlim mintaqalarida joylashgan bo'lib, iqlimining eng muhim xususiyati uning qurg'oqchilligidan iborat. Mamlakat hududining juda katta qismini cho'l, chalacho'l va savannalar egallaydi (86-rasm). Avstraliya tabiatining eng katta kamchiligi suv resurslarining taqchilligidir. Asosiy daryosi Murrey va uning irmog'i Darlingning suvi mavsumlar bo'yicha keskin o'zgarib turadi.

Aholisi. Avstraliya aholi zichligi eng past bo'lgan jahon davlatlaridan biridir. Bu yerda 1 km² hududga o'rta hisobda 3 kishi to'g'ri keladi. Avstraliyada aholi, asosan, janubi-sharqiy va sharqiy hududlarida mujasmlashgan, ichki hududlarida esa juda siyrak joylashgan.

Avstraliyada aholining tabiiy ko'payishi past, yiliga 0,5–0,6 % ga teng. Aholi sonining ortib borishiga tashqi migratsiya ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Aholining migratsion ko'payishi yillik hisobda 0,8–1,0 % ni tashkil etadi.

Umuman olganda, Avstraliyaning aholisi migratsiya hisobiga shakllangan. Materikning tub aholisi – avstraliyalik aborigenlar – davlat aholisining atigi 1 % ini tashkil etadi. Asosiy millat – avstraliyalik inglizlar.

Avstraliya Ittifoqi yuqori urbanizatsiyalashgan davlatlar qatoriga mansub. Unda shahar aholisining ulushi 90 % ga teng. Eng yirik shaharlari –



87-rasm. Sidney shahri.

Sidney (87-rasm), Melburn, Brisben, Pert, Adelaida.

Iqtisodiyoti. Avstraliya iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan davlat hisoblanadi. YIMning hajmi bo'yicha Avstraliya jahonning yetakchi 20 ta davlatlari tarkibiga kiradi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YIM miqdori esa unda aksariyat Yevropa davlatlaridan ham yuqori.

Avstraliyaning jahon iqtisodiyotidagi o'rnini, ko'p jihatdan, tog'-kon va yoqilg'i sanoati belgilaydi. U ko'mir, uran, temir, boksit, oltin, nikel, rux qazib olish bo'yicha jahondagi yetakchi 3 ta davlat qatoriga kiradi. Ko'mir, suyultirilgan gaz, uran, qora va rangli metallarning katta qismi Osiyo davlatlari, birinchi navbatda, Xitoyga eksport qilinadi. Qishloq xo'jaligi ham Avstraliya iqtisodiyotining muhim sohasi. Chorvachilikning asosiy tarmoqlari – qo'ychilik va qoramolchilikdir. Avstraliya jahonda qo'ylar soni va jun ishlab chiqarish bo'yicha 2-o'rinda, jun hamda mol go'shti eksporti bo'yicha esa 1-o'rinda turadi. Dehqonchiligi donchilik, bog'dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan.

Avstraliyaning asosiy iqtisodiy rayoni uning janubi-sharqi hisoblanadi. Bu yerda mamlakat aholisining 70% i istiqomat qiladi hamda uning 2 ta eng yirik shahri – Sidney va Melburn joylashgan.



1. Avtraliya Ittifoqi geografik joylashuvining betakror xususiyati nimadan iborat? Iqtisodiy geografik o'rnining ijobiy va salbiy jihatlarini izohlang.
2. Avstraliyaning hozirgi aholisi qanday shakllangan?
3. Nima uchun Avstraliyaning janubi-sharqiy hududlari aholi zichligining nisbatan yuqori darajasi bilan ajralib turadi?
4. Avstraliyaning iqtisodiyoti qanday tarmoqlarga ixtisoslashgan va bunga qanday omillar ta'sir ko'rsatgan?

55-§. Amerikaning siyosiy xaritasi



Amerika, Shimoliy Amerika, Janubiy Amerika, Panama kanali, Karib dengizi, Lotin Amerikasi, qit'a, materik, Britaniya Hamdo'stligi qirolligi.

Amerika G'arbiy yarim sharda joylashgan ikki materik – Shimoliy va Janubiy Amerikasi hamda ularga yaqin orollarni qamrab olgan qit'adir (88-rasm). Uning umumiy maydoni 42 mln. km² ga teng. Shimoliy va Janubiy Amerika materiklarini Panama kanali ajratadi (89-rasm).



88-rasm. Amerika qit'asining geografik o'rni.

Amerikaning zamonaviy siyosiy xaritasida 35 ta mustaqil davlat mavjud. Ular o'z hududiy kattaligi jihatidan bir-biridan keskin farq qiladi. Qit'adagi 4 ta mamlakat dunyoning 10 ta eng yirik davlatlari qatoridan joy olgan – Kanada, AQSH, Braziliya va Argentina. Boliviya, Kolumbiya, Peru va Meksikaning maydoni 1 mln. km² dan oshadi. Venesuela va Chili davlatlarining hududi esa 500 ming km² dan katta. Shu bilan birga, Amerikadagi 7 ta davlatning maydoni 1 ming km² dan kam. Ularning barchasi Karib dengizidagi orollarda joylashgan.

Amerikada faqatgina 2 ta davlat – Boliviya va Paragvay – bevosita dengizga chiqish imkoniyatiga ega emas. Meksika, Gvatemala, Gonduras, Nikaragua, Kosta-Rika, Panama va Kolumbiya qirg'oqlari ikkita, ya'ni Atlantika va Tinch okean suvlari bilan yuviladi. AQSH va Kanada esa uchta – Atlantika, Tinch va Shimoliy Muz okeanlariga chegaradosh.

Amerikadagi 35 davlatdan 25 tasi respublika, 10 tasi Britaniya Hamdo'stligi qirolliklari, ya'ni konstitutsion monarxiyalar hisoblanadi. Konstitutsion monarxiyalardan 2 tasi – Kanada va Beliz – Shimoliy Amerika materigida joylashgan, qolgan 8 tasi esa Karib dengizidagi orol davlatlaridir.

Amerikada 7 ta federativ davlat joylashgan – AQSH, Argentina, Braziliya, Kanada, Meksika, Venesuela hamda Sent-Kits va Nevis. Sent-Kits va Nevis jahondagi eng kichik federativ davlat hisoblanadi.



89-rasm. Panama kanali.

Amerika 2 ta yirik siyosiy-geografik mintaqa – Shimoliy Amerika va Lotin Amerikasiga bo‘linadi. Shimoliy Amerikada AQSH va Kanada joylashgan. Amerikadagi AQSHdan janubda joylashgan barcha davlatlar Lotin Amerikasini tashkil qiladi. Jahonning ushbu yirik mintaqasi Lotin Amerikasi deb atalishi ko‘p davlatlarida aholi qadimgi lotin tilidan kelib chiqqan ispan, portugal va fransuz tillarida so‘zlashishi bilan bog‘liq.

Shimoliy Amerika va Lotin Amerikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi hamda aholining milliy-madaniy xususiyatlari bilan farq qiladi. AQSH va Kanada «Katta yettilik» guruhiga kiradigan rivojlangan davlatlar bo‘lsa, Lotin Amerikasi davlatlari esa rivojlanayotgan davlatlardir.




1. Amerika qit‘asi qaysi hududlarni birlashtiradi?
2. Amerika siyosiy xaritasidagi qaysi davlatlar yirik hisoblanadi?
3. Shimoliy Amerika materigi va Shimoliy Amerika siyosiy-geografik mintaqasi orasidagi farqni izohlang.
4. Lotin Amerikasi regionini nima sababdan shunday nomlangan?

56-§. Amerika Qo‘shma Shtatlari



Shimoliy Amerika, kontinental shtatlar, Alyaska, Gavayi orollari, Kordilyera, Denali, Ajal vodiysi, tornado, megalopolis.



Amerika Qo‘shma Shtatlari jahon mamlakatlari orasida maydoni jihatidan 4-, aholisi soni bo‘yicha esa 3-o‘rinda turadi. Shuningdek, AQSH iqtisodiy, harbiy-siyosiy va ilmiy-texnologik qudrati bo‘yicha zamonaviy jahonning yetakchi davlatlaridan biridir.

AQSH hududi 3 qismdan iborat: Shimoliy Amerika materigining o‘rta qismidagi kontinental shtatlar, Shimoliy Amerikaning shimoli-g‘arbida joylashgan Alyaska hamda Tinch okeandagi Gavayi orollari.

AQSH 3 ta – Atlantika, Tinch va Shimoliy Muz okeaniga chiqish imkoniyatiga ega. U quruqlikda faqat Kanada va Meksika bilan chegaradosh. AQSH va Kanadaning chegarasi jahon bo‘yicha ikkita davlat o‘rtasidagi eng uzun chegara hisoblanadi. Bering bo‘g‘izi orqali AQSH Rossiya bilan chegaradosh.

AQSH – prezidentlik respublikasi: prezident davlat va hukumat rahbari hisoblanadi. Siyosiy-hududiy tuzilishi nuqtayi nazaridan, AQSH 50 ta shtat va Kolumbiya federal poytaxt okrugidan iborat federatsiyadir. 48 ta shtat hamda Kolumbiya okrug (Vashington shahri) kontinental shtatlar hududida joylashgan, 49-shtat Alyaska, 50-shtat esa Gavayi hisoblanadi.



90-rasm. Ajal vodiysi.


Tabiiy sharoiti va resurslari. AQSH hududi yirikligi uchun tabiiy sharoiti juda xilma-xil. Kontinental shtatlarining sharqiy va markaziy qismlari, asosan, tekisliklardan iborat, g'arbiy qismidan esa Kordilyera tog'larining bir nechta tarmoqlari o'tgan. Alyaska va Gavayi shtatlarining relyefi ham, asosan, tog'li. Alyaska hududida Shimoliy Amerika materigining eng baland nuqtasi – balandligi 6 194 metr bo'lgan Denali (oldingi nomi – Mak-Kinli) cho'qqisi joylashgan. Materikning eng past nuqtasi – Ajal vodiysi (-86 m) ham AQSHda, Kaliforniya shtatida joylashgan (90-rasm).

AQSH ko'mir, neft, tabiiy gaz, temir, turli rangli metallar rudalari, mineral tuzlarning yirik zaxiralariga ega. Ayniqsa, mamlakatning g'arbiy tog'li hududlari mineral resurslariga boy. Ammo AQSHda sanoat ishlab chiqarishining hajmi yirikligi tufayli mamlakat mineral xomashyoning ko'p turlarini import qiladi.

Kontinental shtatlarning hududi, asosan, mo'tadil va subtropik, Alyaskaning katta qismi subarktika va arktika, Florida yarimoroli hamda Gavayi orollari esa tropik iqlim mintaqasida joylashgan. Meksika ko'rfaziga tutash hududlarda tropik dovullar (tornado) ko'p sodir bo'ladi.

AQSH suv va gidroenergetika resurslariga boy. Mamlakatning eng yirik daryolari – Missisipi, Missuri, Rio-Grande, Kolorado, Kolumbiya.

Aholisi. AQSHning tub aholisi amerikalik hindular hisoblanadi. Lekin hozirgi davrda hindular mamlakat aholisining juda kam qismini tashkil etadi. Amerikaliklar tarkibida Yevropa mamlakatlariidan turli davrlarda ko'chib kelganlarning avlodlari ko'pchilikni tashkil qiladi. Shu bilan birga, AQSH aholisi tarkibida Lotin Amerikasi mamlakatlari (ayniqsa, Meksika) dan ko'chib kelganlar, qoratanlilar, mulatlar va boshqa irqiy guruhlarning ulushi ancha yuqori hamda borgan sari oshib bormoqda.



91-rasm. AQSH aholisining zichligi (shtatlar kesimida, km²/kishi).

AQSHda 1790-yildan boshlab har 10 yilda muntazam ravishda aholi ro'yxatlari amalga oshiriladi. 1790-yildan 2010-yilgacha AQSH aholisi soni deyarli 80 barobarga oshgan va uning o'sishi hozirgacha davom etmoqda. Hozirgi bosqichda AQSH aholisining tabiiy ko'payishi yillik hisobda 0,3–0,4 % ni tashkil etib, jahon bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan (1,2 %) ancha past, ammo rivojlangan davlatlarning

o'rtacha ko'rsatkichiga (0,0 %) nisbatan birmuncha yuqori bo'lmoqda. Migratsion o'sish esa yillik hisobda 1–1,5 % ga teng.

AQSHda shahar aholisining ulushi 80 % dan yuqori. Eng yirik shaharlari – Nyu-York, Los-Anjeles, Chikago, Xyuston, Filadelfiya. AQSH hududida 3 ta megalopolis shakllangan: shimoli-sharqdagi «Boston–Vashington» (Bosvash), Buyuk ko'llar bo'yidagi «Chikago–Pitsburg» (Chipits) va Tinch okean bo'yidagi «San-Fransisko–San-Diyego» (Sansan).

AQSHning rasmiy tili – ingliz tili. Shuningdek, aholisining 50 mln. kishiga yaqini kundalik hayotda ispan tilida so'zlashadi. Ispanzabon amerikaliklarning ulushi Meksika chegarasiga yaqin joylashgan Nyu-Meksiko, Kaliforniya, Texas, Arizona, Nevada shtatlarida ayniqsa, yuqori (20–45 %).

AQSHda aholi zichligi o'rta hisobda 1 km² ga 35 kishi, lekin uning turli qismlarida ancha farq qiladi (91-rasm). Bunga, asosan, tabiiy sharoit kuchli ta'sir etadi. Shimoli-sharqiy, janubi-sharqiy va g'arbiy okeanbo'yi shtatlarida aholi zichligi eng yuqori darajada bo'lsa, tog'li shtatlar va ayniqsa, Alyaskada aholi ancha siyrak joylashgan.



1. AQSHning geografik o'rni va hududiy tuzilishini tavsiflang.
2. AQSHning siyosiy-hududiy tuzilishi qanday?
3. Mamlakat relyefi qanday tuzilishga ega? Uning aholi joylashuviga ta'sirini izohlang.
4. Megalopolis nima? AQSHda qaysi megalopolislar shakllangan?

57-§. Amerika Qo‘shma Shtatlari xo‘jaligi va iqtisodiy rayonlari




Sanoat mintaqalari, aerokosmik sanoat, qishloq xo‘jalik mintaqalari, transkontinental yo‘llar, Shimoli-sharq, O‘rta G‘arb, Janub, G‘arb.

AQSH YIM hajmi bo‘yicha jahonda Xitoydan keyingi ikkinchi o‘rinda turadi va jahonning iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan davlatlaridan biri hisoblanadi. AQSHning yuzlab transmilliy korporatsiyalarining ko‘plab xorijiy davlatlarda keng tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi mamlakatning iqtisodiy qudratini va jahon xo‘jaligidagi o‘rnini yanada yuksaltiradi. Shuningdek, AQSH moliyaviy tizimining ulkan salohiyati hamda AQSH dollarining asosiy xalqaro valyuta funksiyasini bajarayotgani mamlakatning jahon iqtisodiyotiga kuchli ta‘sir qilishini ta‘minlaydi.

Sanoati. Yalpi sanoat mahsulotining hajmi bo‘yicha AQSH jahonda Xitoydan so‘nggi 2-o‘rinda turadi. AQSHda sanoatning barcha tarmoqlari yaxshi rivojlangan. Ayniqsa, aerokosmik sanoat, avtomobilsozlik, elektrotexnika, elektronika, tibbiyot asbob-uskunalarini ishlab chiqarish, atom mashinasozligi, harbiy-sanoat majmuasi, neft-kimyoo sanoati kabi zamona-viy texnologiyalarga tayanib rivojlanayotgan sanoat tarmoqlarida AQSHning jahon miqyosida yetakchiligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Oxirgi yillarda AQSH jahonda tabiiy gazni qazib olishda 1- (yiliga 800 mlrd m³dan ziyod), ko‘mirni qazib olish bo‘yicha 2- (yiliga 800 mln. tonnadan ortiq), neftni qazib olish bo‘yicha 2–3- (yiliga 500 mln. tonnadan ko‘p) o‘rinlarni egallamoqda. Neft-gaz sanoatining eng yirik rayonlari Texas, Kaliforniya va Alyaska shtatlarida shakllangan. Ko‘mir eng ko‘p miqdorda mamlakat janubi-sharqida joylashgan Appalachi ko‘mir havzasidan qazib olinadi.

Mashinasozlik sanoati ko‘ptarmoqli bo‘lib, har xil shtatlarda turlicha ixtisoslashgan. Tinch okeanbo‘yi shtatlari (Kaliforniya, Vashington) aerokosmik sanoat va elektronika, Buyuk ko‘llarga tutash shtatlar (Michigan, Illinoys) avtomobilsozlik,



92-rasm. AQSHdagi yirik paxta plantasiyalarida paxta yig‘im terimi.

shimoli-sharqiy Atlantikabo‘yi shtatlari esa kemasozlikning rivojlanganligi bilan alohida ajralib turadi.

AQSHda bir nechta yirik sanoat mintaqasi shakllangan. Bunday hududlardan eng qudratlisi Atlantika okeani va Buyuk ko‘llarga tutash shtatlarni qamrab olgan Shimoliy sanoat mintaqasi hisoblanadi. Unga mamlakat sanoat ishlab chiqarishining deyarli yarmi to‘g‘ri keladi. Boshqa yirik sanoat mintaqalari qatoriga Appalachi tog‘lari bo‘ylab joylashgan Janubi-sharqiy, asosan, neft va neft-kimyo sanoatiga ixtisoslashgan Meksika qo‘ltig‘i hamda mamlakat janubi-g‘arbidagi Kaliforniya sanoat mintaqalari kiradi.

Qishloq xo‘jaligi. Asosiy qishloq xo‘jalik ekinlari – bug‘doy, makkajo‘xori, soya, paxta, shakarqamish, qandlavlagi, turli sabzavot va mevalar. Makkajo‘xori, soya, tamaki va paxta eksporti bo‘yicha AQSH jahonda 1-o‘rinda turadi. Chorvachilikning asosiy tarmoqlari – qoramolchilik, parrandachilik va cho‘chqachilik. Go‘sht va sut mahsulotlarini eksport qilish bo‘yicha AQSH jahondagi yetakchi davlatlardan biri. AQSHda turli tarmoqlarga ixtisoslashgan qishloq xo‘jalik mintaqalari vujudga kelgan. Kordilyera tog‘lari etaklarini egallagan Buyuk tekisliklardagi bug‘doy mintaqasi, Markaziy tekisliklarning shimolidagi makkajo‘xori mintaqasi, Missisipi havzasining janubidagi paxta mintaqasi (92-rasm), Buyuk ko‘llarga tutash shtatlaridagi sut mintaqasi shular jumlasidandir.



93-rasm. Niagara sharsharasi va Yellouston milliy bog‘idagi issiq buloqlardan biri.

Turizmi. AQSH tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlarning soni bo‘yicha jahonda yetakchilik qilmasa ham, turizm hisobiga eng katta daromad oluvchi davlat hisoblanadi. AQSHga ko‘proq Kanada va Yevropadan sayyohlar keladi. Florida, Kaliforniya va Gavayi shtatlarida dengizbo‘yi turizmi keng rivojlangan. Nyu-York, Chikago, Los-Anjeles va boshqa sha-

harlarga har yili o‘nlab million sayyohlar tashrif buyuradilar. Mamlakatda turizm rivojlanishi uchun juda boy tabiiy resurslar ham mavjud (93-rasm).

Iqtisodiy rayonlari. AQSHda tabiiy va ijtimoiy-tarixiy sabablarga ko‘ra turli iqtisodiy qudrat va ixtisoslashuvga ega bo‘lgan quyidagi 4 ta yirik iqtisodiy rayon (makrorayon) ajratiladi: Atlantika okeani bo‘yida joylashgan maydoni kichik, ammo aholi soni va zichligi katta bo‘lgan, yuqori darajada sanoatlashgan, eng yirik moliyaviy markazlarga ega bo‘lgan shtatlarni qamrab olgan *Shimoli-sharq*; Buyuk ko‘llardan janub va g‘arbda joylashgan, ko‘ptarmoqli sanoat, donchilik va sut chorvachiligiga ixtisoslashgan *O‘rta G‘arb*; paxtachilik, tamakichilik, bog‘dorchilik, neft-kimyo va to‘qimachilik sanoati, dengizbo‘yi turizmi rivojlanishi bilan ajralib turadigan, qora tanli aholining salmog‘i nisbatan yuqori bo‘lgan *Janub*; ko‘proq tog‘li relyef va qurg‘oqchil iqlimga ega, rangli metallurgiya, aerokosmik, elektronika sanoati, bog‘dorchilik va yaylov chorvachiligiga ixtisoslashgan, ispanzabon aholining nisbatan yuqori salmog‘i bilan ajralib turuvchi *G‘arb*.



1. AQSHning jahon iqtisodiyotiga ta’siri qanday omillar bilan belgilanadi?
2. AQSHning asosiy sanoat mintaqalarini tavsiflang.
3. AQSHda qanday qishloq xo‘jalik mintaqalari shakllangan?
4. AQSHda qanday yirik iqtisodiy rayonlar ajratiladi?

58-§. Kanada



Britaniya Hamdo‘stligi qirolligi, o‘rmon resurslari, tashqi migratsiya, kanadalik inglizlar, kanadalik fransuzlar, Toronto, Monreal.

Hududining kattaligi bo‘yicha jahonda 2-o‘rinda turuvchi Kanada davlati Shimoliy Amerika materigining shimoliy qismi va unga yondosh orollarda joylashgan. Kanada qirg‘oqlari shimolda Shimoliy Muz okeani, sharqda Atlantika okeani, janubi-g‘arbda Tinch okean suvlari bilan yuviladi. Kanada quruqlikda faqat AQSH bilan chegaradosh.



Maydoni – 9976 ming km².
Aholisi (2018-y.) – 37,2 mln.
Poytaxti – Ottava.

Kanada Britaniya Hamdo‘stligi qirolligi bo‘lib, davlat rahbari rasmiy ravishda Buyuk Britaniya hukmdori hisoblanadi. Amalda siyosiy bosh-



94-rasm. Kanada tabiati.

qaruv tepasida mamlakatning bosh vaziri turadi. Kanada 10 ta provinsiya va 3 ta hududdan iborat federativ davlat.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Kanadaning sharqiy qismi qadimgi platformada joylashgan bo‘lib, asosan, tekislik va kuchli parchalangan yassi tog‘liklardan iborat bo‘lsa, Tinch okeanga tutash g‘arbiy qismi baland Kordilyera tog‘lari

bilan band. Kanadaning hududida uran, temir, nikel, mis, qo‘rg‘oshin, rux, oltin, neft va tabiiy gazning yirik konlari mavjud.

Kanada hududining 75 % i sovuq iqlim zonasiga to‘g‘ri keladi. Aso-siy tabiat zonalari – tayga, tundra va arktika cho‘llari. Janubida dasht landshafti keng tarqalgan. Mamlakat yer, suv hamda o‘rmon resurslariga juda boy (94-rasm). Shimoliy yarim shardagi o‘rmonlarning deyarli 1/3 qismi Kanadaga to‘g‘ri keladi.

Aholisi. Kanada aholisining tabiiy ko‘payish sur‘atlari yillik hisobda 0,5 % dan kam, mexanik ko‘payishi esa yiliga 1% gacha yetadi. Shahar aholisining ulushi 80 % dan ortiq. Eng yirik shaharlari – Toronto (95-rasm), Monreal, Vankuver, Kvebek.

Kanadadagi ikkita eng yirik millat kanadalik inglizlar va kanadalik fransuzlardir. Shuning uchun Kanadada ham ingliz, ham fransuz tillari rasmiy til maqomiga ega. Fransuz tilida so‘zlashuvchi aholining 85 % i mamlakat sharqidagi Kvebek provinsiyasida iqtiqomat qiladi. Kanadadagi fransuz madaniyatining markazi Monreal shahri hisoblanadi. Mamlakatning shimolida tub aholi – eskimoslar va amerikalik hindular yashaydi.

Aholi zichligi darajasi bo‘yicha Kanada jahondagi eng so‘nggi o‘rinlardan birida turadi (1 km² ga 4 kishi). Aholining 4/5 qismi mamlakatning iqlim sharoiti birmuncha qulayroq bo‘lgan janubiy hududlarida mujassamlashgan. Ayniqsa janubi-sharqiy chegarabo‘yi hududlarida aholi zichligi yuqori.

Iqtisodiyoti. Kanada jahonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi jih-tidan peshqadam davlatlaridan biri, «Katta yettilik» guruhining a‘zosi.

Kanada uran, nikel, rux, oltin, platina, molibden rudalari, olmos, kaliy tuzlari, asbest, oltingugurt qazib olishda jahon bo‘yicha yetakchi o‘rinlarda

turadi. Kanadada neft-gaz sanoati ham yuqori darajada rivojlangan. Togʻ-kon sanoati bilan bir qatorda Kanadada elektr energiyasi, yogʻochni qayta ishlash, selluloza-qogʻoz, mashinasozlik, rangli va qora metallurgiya, kimyo, oziq-ovqat sanoati ham yuqori darajada rivojlangan.

Dehqonchilik mamlakat janubidagi unumdor qora tuproqli dashtlarda yaxshi rivojlangan. Kanada jahondagi eng yirik bugʻdoy eksportyorlaridan biri. Raps, soya va kungaboqar kabi moyli ekinlarni yetishtirish va jahon bozoriga yetkazish boʻyicha ham Kanada peshqadam davlatlardan biri.



95-rasm. Jahondagi eng baland teleminora joylashgan Toronto shahri.



1. Kanada tabiiy sharoitining asosiy xususiyatlarini tavsiflang va ularning mamlakat iqtisodiyotiga taʼsirini tushuntiring.
2. Nima uchun Kanada aholisining aksariyat qismi mamlakat janubida yashaydi?
3. Kanada aholisining etnik va til tarkibining oʻziga xos xususiyatini izohlang.
4. Kanada qishloq xoʻjaligi qanday tarmoqlarga ixtisoslashgan?

59-§. Braziliya



Amazoniya, ekvatorial va subekvatorial iqlim, oʻrmon resurslari, San-Paulu, Rio-de-Janeyro, mulatlar, tovar qishloq xoʻjaligi.

Braziliya Federativ Respublikasi Janubiy Amerikadagi eng yirik davlat. Qirgʻoqlari sharqdan Atlantika okeani suvlari bilan yuviladi. Braziliya Chili va Ekvadordan tashqari Janubiy Amerikadagi barcha davlatlar bilan chegaradosh. Hududining kattaligi boʻyicha jahon mamlakatlari orasida 5-oʻrinni egallaydi. Boshqaruv shakli – prezidentlik respublikasi. Braziliya 26 ta shtat va 1 ta federal poytaxt okrugidan iborat.



Maydoni – 8515,7 ming km².
Aholisi (2018-y.) – 209,4 mln.
Poytaxti – Brazilia.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Braziliyaning hududi qadimgi Janubiy Amerika platformasida joylashgan. Shuning uchun relyefi pasttekislik va

yassitogʻliklardan iborat. Mamlakat shimolida katta maydonni Amazoniya pasttekisligi egallaydi. Undan janubda kuchli parchalangan Braziliya yassitogʻligi joylashgan.

Braziliyada neft, koʻmir, temir rudasi, boksit, nikel, uran, olmos va boshqa foydali qazilmalarning yirik konlari mavjud.

Braziliyaning katta qismi ekvatorial va subekvatorial iqlim mintaqalarida joylashganligi sababli iqlim sharoitiga yuqori darajadagi namgarchilik va issiqlik xosdir.

Sernam iqlim tufayli Braziliyada gidrografik tarmoqlar yaxshi rivojlangan. Braziliya shimolidan jahonning eng sersuv daryosi – Amazonka oʻtadi. Amazonkaning havzasida jahondagi eng yirik va qalin oʻrmon massivlaridan biri shaklangan (96-rasm).

Aholisi. Braziliyada 209 mln. kishidan ortiq aholi yashaydi (2018-y.). Aholining tabiiy koʻpayishi yuqori emas, yillik hisobda 0,7–0,8 % ga teng.


Braziliya – yuqori urbanizatsiyalashgan davlat. Shahar aholisining ulushi 85 % dan yuqori. Braziliyada jahon miqyosida yirikligi bilan ajralib turadigan ikkita shahar – San-Paulu va Rio-de-Janeyro joylashgan (97-rasm).

Braziliyaliklarning irqiy tarkibida yevropaliklar va mulatlar koʻpchilikni tashkil qiladi. Davlat tili va kundalik hayotda eng koʻp ishlatiladigan til – portugal tili. Aholining diniy tarkibida katoliklar yetakchilik qiladi.

Mamlakatning Atlantika okeaniga tutash janubi-sharqiy qismi jahondagi aholi eng zich joylashgan hududlardan biri boʻlsa, Amazoniya oʻrmonlarida, aksincha, aholi juda siyrak joylashgan.

Iqtisodiyoti. Braziliya ulkan iqtisodiy salohiyati va tez oʻsib borayotgan ishlab chiqarish bilan ajralib turuvchi mamlakat. YIM hajmi boʻyicha Braziliya jahonda 7-oʻrin egallaydi (2018-y.).

Braziliya sanoati soʻnggi yillarda barqaror ravishda oʻsib bormoqda. Sanoatining eng muhim tarmoqlaridan biri metallurgiya hisoblanadi. Jahondagi eng yirik temir rudasi konlaridan hisoblanadigan Minas-Jerays va Karajas katta iqtisodiy ahamiyatga ega.



96-rasm. Amazoniya oʻrmonlari.

Mashinasozlik tarmoqlaridan Braziliyada avtomobilsozlik, samolyotsozlik, kemasozlik yaxshi rivojlangan. Mamlakatda mikroelektronika, radiotelemexanika, asbobsozlik kabi tarmoqlar katta yutuqlarga ega.

Braziliya elektr energiyasini ishlab chiqarish bo'yicha jahonning birinchi o'ntaligiga kiradi. Mamlakat elektr energetikasida GESlarning o'rni katta. Itaypu, Tukurai, Ksindo jahondagi eng yirik GESlar qatoriga kiradi.

Braziliya bioyoqilg'i ishlab chiqarish bo'yicha jahonda AQSHdan keyingi ikkinchi o'rinda turadi. Braziliyada bu mahsulot shakarqamishni qayta ishlash asosida ishlab chiqariladi. Avtotransport vositalarining asosiy qismi aynan bioyoqilg'i (etanol)dan foydalanib ishlaydi.

Qishloq xo'jaligida dehqonchilik va chorvachilik tovar ahamiyatiga egaligi bilan ajralib turadi. Dehqonchilikda donli ekinlar, kofe, shakarqamish, paxta, soya, tamaki, banan yetishtirish muhim ahamiyatga ega. Braziliya shakar, kofe, soya va tamakining eksporti bo'yicha jahonda birinchi o'rinda turadi. Chorvachilikda go'sht qoramolchiligi va parrandachilik yuqori darajada rivojlangan. Braziliya go'sht ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha jahondagi yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi.



97-rasm. San-Paulu shahri.



1. Braziliyaning iqlimi mamlakatning tabiiy resurs salohiyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
2. Braziliyaning qaysi qismlarida aholi eng zich va eng siyrak joylashgan?
3. Braziliya elektr energetikasiga qanday xususiyat xos?
4. Mamlakat sanoati va qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi va unga ta'sir ko'rsatgan omillarni tavsiflang.

60-§. Umumlashtiruvchi takrorlash

O'quv yili davomida o'tilgan mavzularning tayanch mazmunini mustahkamlash va umumlashtirish yuzasidan suhbat va savol-javob o'tkaziladi.

Jahon mamlakatlari haqida ma'lumot (2018)

| № | Davlat | Hududi, ming km ² | Aholisi, mln. kishi | Boshqaruv shakli | Poytaxti |
|----------------|------------------------|---------------------------------|------------------------|---------------------|------------------|
| Yevropa | | | | | |
| 1 | Avstriya | 83,2 | 8,8 | Respublika | Vena |
| 2 | Albaniya | 28,7 | 2,9 | Respublika | Tirana |
| 3 | Andorra | 0,45 | 0,08 | Monarxiya | Andorra-la-Velya |
| 4 | Belarus | 207,6 | 9,5 | Respublika | Minsk |
| 5 | Belgiya | 30,5 | 11,4 | Monarxiya | Bryussel |
| 6 | Bolgariya | 111 | 7 | Respublika | Sofiya |
| 7 | Bosniya va Gersegovina | 51,1 | 3,5 | Respublika | Sarayevo |
| 8 | Buyuk Britaniya | 244,5 | 66,4 | Monarxiya | London |
| 9 | Daniya | 43 | 5,8 | Monarxiya | Kopengagen |
| 10 | Estoniya | 45,1 | 1,3 | Respublika | Tallin |
| 11 | Finlandiya | 338 | 5,5 | Respublika | Xelsinki |
| 12 | Fransiya | 551,6 | 65,1 | Respublika | Parij |
| 13 | Germaniya | 357,4 | 82,8 | Respublika | Berlin |
| 14 | Gretsiya | 132 | 10,6 | Respublika | Afina |
| 15 | Irlandiya | 70,3 | 4,9 | Respublika | Dublin |
| 16 | Islandiya | 103 | 0,4 | Respublika | Reykjavik |
| 17 | Ispaniya | 504,7 | 46,7 | Monarxiya | Madrid |
| 18 | Italiya | 301,3 | 60,6 | Respublika | Rim |
| 19 | Latviya | 64,6 | 1,9 | Respublika | Riga |
| 20 | Litva | 65,3 | 2,8 | Respublika | Vilnyus |
| 21 | Lixtenshteyn | 0,16 | 0,04 | Monarxiya | Vaduts |
| 22 | Lyuksemburg | 2,6 | 0,6 | Monarxiya | Lyuksemburg |
| 23 | Malta | 0,32 | 0,5 | Respublika | La-Valetta |
| 24 | Moldova | 33,8 | 3,5 | Respublika | Kishinyov |
| 25 | Monako | 0,002 | 0,04 | Monarxiya | Monako |

| | | | | | |
|--------------|-----------------------------|--------|-------|------------|---------------------|
| 26 | Niderlandiya | 41,2 | 17,2 | Monarxiya | Amsterdam |
| 27 | Norvegiya | 324,2 | 5,3 | Monarxiya | Oslo |
| 28 | Polsha | 312,7 | 38,4 | Respublika | Varshava |
| 29 | Portugaliya | 92,3 | 10,3 | Respublika | Lissabon |
| 30 | Rossiya | 17075 | 147,3 | Respublika | Moskva |
| 31 | Ruminiya | 238,4 | 19,5 | Respublika | Buxarest |
| 32 | San-Marino | 0,06 | 0,03 | Respublika | San-Marino |
| 33 | Serbiya | 88,3 | 7 | Respublika | Belgrad |
| 34 | Slovakiya | 49 | 5,4 | Respublika | Bratislava |
| 35 | Sloveniya | 20,3 | 2,1 | Respublika | Lyublyana |
| 36 | Ukraina | 603,7 | 42,3 | Respublika | Kiyev |
| 37 | Vatikan | 0,0004 | 0,001 | Monarxiya | Vatikan |
| 38 | Vengriya | 93 | 9,8 | Respublika | Budapesht |
| 39 | Xorvatiya | 56,6 | 4,1 | Respublika | Zagreb |
| 40 | Shimoliy Makedoniya | 25,7 | 2,1 | Respublika | Skopye |
| 41 | Shvetsiya | 450 | 10,2 | Monarxiya | Stokgolm |
| 42 | Shveysariya | 41,3 | 8,5 | Respublika | Bern |
| 43 | Chernogoriya | 13,8 | 0,6 | Respublika | Podgoritsa |
| 44 | Chexiya | 78,9 | 10,6 | Respublika | Praga |
| Osiyo | | | | | |
| 45 | Afg'oniston | 652,8 | 36,5 | Respublika | Qobul |
| 46 | Armaniston | 29,7 | 3 | Respublika | Yerevan |
| 47 | Bahrayn | 0,7 | 1,5 | Monarxiya | Manama |
| 48 | Bangladesh | 144 | 166,4 | Respublika | Dakka |
| 49 | Birlashgan Arab Amirliklari | 83,6 | 9,5 | Monarxiya | Abu-Dabi |
| 50 | Bruney | 5,7 | 0,4 | Monarxiya | Bandar-Seri-Begavan |
| 51 | Butan | 38,4 | 0,8 | Monarxiya | Tximpxu |
| 52 | Eron | 1648 | 81,6 | Respublika | Tehron |
| 53 | Filippin | 299,7 | 107 | Respublika | Manila |
| 54 | Gruziya | 69,7 | 3,9 | Respublika | Tbilisi |
| 55 | Hindiston | 3287,2 | 1371 | Respublika | Dehli |

| | | | | | |
|----|-------------------------------------|--------|-------|------------|--------------|
| 56 | Indoneziya | 1919,4 | 265 | Respublika | Jakarta |
| 57 | Iordaniya | 98,3 | 10,2 | Monarxiya | Ummon |
| 58 | Iroq | 435,1 | 40,2 | Respublika | Bag‘dod |
| 59 | Isroil | 22 | 8,5 | Respublika | Tel-Aviv |
| 60 | Kambodja | 181 | 16 | Monarxiya | Pnompen |
| 61 | Kipr | 9,3 | 1,2 | Respublika | Nikosiya |
| 62 | Koreya Respublikasi | 99,4 | 51,8 | Respublika | Seul |
| 63 | Koreya Xalq Demokratik Respublikasi | 120,5 | 25,6 | Respublika | Pxenyan |
| 64 | Kuvayt | 17,8 | 4,2 | Monarxiya | Al-Kuvayt |
| 65 | Laos | 236,8 | 7 | Respublika | Vyentyan |
| 66 | Livan | 10,8 | 6,1 | Respublika | Bayrut |
| 67 | Malayziya | 329,7 | 32,5 | Monarxiya | Kuala-Lumpur |
| 68 | Maldiv Respublikasi | 0,3 | 0,4 | Respublika | Male |
| 69 | Mongoliya | 1566,6 | 3,2 | Respublika | Ulan-Bator |
| 70 | Myanma | 678,5 | 53,9 | Respublika | Neypido |
| 71 | Nepal | 140,8 | 29,7 | Respublika | Katmandu |
| 72 | Ozarbayjon | 86,6 | 9,9 | Respublika | Boku |
| 73 | Pokiston | 803,9 | 200,6 | Respublika | Islomobod |
| 74 | Qatar | 11,4 | 2,7 | Monarxiya | Doxa |
| 75 | Qirg‘iziston | 199,9 | 6,2 | Respublika | Bishkek |
| 76 | Qozog‘iston | 2724,9 | 18,4 | Respublika | Nur-Sulton |
| 77 | Saudiya Arabistoni | 2150 | 33,4 | Monarxiya | Ar-Riyod |
| 78 | Singapur | 0,7 | 5,8 | Respublika | Singapur |
| 79 | Suriya | 185,2 | 18,3 | Respublika | Damashq |
| 80 | Tailand | 514 | 66,2 | Monarxiya | Bangkok |
| 81 | Tojikiston | 142 | 9,1 | Respublika | Dushanbe |
| 82 | Turkiya | 780,6 | 81,3 | Respublika | Anqara |
| 83 | Turkmaniston | 491,2 | 5,9 | Respublika | Ashxobod |
| 84 | Ummon | 309,5 | 4,7 | Monarxiya | Maskat |

| | | | | | |
|---------------|-------------------------------------|--------|-------|------------|-------------|
| 85 | Vyetnam | 329,5 | 94,7 | Respublika | Xanoy |
| 86 | Xitoy | 9599 | 1394 | Respublika | Pekin |
| 87 | Yaman | 528 | 28,9 | Respublika | Sana |
| 88 | Yaponiya | 377,9 | 126,5 | Monarxiya | Tokio |
| 89 | O'zbekiston | 448,9 | 32,9 | Respublika | Toshkent |
| 90 | Sharqiy Timor | 14,8 | 1,2 | Respublika | Dili |
| 91 | Shri-Lanka | 65,6 | 21,7 | Respublika | Kolombo |
| Afrika | | | | | |
| 92 | Angola | 1246,7 | 30,4 | Respublika | Luanda |
| 93 | Benin | 112,6 | 11,5 | Respublika | Porto-Novo |
| 94 | Botsvana | 581,7 | 2,2 | Respublika | Gaborone |
| 95 | Burkina-Faso | 274,2 | 20,3 | Respublika | Uagadugu |
| 96 | Burundi | 27,8 | 11,8 | Respublika | Bujumbura |
| 97 | Efiopiya | 1127,1 | 107,5 | Respublika | Addis-Abeba |
| 98 | Ekvatorial Gvineya | 28 | 1,3 | Respublika | Malabo |
| 99 | Eritreya | 121,3 | 6 | Respublika | Asmera |
| 100 | Gabon | 267,6 | 2,1 | Respublika | Librevil |
| 101 | Gambiya | 11,3 | 2,2 | Respublika | Banjul |
| 102 | Gana | 238,5 | 29,5 | Respublika | Akkra |
| 103 | Gvineya | 245,8 | 11,9 | Respublika | Konakri |
| 104 | Gvineya-Bisau | 36,1 | 1,9 | Respublika | Bisau |
| 105 | Jazoir | 2381,7 | 42,7 | Respublika | Jazoir |
| 106 | Janubiy Afrika Respublikasi | 1219,9 | 57,7 | Respublika | Pretoriya |
| 107 | Janubiy Sudan | 619,7 | 13 | Respublika | Jubba |
| 108 | Jibuti | 23,2 | 1 | Respublika | Jibuti |
| 109 | Kabo-Verde | 4 | 0,6 | Respublika | Praya |
| 110 | Kamerun | 475,4 | 25,6 | Respublika | Yaunde |
| 111 | Keniya | 582,6 | 51 | Respublika | Nayrobi |
| 112 | Komor orollari | 2,2 | 0,8 | Respublika | Moroni |
| 113 | Kongo | 342 | 5,4 | Respublika | Brazzavil |
| 114 | Kongo Demokratik Respublikasi | 2345,4 | 84,3 | Respublika | Kinshasa |

| | | | | | |
|-----|------------------------------|--------|-------|------------|--------------|
| 115 | Kot-d'Ivuar | 322,4 | 24,9 | Respublika | Yamasukro |
| 116 | Lesoto | 30,3 | 2,3 | Monarxiya | Maseru |
| 117 | Liberiya | 111,3 | 4,9 | Respublika | Monroviya |
| 118 | Liviya | 1759,5 | 6,5 | Respublika | Tripoli |
| 119 | Madagaskar | 587 | 26,3 | Respublika | Antananarivu |
| 120 | Malavi | 118,4 | 19,1 | Respublika | Lilongve |
| 121 | Mali | 1240 | 19,4 | Respublika | Bamako |
| 122 | Markaziy Afrika Respublikasi | 622,9 | 4,7 | Respublika | Bangi |
| 123 | Marokash | 446,5 | 35,2 | Monarxiya | Rabot |
| 124 | Mavrikiy | 2 | 1,3 | Respublika | Port-Lui |
| 125 | Mavritaniya | 1030,7 | 4,5 | Respublika | Nuakshot |
| 126 | Misr | 1001,4 | 97 | Respublika | Qohira |
| 127 | Mozambik | 801,6 | 30,5 | Respublika | Maputu |
| 128 | Namibiya | 825,4 | 2,5 | Respublika | Vindxuk |
| 129 | Niger | 1267 | 22,2 | Respublika | Niamey |
| 130 | Nigeriya | 923,7 | 195,9 | Respublika | Abuja |
| 131 | Ruanda | 26,3 | 12,6 | Respublika | Kigali |
| 132 | San-Tome va Prinsipi | 1 | 0,2 | Respublika | San-Tome |
| 133 | Senegal | 196,2 | 16,3 | Respublika | Dakar |
| 134 | Seyshel orollari | 0,45 | 0,1 | Respublika | Viktoriya |
| 135 | Somali | 637,6 | 15,2 | Respublika | Mogadisho |
| 136 | Sudan | 1886 | 41,7 | Respublika | Xartum |
| 137 | Svazilend (Esvatini) | 17,3 | 1,4 | Monarxiya | Mbabane |
| 138 | Syerra-Leone | 71,7 | 7,7 | Respublika | Fritaun |
| 139 | Tanzaniya | 948 | 59,1 | Respublika | Dodoma |
| 140 | Togo | 56,7 | 8 | Respublika | Lome |
| 141 | Tunis | 163,6 | 11,6 | Respublika | Tunis |
| 142 | Uganda | 236 | 44,1 | Respublika | Kampala |
| 143 | Zambiya | 752,6 | 17,7 | Respublika | Lusaka |
| 144 | Zimbabve | 390,5 | 16,6 | Respublika | Xarare |

| | | | | | |
|----------------|---------------------------|--------|-------|------------|---------------|
| 145 | Chad | 1284 | 15,4 | Respublika | Njamena |
| Amerika | | | | | |
| 146 | Amerika Qo'shma Shtatlari | 9519,4 | 328 | Respublika | Vashington |
| 147 | Antigua va Barbuda | 0,44 | 0,1 | Monarxiya | Sent-Jons |
| 148 | Argentina | 2780,4 | 44,5 | Respublika | Buenos-Ayres |
| 149 | Bagam orollari | 13,9 | 0,4 | Monarxiya | Nassau |
| 150 | Barbados | 0,43 | 0,3 | Monarxiya | Brijaun |
| 151 | Beliz | 22,9 | 0,4 | Monarxiya | Belmopan |
| 152 | Boliviya | 1098,5 | 11,3 | Respublika | La-Pas |
| 153 | Braziliya | 8515,7 | 209,4 | Respublika | Brazilia |
| 154 | Dominika | 0,75 | 0,07 | Respublika | Rozo |
| 155 | Dominikan Respublikasi | 48,7 | 10,8 | Respublika | Santo-Domingo |
| 156 | Ekvador | 283,5 | 17 | Respublika | Kito |
| 157 | Gaiti | 27,7 | 10,8 | Respublika | Port-o-Prens |
| 158 | Gayana | 214,9 | 0,8 | Respublika | Jorjtaun |
| 159 | Gonduras | 112,1 | 9 | Respublika | Tegusigalpa |
| 160 | Grenada | 0,34 | 0,1 | Monarxiya | Sent-Jorjes |
| 161 | Gvatemala | 108,9 | 17,2 | Respublika | Gvatemala |
| 162 | Kanada | 9976 | 37,2 | Monarxiya | Ottava |
| 163 | Kolumbiya | 1138,9 | 49,8 | Respublika | Bogota |
| 164 | Kosta-Rika | 51,1 | 5 | Respublika | San-Xose |
| 165 | Kuba | 110,8 | 11,1 | Respublika | Gavana |
| 166 | Meksika | 1972,5 | 130,8 | Respublika | Mexiko |
| 167 | Nikaragua | 129,5 | 6,3 | Respublika | Managua |
| 168 | Panama | 78,2 | 4,2 | Respublika | Panama |
| 169 | Paragvay | 406,7 | 6,9 | Respublika | Asunson |
| 170 | Peru | 1285,2 | 32,2 | Respublika | Lima |
| 171 | Salvador | 21 | 6,5 | Respublika | San-Salvador |
| 172 | Sent-Kits va Nevis | 0,26 | 0,05 | Monarxiya | Baster |
| 173 | Sent-Lyusiya | 0,62 | 0,2 | Monarxiya | Kastri |

| | | | | | |
|-------------------------------|---------------------------------|--------|------|------------|---------------|
| 174 | Sent-Vinsent va Grenadina | 0,39 | 0,1 | Monarxiya | Kingstaun |
| 175 | Surinam | 163,8 | 0,6 | Respublika | Paramaribo |
| 176 | Trinidad va Tobago | 5,1 | 1,4 | Respublika | Port-of-Speyn |
| 177 | Urugvay | 176,2 | 3,5 | Respublika | Montevideo |
| 178 | Venesuela | 921 | 31,8 | Respublika | Karakas |
| 179 | Yamayka | 11 | 2,9 | Monarxiya | Kingston |
| 180 | Chili | 756,9 | 18,6 | Respublika | Santyago |
| Avstraliya va Okeaniya | | | | | |
| 181 | Avstraliya | 7692,0 | 24,5 | Monarxiya | Kanberra |
| 182 | Fiji | 18,3 | 0,9 | Respublika | Suva |
| 183 | Kiribati | 0,71 | 0,1 | Respublika | Bairiki |
| 184 | Marshall orollari | 0,18 | 0,06 | Respublika | Madjuro |
| 185 | Mikroneziya Federativ Shtatlari | 0,7 | 0,1 | Respublika | Palikir |
| 186 | Nauru | 0,02 | 0,01 | Respublika | Yaren |
| 187 | Palau | 0,45 | 0,02 | Respublika | Ngerulmud |
| 188 | Papua-Yangi Gvineya | 461,7 | 8,5 | Monarxiya | Port-Morsbi |
| 189 | Samoa | 2,8 | 0,2 | Respublika | Apia |
| 190 | Solomon orollari | 29,8 | 0,7 | Monarxiya | Xoniara |
| 191 | Tonga | 0,74 | 0,1 | Monarxiya | Nukualofa |
| 192 | Tuvalu | 0,02 | 0,01 | Monarxiya | Funafuti |
| 193 | Vanuatu | 12,2 | 0,3 | Respublika | Port-Vila |
| 194 | Yangi Zelandiya | 268,6 | 4,9 | Monarxiya | Vellington |

Izoh: Jahon mamlakatlari aholisining soni 01.07.2018-yil holatiga ko'ra BMT ma'lumotlari bo'yicha berilgan. Jadvalga faqat 01.01.2019-yil holatiga ko'ra mustaqilligi BMT tomonidan rasman tan olingan davlatlar haqidagi ma'lumotlar kiritilgan.

Manba: Population Reference Bureau. 2018 World Population Data Sheet.

MUNDARIJA

| | |
|---|----|
| KIRISH..... | 3 |
| I BO‘LIM. JAHONNING UMUMIY TAVSIFI | 4 |
| 1-BOB. JAHONNING SIYOSIY XARITASI | 4 |
| 1-§. Jahonning siyosiy xaritasi..... | 4 |
| 2-§. Jahon mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi bo‘yicha tasnifi.. | 7 |
| 3-§. Mamlakatlarning boshqaruv shakli va davlat tuzilishi..... | 9 |
| 2-BOB. JAHON TABIIY RESURSLARI | 12 |
| 4-§. Dunyoning tabiiy resurslari..... | 12 |
| 5-§. Mineral resurslar geografiyasi..... | 14 |
| 6-§. Tugamaydigan va tiklanadigan tabiiy resurslar geografiyasi..... | 17 |
| 7-§. Zamonaviy ekologik muammolar..... | 20 |
| 3-BOB. JAHON AHOLISI | 24 |
| 8-§. Jahon aholisining soni, o‘shisi va joylashuvi..... | 24 |
| 9-§. Jahon aholisining jinsiy, yosh, irqiy tarkibi..... | 28 |
| 10-§. Dunyo aholisining etnik va diniy tarkibi..... | 32 |
| 11-§. Jahon mamlakatlarning urbanizatsiyasi..... | 35 |
| 12-§. Amaliy mashg‘ulot | 39 |
| 4-BOB. JAHON XO‘JALIGI | 40 |
| 13-§. Jahon xo‘jaligi va xalqaro mehnat taqsimoti | 40 |
| 14-§. Jahon iqtisodiyoti markazlari va xalqaro integratsiya jarayonlari | 42 |
| 15-§. Fan-texnika inqilobi va ishlab chiqarishning rivojlanishiga innovatsion texnologiyalarning ta’siri..... | 44 |
| 16-§. Jahon energetikasi geografiyasi..... | 46 |
| 17-§. Jahon metallurgiya va kimyo sanoati geografiyasi | 50 |
| 18-§. Jahon mashinasozlik va yengil sanoati geografiyasi..... | 53 |
| 19-§. Jahon dehqonchiligi geografiyasi..... | 55 |
| 20-§. Jahon chorvachiligi va baliqchiligi geografiyasi | 59 |
| 21-§. Jahon transporti geografiyasi | 61 |
| 22-§. Xalqaro iqtisodiy aloqalar geografiyasi..... | 64 |
| II BO‘LIM. JAHONNING REGIONAL TAVSIFI | 67 |
| 5-BOB. YEVROPA MAMLAKATLARI | 67 |
| 23-§. Yevropaning geografik o‘rni, chegaralari va siyosiy xaritasi | 67 |
| 24-§. Yevropaning tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi..... | 69 |
| 25-§. Yevropa mamlakatlarning iqtisodiyoti..... | 72 |
| 26-§. Germaniya Federativ Respublikasi..... | 74 |
| 27-§. Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi..... | 77 |
| 28-§. Fransiya Respublikasi..... | 80 |

| | |
|---|------------|
| 29-§. Italiya Respublikasi | 83 |
| 30-§. Rossiya Federatsiyasi | 86 |
| 31-§. Rossiya Federatsiyasi xo‘jaligi..... | 89 |
| 6-BOB. OSIYO MAMLAKATLARI | 92 |
| 32-§. Osiyo qit‘asining geografik o‘rni, chegaralari va siyosiy xaritasi..... | 92 |
| 33-§. Osiyo mamlakatlari tabiiy resurslari va aholisi | 94 |
| 34-§. Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanganligi..... | 96 |
| 35-§. Qozog‘iston Respublikasi | 99 |
| 36-§. Qirg‘iziston Respublikasi | 101 |
| 37-§. Turkmaniston Respublikasi..... | 104 |
| 38-§. Tojikiston Respublikasi | 106 |
| 39-§. Amaliy mashg‘ulot (Markaziy Osiyo davlatlariga qiyosiy geografik tavsif)..... | 109 |
| 40-§. Turkiya Respublikasi | 110 |
| 41-§. Eron, Afg‘oniston, Pokiston Islom Respublikalari | 113 |
| 42-§. Xitoy Xalq Respublikasi | 118 |
| 43-§. Xitoy iqtisodiyoti va iqtisodiy rayonlari | 120 |
| 44-§. Koreya Respublikasi..... | 123 |
| 45-§. Yaponiya | 126 |
| 46-§. Hindiston Respublikasi..... | 129 |
| 47-§. Fors qo‘ltig‘i arab davlatlari..... | 132 |
| 48-§. Indoneziya, Malayziya, Singapur davlatlari..... | 135 |
| 7-BOB. AFRIKA, AVSTRALIYA VA OKEANIYA, AMERIKA MAMLAKATLARI | 140 |
| 49-§. Afrikaning geografik o‘rni va siyosiy xaritasi | 140 |
| 50-§. Afrika mamlakatlarining aholisi va xo‘jaligi..... | 143 |
| 51-§. Janubiy Afrika Respublikasi..... | 146 |
| 52-§. Nigeriya Federativ Respublikasi | 148 |
| 53-§. Misr Arab Respublikasi..... | 150 |
| 54-§. Avstraliya Ittifoqi..... | 152 |
| 55-§. Amerikaning siyosiy xaritasi..... | 155 |
| 56-§. Amerika Qo‘shma Shtatlari..... | 156 |
| 57-§. Amerika Qo‘shma Shtatlari xo‘jaligi va iqtisodiy rayonlari..... | 159 |
| 58-§. Kanada | 161 |
| 59-§. Braziliya..... | 163 |
| 60-§. Umumlashtiruvchi takrorlash..... | 165 |
| ILOVA | 166 |

O'quv nashri

ABDUHAKIM QAYUMOV,
IRANQUL SAFAROV,
MUHABBAT TILLABOYEVA,
VIKTOR FEDORKO

GEOGRAFIYA
Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi

*Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
9-sinf o'quvchilari uchun darslik*

Qayta ishlangan va to'ldirilgan beshinchi nashri

Muharrir *Zuhriddin Qudratov*
Rassom-dizaynerlar: *Hasan Qutluqov,*
Umid Sulaymonov
Texnik muharrir *Lina Xijova*
Musahhah *Surayyo Saloxutdinova*
Kompyuterda sahifalovchi *Saodat Aziztoyeva*

Nashriyot litsenziyasi AI №158, 14.08.2009.
Bosishga 2019-yil 24-aprelda ruxsat etildi. Ofset qog'oz.
Bichimi 70×90^{1/16}. «Times New Roman» garniturasida. Kegl 11,10.
Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 12,87.
Nashr tabog'i 14,86. Adadi 494082 nusxa.
Buyurtma № 19-212.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20.
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.
e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz
www.iptd-uzbekistan.uz

Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

| T/r | O'quvchining ismi, familiyasi | O'quv yili | Darslikning olingandagi holati | Sinf rahbarining imzosi | Darslikning topshirilgan-dagi holati | Sinf rahbarining imzosi |
|-----|-------------------------------|------------|--------------------------------|-------------------------|--------------------------------------|-------------------------|
| 1 | | | | | | |
| 2 | | | | | | |
| 3 | | | | | | |
| 4 | | | | | | |
| 5 | | | | | | |
| 6 | | | | | | |

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

| | |
|------------|---|
| Yangi | Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati |
| Yaxshi | Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q. |
| Qoniqarli | Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan. |
| Qoniqarsiz | Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi. |

O'quv nashri

ABDUHAKIM QAYUMOV,
IRANQUL SAFAROV,
MUHABBAT TILLABOYEVA,
VIKTOR FEDORKO

GEOGRAFIYA
Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi

*Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
9- sinf o'quvchilari uchun darslik*

Qayta ishlangan va to'ldirilgan beshinchi nashri

Muharrir *Zuhriddin Qudratov*
Rassom-dizaynerlar: *Hasan Qutluqov,*
Umid Sulaymonov
Texnik muharrir *Lina Xijova*
Musahhah *Surayyo Saloxutdinova*
Kompyuterda sahifalovchi *Saodat Aziztoyeva*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.
Bosishga 2019-yil 24-aprelda ruxsat etildi. Ofset qog'ozi.
Bichimi 70×90^{1/16}. «Times New Roman» garniturasida. Kegl 11;10.
Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 12,87.
Nashr tabog'i 14,86. Adadi 59426 nusxa.
Buyurtma № 19-213.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20.
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.
e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz
www.iptd-uzbekistan.uz